

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

S. X. Nasimov

**EKSPERIMENTAL
PSIXOLOGIYADAN LABORATORIYA
MASHG‘ULOTLARI**

O‘quv qo‘llanma

Samarqand - 2026

UO‘K: 159.9

BBK: 88

N 28

Nasimov S.X. Eksperimental psixologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamDU. «Tahririy nashriyoti», 2026. - 228 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanma shaxsni eksperimental o‘rganish bosqichlari; laboratoriya jihozlari mashg‘ulotda qo‘llash talablari; psixologik laboratoriyadagi amaliy tadqiqot vazifalari; laboratoriya tadqiqotlarida individual farqlarni aniqlash; yangi metodlar yaratilishi; aqlni o‘rganish metodlari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar bilan psixologik qonuniyatlarni aniqlashga doir o‘tkazilgan amaliy eksperimentlar orqali, ularning psixik hodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalari amaliy jihatdan tahlil qiladi. Natijada psixologiya nazariyasi va amaliyotining birligi taminlanadi.

O‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchi va talabalariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

A.I. Saidov – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.

R.A. Abdurasulov – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2025-yil 27-noyabrdagi 4-son yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9875-

© **Nasimov S. 2026.**

© **SamDU «Tahririy nashriyoti», 2026.**

SO‘Z BOSHI

Ta’lim tizmida amalga oshiirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda shaxsning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini aniqlash, bilimlarni o‘zlashtirish, o‘qishga qiziqish, ijtimoiy muammolarga nisbatan kreativ yondashish hamda takomillashtirish masalalariga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, talabalarda ta’lim jarayoni sifatli o‘zlashtirishga bevosita bog‘liqligining psixologik jihatlarini ta’minlash hamda kognitiv jarayonlarni rivojlanishi muammosini tadqiq etishga yo‘naltirilgan masalalarga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining nutqida “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb ta’kidlagan edi[Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016].

Talabalarni ilmiy hodisalar va yondashuvlarni mustaqil qilish, muayyan ilmiy tushuncha ustida sinchkovlik bilan fikrlashga o‘rgatish lozim. Shuning uchun talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish sharti, ularni mavjud dolzarb ilmiy muammolar va ularning yechimiga qaratilgan amaliy va nazariy bilimlar, zamoniy ilmiy axborotlar va ularni hal etishning shart-sharoitlari bilan qurollantirishdan iboratdir. Buning uchun yangi ilmiy yondashuvlar bilan muntazam tanishtirib borish orqali talabalarda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni hosil qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko‘lamini bosqichma-bosqich kengaytirib borish talab etiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma maqsadi: talabalarda eksperimental psixologik bilimlarni shakllantirish, ularni eksperimental psixologik

bilimlar orqali psixologik hodisalarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning o'ziga xos psixik xususiyatlarni tahlil etish hamda psixofizik, psixofiziologik va sof psixologik qonuniyatlarni tahlil etishga o'rgatishdan iborat.

Talabalar eksperimental psixologiya fanining tarixi; eksperimental psixologiya fanining predmeti va vazifalari; amaliy psixologiya fanining asosiy vazifalari va mohiyati; laboratoriya tadqiqotlarining xususiyatlari; amaliy psixologiya tadqiqotlarining talablari; shaxsni eksperimental o'rganish bosqichlari; laboratoriya jihozlarini mashg'ulotda qo'llash talablari; psixologik laboratoriyadagi amaliy tadqiqot vazifalari; laboratoriya tadqiqotlarida individual farqlarni aniqlash; yangi metodlar yaratilishi; aqlni o'rganish metodlari haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarda shaxs, ijtimoiy-psixologik hodisalar haqidagi xususiy qarashlari shakillanadi. Talabalar shaxs psixologiyasiga oid qonuniyatlarni mustaqil o'rganadilar.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar bilan psixologik qonuniyatlarni aniqlashga doir o'tkazilgan amaliy eksperimentlar orqali, ularning psixik hodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalari amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Natijada psixologiya nazariyasi va amaliyotining birligi taminlanadi.

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun murakkab tuzilgan va foydalanish qiyin bo'lgan texnikaviy qurilma, asbob- anjomlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tajribalargina kiritildi shuningdek, eksperiment natijalarini miqdoriy jihatdan hisoblab chiqishda juda murakkab matematik formulalardan foydalanilmadi.

1-MODUL. EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYAGA KIRISH.

SHAXS PSIXOLOGIYASI

1. E. A. Klimovning differentsial-dagnostik so'rovnomasi.

Tadqiqot maqsadi: E.A.Klimovning differentsial-dagnostik so'rovnomasi yordamida kasbiy qiziqish va moyillikni o'rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Ushbu metodika yordamida sinaluvchiga faoliyatning u yoki bu turidan qaysi biri unga ko'proq ma'qul ko'rishligi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi. E.A. Klimov kasblarning beshta asosiy tipini ajratib (tabiat, texnika, odam, belgilar tizimi, badiiy obraz) subyektning mehnatdagi faolligi kasbiy, jumladan, kasbiy adaptasiya jarayonining samarali kechishiga olib keladi, bunda subyektning kasb muhiti qanday bo'lishidan qat'iy nazar, talab va imkoniyatlarni qo'yilishida ham namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.[25] Muallif tadqiqotlari natijasiga tayanib, insonning mehnat faoliyatiga moslashuvi quyidagi ikkita bosqichda amalga oshadi, deb hisoblaydi: Birlamchi moslashuv-me'yorlashuv davri yoki kutilgan dezadaptatsiya. Ikkilamchi moslashuv-yosh davrlariga xos tarzda moslashuv imkoniyatlarining pasayishi.[25]

Sinaluvchiga ko'rsatma: "Faraz qilaylik tegishli ta'limni olganingizdan so'ng siz har qanday ishni bajara oladigan bo'lasiz. Agar sizga taklif qilingan ikki imkoniyatdan faqat birini (ulardan biri yoki ikkalasining ham sizga yoqishi yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) tanlashingizga to'g'ri kelgudek bo'lsa, unda siz qaysi birini ma'qul ko'rgan bo'ladingiz?"

Berilgan javoblar varaqsida tegishli kataklar qayd etilgan. Siz tanlagan javob variantingizni tartib raqam va harfni doira ichiga olib qo'yish bilan bildiring. Imkon qadar tezroq ishlashga va javoblaringizda samimiy bo'lishga harakat qiling".

Javob varaqsi:

O - Tt	O -Ta	O - O	O - Bt	O - BO
1 a	1b	2 a	2 b	3 a

3 b	4 a	4 b	5 a	5 b
6 a		6 b		7 a
	7 b	8 a		8 b
	9 a		9 b	
10 a			10 b	
11 a	11 b	12 a	12 b	13 a
13 b	14 a	14 b	15 a	15 b
16 a		16 b		17 a
	17 b	18 a		18 b
	19 a		19 b	
20 a			20 b	


Savollar: Men ma'qul ko'raman

1a. Hayvonlarga qarash (ularni boqish, parvarish qilish)	yoki	1b. Mashina priborlariga xizmat ko'rsatish
2a. Bemor kishilarga yordam berish, ularni davolash	yoki	2b. Jadvallar, sxemalar, hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish.
3a. Kitob bezaklari, plakatlar, badiiy otkritkalar, gramplastinkalar sifatini kuzatib borish	yoki	3b. O'simliklar holatini, o'sishini kuzatish.
4a. Materiallarni (yog'och, gazlama, metall, plastmassa va h.k.) qayta ishlash	yoki	4b. Mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish, reklama qilish, sotish)
5a. Ilmiy-ommabop kitob, maqolalarni muhokama qilish	yoki	5b. Badiiy kitoblarni (yoki pesa, kontsertlarni muhokama qilish.
6a. Biron - bir zotli kichik hayvonni boqish, parvarish qilish	yoki	6b. O'rtoqlaringiz (yoki o'zingizdan kichik bolalarni) biron-bir faoliyat (mehnat, o'qish, sport)ni bajarish uchun shug'ullantirish.

7a. Rasm, tasvirlardan nusxalar ko'chirish (yoki musiqa asboblarini sozlash, tuzatish)	yoki	76. Biron-bir yuk tashuvchi (ko'taruvchi) vositalarni (kran, traktor, teplovoz va boshqa) boshqarish
8a. Odamlarga (ma'lumot byurolarida, sayohatlarda va boshqa yerlarda) ularga kerakli ma'lumotlarni berish, tushuntirish	yoki	86. Ko'rgazmalarni, peshtaxtalarni bezashda (yoki pesa, konsertlarni tayyorlashda) ishtirok etish.
9a. Buyumlar, narsalar (kiyim, texnika) ni, uy-joyni ta'mirlash, tuzatish	yoki	96. Jadvallar, tekstlar, rasmlardan xatolarini qidirib topish va tuzatish.
10a. Hayvonlarni da'volash	yoki	106. Hisob-kitob ishlarini bajarish.
11a. O'simliklarning yangi navlarini yaratish	yoki	11b. Sanoat mahsulotlari (mashinalar, kiyimlar, uy, oziq-ovqat mahsulotlari va h.) ning yangi turlarini loyihalashtirish, yaratish.
12a. Odamlar o'rtasidagi nizo, janjallarni hal qilish (ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish)	yoki	126. Chizmalar, sxemalar, jadvallarni o'rganish (tekshirish, aniqlash, tartibga keltirish)
13a. Badiiy havaskorlik to'garaklari ishlarini o'rganish, kuzatish	yoki	13b. Mikroblar hayotini o'rganish.
14a. Meditsina priborlari yoki apparatlarni ishlatish, ularga xizmat qilish	yoki	14b. Odamlarga yaralanganda, shikastlanganda, kuyganda tibbiy yordam ko'rsatish.
15a. Kuzatilayotgan voqealar yoki hodisalar, o'lchanayotgan ob'ektlar va boshqalar haqida	yoki	15b. Voqealar (kuzatilayotgan yoki ular haqida o'qigan)ni badiiy

aniq hisobotlar yozib borish		ifodalash.
16a. Kasalxonada laboratoriya analizlarini qilish	yoki	16b. Bemorlarni qabul qilish, ularni tekshirish, ular bilan suhbatlashish va ularni davolashga yo'llash.
17a. Xona devorlarini, narsalar sirtini bo'yash va bezash	yoki	17b. Binolarni ta'mirlash yoki mashina priborlarini yig'ish.
18a. Tengdoshlaringiz yoki kichik yoshdagi bolalarni (teatr, muzeylarga) madaniy sayohatlarini, ekskursiyalarini) tashkil etish	yoki	18b. Sahnada o'ynash, konsertlarda ishtirok etish.
19a. Chizmalar bo'yicha detallarni buyumlar (mashina, kiyimlar)ni tayyorlash, binolarni qurish.	yoki	19b. Chizmachilik bilan shug'ullanish, chizmalar, kartalardan nusxalar ko'chirish.
20. O'simliklar kasalliklari va bog'-o'rmon zararkunandalariga qarshi kurashish.	yoki	206. Klavishli mashinalarda (kompyuter, teletayp va boshqalar) da ishlash.

Natijalarini qayta ishlash. DDS savollari shunday tartibda guruhlanganki, ularga berilgan javoblar faoliyatning turli sohalarini farqlash imkonini beradi. Bu o'rinda kasb turlari shartli ravishda quyidagicha qisqartirib olindi:



1-rasm.

Tekshiriluvchilarga yuqorida ko'rsatilgan javob varaqasi tarqatilib, ular ko'rsatmada ta'kidlaganidek, o'z javobini doira ichiga olish bilan

belgilab bo‘lganlaridan so‘ng javob varaqalari yig‘ib olinib, ular tadqiqotchi tomonidan natijalarni qayta ishlashda sinaluvchilarning o‘zlaridan ham foydalanish mumkin. Bunda ularning o‘zlari o‘z javob varaqasidagi har bir ustun bo‘yicha belgilangan javoblar miqdorini hisoblab chiqadilar.

Qaysi ustun bo‘yicha belgilangan javoblar sonining ko‘p bo‘lishi sinaluvchining shu toifa kasblarga moyilligini bildiradi. Agar hamma ustunlar bo‘yicha javoblar miqdori bir xil bo‘lib chiqsa, qiziqishlar yoyilib ketganligini, u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishning shakllanmaganligini yoki yorqin ifodalangan ustunlikning yo‘qligini bildiradi. Bunday hollarda tadqiqotdan so‘ng sinaluvchi bilan bafurja suhbatlashish, unga qiziqishlarini aniqlab olishga yordam berish lozim.

Agar sinaluvchida u yoki bu kasbga moyillik yorqin ifodalangan bo‘lsa va u konkret bir kasbni tanlagan bo‘lsa, unda aynan shu kasbni tanlash motivi qanday ekanligini bilish zarurati ham yuzaga kelib qolishi mumkin. Bu o‘rinda psixolog «Kasb tanlash motivatsiyasini aniqlash» metodikasidan foydalanishi mumkin.[39]

“Odam-odam” yo‘nalishida tanlash mumkin bo‘lgan kasblar: sotuvchi, sartarosh, ofitsiant, yo‘lovchi tashuvchi vagonlar nazoratchisi, konduktor, hamshira, bolalar bog‘chasi tarbiyachisi, kasb ta‘limi ustasi, feldsher, o‘qituvchi, vrach, jurnalist, xuquqshunos, kutubxonachi.

“Odam-texnika” yo‘nalishida tanlash mumkin bo‘lgan kasblar: chilangan, montajchi, tele-radio vositalar sozlovchisi, tikuvchi-motoristka, texnik-texnolog, texnik-quruvchi, texnik-mexanik, texnik-elektrik, muhandis-texnolog, quruvchi-muhandis, muhandis-mexanik.

“Odam-belgilar tizimi” yo‘nalishida tanlash mumkin bo‘lgan kasblar: harf teruvchi, chizmach, kompyuter operatori, kotibamashinistka, iqtisodchi, rejalovchi, texnik muharrir, hisobchi, texnikdasturchi, muhandis-iqtisodchi, muhandis-matematik, dasturchi, konstruktor.

“Odam-tabiat” yo‘nalishida tanlash mumkin bo‘lgan kasblar: bog‘bon, sabzavotkor, chorvador, gulchi-bezakchi, arichilik, mirob, o‘rmonchi-texnik, zootexnik, veterinar, yer o‘lchovchi,

zoomuhandis, agronom, veterinariya vrachi, zoolog, agrotexnik, kimyogar.

“Odam-badiiy obraz” yo‘nalishida tanlash mumkin bo‘lgan kasblar: arxitektura detallarini yopishtiruvchi, bezakchi-pardozchi, musiqachi, sirk artisti, badiiy havaskorlik jamoalarinng boshlig‘i, rassom-konstruktor, dekorator, rejisser, teatrshunos, tanqidchi.

1. 2. Psixogeometrik test.


Tadqiqot maqsadi: Psixogeometrik test yordamida shaxsni o‘rganish, uning xususiyatlarini tahlil qilish

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Psixogeometriya – shaxsni o‘rganish uning xususiyatlarini tahlil qilishning qulay usulidir. A.Alekseev va L.A.Gromovalarning fikricha bu metodika:

1. Shaxs tipini tezkor aniqlaydi.
2. Shaxs xususiyatlari va hatti harakatining o‘ziga xosligini tushunarli, aniq izohlab beradi.
3. Tipik holatlarda shaxsning o‘zini tutishi bo‘yicha hatti-harakatlar tizimi qanday bo‘lishi haqida ma’lumot beradi. Psixogeometriya usul sifatida Amerikada shakllangan, uning muallifi rahbar xodimlarni ijtimoiy – psixologik tayyorlash bo‘yicha mutaxassis Syuzen Dilinger hisoblanadi. Bu metodikaning aniqlik darajasi 85% gacha tashkil etadi. (Sizga havola etilgan test milliy sharoitga moslashtirilgan).

S. Delingerning «Psixogeometriya» testi (bu metodika beshta shakl: uchburchak, kvadrat, zigzag, to‘g‘ri to‘rtburchak va aylana orasidan birini tanlash orqali amalga oshiriladi).



Ko‘rsatma: Qog‘ozga chizilgan 5-ta geometrik shakllarga qarang (kvadrat, uchburchak, doira, zigzak, to‘rtburchak). Mazkur shakllardan birini tanlang (faraz qiling bu shakl Siz!). O‘z shaklingizni his qilishga

harakat qiling. Agar bunga qiynalsangiz, sizni ko'proq qiziqtirgan shaklni tanlang va uning nomini birinchi yozing. Endi qolgan shakllarni yoqtirganingiz darajasiga asosan tartib bilan yozib chiqing.

Demak, ishning eng qiyin qismi tugadi. Sizning sub'ektiv tanlagan asosiy shaklingiz xarakter xususiyatlaringiz va hatti harakatlaringiz mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Boshqa shakllar esa doimiy sifatlaringiz to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiradi. Oxirgi shakl o'zaro munosabatlar siz uchun og'ir kechadigan kishilar tipiga tegishli. Birorta ham shakl sizga yoqmasligi, yoki to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Shunda sizning shaxs xususiyatlaringizni ikki, hatto uchta shakl guruhlari asosida izohlashga to'g'ri keladi.

Kvadrat

Kvadratlar eng avvalo o'zlarining mehnatsevarligi, sabr, toqat bilan boshlagan ishni oxiriga yetkazish xususiyatlari bilan ajralib turadilar. Sabr-bardoshlilik, chidam kvadratni o'z sohasining usta mutaxassisi bo'lib yetishishiga olib keladi. Yangi informatsiyaga (axborotga) bo'lgan extiyojning yuqoriligi ham bunga yordam beradi. Kvadratlar har xil ma'lumotlarni to'plab yuradilar, ularni tartibga solib, sistemalashtiradilar, shuning uchun ular zarur informatsiyani darhol topib berishlari mumkin.

Darhaqiqat kvadratlar o'z sohasiga tegishli ma'lumotlar manbai hisoblanadilar. Ularning yana bir kuchli tomonlari, fikriy tahlil hisoblanadi. Agar siz o'zingiz uchun kvadratni tanlagan bo'lsangiz, sizda chap yarim sharlar faolroq hisoblanadi, ya'ni sizda informatsiyani ketma-ket tartib bilan qayta ishlash izchil a-b-v-g va h.k. tarzda kechadi.

Kvadratlar natijani taxminan emas, aniq hisoblaydilar. Ular hodisa va voqealarga juda e'tiborli. Tartib, intizomni xush ko'radilar. Kvadratlar rejali, aniq maqsadli hayotni yoqtiradilar, voqealarning odatiy kechishidagi o'zgarishlarni yoqtirmaydilar. Ular doimo odamlar va atrofidagi narsalarni tashkillashtiradilar (tartibga soladilar). Bu xususiyatlar kvadratlarni yaxshi ish yurituvchi, ijrochi bo'lishlarini ta'minlaydi. Lekin afsuski ulardan yaxshi ish beruvchi, menedjer chiqishi qiyinroq. O'ta mayda-chuydalarga e'tibor, aniqlik kiritish uchun qo'shimcha ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, ularning tezkorligini

susaytiradi. O‘ta tartiblilik, qonun-qoidaga aniq rioya qilish ularda o‘ta kuchlidir. Qaror qabul qilishda ayniqsa, tavakkal ish tuta olmaydilar.

Kvadratlardagi sovuqqonlik, hissiyotga berilmaslik, aniqlilik har xil odamlar bilan aloqada bo‘lishini qiyinlashtiradi.

Uchburchak

Ular harakatchan, kuchli shaxslar. O‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yadilar va odatda ularga erishadilar. Eng asosiy narsani ilg‘ab olish ularning xarakterli belgilaridir.

Uchburchakning yetakchi sifati birinchi bo‘lishga intilishdir. Uchburchaklarda kvadratlar kabi faollik chap yarim sharlarga to‘g‘ri kelib, ular yaxshigina intellekt sohibidirlar. Vaziyatni tez va chuqur tahlil qilish va shu asnoda masalaning mazkur sharoitdagi eng to‘g‘ri yechimini topishga qodirdirlar. Shu sababli uchburchaklardan juda yaxshi rahbarlar, menedjerlar chiqadi. Ular o‘z ishlari va qo‘l ostidagilar mehnatini “yuqori lavozimdagi boshliq” e‘tiboriga qanday taqdim etishni bilishadi.

Uchburchaklar o‘zlarini doimo haq deb hisoblaydigan, o‘ziga ishongan odamlar. Doimo haq bo‘lishga kuchli ehtiyoj, boshqaruvga intilish hissi, masalani faqat o‘zi uchun emas, o‘zgalar uchun ham hal qilishga harakat qilish uchburchaklarni doimo boshqalar bilan bellashishga, kurashga da‘vat qiladi. Bunday shaxslar dunyoqarashida omad, g‘alaba, yutuq kabi tushunchalar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Ular ko‘pincha tavakkalchi, toqatsizdirlar, ayniqsa qaror qabul qilishda ikkilanadigan kishilarga toqatlari yo‘q. Uchburchaklar o‘z xatolarini tan olishni yoqtirmaydilar. Juda qiyinchilik bilan o‘z xatolariga iqror bo‘ladilar. Ko‘pincha ular o‘z so‘zlarida turib oladilar. E‘tirozni qabul qilmaydilar va o‘z bilganlaricha ish tutadilar. Shu qatorda ular asosiy maqsadlariga olib boradigan narsalarni, foydali axborotlarni tez singdirib oladilar.

Uchburchaklar shuxratparast, kar’erist, jamiyatda yuqori darajaga erishishga harakat qilishadi. Ishga kirishishdan oldin va qaror qabul qilishda uchburchaklar o‘z oldilariga quyidagicha savol qo‘yadilar: “Xo‘sh men bundan qanday manfaat ko‘raman?”. Ular foyda keltiradigan ishni yuz chaqirimdan sezishadi va uning uchun raqiblari

bilan ayovsiz kurashga tayyor bo'lishadi. Biroq ularning asosiy salbiy sifatleri kuchli egotsentrizm, o'ziga yo'nalganlikdir. Uchburchaklar hokimiyat cho'qqisiga intilish yo'lida har qanday vositadan foydalanishga tayyor, o'z maqsadlariga erishishda boshqalarning xohishlarini hisobga olmagan holda, ularning boshi ustidan yurib borishdan qaytmaydigan kishilar toifasidandir.

Uchburchak yetakchilik, raqobatga moyillik, maqsadga erishish yo'lida hech qanday xavf-xatardan qo'rqmaslik, o'ziga ishonch kabi xususiyatlar timsoli ekanligi inobatga olinsa, ushbu natija aynan tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarning qiziqqonligi, qat'iyatliligi, tavakkalchilikka moyilligi kabi shu davrga xos psixologik xususiyatlarni aks ettirayotganligini taxmin qilish mumkin.[26]

Uchburchak hamma-yu hammani o'z izmiga solishga harakat qiladi. Ularsiz hayot o'z keskinligini yo'qotgan bo'lardi.

Aylana

Aylana – bu mutanosiblikning falsafiy timsolidir. Kim bu shaklni tanlagan bo'lsa, u yaxshi shaxslararo munosabatga astoydil intiladi. Odamlar va ularning rohat-farog'ati aylana uchun oliy himmatdir.

Aylana boshqa shakllar ichida ko'proq odamlarga yaxshilik tilovchi ularni birlashtiruvchi shakldir. U jamoani, oilani mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Aylana-ajoyib notiq, e'tiborli tinglovchi. Atrofidagi odamlarga hamdardlik ularning xursandchiligi-yu tashvishiga sheriklik aylanaga xos, u sezgirlik bilan o'ksik ko'ngilga taskin berishga shoshiladi. Aylanalar odamlarni tez «bilib oladilar», aldamchi, xudbin kishilarni tezda payqab olish xususiyatiga egadirlar. Aylana-o'z jamoasi uchun qayg'uradi va o'z kasbdoshlari orasida hurmat-e'tiborga sazovor kishidir.

Ammo ular biznes sohasida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olmaydilar, ya'ni menenjer va rahbarlik sohasida bo'shroq hisoblanadilar. Chunki, birinchidan, aylanada shaxs yo'nalganligi odamlarga qaratilgan bo'lib, har bir kishining og'irini yengil qilishga urinadilar. Ular tinchlik va osoyishtalikni saqlashga urinadilar, hamda o'ta qat'iy qaror chiqarishdan qochadilar.

Aylana uchun murosasizlik og‘ir holat, odamlarning inoq, ahilligi va yaxshi munosabatda bo‘lishlari baxtdir. Shuning uchun kim bilandir tortishib qolsa yoki ziddiyatli vaziyatlarda birinchi bo‘lib aylana yon beradi va murosaga kirishadi.

Ikkinchidan, aylana “siyosiy o‘yinlar” da zaif, bunda unga qat’iylik yetishmaydi. Shuning uchun aylanadan qat’iyroq shaxslar (masalan uchburchak) ko‘pincha aylanani tazyiqqa oladilar. Aylana uchun hokimiyat kimning qo‘lida ekanligi ahamiyatli emas, unga hamma rozi, atrofida tinchlik bo‘lsa bas. Lekin bir narsada, ya’ni axloq va adolat masalasida, aylana qat’iylik va qattiqqo‘llikni namoyon etadi. O‘zining aylana timsolida ko‘radigan shaxslarda miyaning o‘ng yarim sharlari faol bo‘lib fikrlar obrazli, intuitiv, emotsional ifodalangan, integral kechadi.

Aylanalarda axborot o‘zlashtirish jarayoni uzuq-yuluq, ma’lumotlar zanjirining alohida qismlari tashlab ketilgan holda kechadi, ammo bu narsa ular mantiqdan yiroq kishilar degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Ular hayotiy muammolarni hal qilishda rasmiyatchilikdan qochishadi, xolos.

Aylanalar tafakkuri shaklining asosiy xususiyati – muammoning sub’ektiv jihatlari (hissiyot, baholash va qadriyat) ga asoslanishdir. Ular turli qarama-qarshi qarashlar orasida ham umumiylikni topishga intiladilar. Aylanalarni tug‘ma psixologlar deb aytsa bo‘ladi, biroq jiddiy, ulkan ishlarning boshida turishlari uchun ularda “to‘g‘ri chiziqli birodarlari” (uchburchak va kvadrat)da bo‘lgan tashkilotchilik qobiliyati yetishmaydi.

To‘g‘ri to‘rtburchak

Bu shaxsning davriy o‘tish shakli bo‘lib, hayotning ma’lum bir bo‘laklarida nisbatan mutloq hisoblangan to‘rt shaklda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bu odamlar o‘z hayotlarining hozirgi kechish tarzidan qoniqmaydilar va uning yaxshilanishi uchun izlanish va harakatda bo‘ladilar. To‘g‘ri, bu shaklni tanlash sabablari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo ularni birlashtirib turuvchi narsa bitta – insonning o‘zgarishlarga xayrixohligidir.

To'g'ri to'rtburchakning asosiy psixologik holati-muammoni tushunib yetishda noaniqlik, dovdirab qolish, chuvalashtirib yuborish, shuningdek, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarining ham ma'lum bir vaziyatlarda noaniqligi kuzatiladi.

To'g'ri to'rtburchak holatlari kunaro, xatto kun davomida o'zgarib turadi. Ularning o'z-o'zini baholashi deyarli doim past bo'lganligi uchun "yaxshi" bo'lishga intiladilar. Yangi ish uslublarini izlaydilar. Hayot tarzini yaxshilashga intiladilar. Agar to'g'ri to'rtburchakning hatti-harakatini diqqat bilan kuzatsak, u boshqa shakllar: "uchburchak", "aylana" va boshqalarning "kiyimlar"ini "kiyib" ko'radi. To'g'ri to'rtburchaklarning hatti-harakatlari kutilmaganda shiddatli, keskin, o'zgarib turishi atrofdagilarni sergak tortiradi va ular ongli ravishda bunday "o'zgaruvchan odam" bilan muloqotga kirishishdan qochishlari mumkin. Aslida esa ular uchun boshqalar bilan muloqotda bo'lish zaruratdir, o'zgaruvchanlikning yana bir qiyinchilik tomoni ham shunda.

To'g'ri to'rtburchaklardagi ijobiy fazilatlardan biri hayotiy qiziquvchanlik, faollik va jasoratdir. To'g'ri to'rtburchaklar ulargacha hech kim qilmagan ishlarni qilishga, hech kim o'ylab ko'rmagan savollarga javob berishga harakat qilishadi. Bu shaklni tanlagan kishilar mazkur hayotiy bosqichda yangi g'oyalar, qadriyatlar, turli qarash va hayot tarzlarini osongina qabul qilishadi. To'g'ri, ikkinchi tomondan qaraganda, bu narsa ularni haddan tashqari ishonuvchan, turli ta'sirlarga beriluvchan, soddaroq bo'lishlariga olib keladi. Shuning uchun ham boshqalardan ko'ra ularga ta'sir o'tkazish osonroq.

Zigzag

Bu shakl-ijodkorlik timsolidir. Zigzag-haqiqiy o'ng yarim sharning faolligi aks etgan noan'anaviy fikrlovchi shaxs. Unga obrazli fikrlash, oldindan his etish (intuitsiya), integrativ (mujassamiy) fikrlash xususiyati xosdir. Uning o'y-fikrlari bir zumda bir-biridan uzoq bo'lgan nuqtalarga ko'chishi mumkin, shuning uchun atrofdagilarga ularni tushunishlari qiyin kechadi.

Zigzaglarga ko'proq tafakkurning sintetik turi xosdir. Ularga bir-biridan mutloq farq qiladigan g'oyalarni birlashtirib, mujassamlashtirib, shu asosda butunlay yangi o'ziga xos g'oyalar yaratish yoqadi.

Aylanalardan farqli o'laroq zigzaglar kelishuvlar, konsensuslarni afzal ko'rmaydilar, ular o'z maqsadlariga yon bosishlar orqali emas, balki g'oyalar qarama-qarshiligini kuchaytirish va nizo o'z yechimini topishi mumkin bo'lgan yangi kontsepsiyalarni yaratish yo'li bilan erishadilar.

Tabiatan aqlli hisoblangan Zigzaglar g'oyat tili zahar bo'lishlari ham mumkin. Ular dunyoni doimiy o'zgarishda ko'rishni xohlaydilar. Shu sababli ular uchun hamma bilan murosaga keluvchilar, o'zgarmaydigan qonun-qoida, ko'rsatma kabi narsalardan ko'ra zerikarliroq narsa yo'q.

Zigzaglar bir tizimga solingan vaziyatda ishlay olmaydilar. Qat'iy belgilab qo'yilgan majburiyatlar va doimiy ish tartiblari, aniq vertikal va gorizont al oloqalar ularning g'ashiga tegadi. Ularga rang-baranglik va faoliyatga undovchi yuqori darajadagi motivlar kerak. Shundagina Zigzaglar jonlanadi va o'zining bunyodkorlik, yangi g'oya va ish uslublarini yaratish vazifasiga kirishadi. Ular narsalarning hozirda va o'tmishda odatiy bo'lgan yaratilish yo'llaridan qoniqmaydilar. Bu shaxslar kelajakka intiluvchi va ularni xaqiqiy voqelikdan ko'ra oldinda qanday imkoniyatlar mavjudligi ko'proq qiziqtiradi. Boshqalarga narsalar olami qanchalar real bo'lsa, ular uchun g'oyalar dunyosi shunchalik haqiqiydir. Ular hayotining ko'proq qismini mana shu "g'oyalar dunyosi"da o'tkazadilar. Shu tufayli ularda ishga amaliy nuqtai nazardan yondoshmaslik, hayotdan uzoqlik va soddalik kabi xususiyatlar mavjuddir. Zigzaglar barcha shakllar ichida eng tez qo'zg'aluvchan, zavq-shavqqa to'liq kishilardir. O'zlarida yangi qiziqarli g'oyalar tug'ilganda ular butun dunyoga jar solishga tayyor bo'ladilar. Biroq ularga siyosatdonlik yetishmaydi, ular tiyiqsiz, sharttiki va bu ularning o'z g'oyalarini amalga oshirishlariga xalaqit beradi.

Sinaluvchilar tomonidan eng kam tilga olingan geometrik shakl zigzag bo'lib, bu shaklning ramziy ma'nosini aks ettiruvchi ijodkorlik, bunyodkorlik, kelajakka yo'nalgan aniq rejalar tuzish kabi ijobiy, konstruktiv fazilatlar hali bu davrda yetarli darajada shakllanib ulgurmaganligidan darak berayotgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.[26]

Bundan tashqari Zigzaglar aniq detallarni ishlab chiqishda no‘noqroq (g‘oyalarni amalga oshirishda esa bu narsa muhim) va ishning yakuniga yetkazishda ko‘pam tirishqoqlik ko‘rsatmaydilar, chunki o‘z yangiligini yo‘qotganidan so‘ng g‘oyaga bo‘lgan qiziqish ham yo‘qoladi.


Javob varaqasi

F.I.Sh -----

muassasa nomi-----

Bosqich----- Guruh_____ O‘tkazilgan sana_____

Sinaluvchiga ko‘rsatma: qog‘ozga chizilgan 5-ta geometrik shakllarga qarang (kvadrat, uchburchak, doira, zigzak, to‘rtburchak). Mazkur shakllardan birini tanlang (faraz qiling bu shakl Siz!). O‘z shaklingizni his qilishga harakat qiling. Agar bunga qiynalsangiz, sizni ko‘proq qiziqtirgan shaklni tanlang va uning nomini birinchi yozing. Endi qolgan shakllarni yoqtirganingiz darajasiga asosan tartib bilan yozib chiqing.



Inson xarakterini aniqlashning qiziqarli usullaridan biri geometrik shakllarni idrok etish xususiyatlari, ya‘ni sub‘ektning uchburchak, aylana kabi shakllarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishiga asoslanadi. Psixogeometrik test bo‘yicha olingan ma‘lumotlarning qiyosiy tahlilidan ma‘lum bo‘lishicha, tavakkalchilikka tayyorlik xususiyati shaxsning boshqa xarakter xususiyatlari bilan birgalikda yaxlit voqelik sifatida, ularga bog‘liq ravishda yosh ulg‘ayishi bilan shakllanib, sayqal topib boradi. O‘smirlik davridan o‘spirinlik davriga o‘tish jarayonida yuz beradigan psixologik, psixofiziologik va ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar bilan birgalikda tavakkal xulq-atvor xususiyatlari ham turli sifat va miqdor o‘zgarishlarini namoyon qiladi. Ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlar jarayonida olingan nazariy va empirik ma‘lumotlar

amaliyotchi psixologlar uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surishga imkon beradi: - o'smirlik davrida anglanmagan tavakkalchilikka tayyorlikning juda yuqori darajasi aniqlanganligi bois o'smirlarda deviant¹ va delinkvent xulq-atvor shakllarining vujudga kelishi mumkinligini inobatga olib, bunga qarshi izchillik bilan oqilona choratadbirlar ishlab chiqish lozimdir.[26]

Tavakkalchilikka moyillik hamda tavakkalchilikdan qochishning optimal darajasini shakllantirish, shuningdek, tavakkal xulqatvorga nisbatan ongli munosabatlarni hosil qilishga qaratilgan maxsus psixokonsultatsiya, psixokorreksiya va trening mashg'ulotlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish tavsiya qilinadi.

1. 3. Kasbiy yo'nalganlikni o'rganish metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Shaxsni kasb tanlashi, o'z kasbini yaxshi bilishga intilishi, insonni kasb tanlashiga sabab bo'luvchi motivlarni va o'zini yaxshi yashashi uchun intilishi kabi masalalarni o'rganish orqali namoyon bo'ladi. Insonni kasbni egallashi bilan bog'liq bo'lgan qonunlarni, bu qonunlarni ishlash mexanizmini, kasbga xos bo'lgan shaxsni tarbiyalash, uning o'zi tanlagan kasbga bo'lgan munosabati kabi masalalarni kasbiy yo'nalganlikni metodikasi yordamida o'rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil

qiladi va xursand bo‘ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko‘p naf keltiradi.

Q.P.Qabulovning “O‘quvchilarda kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik psixologik mexanizmlari” mavzusidagi tadqiqot ishida O‘quvchilardagi kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishida hayotiy sohadagi maqsadli qadriyatlar orasidan “moddiy ta‘minlanganligi”, “oliy nufuzga ega bo‘lish”, “yutuqlarga yo‘nalganlik” kabi qadriyatlarning ustuvor xarakterda ekanligi tufayli refleksiya va identifikatsiya kabi psixologik mexanizmlarining intensiv ta‘siri dalillangan.[31]

O‘quvchi shaxsida namoyon bo‘luvchi kasbiy-yo‘nalganlik motivatsiyasi «o‘z-o‘ziga», «odamlarga» va «faoliyatga yo‘nalganlik» omillari bilan uzviy tarzda shakllanuvchi individual xususiyatlarga bog‘liq ekanligi tufayli shaxs ijtimoiylashivi, taqlid qilish, ishontirish va ta‘sir lanish kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning integrativ ta‘sirida rivojlanishi asoslangan.

Albatta bu metodikalarga qo‘shimcha ravishda individual suhbatlar, anketa savollariga javoblar, maxsus kuzatuvlar natijalaridan ham foydalanish mumkin. Bu o‘quvchilarda kasbga munosabat motivatsiyasining shakllanishiga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash, tadqiq qilish va shu orqali ular bilan olib boriladigan ta‘lim tarbiya ishlarini tashkil etish ta‘lim samaradorligiga aniqrog‘i, o‘quvchi shaxsiga va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlashga ijobiy ta‘sir etadi.

Sinaluvchiga ko‘rsatma: Qiziqishlaringiz sohasi va yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan quyidagi savollarning har birini diqqat bilan o‘qing va mumkin qadar aniq javob berishga harakat qiling.

Agar savolda so‘ralgan mazmun, sizga, har tomonlama ma‘qul tushsa va juda yoqsa, unda javob varaqasining tegishli katakchasiga ikkita plyus (++) belgisini qo‘yasiz.

Agar savol mazmuni shunchaki yoqsa, unda bitta plyus (+), agar yoqish-yoqmasligini bilmasangiz yoki ikkilansangiz unda, nol (0) qo‘yasiz.

Agar savol mazmuni sizga ma'qul bo'lmasa, minus (—), agar juda yoqmasa, ya'ni bu faoliyatni yomon ko'rsangiz, unda ikkita minus (— —) belgisini qo'yasiz.

Vaqt chegaralanmagan, lekin diqqat bilan, savollarni tushirib qoldirmay, tez-tez o'ylab javob bering.

DIQQAT BOSHLADIK!

Quyidagi faoliyatlar bilan shug'ullanishni yoqtirasizmi? Havas qilasizmi? Istaysizmi?

1. O'simliklar va hayvonlarning hayoti bilan shug'ullanish, tanishish.
2. Geografiya darsligi, geografiyaga oid kitoblarni o'qish.
3. Geologik ekspeditsiyalar haqidagi badiiy yoki ilmiy-ommabop adabiyotlar o'qish.
4. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi darslari va shu sohaga oid darsliklar, kitoblarni o'qish.
5. Uy-ro'zg'or darslari yoki ro'zg'or ishlariga taalluqli vazifalar.
6. Fizikadagi yangi kashfiyotlar va buyuk fiziklarning hayoti, ijodi haqidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar o'qish.
7. Ximiya fanidagi yangi ixtirolar yoki buyuk ximiklarning hayoti va ijodi haqida o'qish.
8. Texnika sohasiga tegishli jurnallar o'qish (masalan, "Sirli olam", "Fan va turmush").
9. Ilmiy-ommabop jurnallardagi elektronika va radiotexnika bo'yicha yutuqlar va yangiliklar haqida maqolalar o'qish.
10. Har xil metallar va ularning xususiyatlari bilan tanishish.
11. Yog'ochlarning har xil turlari va ularni amalda qo'llash haqida bilish.
12. Qurilish sohasidagi yutuqlarni bilish.
13. Har xil turdagi transport (avtomobil, temiryo'l) haydovchilari haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish).
14. Uchuvchi va kosmonavtlar haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish.
15. Harbiy texnika bilan tanishish
16. Tarixiy voqealar va tarixiy arboblarning haqida kitoblar o'qish.

17. O‘zbek va jahon adabiyoti klassiklarini o‘qish.
18. Gazeta va jurnallarning maqola va ocherklarini muhokama qilish.
19. Sinfda va maktabda bo‘layotgan ishlar va voqealarni muhokama qilish.
20. Maktab hayoti (tarbiyachi, o‘qituvchi, sardorlarning faoliyati) haqida kitoblar o‘qish.
21. Militsiyaning faoliyati haqida filmlar ko‘rish, kitob o‘qish.
22. O‘qiyotgan, ishlayotgan yoki yashayotgan joyingizni chiroyli qilib bezash, narsalarni saranjomlash, tartibga keltirish.
23. “Qiziqarli matematika”, “boshqotirmalar” haqidagi maqola va kitoblar o‘qish.
24. Iqtisodiy geografiyani o‘rganish.
25. Chet tili mashg‘ulotlariga qatnashish.
26. Buyuk rassomlar hayoti, tasviriy san’atning rivojlanish tarixi bilan tanishish.
27. Mashhur sahna va kino artistlarining hayoti bilan tanishish, ular bilan uchrashish, fotosuratlarini yig‘ish.
28. Mashhur musiqachilarning hayoti va ijodi, musiqa san’ati nazariyasiga doir masalalar bilan tanishish va o‘rganish.
29. Sport va buyuk sportchilar haqida jurnal, gazeta, kitoblar o‘qish.
30. Biologiya, botanika, zoologiyani o‘rganish.
31. Geografik ixtirolar va ma’lumotlar orqali har xil mamlakatlar bilan tanishish.
33. Odamlar qanday qilib kasalliklar bilan kurashishlari, tibbiyot sohasidagi yutuqlar haqida o‘qish.
34. Yengil sanoat korxonalariga ekskursiyaga borish.
35. “Fiziklar hazillashadilar”, “Qiziqarli fizika” sohasida kitoblar o‘qish.
36. Tabiatdagi ximiyaviy hodisalarni kuzatish, ximiyadan tajribalar o‘tkazish, ximik reaksiyalarning borishini kuzatish.
37. Zamonaviy texnikaning eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishish (radio va teleko‘rsatuvlarni eshitib, ko‘rib, gazetalardagi maqolalarni o‘qib).

38. Radiotexnika to'garaklariga qatnashish yoki elektriklarning ishi bilan tanishish.

39. Metallarga ishlov berishda ishlatiladigan har xil o'lchov asboblari bilan tanishish. Ular bilan ishlash.

40. Yog'ochdan uy jihozlari tayyorlash jarayonini kuzatish, mebellarning yangi namunalarini o'rganish.

41. Quruvchilar bilan uchrashish, ularning faoliyatini kuzatish.

42. Yo'l harakati vositalari haqida ommabop adabiyotlarni o'qish.

43. Dengizchilar haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish.

44. Harbiy mazmundagi filmlarni ko'rish, kitob o'qish, katta to'qnashuvlar va janglar tarixi bilan tanishish.

45. O'zimizda va chet el miqyosida bo'layotgan, siyosiy voqealarni muhokama etish.

46. Adabiy-tanqidiy maqolalarni o'qish.

47. Radio va televizordan har hil yangiliklar va axborot ko'rsatuvlarini eshitish va ko'rish.

48. Tuman, shahar, respublikada bo'layotgan kundalik voqealardan xabardor bo'lish.

49. O'rtoqlaringizga darslarini bajarishda yordam berish va tushuntirish ishlarini olib borish (agar o'zlari qila olmasalar).

50. Do'stlarning, tanishlarning yoki adabiy qahramonlarning qilmishlarini to'g'ri va haqqoniy tahlil etish va baholash.

51. Oilaning oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga ahamiyat berish, sayohatlar chog'ida hamma uchun ovqatlanishni tashkil etish.

52. Matematika sohasidagi kashfiyotlar, buyuk matematiklar hayoti va faoliyati haqida ilmiy ommabop adabiyotlarni o'qish.

53. Xalq xo'jaligi rejalarining bajarilishi bilan qiziqish.

54. Chet tilida badiiy adabiyotlarni o'qish.

55. Redkollegiya a'zosi bo'lish, gazetalarni badiiy bezash bilan shug'ullanish.

56. Drama teatri va yosh tomoshabinlar teatriga borish.

57. Opera yoki simfonik musiqalarni eshitish.

58. Sport musobaqalarini tomosha qilish, sportga doir radio va teleko'rsatuvlarni eshitish, ko'rish.

59. Biologiya to'garagiga qatnashish.
60. Geografiya to'garagida shug'ullanish.
61. Yerdagi minerallarning geografik tarqalishi haqida tasvirlar, ma'lumotlar yig'ish va xaritalar tuzish.
62. Odam organizmi xislatlarini, kasallikning paydo bo'lish sabablari va da'volash usullarini o'rgatish.
63. Pazandalik to'garagiga qatnashish, uyda ovqat tayyorlash.
64. Fizikadan tajribalar o'tkazish.
65. Eritmalarni tayyorlash, reaktivlarning og'irligini o'lchash.
66. Hap xil mexanizm (soat, dazmol)larni yig'ish, tuzatish.
67. Aniq o'lchov asboblari (ostsillograf, ampermetr, voltmetr)ni ishlatish, ular yordamida har xil hisoblarni olib borish.
68. Metaldan har xil detallar va buyumlar yasash.
69. Yog'ochdan har xil qismlar va ashyolar yasash yoki yog'ochni badiiy bezash (o'ymakorlik, kuydirish, naqsh berish).
70. Har xil imoratlarning eskizlarini, qurilishlarning chizmalarini bajarish.
71. Yosh temiryo'lchilar yoki avtohavaskorlar to'garagiga qatnashish.
72. Parashyutchilar sektsiyasida, aviamodelchilar to'garagida ishtirok etish yoki aviaklub ishida qatnashish.
73. O'q-yoy otish to'gapagida shug'ullanish.
74. Har xil xalqlar va mamlakatlarning kelib chiqish tarixini o'rganish.
75. Adabiyot fanidan sinf va uy insholari yozish.
76. O'zga odamlarning harakatlari, xylqi va hayotini kuzatish.
77. Jamoat topshiriqlarini, biron bir ishni bajarish, tashkil etish uchun o'rtoqlarini uyushtirish, birlashtirish.
78. Kichik yoshdagi bolalarga qarash ularga kitob o'qib berish, shug'ullanish, har xil hikoyalar gapirib berish, yoki biron bir ishda ularga ko'maklashish.
79. Tengdoshlar va kichik bolalar orasida tartib va muntazam intizom o'rnatish.
80. Sotuvchi, oshpaz, ofitsiantlarning faoliyatini kuzatish.

81. Matematika to'garagida shug'ullanish.
82. Ishlab chiqarishning rivojlanish masalalarini o'rganish, ishlab chiqarish korxonalarida hisob-kitob va rejalash borasidagi yutuqlar haqida bilish.
83. Chet tilidagi lug'atlar bilan ishlash, yaxshi tanish bo'lmagan tilda o'ziga xos murakkab nutq xycyciyatlarini tahlil qilish.
84. Muzey va badiiy ko'rgazmalarga borish.
85. Tomoshabinlar oldida, sahnada badiiy faoliyat ko'rsatish.
86. Biron bir musiqiy asbobda o'ynash.
87. Sport o'yinlarini o'ynash.
88. O'simlik va hayvonlarning rivojlanishini kuzatib, yozib borish.
89. Mustaqil ravishda geografik xaritalarni tuzish, har xil geografik ma'lumotlarni to'plash.
90. Geologiya muzeylari uchun ko'rgazma materiallar, minerallar to'plami yig'ish.
91. Vrach, hamshira, dorishunoslarning faoliyati bilan tanishish.
92. Bichish va tikish to'garagiga qatnashish, o'zingiz va oila a'zolarangiz uchun liboslar tikish.
93. Fizika to'garagida shug'ullanish yoki fizika bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashish.
94. Ximiya to'garagida shug'ullanish yoki ximiya bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarga borish.
95. Texnika to'garaklaridan birida shug'ullanish (samolyot, dengiz kemalari va boshqa inshootlarning modelini yasash).
96. Elektr asboblari, apparatlari va hap xil elektr mashinalarining tuzilishi bilan tanishish, ishini kuzatish har xil radioukuna va o'lchov asboblari bilan shug'ullanish.
97. Mehnat darslarida metalga ishlov berish ustaxonasida shug'ullanish.
98. "Mohir qo'llar" yoki yog'ochga ishlov berish to'garagida shug'ullanish.
99. Qurilishda bo'lish, qurilish jarayoni va bezash ishlarini kuzatish.
100. Transport va yo'lovchilarning yo'l harakati qoidalarini bajarishlarini kuzatish.

101. Eshkak eshuvchi, yelkanli qayiqchi, akvalangchi (g'avvoslar) to'garaklarida va suvda cho'kayotganlarni qutqarish brigadasida qatnashish.

102. Harbiy (masalan, "shunqorlar") o'yinlarida ishtirok etish.

103. Tarix muzeylariga borish, madaniy obidalar va yodgorliklar bilan tanishish.

104. Adabiyot to'garaklarida shug'ullanish, adabiyotdan qo'shimcha mashg'ulotlarda ishtirok etish.

105. Shaxsiy kundalik tutish.

106. Xalqaro ahvol haqida sinfda axborot berish.

107. Tarbiyachilik (masalan, sardorlik) ishlarini bajarish.

108. Odamlarning xatti-harakatlari va odatda yashiradigan ba'zi bir xulqlarining sabablarini ochish, aniqlash.

109. Do'konda xaridorlarga kerakli buyumlarni tanlashda yordam berish.

110. Matematikadan qiyin masalalarni yechish.

111. Pullik kirim-chiqimlarning aniq hisob-kitobini olib borish.

112. Chet tili to'garaklarida shug'ullanish yoki chet tilidan qo'shimcha darslarga qatnashish.

113. Badiiy to'garaklarda shug'ullanish.

114. Badiiy havaskorlik ko'riklarida ishtirok etish.

115. Xorda ashula aytish yoki musiqa to'garaklarida qatnashish.

116. Sport seksiyalarining birida shug'ullanish.

117. Biologiya olimpiadalarida qatnashish yoki o'simliklar va hayvonlar ko'rgazmasini tayyorlash.

118. Geografik ekspeditsiyada qatnashish.

119. Geologik ekspeditsiyada qatnashish.

120. Kasallarning ahvolini kuzatish, g'amxo'rlik qilish, tegishli yordam berish, ahvollarini yengillashtirish choralari ko'rish.

121. Oshpazlik va qandolatchilik ko'rgazmalariga qatnashish yoki borish.

122. Fizika olimpiadasida qatnashish.

123. Ximiyadan qiyin masalalar yechish, olimpiadalarda qatnashish.

124. Texnik sxema va chizmalarni tahlil qilish, ularni mustaqil ravishda tuzish.

125. Murakkab radiosxemalarni tahlil qilish.

126. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyaga borish, uskunalar va dastgohlarning yangi turlari bilan tanishish, ularda ishlash yoki ta'mirlash ishlarini kuzatish.

127. O'z qo'li bilan yog'ochdan biror narsa yasash.

128. Qurilish ishlarida imkon darajada yordamlashish.

129. Avtomobil, trolleybuslarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarida baholi qudrat qatnashish.

130. Har qanday ob-havo sharoitida ham "tez yordam" samolyotida uchish yoki katta tezlik bilan uchuvchi samolyotlarni boshqarish.

131. Qat'iy o'rnatilgan tartib bo'yicha yashash, kun tartibiga qat'iy rioya qilish.

132. Tarix to'garagida shug'ullanish, tarixiy ma'lumotlarni to'plash, ma'ruzalar qilish.

133. Adabiyot manbaalari bilan ishlash, o'qiganlarim haqida taassurotlarimni kundalikka yozib borish.

134. Munozaralarda va kitobxonlar konferentsiyalarida qatnashish.

135. O'quvchilar jamoatchiligi yig'ilishi yoki majlislarini tayyorlash va o'tkazish.

136. Tarbiyasi yomon bolalarga ta'sir ko'rsatish, bolalar va o'smirlar tarbiyasi masalalari haqida kattalar bilan muhokama qilish.

137. Militsiya ishiga yordam berish, "militsiyaning yosh do'sti" to'garagiga a'zo bo'lish.

138. Doim har xil odamlar bilan muloqotda, aloqada bo'lish.

139. Matematika olimpiadalarida qatnashish.

140. Tovarlar va ular narxining kelib chiqishini bilish, oylik maosh, mehnatni tashkillashtirishni tushunishga harakat qilish.

141. Do'stlarim bilan chet tilida gaplashish.

142. Tasviriy san'at ko'rgazmalarida qatnashish.

143. Teatr to'garagiga borish.

144. Teatr ko'rik-tanlovlariga qatnashish.

145. Sport musobaqalarida qatnashish.

146. Bog'da yoki tomorqada o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni tarbiyalash va parvarish qilish.

147. Joylarni xaritaviy (topografik) ko'rinishda suratlarini chizish.

148. Berilgan dastur bo'yicha murakkab va jiddiy topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladigan qiyin va uzoq muddatli sayohatlarga borish.

149. Shifoxona, poliklinika yoki dorixonada ishlash.

150. Oziq ovqat yoki yengil sanoat korxonasida mutaxassis bo'lib ishlash (tikuvchi, bichuvchi, qandolatchi).

151. Fizikadan qiyin masalalar yechish.

152. Ximiyaviy ishlab chiqarish korxonasida ishlash.

153. Texnik ijodiyot ko'rgazmasida ishtirok etish.

154. Elektroenergetika yoki radioelektronika sohasida ishlash.

155. Dastgoh, (stanok)da ishlash, har xil detallar, buyumlar tayyorlash.

156. Chizmalar asosida modellar, yog'ochsozlik ishlarini bajarish.

157. Qurilish brigadasida ishlash.

158. Yo'lovchi yoki yuklarni tashish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish.

159. Bo'ronli ob-havoda katta daryo yoki ochiq dengizda ishlash.

160. Xarbiy injener yoki qo'mondon bo'lish.

161. Ona diyorning tarixiy obidalariga sayohat qilish.

162. Hikoyalar yozish, she'r va masal tuzish.

163. Devoriy gazeta yoki davriy matbuot uchun maqola yoki ocherklar yozish.

164. Mehnat shanbaligida brigadaga boshchilik qilish.

165. Kichik bolalar uchun o'yinlar, bayramlar tashkil etish.

166. Yuridik tashkilotlarda ishlash (sud, prokuratura, advokatura huquqiy maslahatxonalarida).

167. Odamlarga har xil katta va kichik xizmatlar ko'rsatish.

168. Har doim matematik bilimlar talab qiladigan ishlarni bajarish.

169. Xalq xo'jaligi korxonalarining iqtisodi, rejalashtirilishi va moliyaviy ta'minlanishi sohasida ishlash.

170. Chet tilidan olimpiada, tanlov va konferentsiyalarda qatnashish.

171. Tasviriyl san'at ko'rgazmalarida ishtirok etish.
172. Sahnada yoki kinoda o'ynash.
173. Musiqachi, musiqiy rejissyor yoki musiqa darsidan o'qituvchi bo'lish.
174. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki treneri bo'lish.

Javob varaqasi

Familiya_____

Ism_____Maktab_____Sinf_____

1	30	59	88	117	146			
2	31	60	89	118	147			
3	32	61	90	119	148			
4	33	62	91	120	149			
5	34	63	92	121	150			
6	35	64	93	122	151			
7	36	65	94	123	152			
8	37	66	95	124	153			
9	38	67	96	125	154			
10	39	68	97	126	155			
11	40	69	98	127	156			
12	41	70	99	128	157			
13	42	71	100	129	158			
14	43	72	101	130	159			
15	44	73	102	131	160			
16	45	74	103	132	161			
17	46	75	104	133	162			
18	47	76	105	134	163			
19	48	77	106	135	164			
20	49	78	107	136	165			
21	50	79	108	137	166			
22	51	80	109	138	167			
23	52	81	110	139	168			
24	53	82	111	140	169			
25	54	83	112	141	170			

26	55	84	113	142	171			
27	56	85	114	143	172			
28	57	86	115	144	173			
29	58	87	116	145	174			

Natijalarni qayta ishlash

Javob varaqasining o'ng qismida 29-satrning 6-ustunida jami 174 ta nomerlangan katakcha bo'lib, har bir satrdagi javoblar ma'lum bir mazmunni, ya'ni muayyan qiziqish sohasiga tegishli javoblarni o'zida jamlaydi. O'ng tomonga esa tadqiqotchining ishlanmalari yoziladi. Bu qismda 3 ustun katakchalar bo'lib, birinchi ustunning har bir katakchasiga tegishli satrlardagi qo'shuv (+) belgilari soni yozib chiqiladi. So'ng o'sha satrdagi barcha ayiruv (-) belgilarning soni sanab, ikkinchi ustunning tegishli katakchasiga yozib qo'yiladi. Javob varaqasidagi "0" belgilar inobatga olinmaydi. Shunday qilib, birinchi ustundagi barcha katakchalar qo'shuvlar soni bilan, ikkinchi ustuni esa har bir satrdagi ayiruvlar soni bilan to'ldiriladi.

O'z-o'zidan ma'lumki, qo'shuv belgilar soni qanchalik ko'p bo'lsa, o'sha satrga taaluqli bo'lgan qiziqish bolada ko'proq shakllangan bo'ladi va agar ayiruv belgilar soni ko'p bo'lsa, demak, tegishli soha bola uchun nafaqat ahamiyatsiz, balki keraksiz ekanligi e'tirof etiladi. Har bir satrda qo'shuvlar soni 0-12 oraliqda bo'lishi mumkin.

Har bir satrdagi jami qo'shuvlar va ayiruvlar sonining ayirmasini (algebraik yig'indisini) olib uchinchi ustunning tegishli katakchalariga yozib chiqsak, unda sinaluvchining har bir satrdagi qiziqishlar sohasining haqiqiy bahosini topgan bo'lamiz. Uchinchi ustundagi sonlar musbat ham, manfiy ham bo'lishi mumkin. Ko'rsatkichlar -12 dan +12 gacha oraliqda bo'lib, bolaning har bir sohaga bo'lgan munosabatini aniq ifodalashga qaratilgandir. Shubhasiz, musbat ko'rsatkichli qiziqishlar alohida ahamiyatga ega. Lekin manfiy ko'rsatkichli sohalar ham o'qituvchilar, ota-onalar uchun ma'lum bir mulohazalar qilishga asos bo'ladi.

Bundan tashqari birinchi ustundagi barcha 29 raqamli yig'indini olib, uni 29 ga bo'lsak, o'quvchining o'rtacha qiziquvchanlik darajasi kelib chiqadi.

- 1) 1, 2, 3—qiziquvchanlik darajasi o'rtadan past. Hech narsaga qiziqmaydi (korreksion guruhga jalb qilinishi kerak).
- 2) 4, 5, 6—aniq qiziqishlari bor. Kelajagini ongli belgilaydi.
- 3) 7, 8, 9—qiziqishlari tarqoq. Lekin o'zining qiziqqan sohasi ham bor. Ijtimoiy faol o'quvchi.
- 4) 10, 11, 12—qiziqishlari mavhum yoki chin dildan javob berilmagan; passiv, ijtimoiy yetilmagan bola (korreksion guruhda shug'ullanishi lozim).
- 5) 1 va 4-guruhdagi o'quvchilar korrektsiyaga muhtoj.

1. 4. Dembo-Rubinshteynning o'z-o'zini o'rganish metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Shaxs o'z-o'zini baholashini Dembo-Rubinshteynning o'z-o'zini anglash metodikasi yordamida o'rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

O'zini o'zi baholash - bu insonning o'zini o'rab olgan boshqalar bilan solishtirish natijasida shakllangan tushunchalar yig'indisidir. Bu tasavvurlar shaxsning "Men" tasvirini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'zini o'zi baholash o'z kuchlarini va imkoniyatlarini baholashni va o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi. Bu shaxsga o'z kuchlarini tashqi muhitning talablariga moslashtirish va o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yishga imkon beradi. Shunday qilib, o'zini o'zi baholash da'volar darajasining asosi bo'lib, ya'ni shaxs o'zini ushbu vazifalarni bajara olishiga ishonadigan darajani ifodalaydi. O'zini o'zi baholash harakatning har bir aktida mavjud bo'lganligi sababli, u bu harakatni boshqarishda muhim komponent hisoblanadi. Bu o'zini o'zi baholashni shaxsni shakllantirishda muhim omilga aylantiradi.

O'zini o'zi baholash va uning xususiyatlarini o'rganishga birinchi urinib ko'rgan amerikalik psixolog va faylasuf U. Djeys bo'lgan. Uning fikricha, o'zini o'zi baholash o'zidan qoniqish va qoniqmaslikni o'z ichiga oladi. U o'zidan qoniqishni mag'rurlik, mag'rurlik, kibr va

kekkayish, qoniqmaslikni esa kamtarinlik, ishonchsizlik, uyat, pushaymonlik, tushkunlik, o'zining sharmandaligini anglash deb ta'kidlagan. U o'zini o'zi baholashning regulyatorlik aspektiga e'tibor bergan, ya'ni uni shaxsning o'zini boshqarishining muhim komponenti deb bilgan. R. Berns esa o'zini o'zi baholashning hissiy aspektiga ko'proq e'tibor qaratgan. Uning fikricha, o'zini o'zi baholash "Men" konsepsiyasining tarkibiy qismi bo'lib, o'z "Men"iga nisbatan hissiy munosabat bilan bog'liq. Bu shaxsning o'zini sevishi, hurmat qilishi, qadrlashi va sodir bo'layotgan narsalarga ijobiy munosabatda bo'lishini ko'rsatadi. Mos ravishda, agar shaxsda past o'zini o'zi baholash mavjud bo'lsa, u o'zini qabul qilmaydi, inkor qiladi va o'ziga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladi. Shuning uchun o'zini o'zi baholash - shaxsning o'ziga nisbatan munosabatini rivojlantirishning ma'lum darajasidir. R. Berns o'zini o'zi baholash orqali shaxs o'ziga nisbatan ma'lum baholovchi munosabatni shakllantiradi, deb taxmin qiladi.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida olib borilishi mumkin. Tekshiriluvchiga quyidagi ko'rsatma beriladi:

1. "Shaxs xususiyatlarini ifodalovchi so'zlarni diqqat bilan o'qib chiqing, bu sifatlarni ijtimoiy ahamiyati, foydaliligi va yoqimlilikiga ko'ra 20 balldan 1 ballgacha baholab chiqing hamda javoblar varag'ining chap tomonidagi N ustuniga yozib qo'ying. Bunda 20 ball yeng ahamiyatli, yeng foydali va yeng yokimli sifatga, 1 ball yesa yeng yokimsiz, ahamiyatsiz va foydasiz sifatga beriladi. 19-2 ballar yesa ahamiyatlilik darajasiga ko'ra har bir sifatga qo'yib chiqiladi. Hech bir baho ikki marta qaytarilishi yoki biror sifat baholanmay qolishi mumkin yemas".

2. "Tavsiya yetilgan sifatlardan o'zingizga xos bo'lganini 20 ball, kamroq xos bo'lganini 19, umuman xos bo'lmaganini 1 ball tartibida baholab chiqing va javoblar varag'ining o'ng tomonidagi N ustuniga yozing".

1-Jadval

№	Sifatlar	N	d	d ²
	Itoatkorlik			

	Dadillik			
	Ta'sirlanuvchanlik			
	Qat'iyatlilik			
	Asabiylik			
	Chidamlilik			
	Qiziquvchanlik			
	Sustkashlik			
	Sovuqqonlik			
	Tashabbuskorlik			
	Ehtiyotkorlik			
	Injiqlik			
	O'zini tuta olmaslik			
	Qat'iyatsizlik			
	G'ayratlilik			
	Quvnoqlik			
	Qaysarlik			
	Beg'amlik			
	Tortinchoqlik			
	Shubhalanuvchanlik			
				Σd^2

Natijalar tahlili

1. Yuqori qatordagi sifatdan boshlab chap tomondagi N ustunidagi ballardan o'ng tomonidagi N ustunidagi ballarni ayirib, d ustuniga yoziladi.
2. d ustunidagi sonlarni kvadratga ko'tarib, d² ustuniga yoziladi.
3. d² ustunidagi sonlar yig'indisi hisoblanadi.
4. Quyidagi formula asosida o'z-o'zini baholash koeffitsienti aniqlanadi.

$$r=1 - 0,00075 \cdot \Sigma d^2$$

O'z-o'zini baholash koeffitsienti +1 dan -1 gacha bo'ladi. Natija +1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, o'z-o'zini baholash shunchalik yuqori bo'ladi. Natija -1 ga yaqin bo'lsa, o'z-o'zini baholash past darajada,

ya'ni shaxs o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi. Natija +0,5 atrofida bo'lsa, o'zining ijobiy sifatlarini baholash o'rtacha, -0,5 atrofida bo'lsa salbiy sifatlarini o'rtacha baholaydi.

1. 5. Shaxs xarakteri va temperamentini eksperimental o'rganish.

Tadqiqot maqsadi: Shaxs xarakteri va temperamentini Frayburgning test savolnomasi yordamida eksperimental o'rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Frayburgning test savolnomasi /FRI/ 1903 yili Y.Farenberg, X.Zarg, R.Rampi kabi tadqiqotchilar tomonidan amalda qo'llanildi. Test birinchi marta 1970 yili, ikkinchi marta 1973 yili nashr qilindi, uchinchi nashri esa 1978 yilda chiqdi.

Bu metodika inson shaxsining ba'zi bir xususiyatlarini tashxis qilish uchun yaroqli bo'lgan ko'p omilli testdir. Bu amaliy va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun muhim manbadir. Savolnoma shaxs omili to'g'risida har tomonlama ma'lumotlar beradi.

Test tadqiq qiluvchilarning keng ommasiga mo'ljallangan. Ushbu metodikaning qiskartirilgan varianti ham bor. Testni yakka holda yoki guruhliy shaklda qo'llash mumkin. Bajarish uchun vaqt savolnomaning shakliga bog'liq bo'lib u 20 daqiqadan 50 daqiqagacha davom etishi mumkin. Tadqiqot uchun yo'riqnoma, savolnoma va javoblar varaqasi zarur. FPI savolnomasi 12 olchamdan iborat.

Savolnomadagi savollar soni 114 ta. Faqat 1-savol hech bir o'lchamga (shkalaga) xos emas, chunki u tekshirish harakteriga ega. I-XII shkalalar asosiy shkalalar xisoblanadi.

I - shkala (asabiylashganlik) shaxsni asabiylashganlik darajasini belgilaydi. Yuqori baholar psixosomatik buzilishlar bilan jismoniy zaif kishilarning asabiylashganlik holatiga mos keladi. Bu omilni, psixologik terminlardan foydalanib, uni quyidagicha yanada aniqroq tavsiflash mumkin: asabiylashganlik, asabni, kasalmand, biror bir holatdan chiqib ketolmaydigan, o'z hissiyotlariga berilgan.

II - shkala (spontan tajovuzkorlik) introversiv turdagi psixopatik holatni aniqlash va baholashga imkon beradi. Yuqori baholar g'ayri-

ixtiyoriy xulqqa ega bo'lgan kishilarga xos xususiyatlarni bildiradi. O'z-o'zidan paydo bo'ladigan (spontan) tajovuzkorlik - bu tajovuzkor, beixtiyor, soddadil, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir.

III - shkala (ruhiy siqilganlik) - psixopatologik, ruhiy siqilganlik holatlari uchun xos bo'lgan belgilarga tashxis qo'yish uchun imkon beradi. Yuqori baholar mana shu belgilarning emotsional holatda, o'ziga va ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lishini bildiradi. Depressivlik - bu ta'bixiralik, tortinchoqlik, ishonchsiz, g'amgin, ichki azoblanish xususiyatlari yig'indisidir.

IV - shkala (jizzakilik) emotsional turg'unlikni baholashga imkon beradi. Yuqori baholar emotsional holatlarning noturg'unligidan darak beradi. Jizzakilik bu chidamsizlik, beixtiyor asabiylashgan, jiddiy tarang soddadil, injiq demakdir.

V- shkala (dilkashlik) ijtimoiy faollikning imkoniyatlarini va bu xususiyatlarning haqiqiy ko'rinishini ifodalaydi. Yuqori baholar ehtiyojni ta'minlashda doimiy tayyorlikni va muomala ehtiyojining borligidan dalolat beradi.

Do'stonalik-xushmuomalali, dilkashlik, uddaburonlik xususiyatlaridir.

VI- shkala (og'ir, vazminlik ruhiy zarbaga chidamlilikni anglatadi. Yuqori baholar kelajakka ishonch va faollikni, o'ziga ishonchi odatdagi hayotiy holatlarda ruhiy zarba omillari ta'siridan yaxshi himoyalanganligini anglatadi. Mo'tadillik - bu yaxshi kayfiyat, barqarorlik, matonatlik, xotirjamlilik, o'z kuchiga ishonch, ishonuvchanlik, faollik demakdir.

VII - shkala (reaktiv tajovuzkorlik) - ekstratensiv tipdagi psixopatik belgilarni namoyon bo'lishini aniqlaydi. Yuqori baholar ustunlikka intilishni va ijtimoiy muhitga tajovuzkorona munosabatni ifodalaydi. Reaktiv tajovuzkorlik bu tajovuzkorona o'z qarashlarini himoya qilish, o'z fikrini himoya qilish, xudbinlik, manmanlik, obro'ga, yuqoriga, ustunlikka intilish demakdir.

VIII - shkala (uyaluvchanlik, tortinchoqlik) insonning hayotiy vaziyatlarda o'zini passiv himoya qilish xususiyatiga moyillikni aniqlaydi. Bu kuchsiz himoyalangan turda o'tadi. Yuqori baholar shkalada xavotirlilik, ishonchsizlik tortinchoqlik xususiyatlarini mavjudligini ifodalab, bular esa o'z

navbatida ijtimoiy munosabatlarga kirishishni qiyinlashtirladi. O'zini tuta bilish - vazmin, ishonchsiz, uyatchan jonlanuvchi, tahlikaga tushuvchi.

IX - shkala (oshkoralik) o'z-o'zini tanqid darajasini ijtimoiy muhitga munosabatini tavsiflashga imkon yaratadi. Yuqori baholar o'z-o'ziga tanqidning yuqori darajasidan atrofdagi kishilar bilan ishonarli oshkora birgalikda katta intilishdan darak beradi. Ushbu shkala bo'yicha baholar sinalayotganning berilgan savolnoma bilan ishlayotganda u yoki bu darajada javoblarning samimiyligini tahlil qilishga imkon yaratadi, bu esa boshqa savolnomlarning yolg'on shkalalariga to'g'ri keladi. Samimiylik xususiyati o'z-o'zini tanqid, oshkoralik, shaxsiy kamchiliklarni va xatolarni tan oladi.

X - shkala (ekstrovertlik va introvertlik) yuqori baholar shaxsning ekstrovertlik, quyi baholar esa introvertlik xususiyatlariga mos keladi.

Ekstroversiya – so'zamollik, jamoat ishlarida faollik yoki aksi, introversiya – odamlar bilan aloqadan kochish, passivlik, emotsional beqarorlik.

XI - shkalada (emotsional labillik, o'zgaruvchanlik) yuqori baholar yetarli o'zini idrok qilmaslik, serjahlilik, yuqori qo'zg'aluvchanlik, kayfiyatning tez-tez o'zgaruvchanligida ko'rinadigan emotsional holatning noto'g'riligini ko'rsatadi. Quyi baholar faqatgina emotsional holatning yuqori barqarorligini tavsiflamasdan, balki o'z-o'zini idrok qila olishni ham ko'rsatadi. Emotsional o'zgaruvchanlik-barqarorlik-emotsional turg'unlik yoki noturg'unlik, kayfiyatning o'zgaruvchanligi, serjahlilik, jo'shqinlik, ziqlik, g'am yoki kelajakka ishonch, xursandchilik.

XII-shkala (maskulinizm - feminizm) - yuqori baholar ruhiy faoliyatning, xususan, erkaklarga xosligidan guvohlik bersa, quyi baholar ayollarga xosligidan darak beradi. Mardlik-nazokatlilik-faollik, hammadan bilimdon, fahmlash topqirlikdir.

Sinov yakka holda yoki sinaluvchilar guruhi bilan o'tkazilishi mumkin. Sinalayotganlar bir-biriga xalaqit bermaydigan holatda joylashtirilishi lozim. Tadqiqotchi tadqiqot maqsadini va savolnoma bilan ishlash qoidasini qisqacha bayon qiladi. Sinalayotganlarning topshiriqlarini bajarishiga ijobiy va qiziqish bilan munosabatda bo'lishlariga erishish muhimdir. Ularning e'tibori ish

paytida javoblar bo'yicha maslahatlashishning va o'zaro har muxokamaning mumkin emasligiga karatilmogi darkor.

Shundan keyin psixolog sinaluvchilarga diqqat bilan yo'riqnomani o'rganib chiqishni tavsiya qiladi, so'ng savollar paydo bo'lgan bo'lsa, ularga javob beradi, savolnoma bilan mustaqil ishlashni taklif etadi.

Natijalar tahlilini tekshiruvchilar to'ldirgan barcha javob varaqalarini birinchi savolga qanday javob berganligini aniqlagan holda qarab chiqishdan boshlash kerak.

Tekshirilayotgan kishi quyilgan savollarga ochiqchasiga javob berishni istamasa, tadqiqot amalga oshmagan deb hisoblanish kerak. Birinchi savolga ijobiy javob olingan taqdirda tadqiqotning natijalari ishlab chiqilgandan keyin yuqori va quyi baholar ajratiladi.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Sizning xulqingizga, alohida qilmishlaringizga, odamlarga bo'lgan munosabatingizga, hayotga qarashlaringizga va shunga o'xshash qandaydir xususiyatlaringizga berilgan tasdiq mos keladimi-yo'qmi? Agar shunday moslik bor deb hisoblasangiz "Ha" javobini bering, aks xolda esa «yo'q» javobini bering. Berilgan barcha savolga berish zarur.

Tadqiqotning muvaffaqiyati topshiriqning qanchalik e'tibor bilan bajarilganligiga bog'liq. Javoblar berishda, biror kishida yaxshi taassurot qoldirishga intilmaslik kerak, chunki hech bir javob yaxshi yoki yomon deb hisoblanmaydi.

Siz har bir savol ustida uzoq o'ylab o'tirmasdan ikkala javobning qaysi biri sizningcha, har holda nisbiy bo'lsa ham haqiqatga yaqin kelishini hal qilmog'ingiz lozim bo'ladi. Ba'zi bir savollarning o'ta shaxsiyligi sizni tashvishlantirmasligi kerak, chunki tadqiqot har bir savolni, javobni tahlil qilishni nazarda tutmaydi, balki u yoki bu javobning soniga tayanadi.

Bundan tashqari, Siz yakka psixologik tadqiqotning natijalari xuddi tibbiyotdagidek, keng muhokama qilinmasligini bilishingiz kerak bo'ladi.

Sizga muvaffaqiyat tilaymiz!

1. Men diqqat bilan yo'riqnomani o'qib chiqdim va hamma savollarga ochiqchasiga javob berishga tayyorman.
2. Kechqurunlari quvnoq, davra safida - mehmonda, qahvaxonada vaqtimni chog' qilishni yoqtiraman.

3. Biror kishi bilan tanishmog'imga har doim suhbat uchun xos bo'lgan mavzuni topishim qiyinligi xalakit beradi.
4. Tez-tez boshim og'rib turadi.
5. Ba'zida chakkamda dukullashni va bo'ynim atrofida tomir urishini his qilaman.
6. Men o'zimni xushimni tez yo'qotaman, shuningdek tez o'zimni qo'lga olaman.
7. Ba'zida bema'ni latifalardan kulaman.
8. Men bir narsa haqida so'rashdan tortinaman, bilishim kerak bo'lgan narsani boshqa yo'l bilan bilishni ma'qul ko'raman.
9. Mening kelganim sezilmasa, xonaga kirmaslikni ma'qul kuraman.
10. Shunday injiq bo'lishim ham mumkinki, qo'limga tushgan hamma narsani sindirib tashlashga tayyorman.
11. Atrofdagilar menga e'tiborini qarata boshlashsa, o'zimni noqulay sezaman.
12. Men ba'zida yuragimni xuddi o'lda-jo'lda ishlayotgandek yoki ko'kragimdan chiqib ketgudek bo'lib ura boshlashini his qilaman.
13. Xafa qilganni kechirish mumkin deb uylayman.
14. Jahlga jahl bilan javob berish kerak, deb hisoblamayman va har doim shunga amal qilaman.
15. Agar men o'tirgan bo'lsam va birdan o'rnimdan tursam ko'z oldim qorong'ulashib, boshim aylanib ketadi.
16. Agar meni deyarli har kuni muvaffaqiyatsizliklar ta'qib qilmaganda, hayotim naqadar yaxshi bo'lishi mumkinligi haqida o'ylayman,
17. O'z qilayotgan harakatlarimda odamlarga to'liq ishonish kerak, degan xulosaga amal qilmayman.
18. O'z manfaatlarimni himoya qilish zarurati tug'ilib qolsa, jismoniy kuch ishlatishdan ham qaytmayman.
19. Eng zerikarli guruhni ham osongina xushchaqchaq qila olaman.
20. Men osongina dovdirab qolaman.
21. Agar mening ishimga ogohlantirish berilsa, bu meni hech qachon xafa qilmaydi.
22. Qo'llarim va oyoqlarim sovuq qotib ketayotganini yoki uvishib qolayotganini tez-tez his qilaman.

23. Boshqa kishilar bilan munosabatda bo'lganimda ung'aysizlanaman.
24. Ba'zida hech bir sababsiz o'zimni baxtsiz his qilaman.
25. Ba'zida biror ish bilan shug'ullanishga hech ham xohish bo'lmaydi.
26. Xuddi juda og'ir ishni bajargandek, gohida menga havo yetmayotgandek tuyuladi.
27. Menga shunday tuyuladiki, o'z hayotimda juda ko'p narsalarni noto'g'ri qilganga o'xshayman.
28. Mening nazarimda boshqalar ko'pincha ustimdan kulishayotgandek tuyuladi.
29. Uzoq o'ylab o'tirmay bajariladigan topshiriqlarni yaxshi ko'raman.
30. O'z taqdirimdan norozi bo'lishga yetarli asoslarim bor, deb hisoblamayman.
31. Ko'pincha ishtaham bo'lmaydi.
32. Bolaligimda ota-onam yoki o'qituvchilarim boshqa bolalarni jazolashganlarida quvonganman.
33. Odatda qarorim qat'iy va tez harakat qilaman.
34. Har doim ham rost gapirmayman.
35. Kimdir yoqimsiz holatdan chiqish uchun intilayotganini qiziqish bilan kuzataman.
36. O'tib ketgan voqealar meni kam tashvishlantiradi.
37. O'z fikrimda turmoqchi bo'lsam barcha vositalar yaxshi, deb hisoblayman.
38. Musht orqali biror narsani isbotlashdan bir arziydigan narsa chiqishini tasavvur qila olmayman.
39. Men bilan janjallashish yo'llarini qidirayotgan odam bilan uchrashishdan qochmayman.
40. Ba'zida hech narsaga yaroqsizdekman.
41. Men har doim qandaydir toliqqan, zo'riqqan holda yurgandekman, mening bo'shashim qiyin.
42. Ko'pincha ko'kragim ostida og'riq, qornimda har xil yoqimsiz sezgilar paydo bo'ladi.
43. Do'stimni xafa qilganlardan o'ch olishga harakat qilaman.
44. Belgilangan vaqtga kech qolgan paytlarim bo'lgan.
45. Mening hayotimda shunaqa ham bo'lganki nimagadir hayvonlarga

azob berishni o‘zimga lozim topganman.

46. Eski tanishim bilan uchrashganda xursandligimdan uning bo‘yniga osilib olishga tayyorman.

47. Men biror narsadan qo‘rqsam og‘zim quriqshaydi, qo‘l-oyog‘im qaltiraydi.

48. Menda tez-tez shunday kayfiyat bo‘ladiki, hech narsani ko‘rmasam, eshitmasam deyman.

49. Uyquga yotsam odatda bir necha daqiqadan so‘ng uxlab qolaman.

50. Boshqalarning xato-kamchiliklarini ko‘rsatish menga orom bag‘ishlaydi.

51. Ba‘zida maqtanib turaman.

52. Jamoat tadbirlarida faol qatnashaman.

53. Ko‘pincha shunday bo‘ladiki, xohlamagan uchrashuvdan qutulish uchun boshqa tomonga qarashimga to‘g‘ri keladi.

54. O‘zimni oqlash uchun ba‘zida biror narsani o‘ylab topaman.

55. Men deyarli har doim harakatdaman va faolman.

56. Men gapirayotgan narsalar ko‘p hollarda suhbatdoshlarimga haqiqatdan ham qiziqarli ekanligidan shubhalanib qolaman.

57. Ba‘zida birdan ter qoplaganini his qilaman.

58. Agar biror kishidan qattiq jahlim chiqsa, uni urib yuborishim ham mumkin.

59. Kimnidir menga yomon munosabatda bo‘lishi, meni kam tashvishlantiradi.

60. Tanishlarimga odatda e‘tiroz bildirishim qiyin.

61. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizlik haqidagi fikrdan hayajonlanaman va tashvishlanaman.

62. Tanishlarimning hammasini ham yaxshi ko‘rmayman.

63. Menda shunday fikr ham bo‘lib turadiki, ulardan faqat uyalish kerak.

64. Bilmadim, nima uchundir ba‘zida hamma biror narsadan ilhom olayotgan bo‘lsa o‘sha narsani buzgim keladi.

65. Har qanday odamdan menga kerakli narsani iltimos qilishdan ko‘ra, unga majburlab qildirishni afzal ko‘raman.

66. Men ko‘p hollarda qo‘l va oyoqlarimni noqulay harakatlantiraman.

67. Quvnoq davrada bo‘lishdan ko‘ra, o‘zimning sevimli ishim bilan shug‘ullanib erkin kecha o‘tkazishni afzal ko‘raman.

68. Davrada o'zimni uyda tutgandek tutolmayman.
69. Ba'zida o'ylamasdan shunday narsani gapirib qo'yamanki, u haqida yaxshisi jim turgan afzalroq.
70. Hatto tanishlar davrasida ham diqqat markazda bo'lishdan qo'rqaman.
71. Yaxshi tanishlarim juda ko'p emas.
72. Gohida menda shunday taasurot paydo bo'ladiki, yorokin rang, yorokin bo'yoq, kuchli shovqin menda yoqimsiz hissiyotlarni uyg'otadi.
73. Menda ko'p hollarda davrada kimnidir xafa qilish yoki jahlini chiqarish istagi paydo bo'ladi.
74. Hayotda turli yoqimsiz narsalarning uchrashi mumkinligini o'ylasam, bundan tug'ilmaganim yaxshi edi, deb qolaman.
75. Agar meni kimdir jiddiy xafa qilsa, o'ziga tegishlisini to'liq oladi.
76. Jahlimni chiqarishsa, aytadigan gaplarimdan uyalmayman.
77. Suhbatdoshimga mening shunday savol berishim yoki shunday javob berishim yoqadiki, o'sha vaqtda u o'zini yo'qotib qo'ysin.
78. Zarur bo'lgan ishlarni ham orqaga surgan vaqtlarim bo'lgan.
79. Latifalarni yoki kulgili voqealarni hikoya qilishni yoqtimayman.
80. Kundalik qiyinchiliklar va tashvishlar o'z muvozanatimni yuqotishga olib keladi.
81. O'zimni noqulay tutgan davradagi odam bilan uchrashib qolsam, o'zimni qo'yarga joy topa olmayman.
82. Hayotdagi mayda-chuydalarga ham jiddiy e'tibor qaratadigan odam bilan ham afsuski munosabatda bo'la olaman.
83. Katta auditoriya oldida so'zga chiqishdan tortinaman.
84. Mening kayfiyatim o'zgarib turadi.
85. Atrofdagilarning kupchilidan ko'ra men tezroq charchayman.
86. Agar men biror narsadan kuchli hayajonlangan yoki achchiqlangan bo'lsam, uni butun tanam bilan his qilaman.
87. Kallamga keladigan yoqimsiz fikrlardan bezor bo'lib ketaman.
88. Afsuski, meni oilada ham, o'z tanishlarim davrasida ham tushinishmaydi.
89. Agar men bugun odatdagidan kamroq uxlagan bo'lsam, ertasiga o'zimni dam olgandek his qila olmayman.
90. O'zimni shunday tutamanki, atrofdagilar mening noroziligimni paydo

qilishdan chuchisin.

91. Kelajagimga ishonaman.

92. Atrofdagilardan birining yomon kayfiyatini sababchisi bo'lganman.

93. Boshqalarning ustidan kulishdan ham qaytmayman.

94. O'ta sergap odamlar bilan ham muomala qila olaman.

95. Men hamma narsaga oson munosabatda bo'ladigan kishilar toifasidanman.

96. O'smirligimda ta'qiqlangan mavzularga qiziqqanman.

97. Gohida yaxshi ko'rgan kishilarimning dilini og'ritganman.

98. Atrofdagilarning qaysarliklari tufayli ular bilan ko'pincha kelisha olmayman.

99. O'z qilmishlaridan ko'pincha vijdonim qiynaladi.

100. Men ko'p hollarda parishonxotir bo'laman.

101. Yomon ko'rgan odamimning omadsizligi, meni bezovta qilganligini eslay olmayman.

102. Ko'p hollarda boshqalardan tez ranjiyman.

103. Ba'zida kutilmaganda, o'zim tushunmagan narsalar haqida ishonch bilan gapira boshlayman.

104. Ko'pincha shunday kayfiyatda bo'lamanki, har qanday bahona bilan potrlab ketishga tayyor turaman.

105. Ko'pincha o'zimni charchagan va lanj sezaman.

106. Men odamlar bilan suhbatlashishni yaxshi ko'raman va har doim bunga tayyorman.

107. Afsuski, ko'p vaziyatlarda men odamlarga shoshib baho beraman.

108. Ertalab odatda men yaxshi turaman, ko'pincha xushtak chala boshlayman yoki xirgoyi qilaman.

109. Muhim muammolarni hal qilishda hatto uzoq mulohazadan so'ng ham o'zimga tuliq ishonchni his qilmayman.

110. Bahsda nimagadir o'zimning tarafdorimdan balandroq ovozda gapirishga intilaman.

111. Umidsizlik menda kuchli tashvish uyg'otmaydi.

112. Birdan lablarimni, tirnoqlarimni tishlaydigan hollarim ham bo'ladi.

113. Yolgiz qolgan hollarda o'zimni nihoyatda baxtiyor his qilaman.

114. Ba'zida shunday bo'ladiki, hamma bir-biri bilan urushib qolishini

xohlab qolaman.

Iltimos, hamma javoblarga javob berganligingizni tekshirib chiqing.

Shaxs qiyofasi

№	Birlamchi ball	Standart baho											
		9	8	7	6	5	4	3	2	1			
I													
II													
III													
IV													
V													
VI													
VII													
VIII													
IX													
X													
XI													
XII													
Birlamchi ball		Shkala bo'yicha standart baho											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
0		1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
1		1	1	3	3	1	1	3	3	1	1	2	1
2		4	3	4	4	1	2	4	5	1	1	3	1
3		4	4	4	5	1	3	5	6	2	2	4	1
4		5	5	5	6	2	4	6	6	3	3	4	1
5		5	5	6	7	2	5	7	7	3	4	5	2
6		6	7	6	7	3	6	8	7	4	4	6	3
7		7	8	7	8	3	7	8	8	5	5	7	4
8		7	8	7	8	4	8	9	9	5	6	7	5
9		8	8	8	9	5	9	9	9	6	7	8	6
10		8	9	8	9	5	9	9	9	8	8	8	8
11		8	9	8	9	6	-	-	-	8	9	8	8
12		8	9	9	-	7	-	-	-	9	9	9	9

13	9	9	9	-	8	-	-	-	9	-	9	9
14	9	-	9	-	9	-	-	-	-	-	9	9
15	9	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	9
16	9	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
17	9	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

KALIT

I – Asabiylashganlik (hammasi bo‘lib 17 ta savol)

“Ha” - 4, 5, 12, 15, 22, 26, 31, 41, 42, 57, 66, 72, 85, 86, 89, 105

“Yo‘q” - 49

II – shkala. O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik (13 ta savol)

“Ha” - 32, 35, 45, 50, 64, 73, 77, 93, 97, 99, 103, 112, 114

“Yo‘q” - 99

III – shkala. Ruhiy siqilish (14 ta savol).

“Ha” - 16, 24, 27, 28, 30, 40, 48, 56, 61, 74, 84, 87, 88, 100

“Yo‘q” -

IV – shkala. Serjahlilik, serzardalik, jizzakilik (11 ta savol)

“Ha” - 6, 10, 58, 69, 76, 80, 82, 102, 104, 107, 110

“Yo‘q” -

V – shkala. Muloqotchanlik (15 ta savol)

“Ha” - 2, 19, 46, 52, 55, 94, 106

“Yo‘q” - 3, 8, 23, 53, 67, 71, 79, 113

VI – shkala. Og‘irlik, vazminlik (10 ta savol)

“Ha” - 14, 21, 29, 37, 38, 59, 91, 95, 108, 111

“Yo‘q” -

VII – shkala. O‘ta tajovuzkorlik (10 ta savol)

“Ha” - 13, 17, 18, 36, 39, 43, 65, 75, 90, 98

“Yo‘q” -

VIII – shkala. Tortinchoqlik (10 ta savol)

“Ha” - 9, 11, 20, 47, 60, 70, 81, 83, 109

“Yo‘q” - 33

IX – shkala. Ochiqlik, oshkoralik (13 savol)

“Ha” - 7, 25, 34, 44, 51, 54, 62, 63, 68, 78, 92, 96, 101

“Yo‘q” -

X – shkala. Ekstroversiya-introversiya (12 ta savol)

“Ha” - 2, 29, 46, 51, 56, 76, 93, 95, 106, 110

“Yo‘q” - 20, 87

XI – shkala. Ta’sirchanlik, o‘zgaruvchanlik (14 ta savol)

“Ha” - 24, 25, 40, 48, 80, 83, 85, 87, 88, 102, 112, 113

“Yo‘q” - 59

XII – shkala. Mardlik-nazokatlik (15 ta savol)

“Ha” - 18, 29, 33, 50, 52, 58, 59, 65, 91, 104

“Yo‘q” - 16, 20, 31, 47, 84

Javob varaqasiga savol raqamining qarshisiga “Ha” yoki “Yo‘q” javobi yozib quyiladi.

Metodikaning “kaliti” da har bir shkalaga tegishli bo‘lgan savol nomerlari yozilgan. Har bir shkalaning savol nomeriga sizning javobingiz to‘g‘ri kelsa 1 ball bilan baholanadi.

(“Ha” javobi va “Yo‘q” javobi bo‘yicha ballar qo‘yib hisoblanadi.) Har bir shkala buyicha birlamchi baholar hisoblab chiqariladi.

Shkala raqami	Birlamchi baholar
I	
II	
III	
IV	
V	
VI	
VII	
VIII	
IX	
X	
XI	
XII	

Shundan so‘ng, hosil bo‘lgan birlamchi baholarni standart baholarga ko‘chiriladi.

Birlamchi ballarni standart baholarga ko‘chirish:

1 balldan 3 ballgacha bo‘lgan baholar quyi;

4 balldan 6 ballgacha bo‘lgan baholar o‘rta;

7 ballidan 9 ballgacha bo'lgan baholar yuqori; baholar turkumiga (xususiyatlar darajasi) kiradi.

1. 6. Ya. Strelyauning temperamentni aniqlash test-so'rovnomasi

Tadqiqot maqsadi: Shaxs temperamentini Ya. Strelyauning temperamentni aniqlash test-so'rovnomasi asosida o'rganish

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Sinaluvchiga ko'rsatma: Sizning oldingizda shaxsiy qarashingiz va qiziqqlaringizni aniqlovchi savollar qo'yilgan. Javoblar blankasiga familiyangizni va o'z haqingizdagi ma'lumotlarni yozing. Har bir savolga javob bera turib, javoblar blankasining "ha", "bilmayman", "yo'q" katakchasiga mos keluvchi "+" belgisini qo'ying. Har bir savol ustida uzoq o'ylanmasdan, yaqqol holatlarni ko'z o'ngigizga keltiring. Javob ustida uzoq bosh qotirmang yaxshisi miyangizga kelgan birinchi tabiiy javobni bering.

1. Siz osongina tanish-bilish orttiradigan kishilar toifasiga kirasizmi?
2. Tegishli ko'rsatmani olgunga qadar ishga kirishishdan o'zingizni tiyib turolasizmi?
3. Ishlab toliqqaningizda charchog'ingiz chiqishi uchun qisqa vaqt dam olish sizga yetarlimi?
4. Noqulay shart-sharoitlarda ishlay olasizmi?
5. Tortishuv paytida bahs mavzusiga aloqador bo'lmagan hissiyotli dalillardan o'zingizni tiyib turolasizmi?
6. Uzoq davom etgan tanaffusdan (ta'tildan) keyin ishga kirishib ketishingiz osonmi?
7. Ishga sho'ng'ib ketganingizda charchaganingizni unutasizmi?
8. Biror kishiga bergan topshirig'ingiz yakunlanishini sabr bilan kuta olasizmi?
9. Har xil vaqtda uxlashga yotsangiz ham darhol uxlab qolasizmi?
10. Sizdan "sir saqlash" iltimos qilinganda buni uddalay olasizmi?
11. Bir necha hafta yoki oylar davomida bajarmagan ishingizga qaytadan kirishishingiz oson kechadimi?
12. Biror narsani sabr-toqat bilan tushuntira olasizmi?

13. Aqliy zo'riqish talab qilinadigan ishlarni yoqtirasizmi?
14. Bir maromdagi (monoton) ishlarni bajarganingizda sizda uyqusirash va zerikish hislari paydo bo'ladimi?
15. Kuchli hissiy kechinmalardan keyin tez uxlab qola olasizmi?
16. Zarurat bo'lganda ustunligingizni namoyish qilishdan o'zingizni tiyib tura olasizmi?
17. Notanish kishilar orasida o'zingizni odatdagidek tutasizmi?
18. Jahl yoki g'azabdan o'zingizni tiyishingiz osonmi?
19. Omadsiz vaziyatlarda ko'tarinki kayfiyatingizni saqlab tura olasizmi?
20. Zarurat tug'ilganda o'z xatti-harakatlaringizni boshqa guruh a'zolarining xulq-atvor xususiyatlariga moslashtira olasizmi?
21. Mas'uliyatli vazifalarni bajarishga qiziqish bilan kirishasizmi?
22. Kayfiyatingiz atrofdagilarning ta'siri ostida o'zgaradimi?
23. Qiyin paytlarda ham o'zingizga ishonchni saqlaysizmi?
24. Siz uchun fikrlari muhim bo'lgan inson oldida har doimgidek emin-erkin gapirasizmi?
25. Kun tartibingizda sodir bo'lgan kutilmagan o'zgarishlarni xotirjamlik bilan qabul qilasizmi ?
26. Kerakli javobni darhol topasizmi?
27. Siz uchun muhim bo'lgan qarorlarni (o'quv yurtiga kirish imtihoni natijasi, xorijga ketish va b.) xotirjamlik bilan kuta olasizmi?
28. Ta'tilingizning dastlabki kunlari oson o'tadimi?
29. O'zingizni "topqir odam" deb hisoblaysizmi?
30. Yurish yoki ovqatlanish tarzingizni sizga nisbatan sekinroq harakat qilayotgan sherigingizga bermalol moslashtira olasizmi?
31. Dam olishga yotishingiz bilan darhol uxlab qolasizmi?
32. Yig'ilishlarda, mashg'ulotlarda ishtiyoq bilan chiqishlar qilasizmi?
33. Kayfiyatingizning buzilishi osonmi?
34. Shug'ullanayotgan ishingizni to'xtatishingiz osonmi?
35. Boshqalarga xalaqit bermaslik uchun sukut saqlay olasizmi?
36. Fitna va ig'vogarliklarga uchmaslikni (ahamiyat bermaslikni) uddalay olasizmi?
37. Boshqa kishilar bilan bermalol chiqishib ketasizmi?

38. Muhim qarorlarni qabul qilish oldidan doim har bir narsani obdon o‘ylab, har tomonlama mushohada qilib ko‘rasizmi?
39. Biror bir kitobni o‘qish paytida muallifning mushohada yuritish jarayonini boshidan oxirigacha kuzatib bora olasizmi?
40. Hamroh yo‘lovchilar bilan suhbatga kirishishingiz osonmi?
41. Bahslashish befoyda ekanligini bilsangiz, tortishuvlardan o‘zingizni tiya olasizmi?
42. Juda aniq harakat qilishni talab qiladigan ishlarga havas bilan kirishasizmi?
43. Boshqalarning fikrlari siznikiga mos kelmagan taqdirda qabul qilgan qaroringizni o‘zgartirishingiz mumkinmi?
44. Mehnatni yangicha tartibda tashkil qilish holatlariga tez ko‘nikasizmi?
45. Kunduzi ishlagan bo‘lsangiz, kechasi ham ishlay olasizmi?
46. Badiiy asarlarni tez o‘qiysizmi?
47. To‘siqlar tufayli o‘z rejalaringsizdan tez voz kechasizmi?
48. O‘zingizni qo‘lga olish talab qilingan vaziyatlarda buni uddalay olasizmi?
49. Tez uyg‘onasizmi?
50. Bir zumda “otilib chiqadigan” impulsiv reaksiyadan o‘zingizni tiya olasizmi?
51. Shovqinli sharoitda ishlay olasizmi?
52. Zarurat tug‘ilganda kishining yuziga butun haqiqatni aytishdan o‘zingizni tiya olasizmi?
53. Imtihon oldidan, boshliq bilan gaplashayotganda o‘z hayajoningizni bostira olasizmi?
54. Yangi muhitga tez ko‘nikasizmi?
55. Xilma-xil va tez o‘zgaruvchan sharoitlarni yoqtirasizmi?
56. Agar kun davomida og‘ir ishlarni bajargan bo‘lsangiz, kuchlaringizni to‘liq tiklash uchun bir kecha uxlab dam olish sizga kifoya qiladimi?
57. Qisqa muddat ichida xilma-xil ish-harakatlarni amalga oshirishni talab etuvchi mashg‘ulotlardan qochasizmi?
58. Siz duch kelgan qiyinchiliklarning aksariyatini mustaqil ravishda hal qilasizmi?

59. Siz biror bir gapni boshlashdan oldin suhbatdoshingiz o'zining gapini yakunlashini kutasizmi?
60. Suzishni bilganingizda cho'kayotgan odamni qutqarish uchun suvga sakragan bo'lar edingizmi?
61. Siz zo'r berib ishlashga (o'qishga) qodirmisiz?
62. Noo'rin tanbehlardan o'zingizni tiyib tura olasizmi?
63. Doimiy ish o'rningiz, ovqatlanish yoki ma'ruzalar paytida joylashgan o'rningizning qulay va shinam bo'lishiga e'tibor berasizmi?
64. Bir faoliyatdan boshqasiga o'tishingiz oson kechadimi?
65. Har doim muhim qarorga kelishdan avval uning barcha oqibatlarini obdon mushohada qilib ko'rasizmi?
66. Sizda biror kishining qo'pollik qilishiga nisbatan qizg'inlik bilan javob berish holatlari bo'lib turadimi?
67. Sizga tegishli bo'lmagan ishlar bilan qiziqishdan, boshqalarga tegishli qog'ozlarga qarashdan bermalol o'zingizni tiya olasizmi?
68. Bir xil tarzda bajariladigan stereotip ish-harakatlarni bajarishdan zerikasizmi?
69. Jamoat joylarida xulq-atvor qoidalariga bermalol rioya qilasizmi?
70. Suhbatlashish, chiqish qilish yoki javob berish vaqtida keraksiz xatti-harakatlar, imo-ishoralardan o'zingizni tiya olasizmi?
71. Atrofingizda jonli va jo'shqin muhit bo'lishini yoqtirasizmi?
72. Ko'p kuch, zo'r shijoat talab etuvchi ishlarni bajarishni yoqtirasizmi?
73. Uzoq vaqt mobaynida bajarayotgan faoliyatingizga diqqatingizni jamlab tura olasizmi?
74. Chaqqon xatti-harakatlarni talab etuvchi ishlarni (mashg'ulotlarni) yoqtirasizmi?
75. Qiyin hayotiy vaziyatlarda o'zingizni boshqara olasizmi?
76. Uyqudan uyg'onishingiz bilanoq o'rningizdan turasizmi?
77. Sizga topshirilgan vazifani bajarib bo'lgach boshqalarning ham yakunlashlarini sabr-toqat bilan kuta olasizmi?
78. Noxush (alam-iztirobli, dilni xira qiluvchi) bir voqeani ko'rgandan keyin ham avvalgidek ishonch bilan harakat qilasizmi?
79. Kundalik gazetalarni tez ko'zdan kechirib chiqasizmi?

80. Sizda gapingizni tushunish qiyin bo'ladigan darajada tez gapirish holatlari bo'lib turadimi?
81. Siz yaxshi uxlab dam olmasangiz ham me'yorida ishlay olasizmi?
82. Tanaffus qilmasdan uzoq vaqt ishlay olasizmi?
83. Tishingiz, boshingiz va b . og'risa ham ishlay olasizmi?
84. O'rtoqlaringiz sizni kutib turishganini yoki ko'ngilochar hordiq chiqarishayotganini bilsangiz, xotirjamlik bilan ishingizni oxiriga etkaza olasizmi?
85. Kutilmagan savollarga tez javob berasizmi?
86. Siz tez gapirasizmi?
87. Mehmon kutayotganingizda xotirjam ishlay olasizmi?
88. Siz ishonarli dalillar ta'sirida o'z fikringizni osongina o'zgartirasizmi?
89. Siz sabr-toqatlimisiz?
90. Sizdan ancha sekin harakat qiladigan odamning ish maromiga moslasha olasizmi?
91. Muayyan bir vaqt oralig'ida bir-biriga mos bo'lgan bir nechta ishni bajarish imkonini beradigan qilib ishingizni tashkil qila olasizmi?
92. Quvnoq davra sizdagi tushkun kayfiyatni o'zgartiradimi?
93. Ortiqcha zo'riqishlarsiz bir vaqtning o'zida bir nechta ishni bajara olasizmi?
94. Ko'chada bir baxtsiz hodisaning guvohi bo'lganingizda ham ko'tarinki kayfiyatingizni saqlab tura olasizmi?
95. Katta aniqlik bilan harakat qilishni talab etuvchi ishlarni bajarishni yoqtirasizmi?
96. Yaqin kishingiz iztirob chekayotganda ko'tarinki kayfiyatingizni saqlab tura olasizmi?
97. Qiyin hayotiy vaziyatlarda o'z kuchingizga ishonasizmi?
98. Katta davralarda yoki notanish kishilar orasida o'zingizni erkin his qilasizmi?
99. Vaziyat talab qilganda (masalan, seans, majlis, ma'ruza boshlanganda) suhbatni tez to'xtata olasizmi?
100. Boshqalarning ish uslubiga bermalol moslashasizmi?
101. Mashg'ulot turlarini tez-tez almashtirib turishni yoqtirasizmi?

102. Kutilmagan hodisa yuz berganda tashabbusni o'z qo'lingizga olishga intilasizmi?
103. O'rinsiz vaziyatlarda kulgidan o'zingizni tiyasizmi?
104. Ishga darhol to'liq kirishib ketasizmi?
105. Biror bir fikrga norozi bo'lsangiz, unga qarshi chiqasizmi?
106. Vaqtinchalik tushkunlik (depressiya) holatingizni yenga olasizmi?
107. Agar siz aqliy mehnatdan qattiq charchagan bo'lsangiz, har doimgidek uxlab qolasizmi?
108. Uzoq vaqt asabiylashmasdan kuta olasizmi (masalan, navbat kutayotganda)?
109. Sizning aralashuvingiz befoyda ekanligini bilsangiz, bundan o'zingizni tiyib tura olasizmi?
110. Qizg'in bahs ketayotganda sovuqqonlik bilan dalil-isbotlar izlay olasizmi?
111. Birdaniga vaziyat o'zgarib qolganda darhol kerakli chorani topasizmi?
112. Agar sizdan shovqin qilmaslikni iltimos qilishsa, buni bajara olasizmi?
113. Siz yoqimsiz tibbiy muolajalarga ortiqcha dalda va pand-nasihatlarsiz rozi bo'lasizmi?
114. Bor kuchingizni ishga solib, shijoat bilan ishlay olasizmi?
115. Dam oladigan, ko'ngil ochadigan joyingizni bajonidil o'zgartirasizmi?
116. Yangi kun tartibiga moslashishingiz qiyinmi?
117. Kutilmagan hodisalar yuz berganda yordam berishga shoshilasizmi?
118. Sport musobaqalarida, sirkdagi chiqishlarda keraksiz xitoblar, imo-ishorali harakatlardan o'zingizni tiyasizmi?
119. Ko'plab odamlar bilan gaplashishga undaydigan ishlarni (mashg'ulotlarni) yoqtirasizmi?
120. Yuzingiz ifodasini (burishtirishlar, zaharxandalar, kinoyali tabassumlar va h.) nazorat qilasizmi?
121. Faollik bilan jismoniy mashq qilishni talab etuvchi ishlarni yoqtirasizmi?
122. O'zingizni jasur odam deb hisoblaysizmi?

123. G‘ayrioddiy vaziyatlarda ovozingiz o‘zgaradimi (gapirishingiz qiyinlashadimi)?
124. Omadsizlikni boshdan kechirganingizda hammasini tashlab ketish istagini engasizmi?
125. Sizdan uzoq vaqt xotirjam o‘tirish (turish) so‘ralganda buni bajarasizmi?
126. Sizning kulishingiz kimningdir dilini og‘ritishini (ko‘ngliga botishini) bilsangiz, bundan o‘zingizni tiyasizmi?
127. G‘amginlikdan quvonchli holatga o‘tishingiz osonmi?
128. Sizni muvozanatdan chiqarish qiyinmi?
129. Atrofingizda qabul qilingan rasm-rusumlarga bemalol rioya qilasizmi?
130. Jamoat oldida chiqishlar qilishni yoqtirasizmi?
131. Uzoq tayyorgarlik ko‘rmasdan ishga darhol kirishib ketasizmi?
132. O‘z hayotingizni xavf ostiga qo‘yib, darhol yordam berishga tayyormisiz?
133. Kuch-g‘ayratga to‘lib harakat qilasizmi?
134. Mas‘uliyatli ishga bajonidil kirishasizmi?

Ya. Strelyau metodikasi kaliti

Javoblar mos kelsa - 2 ball

Mos kelmasa - 0 ball

Javob berishga qiynalsa - 1 ball

< **42-balldan past bo‘lsa** ushbu xususiyatning yaxshi mujassamlashmaganligini ifodalaydi.

> **42-balldan katta bo‘lsa** ushbu xususiyatning yaxshi mujassamlashganligini ifodalaydi.

(F_q) < 42, melanxolik

(F_q) > 42, psixologik faoll, ko‘ra uzoq vaqt davomida barqaror mehnat qila olish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy mehnatni bajarishga ancha mas‘uliyatli.

Muvozanatlashganlik kuchi: $A = F_h / (F_q)$

Agar $F_h / (F_q)$ ning qiymati 1 ga teng bo‘lsa shunchalik muvozanatlashganlik yuqori.

0,85-1,15 oralig‘idan muvozanatlashganlik

Agar ushbu chegaradan chetga chiqsa yoki 0,85 past bo'lsa bu toifa odam qo'zg'alishga nisbatan muvozanatsiz. 1.15-muvozanatsiz tormozlanish etakchilik qiladi.

2-Jadval

№	shkala	Ko'rsatkich
1	qo'zg'alish kuchi(f_q)	
2	tormozlanish kuchi (f_t)	
3	harakatchanlik (f_h)	
	muvozanatlashganlik kuchi: $a = f_h/(f_q)$	

1. Qo'zg'alish kuchi

Ha - 3, 4, 7, 13, 15, 17, 19, 21, 23, 24, 32, 39, 45, 56, 60, 61, 66, 72, 73, 78, 81, 82, 83, 94, 97, 98, 102, 105, 106, 113, 114, 117, 121, 122, 124, 130, 132, 133, 134

Yo'q – 47, 51, 107, 123.

2.Tormozlanish kuchi Ha - 2, 5, 8, 10, 12, 16, 27, 30, 36, 37, 38, 41, 48, 50, 52, 53, 62, 65, 69, 70, 75, 77, 84, 87, 89, 90, 96, 99, 103, 108, 109, 110, 112, 118, 120, 125, 126, 129.

Yo'q – 18, 34, 36, 59, 67, 128

3. Harakatlanish kuchi

Ha – 1, 6, 9, 11, 14, 20, 22, 26, 28, 29, 31, 33, 40, 42, 43, 44, 46, 49, 54, 55, 64, 68, 71, 74, 76, 79, 80, 85, 86, 88, 91, 92, 93, 95, 100, 101, 107, 111, 115, 116, 119, 127, 131.

Yo'q – 25, 27, 63.

1. 7. Mayers-Brigs so'rovnomasi.

Tadqiqot maqsadi: Mayers-Brigs so'rovnomasi yordamida shaxs xususiyatlarini organish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Mayers-Briggs tipologiyasi (MBTI) - 1940-yillarda Yunga tipologiyasi asosida yuzaga kelgan va AQSh va Yevropada keng tarqalgan shaxs tipologiyasidir. Test ba'zan tanqid qilinishiga

qaramasdan, u shaxs xarakterini aniqlash uchun muhim kalit bolib qolmoqda. Umumiy qilib aytganda, uning yordamida kishilarning dunoyini qanday idrok etishi va qay tarzda qaror qabul qilishi aniqlanadi. Ko'pgina G'arb kompaniyalari ishga qabul qilishdan oldin xodimlardan Mayers-Briggs testidan o'tishni talab qiladi.

Sinaluvchiga ko'rsatma. *Yo'riqnoma.* Ushbu so'rovnomada "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" javoblar bo'lmaydi. Sizning javoblaringiz biror masalaga munosabatingizni va u yuzasidan qaror qabul qilishingiz lozim bo'lganda nima ish qilishingizni bilishga yordam beradi. Siz o'zingizning nimaga moyil ekanligingizni (yoki nimalarni afzal ko'rishingizni), boshqalarning ham nimalarni afzal ko'rishini bilib, o'z imkoniyatlaringizni, qanday ishlar sizga huzur-halovat bag'ishlashini va turli xarakterli kishilarning bir-birlari bilan o'zaro qanday muloqot o'rnatishlarini aniqlaysiz.

So'rovnomadagi har bir savol(tasdiq)ni diqqat bilan o'qing va o'zingizga ma'qul bo'lgan javobni berilgan maxsus blankada belgilang (harfni doiracha ichiga oling).

So'rovnoma matniga hech qanday belgi qo'ymang.

Savollarga uzoq o'ylanmasdan xayolingizga kelgan birinchi javobni bering. So'rovnoma ikki turdagi savollardan iborat. Birinchi turdagi savollar javobining shunday variantini tanlashingiz kerakki, u odatda siz nimani his qilsangiz yoki nima ishni bajarsangiz unga mos bo'lishi zarur. Ikkinchi turdagi savollarda juft so'zlardan qaysi biri sizga ko'proq ma'qul bo'lsa, o'shani belgilashingiz kerak. Savol-javoblarning shakliga emas, balki mazmuniga e'tibor bering.

1. Odatda, siz:

- a) muloqotga kirishuvchan;
- b) ancha bosiq va xotirjam.

2. Agar siz o'qituvchi bo'lganingizda edi, qanday kursdan saboq berishni afzal hisoblardingiz:

- a) dalillarni bayon etishga asoslanilgan;
- b) nazariy materiallarni bayon etishga asoslanilgan.

3. Siz ko'pincha:

- a) yurak aqlni boshqarishiga;

- b) aql yurakni boshqarishiga imkon berasiz.
4. Agar siz biror yoqqa kun davomida ketadigan bo'lsangiz:
- a) nima ish qilishni va uni qachon bajarishni oldindan rejalashtirasiz;
- b) aniq reja tuzmaysiz.
5. Siz kishilar davrasida bo'lsangizda, odatda:
- a) umumiy suhbatga qo'shilishasiz;
- b) kim bilandir yolg'iz suhbatlashasiz.
6. Siz uchun qanday odamlar bilan til topishish oson kechadi:
- a) tasavvuri keng;
- b) realist.
7. Siz uchun eng yuksak maqtoov hisoblangan so'zlarni tanlang:
- a) juda dilkash odam;
- b) izchil mulohaza yurituvchi inson.
8. Siz quyidagi hollardan qaysi birini afzal hisoblaysiz:
- a) kechki bazmlar va uchrashuvlar haqida oldindan kelishib olishni;
- b) kechki bazmlarning oxirgi damlarida o'yin-kulgi qilishni.
9. Siz katta davralarda ko'pincha:
- a) odamlarni bir-biriga tanishtirasiz;
- b) sizni boshqalar bilan tanishtiradilar.
10. Sizni kim deb hisoblash mumkin:
- a) amaliyotchi;
- b) xayolparast.
11. Odatda, siz:
- a) mantiqdan ko'ra hissiyotni ko'proq qadrlaysiz;
- b) hissiyotdan ko'ra mantiqni ko'proq qadrlaysiz.
12. Siz ko'pincha qaysi hollarda muvaffaqiyatga erishasiz:
- a) tez qaror qabul qilish taqozo etilgan vaziyatlarda;
- b) atroflicha o'ylangan reja asosida.
13. Siz afzal hisoblaysiz:
- a) bir necha eng yaqin, sadoqatli do'stlarga ega bo'lishni;
- b) har xil toifadagi odamlar bilan do'stona munosabat o'rnatishni.
14. Sizga qanday toifadagi odamlar ko'proq yoqadi:
- a) umumiy qabul qilingan me'yorlarga amal qiladigan va o'ziga e'tiborni jalb etmaydigan;

b) boshqalarning e'tibor berishi yoki bermasligidan qat'iy nazar juda o'ziga xos bo'lgan(original).

15. Sizningcha, eng katta kamchilik:

a) hissizlik; b) aqlsizlik.

16. Biror jadval-grafik asosida ishlash:

a) siz uchun ma'qul;

b) sizning imkoniyatingizni cheklab qo'yadi.

17. Siz do'stlaringiz:

a) hayotida sodir bo'lgan voqealarni boshqa do'stlaringizdan keyinroq bilasiz;

b) hayotini juda yaxshi bilasiz.

18. Siz do'stlaringiz orasida qanday kishilar bo'lishini ma'qul hisoblaysiz:

a) hamisha yangi g'oyalarni ilgari suradigan;

b) dunyoga hushyor va real qaraydigan.

19. Siz qanday kishi rahbarligida ishlashni afzal hisoblaysiz:

a) doimo mehribon;

b) hamisha adolatli.

20. Dam olish kunlari bajariladigan ishlar ro'yxatini tuzish fikri sizni:

a) sira tinch qo'ymaydi;

b) qiziqitirmaydi;

v) qiynaydi.

21. Siz, odatda:

a) har qanday odam bilan istalgan vaqtgacha erkin suhbatlasha olasiz;

b) faqat ayrim kishilar bilan va ma'lum vaziyatlardagina suhbatlashish uchun mavzu topa olasiz.

22. Siz qanday kitoblarni katta qiziqish bilan o'qiysiz:

a) o'ziga xos, original usulda yozilgan;

b) yozuvchining fikri aniq ifodalangan.

23.Siz uchun eng katta kamchilik:

a) haddan ortiq samimiy bo'lish;

b) samimiy bo'la olmaslik.

24.O'zingizning kundalik ishlaringizda siz:

a) qiyin vaziyatlarda ishlash, masalan, vaqt yetishmagan sharoitlarda ishni bajarishni yoqtirasiz;

b) qat'iy belgilangan vaqt bo'yicha ishlashni yoqtirmaysiz;

v) odatda, ishni shunday rejalashtirasizki, uni bajarishingiz uchun vaqt bemalol etadi.

25. Siz bilan odamlar qiziqishlaringiz sohasini:

a) birinchi uchrashuvdayoq bilib oladilar;

b) yaqinroq tanishganlaridan keyin biladilar.

26. Ayni bir ishni bajarishda siz:

a) boshqalar singari an'anaviy usulni qo'llaysiz;

b) o'zingizni yaratgan usuldan foydalanasiz.

27. Sizni odamlarning:

a) his-tuyg'ulari ko'proq qiziqtiradi;

b) haq-huquqlari tashvishga soladi.

28. Ma'lum bir ishni bajarishingizga to'g'ri kelsa, odatda, siz:

a) ishni bajarishdan oldin hamma kerakli narsalarni tayyorlab qo'yasiz;

b) ish jarayonida zarur bo'ladigan narsalarni aniqlashtirib olasiz, xolos.

29. Odatda, siz:

a) o'z his-tuyg'ularingizni erkin ifoda etasiz;

b) his-tuyg'ularingizni ichda saqlaysiz.

30. Siz uchun quyidagilardan qaysi biri afzalroq:

a) o'ziga xoslik;

b) umum qabul qilingan me'yorlarga amal qilish.

31. Quyidagi so'zlardan qaysi biri sizga ko'proq ma'qul:

a) yuvosh; b) qat'iyatli.

32. Biror ishni ma'lum vaqt oralig'ida bajarishingiz zarur bo'lsa, siz:

a) hammasini oldindan rejalashtirasiz;

b) rejalashtirishni nomaqbul hisoblaysiz.

33. Aytish mumkinki, siz:

a) boshqalarga qaraganda ancha quvnoqsiz;

b) boshqalar bilan qiyoslaganda siz unchalik quvnoq emassiz.

34. Inson uchun eng yuqori maqtov uning qaysi sifatini e'tirof etish hisoblanadi:

a) oldindan ko'ra bilish qobiliyatini;

- b) sogʻlom fikr yuritishini.
35. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) fikr; b) his.
36. Odatda, siz:
a) barcha ishni oxirgi daqiqalarda bajarasiz;
b) hamma ishni oxirgi daqiqalarda bajarish koʻp asabiylashishga sabab boʻladi deb hisoblaysiz.
37. Kechki bazm sizga:
a) goho zerikarli boʻladi;
b) doimo xursandchilik bagʻishlaydi.
38. Siz quyidagilardan qaysi birini eng muhim hisoblaysiz:
a) biror vaziyatda har xil imkoniyatlarga ega boʻlishni;
b) dalillar qanday boʻlsa, ularni shundayligicha qabul qilishni.
39. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) ishonchli; b) taʼsirli.
40. Barqaror kundalik ish tartibining mavjudligi:
a) sizning koʻp ishlarni bajarishingiz uchun juda qulay;
b) zarurat boʻlsa-da, lekin unga amal qilish qiyin.
41. Biror narsa modaga aylansa, odatda, siz:
a) uni birinchilardan boʻlib sinab koʻrasiz;
b) modalarga kam qiziqasiz.
42. Odatda, siz ish jarayonida:
a) umumiy qabul qilingan usullarga tayanasiz;
b) yoʻl qoʻyilgan xatoliklarni izlaysiz, yechilmagan muammolarni yechishga urinasiz.
43. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) tahlil etmoq; b) qaygʻurmoq.
44. Qandaydir unchalik muhim boʻlmagan ishni qilish yoki biror kichik narsani sotib olish haqida oʻylaysiz-da, siz:
a) koʻpincha bu haqda unutib qoʻyasiz yoki juda kech eslaysiz;
b) unutmaslik uchun qogʻozga yozib qoʻyasiz;
v) oʻylagan ishingizni oʻz vaqtida bajarasiz.
45. Sizning qanday inson ekanligingizni bilish:
a) juda oson; b) ancha qiyin.

46. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) dalillar; b) gʻoyalar.
47. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) adolatlilik; b) achinish.
48. Sizning koʻnikishingiz qiyin:
a) bir xillikka; b) doimiy oʻzgarishlarga.
49. Murakkab vaziyatga tushib qolsangiz:
a) suhbatni boshqa mavzuga oʻzgartirasiz;
b) hammasini hazilga yoʻyasiz;
v) bir necha kun oʻtgandan keyin, nima deyishingiz kerak ekanligi haqida oʻylaysiz.
50. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) tasdiq; b) gʻoya.
51. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) rahm-shafqat; b) oʻylab ish qilish.
52. Hafta davomida bajariladigan katta ishni boshlasangiz siz:
a) dastlab qilinadigan ishlarni va qanday tartibda bajarishni rejalashtirib olasiz;
b) birdan ishga kirishib ketasiz.
53. Sizningcha, yaqin kishilaringiz fikrlaringizdan:
a) yaxshi xabardor; b) xabardor emas.
54. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) nazariya; b) dalil.
55. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) foyda; b) muruvvat.
56. Odatda, siz:
a) ishni shunday tarzda rejalashtirasizki, uni bajarish uchun vaqt yetarli boʻladi;
b) ishning oxirgi daqiqalarida yuqori samaradorlikka erishasiz.
57. Kechki bazmlarda siz:
a) faol ishtirok etasiz;
b) faol ishtirok etmaysiz.
58. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) aynan; b) majoziy.

59. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) dadil; b) sodiq.
60. Agar sizdan dam olish kuni nima bilan mashgʻul boʻlishingiz haqida soʻrasalar, siz:
a) aniq javob bera olasiz;
b) bajariladigan ishlaringizdan ikki baravar koʻproq ishlarni sanab berasiz;
v) oldindan taxmin qilmaslikni afzal hisoblaysiz.
61. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) shijoatli; b) vazmin.
62. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) obrazli; b) badiiy.
63. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) qaysar; b) rahmdil.
64. Kundalik ishlarning bir xilligi sizga:
a) xotirjamlik bagʻishlaydi; b) zerikarli tuyuladi.
65. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) bosiq; b) ezma.
66. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) ishlab chiqish; b) yaratish.
67. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) tinchlikparvar; b) hakam.
68. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) rejalashtirilgan; b) rejadan tashqari.
69. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) vazmin; b) joʻshqin.
70. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) mulohozali; b) maftunkor.
71. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) yumshoq; b) qattiq.
72. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) metodik; b) toʻsatdan.
73. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) soʻzlamoq; b) yozmoq.

74. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) ishlab chiqarish; b) rejalashtirish.
75. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) avf etmoq; b) ruxsat bermoq.
76. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) muntazam; b) tasodifiy.
77. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) muloqotga kirishuvchan; b) tund.
78. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) aniq; b) mavhum.
79. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) kim; b) nima.
80. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) impuls; b) yechish.
81. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) bazm; b) teatr.
82. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) barpo etish; b) ixtiro qilish.
83. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) notanqidiy; b) tanqidiy.
84. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) aniq; b) erkin.
85. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) asos; b) choʻqqi.
86. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) ehtiyotkor; b) ishonuvchan.
87. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) oʻzgaruvchan; b) oʻzgarmas.
88. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) nazariya; b) amaliyot.
89. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) kelishish; b) bahslashish.
90. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) tartib-intizomli; b) beparvo.

91. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) belgi; b) timsol.
92. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) intiluvchan; b) sinchkov.
93. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) qabul qilmoq; b) oʻzgartirmoq.
94. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri sizga koʻproq maʼqul:
a) mashhur; b) taniqli emas.

MBTI tipologik soʻrovnomasining javoblar varaqasi

F. I. SH. _____

Tugʻilgan yili _____ Jinsi _____

E - I				S - N				T - F				J - P			
N		E	I	N		S	N	N		T	F	N		J	P
1	a b			2	a b			3	a b			4	a b		
5	a b			6	a b			7	a b			8	a b		
9	a b			10	a b			11	a b			12	a b		
13	a b			14	a b			15	a b			16	a b		
17	a b			18	a b			19	a b			20	a b v		
21	a b			22	a b			23	a b			24	a b v		
25	a b			26	a b			27	a b			28	a b		
29	a b			30	a b			31	a b			32	a b		

33	a b			34	a b			35	a b			36	a b		
37	a b			38	a b			39	a b			40	a b		
41	a b			42	a b			43	a b			44	a b v		
45	a b			46	a b			47	a b			48	a b		
49	a b v			50	a b			51	a b			52	a b		
53	a b			54	a b			55	a b			56	a b		
57	a b			58	a b			59	a b			60	a b v		
61	a b			62	a b			63	a b			64	a b		
65	a b			66	a b			67	a b			68	a b		
69	a b			70	a b			71	a b			72	a b		
73	a b			74	a b			75	a b			76	a b		
77	a b			78	a b			79	a b			80	a b		
81	a b			82	a b			83	a b			84	a b		
				85	a b			86	a b			87	a b		
				88	a b			89	a b			90	a b		

				91	a b							92	a b		
				93	a b										
				94	a b										
jami:				jami:				jami:				jami			
Tasdiq				Tasdiq				Tasdiq				Tasdiq			

MBTI so'rovnomasining kaliti

F. I. SH. _____

Tug'ilgan vaqti _____ jinsi_

E - I				S - N				T - F				J - P			
N		E	I	N		S	N	N		T	F	N		J	P
1	a b	2 ☐	☐ 2	2	a b	2 ☐	☐ 2	3	a b	☐ 1(2) ☐	2(1) ☐	4	a b	2 ☐	☐ 2
5	a b	1 ☐	☐ 2	6	a b	☐ 1	2 ☐	7	a b	☐ 2(2) ☐	1(1) ☐	8	a b	2 ☐	☐ 1
9	a b	2 ☐	☐ 2	10	a b	2 ☐	☐ 2	11	a b	☐ 2	2 ☐	12	a b	☐ 1	1 ☐
13	a b	☐ 2	1 ☐	14	a b	1 ☐	☐ 2	15	a b	☐ ☐	2 ☐	16	a b	2 ☐	☐ 2
17	a b	☐ 2	1 ☐	18	a b	☐ 2	1 ☐	19	a b	☐ ☐	2(1) ☐	20	a b v	1 ☐ ☐	☐ 1 1
21	a b	2 ☐	☐ 2	22	a b	☐ 1	☐ ☐	23	a b	1 ☐	☐ ☐	24	a b v	☐ ☐ 1	1 ☐ ☐

25	a b	1 ☐	☐ 1	26	a b	1 ☐	☐ 1	27	a b	☐ 2(1)	☐ ☐	28	a b	1 ☐	☐ 2
29	a b	1 ☐	☐ ☐	30	a b	1 ☐	☐ ☐	31	a b	☐ 2	1 ☐	32	a b	1 ☐	☐ 1
33	a b	1 ☐	☐ 1	34	a b	☐ 1	2 ☐	35	a b	2(2) ☐	☐ 1(2)	36	a b	☐ 1	1 ☐
37	a b	☐ 2	1 ☐	38	a b	☐ 1	☐ ☐	39	a b	2 ☐	☐ 1(2)	40	a b	☐ ☐	1 2
41	a b	☐ ☐	☐ 2	42	a b	2 ☐	☐ ☐	43	a b	1(2) ☐	☐ 2	44	a b v	☐ 1 ☐	1 ☐ ☐
45	a b	1 ☐	☐ 2	46	a b	2 ☐	☐ 1	47	a b	1 ☐	☐ 2	48	a b	☐ 1	1 ☐
49	a b v	☐ 1 ☐	☐ ☐ 2	50	a b	2 ☐	☐ 1	51	a b	☐ 2	1 ☐	52	a b	2 ☐	☐ 1
53	a b	1 ☐	☐ 1	54	a b	☐ 1	2 ☐	55	a b	1 ☐	☐ 1	56	a b	☐ ☐	1 ☐
57	a b	1 ☐	☐ 2	58	a b	1 ☐	☐ 1	59	a b	1 ☐	☐ 2(1)	60	a b v	☐ ☐ ☐	☐ 1 1
61	a b	1 ☐	☐ 2	62	a b	☐ 2	☐ ☐	63	a b	2 ☐	☐ ☐	64	a b	1 ☐	☐ ☐
65	a b	☐ 2	1 ☐	66	a b	2 ☐	☐ ☐	67	a b	☐ 2	☐ ☐	68	a b	2 ☐	☐ 2
69	a b	☐ 1	1 ☐	70	a b	2 ☐	☐ ☐	71	a b	☐ 2	☐ ☐	72	a b	2 ☐	☐ 2
73	a b	☐ ☐	☐ 1	74	a b	1 ☐	☐ 1	75	a b	☐ 2	☐ ☐	76	a b	2 ☐	☐ 2

77	a	1	☐	78	a	1	☐	79	a	☐	☐	80	a	☐	2
	b	☐	1		b	☐	2		b	1	☐		b	1	☐
81	a	1	☐	82	a	2	☐	83	a	☐	1	84	a	1	☐
	b	☐	☐		b	☐	1		b	1	☐		b	☐	1
				85	a	☐	2	86	a	2	☐	87	a	☐	☐
					b	☐	☐		b	☐	☐		b	1	☐
				88	a	☐	2	89	a	☐	1	90	a	2	☐
					b	☐	☐		b	☐	☐		b	☐	1
				91	a	1	☐					92	a	☐	1
					b	☐	☐						b	☐	☐
				93	a	1	☐								
					b	☐	☐								
				94	a	1	☐								
					b	☐	1								
jami:		26	28	jami:				jami:				jami			
Tasdiq				Tasdiq				Tasdiq				Tasdiq			

TIP:

MBTI (TIPLAR INDIKATORLARI) SHKALALARI

S-N shkalasi: axborot to‘plash

S - Sensor tip, N - Intuitiv tip

Yung bo‘yicha axborot to‘plashning ikki yo‘li mavjud: sezgilar yordamida ☐ S (sensation) va intuitsiya yo‘li orqali ☐ N (intuition).

S (sezgilar orqali)

Vaziyatlarni aniq baholash uchun beshta sezgidan foydalanib, ma’lumotlarni maksimal darajada foydalanishga intiladi. Bunda uni ko‘proq “ayni damda va shu yerda” sodir bo‘luvchi va amaliy tajribalar ko‘proq qiziqtiradi.

N (intuitsiya yo‘li)

Atrof olamni idrok etish bevosita emas, balki o‘zining anglashilgan yoki anglashilmagan assotsiatsiyalari va tasavvurlari yordamida sodir bo‘ladi. Intilishlar bevosita ma’lumotlarning ma’nosi, munosabatlari va

ahamiyatini tushunishda intuitsiyalariga tayaniladi. Narsalarning sxemasi, yaxlit ko‘rinishiga urg‘u beriladi

3-Jadval

Tipning umumiy tavsifi

Sensor (S)	Intuitiv (N)
<i>Kalit so‘zlar:</i>	<i>Kalit so‘zlar:</i>
izchillik	Tasodiflik
ayni damdagi narsalarga qiziqish	kelajakka intiluvchanlik
reallika moyillik	Mavhumlik
qat’iylilik	Ilhomlanish
haqqoniylik	Nazariy
moddiylik	osmonda yurmoq
faktlar	fantaziyalar
amaliylik	Originallik
konkretlik	Umumiylik
<i>Xulq-atvoriga xoslik:</i>	<i>Xulq-atvoriga xoslik:</i>
“aniq dallilar” to‘plashni yoqtiradi	daliliy axborotlarning ko‘pligidan tez toliqadi
real amalga oshiriladigan ishlarni bajarishga intiladi	hammasini qanday kuchaytirish mumkinligiga e’tibor qaratadi
faqat amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan narsalarni o‘rganishni yoqtiradi	ishni bajarish yangi usullari va imkoniyatlarini hamma yerdan izlaydi yangi ko‘nikmalar bilan o‘rganishni yoqtiradi
natija tez namoyon bo‘lmasa ham qat’iyat bilan ishlaydi	vaqti-vaqti bilan zavq-shavqqa beriladi
xulosalarga qadamma-qadam keladi	ayrim hollarda o‘zining foydasiga ma’lumotlarni o‘zgartirishi mumkin
oddiy jihatlarini ham yaxshi fahmlaydi va esda tutadi	oddiy narsalarga vaqt yo‘qotishni yoqtirmaydi

kamdan kam ilhomlanadi va uning natijalariga ko'p ishonmaydi	xayollar va ilhomlanishni qadrlaydi. o'zining g'oyalari va o'y-xayollariga tayanadi
ishdagi aniqlik zarurligini yaxshi biladi	shoshib xulosa chiqaradi bir xillikni yoqtirmaydi
masalani soddalashtirishi mumkin	masalani qiyinlashtirishi mumkin
ma'lumotlarni real qabul qiladi va u bilan ishlaydi	ishni nega bunday bo'lib qolganligi haqida o'ylashni ma'qul ko'radi
topshiriqlarni an'anaviy bajarish usullarini yoqtiradi	

T-F shkalasi: qaror qabul qilish

T – fikrlovchi tip, F – his etuvchi tip

Yung bo'yicha olingan axborotlar asosida qaror qabul qilishda ikki yo'lga tayanadi: mantiqqa, ob'ektiv va haqqoniy mulohazalashga T (thinking), hamda qadriyatlar va hissiyotlar tizimiga tayanadi F (feeling).

4-Jadval

Tiplarning tavsifi

Fikrlovchi	His etuvchi
<i>Kalit so'zlar::</i>	<i>Kalit so'zlar:</i>
ob'ektiv	sub'ektiv
o'zining e'tiqodlariga ishonadi	rahmdil
qonunlarga tayanadi	vaziyatga
qat'iyatli	e'tiqod
aniqlik	insoniylik
ravshanlik	uyg'unlik
tanqidiylik	tushunish
siyosat	umumiy qadriyatlar
beg'araz	xayorixoh
<i>Xulq-atvoriga xoslik:</i>	<i>Xulq-atvoriga xoslik:</i>

voqelarning mantiqiy zanjirini yaxshi tiklay oladi.	munosabatlardagi uyg'unlikni yoqtiradi, unga erishishga intiladi.
muammo yoki vaziyatlarni tahliliga iqtidorli. boshqa insonlarning hojalariga ularning tuyg'ulariga nisbatan tezroq fahmlaydi	inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vaziyatlarni o'zgartirishni yaxshi taxmin qila oladi.
adolatli munosabatlarga zarurat sezadi	vaqti vaqti bilan uni maqtashlariga ehtiyoj sezadi
qattiqqo'l va qat'iyatli bo'olishi mumkin. anglamasdan turib insonni xafa qilib qo'yishi mumkin.	odamlarga simpatiya bilan munosabatda bo'ladi
zarur bo'lganda insonlarni jazolash yoki ishdan bo'shatishga qobiliyatli	odamlarga noxush narsalar haqida gapirishga to'g'ri kelsa, muammoni his etadi.
jonsiz ob'ektlar bilan ham ishlashga qobiliyatli	yaxshilik qilishni yoqtiradi
vaziyatning umumiy holatiga aralashmasdan, "chetdan" turib tahlil qilishga intiladi	ishda yoki g'oyalarda birinchi galda uni ko'ra oladi va insonlarga qiziqish bilan qaraydi
tanqidiy, xatolarni izlash va topishga usta	qaror qabul qilishda uni o'zi uchun qanchalik ahamiyatga egaligiga e'tibor qaratadi
"inson omili"ning ta'sirini baholay olmaydi, avval texnologiyani muhokama qiladi va insonning vaziyatlarga jalb etilishidagi motivlar, qadriyatlar, munosabatlar haqida so'ngra o'ylaydi	shaxs sifatida odamlar bilan oson munosabat o'rnatadi. muloqotda simpatiya, tushunish, taktni namoyon qiladi

E-I shkalasi: energiya manbai

E - Ekstravert tip, I - Introvert tip

Yung bo'yicha insonlar ikki xil ustanovkaga ajratiladi: tashqi olam, atrofdagi predmetlarga yo'naltirilgan E (extraversion) va ichki olamiga, tuyg'u, kechinmalariga I (introversion). Ekstravert va introvert har xil quvvat manbalariga ega va ulardan hech biri odatlangan shart-sharoitlaridan tashqarida ko'p bo'la olmaydilar.

5-Jadval

E-I shkalasi: energiya manbai E - Ekstravert tip, I - Introvert tip

Tiplar tavsifi

Ekstravert	Introvert
<i>Kalit so'zlar:</i>	<i>Kalit so'zlar:</i>
ijtimoiylashgan	hissiyotga moyil
o'zaro ta'sirlashuvchi	to'planganlik
tashqi qiyofa	ichki xususiyatlar
kenglik	chuqurlik
tanishlar doirasi keng	tanishlari doirasi tor
quvvatni sarflash	quvvatni tejash
tashqi shart-sharoit	ichki sezgi
muloqotmand	o'ylovchan
avval so'zlaydi, so'ngra o'ylaydi	avval o'yla, so'ngra so'yla
<i>Xulq-atvor jihatlari:</i>	<i>Xulq-atvor jihatlari:</i>
insonlar bilan muloqotga kirishimli, sekin-asta faollashadi, toliqmaydi, yon bermaydi. og'zaki nutqni afzal biladi.	odamlar bilan muloqotga kirishadi, shaxsiy quvvatiga tayangan holda ish tutsada, ayrim hollarda odamlar bilan munosabatda sustlashib qoladi
avval so'zlaydi, so'ngra o'ylaydi	avval o'ylaydi, so'ngra bajaradi yoki ba'zan umuman bajarmaydi
hammasini o'zi bajarish uchun sinab ko'rishni yoqtiradi	imkon bo'lsa xotirjam o'ylashni yoqtiradi
har xillik va harakatlarni yoqtiradi	odatlangan shart-sharoitini yoqtiradi

odamlar bilan salo-alik qilishga uquvli	e'tiborini o'zining kechinmalariga yo'naltirgan
uzoq vaqt sekin ishlashga nisbatan sabrsiz	bir ish bilan uzoq vaqt shug'ullana oladi
ish joyida ko'p insonlar bo'lishini yoqtiradi	yolg'iz ishlashda muammoni his etmaydi
bir kishi bilan suhbatlashi, undan nimanidir o'rganishni, o'z tajribasini baham ko'rishni yoqtiradi	kitob bilan ishlashni yoqtiradi
hammasini ovoz chiqarib aytadi	ovoz chiqarib hech narsani ifoda etmaydi

J-P shkalasi: atrof-olam bilan o'zaro munosabat usuli

J – hal qiluvchi tip, P – idrok qiluvchi tip

K.Briggs ikkita munosabat holatlarini qo'shdi: axborotlarni baholashga yo'naltirilgan ustanovka J (judgement) va axborotlarni idrok etishga yo'naltirilgan ustanovka P (perception).

6-Jadval

Tiplar tavsifi

Hal qiluvchi	Idrok etuvchi
<i>Kalit so'zlar:</i>	<i>Kalit so'zlar:</i>
jur'atli	kutuvchi
uzil -kesil	oldindan tayyorgarlik ko'ruvchi
tanyach	gapga ko'nadigan
nazorat	moslashuvchan
yakunlovchilik	ochiqlik
struktura	o'zgaruvchan
ravshan	tajriba-sinovdan o'tkazuvchi
dastur asosida harakatlanuvchi	oldindan aytib bo'lmaydigan
muddat	muddat nimaligini bilmaydi
<i>Xulq-atvor jihatlari:</i>	<i>Xulq-atvor jihatlari:</i>

uyushqoq, betartiblikni yoqtirmaydi mas'uliyatsizlikdan jirkanadi	mas'uliyat va batartiblikka intilmaydi. ko'p narsani oxirgi pallarda bajaradi
yaxshi va yomonni oson baholaydi, tez qaror qabul qiladi	qiyinchilik bilan qaror qabul qiladi, ishni oxirgacha yetkazmaydi; ko'pincha qarorni oxirgi pallarda qabul qiladi
vaziyatlardagi noaniqliklarda kuchli stressga beriladi va tezroq uni bartaraf etishga intiladi	tashqi cheklanishlar va eskirganliklarda kuchli stressni boshdan kechiradi, o'zgaruvchan vaziyatlarda oson moslashadi
o'zi ishini rejalashtirganda yaxshi ishlaydi	qarorni chetga surib qo'yadi, hamma vaqt axborot yetishmasligini bahona qiladi
ancha tezkorlik bilan ishning foydasiga ishdan qo'chishni yoqtirmaydi	noxush ishni chetga surib qo'yadi
inson yoki vaziyat , narsalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishni yoqtiradi	ko'p loyihalarni boshlashi mumkin, ammo ularni yakunlashda qiyinchilikni his etishi mumkin
ishni boshlashga unga o'zining kerakligi zarur	butunlay kutishga moyil
harakatni boshqarishda ro'yxat asosida ishlashni yoqtiradi	biror ishni bajarishni eslatib turuvchi ro'yxatdan foydalanadi

1.3. Psixologik tiplar

	Sensor		Intuitiv		
	Fikrlovchi	Hisetuvchi	Hisetuvchi	Fikrlovchi	

Introvert	Hal etuvchi	ISTJ	ISFJ	INFJ	INTJ	Hal etuvchi	Introvert
	Idrok etuvchi	ISTP	ISFP	INFP	INTP	Idrok etuvchi	
Ekstravert	Idrok etuvchi	ESTP	ESFP	ENFP	ENTP	Idrok etuvchi	Ekstravrt
	Idrok etuvchi	ESTJ	ESFJ	ENFJ	ENTJ	Idrok etuvchi	

ESFP

Ekstravertirt Sensor His etuvchi Idrok etuvchi. Shiori: “Axir bir bora yashaymiz!”

ISFP

Introvert Sensor His etuvchi Idrok etuvchi. Shiori: “Hammasini ko‘radi, hech biriga aralashmaydi”.

ESTP

Ekstravert Sensor Fikrlovchi Idrok etuvchi. Xarakteristikasi: “Miyaning zaminigacha realistlar”.

ISTP

Introvert Sensor FikrlovchiIdrok etuvchi. Xarakteristika: “Tiklikka yengillik bilan kutariluvchi”

ESFJ

Ekstravert Sensor His etuvchi Hal etuvchi. Xarakteristikasi: “Olamning hukmdorlari”

ISFJ

Introvert Sensor His etuvchi Hal etuvchi. Xarakteristikasi: “Yuqori burch hissi”.

ESTJ

Ekstravert Sensor Fikrlovchi Hal etuvchi. Xarakteristikasi: “Hayotning xo‘jayini”.

ISTJ

Introvert Sensor FikrlovchiHal etuvchi. Shiori: “Nimani bajarish kerak bo‘lsa, bajarmoq”.

ENFJ

Ekstravert Intuitiv His etuvchi Hal etuvchi. Xarakteristikasi: “Shirin so‘zi bilan ko‘ndiruvchi”.

INFJ

Introvert Intuitiv His etuvchi Hal etuvchi. Xarakteristikasi: “Atrofdagilarni ilhomlantiruvchi”.

ENFP

Ekstravert Intuitiv His etuvchi Idrok etuvchi. Shiori: “Assalomu alaykum hayot!”

INFP

Introvert Intuitiv His etuvchi Hal etuvchi. Xarakteristikasi: “Jamiyatning oliyjanob xizmatchisi”.

ENTJ

Ekstravert Intuitiv Fikrlovchi Hal etuvchi. Xarakteristikasi: “Tabiatiga ko‘ra daho”.

INTJ

Introvert Intuitiv Fikrlovchi Hal etuvchi. Shiori: “Hammasini yaxshilash mumkin”.

ENTP

Ekstravert Intuitiv Fikrlovchi Idrok etuvchi. Shiori: “Boshqalar uchun birgina qiziqarli yumush”.

INTP

Introvert Intuitiv Fikrlovchi Idrok etuvchi. Xarakteristikasi: “Muammo yechimiga muhabbat”.

1. 8. Sub‘ektiv nazorat darajasini o‘rganish metodikasi.

Tadqiqot maqsadi: Sub‘ektiv nazorat darajasini S.R. Panteleev va S.S. Stolin so‘rovnomasi yordamida shaxsning internallik va eksternallik darajalarini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Mazkur so‘rovnoma S.R. Panteleev va S.S. Stolin tomonidan Dj.Rotter shkalasini modifikatsiya qilish asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, sub‘ektiv lokal nazoratning ustun turini aniqlash uchun xizmat

qiladi.[32] So‘rovnoma talabalar bilan tashxis o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 32 taband (26 ta haqiqiy va 6 ta chalg‘ituvchi band) dan iborat.

S.A.Ikromovanning “O‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari” mavzusidagi tadqiqot ishida o‘smirlarda virtual olamga qaramlikning namoyon bo‘lish darajasiga ko‘ra, «internet iste‘molchisining» muloqotdagi nokompetentligi ma‘lumotlarni saralash, qayta ishlash, uzatish jarayonida vaqtni, fazoni idrok qilish ko‘nikmasi susaytirib, destruktiv axborotlarga nisbatan agressiv moyillikni kuchaytirganligi bilan bog‘liq differensial farqlar tufayli mafkuraviy immunitetni shakllanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning hududiy jihatlari aniqlashtirilgan.[19]

Sinaluvchiga ko‘rsatma: “Quyidagi juft–juft ta’kidlardan o‘zingizga ma’qul bo‘lgan bittasini tanlang”.

So‘rovnoma matni

1. a) bolalar tarbiyasidagi muammolar ota–onalarning haddan tashqari qattiqqo‘lligi tufaylidir. b) bolalar tarbiyasidagi ko‘pchilik muammolar ota–onalarning yetarlicha qattiqqo‘l emasligidan kelib chiqadi.
2. a) hayotdagi ko‘pchilik muvaffaqiyatsizliklar sababi omadsizlikdir. b) odamning omadsizligiga uning o‘z xatolari sababdir.
3. a) aholiga xizmat ko‘rsatish sohalaridagi ko‘pchilik muammolar ular bilan yaxshi kurash olib borilmayotganligi sababli ro‘y bermoqda. b) yaqin orada aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini deyarli yaxshilab bo‘lmaydi.
4. a) Odamning o‘zi nimaga arzisa, boshqalar unga shunday munosabatda bo‘ladilar. b) afsuski, ko‘p hollarda odamning ijobiy sifatlari e’tiborsiz qoldiriladi.
5. a) talaba hayotining tinch bo‘lishi uning fakultet rahbariyati bilan bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. b) mas’uliyatli va intizomli talabaning o‘qish bilan bog‘liq muammolari bo‘lmaydi.
6. a) o‘qituvchilarning adolatsizligi haqidagi shikoyatlar ko‘pincha asossiz bo‘ladi.

b) ko'pchilik talabalar ularning bahosi baxtli yoki baxtsiz tasodifga bog'liq ekanini tushunmaydilar.

7. a) omadsiz, hech kim hayotda muvaffaqiyatga erisha olmaydi. b) agar qobiliyatli inson hayotda ko'p narsaga erisha olmagan bo'lsa, demak, u bor kuchini ishga solmagan.

8. a) harchand harakat qilmang ba'zi odamlarga baribir yoqa olmaysiz. b) boshqalarga yoqmaydigan odamlar shunchaki ularning tilini tushunmaydi

9. a) nasl–nasab inson hayotida ko'p narsani hal qiladi. b) inson hayotining qanday bo'lishi uning o'z harakatlariga bog'liq.

10. a) tajribamdan bilamanki, agar biror narsa ro'y berishi kerak bo'lsa, u ro'y beradi. b) men shunga amin bo'ldimki, odamga ishongandan ko'ra harakat qilgan afzal.

11. a) darsga yaxshi tayyorlangan talaba ko'pincha yaxshi baho oladi. b) imtihon – bu lotereya va unga ko'p kuch sarflab tayyorlanish shart emas.

12. a) muvaffaqiyat mashaqqatli mehnatdan keyin kelib, odamga deyarli bog'liq emas. b) yaxshi joyga joylashish uchun zarur vaqtda zarur joyda bo'lish kerak.

13. a) talabaning fikri asosli bo'lsagina e'tiborga olinadi. b) talabalar dekanat qarorlariga deyarli ta'sir o'tkazmaydi.

14. a) nimani rejalashtirmay men doim mo'ljallangan narsalarni qila olishimga ishonaman. b) ba'zida ishni rejalashtirmagan ma'qul, chunki ko'p narsa vaziyatga bog'liq.

15. a) shunday odamlar borki, ulardan hech yaxshilik chiqmaydi. b) har qanday insonda qandaydir yaxshi jihat bo'ladi.

16. a) agar to'g'ri qaror qabul qilingan bo'lsa, natijaga erishish vaziyatga unchalik bog'liq bo'lmaydi. b) ko'p hollarda biz tavakkaliga qaror qabul qilamiz.

17. a) kimning rahbar etib tayinlanishi omadga bog'liq. b) odamlarni boshqarish uchun maxsus qobiliyatlari kerak.

18. a) olamdagi voqealar bizning ixtiyorimizdan tashqarisidagi kuchlarga bog'liq. b) siyosat va jamoat ishlarida qatnashib odamlar jahondagi voqealarni boshqarishi mumkin.

19. a) agar yotoqxonada hayot zerikarli bo'lsa, demak, talabalar qo'mitasi yaxshi ishlamayapti. b) yotoqxonadagi hayotni qiziqarli qilish talabalarning o'z qo'lida.

20 a) ko'pchilik odamlar, ularning hayoti tasodiflarga qanchalik bog'liq ekanini tushunmaydilar ham. b) omad degan narsaning o'zi yo'q.

21. a) odamning ba'zida xato qilishga haqqi bor. b) odatda yo'l qo'yilgan xatolarni bekitgan ma'qul.

22. a) nima uchun ayrim odamlarga yoqishimizni tushunishimiz qiyin. b) do'stlar sonining ko'pligi o'zining qanday inson ekaniga bog'liq.

23. a) hayotimda ro'y beradigan ko'ngilsizliklar bilan muvaffaqiyatlar o'zaro muvozanatda bo'ladi. b) baxtsiz hayot insonda qobiliyatlarning yetishmasligi, uning dangasaligi natijasi

24. a) magistrant talaba – bu avvallari bakalavriat bosqichida yaxshi o'qigan, qobiliyatli, mehnatsevar talabadir. b) magistraturaga kirish uchun tanish–bilish kerak.

25. a) ba'zida o'qituvchilar bahoni nima asosida qo'yishini tushunaolmay qolaman.

b) qanchalik ko'p harakat qilsam, shunchalik yaxshi baho olaman.

26.a) bugun sidqidildan mehnat qilsam, ertaga ilmiy muvaffaqiyatlarga erishaman.

b) ko'pchilik ilmiy kashfiyotlar kutilmagan tasodiflar natijasidir.

27. a) ba'zida hayotimda ro'y berayotgan hodisalarga men unchalik kuchli ta'sir ko'rsata olmayotganimni his etaman. b) hayotimda omad ko'p narsani hal qilishi mumkinligiga deyarli ishonmayman.

28. a) odamning yolg'izligiga uning o'zi boshqalar bilan do'stlashishni xohlamasligi sabab bo'ladi. b) boshqalarga yoqish uchun harakat qilishdan foyda yo'q, yoqsang ularga shunday ham yoqasan.

29. a) oliygohda keraksiz ravishda jismoniy tarbiyaga ko'p e'tibor beriladi. b) sport bilan shug'ullanish xarakter tarbiyasining eng yaxshi vositasidir.

30. a) men bilan nima hodisa ro'y bersa, bunga avvalo o'zim sababchiman. b) ba'zida menga hayotim o'z–o'zidan o'tayotgandek bo'lib tuyuladi.

31. a) oddiy talabaning dekanat nima asosda har xil qarorlar chiqarishini tushunishi qiyin. b) dekanat qat'iy choralar ko'rishiga talabalarning o'zi sababchi bo'ladi.

32. a) oddiy talabaning dekanat nima asosda har xil qarorlar chiqarishini tushunishi qiyin. b) dekanat qat'iy choralar ko'rishiga talabalarning o'zi sababchi bo'ladi.

Natijalar tahlili.

Internal lokus nazorat: 2b, 3a, 4a, 5b, 6a, 7b, 8b, 10b, 11a, 12a, 13a, 14a, 16a, 17b, 18b, 19b, 20b, 22b, 23b, 24b, 25b, 27a, 28b, 29a, 31a, 32b.

Eksternal lokus nazorat: 2a, 3b, 4b, 5a, 6b, 7a, 8a, 10a, 11b, 12b, 13b, 14b, 16b, 17a, 18a, 19a, 20a, 22a, 23a, 24a, 25a, 27b, 28a, 29b, 31b, 32a.

Chalg'ituvchi bandlar: 1, 9, 15, 21, 26, 30.

Sub'ektiv lokal nazorat ko'rsatkichi sinaluvchi internal lokus nazorat darajasini o'lchashga xizmat qiluvchi bandlar bo'yicha to'plangan ball asosida hisoblab topiladi. Bunda 26 ball maksimal darajadagi eksternal nazoratga muvofiq keladi.

So'rovnoma 300 nafar talaba bilan standartlashtirilgan: o'rtacha ball – 14, 2; standart og'ishish darajasi – 4,4.

Quyidagi jadval asosida dastlabki ballar standart birliklar – stenlarga aylantirilishi mumkin.

Dastlabki ballar	0– 4	5 - 7	8-10	11- 12	13- 14	15- 16	17- 18	19- 20	21- 22	23- 26
Stenlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Ikromova Sitara Akbarovnaning O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi tadqiqot ishida S.R. Ranteleyev va V.V. Stolinlar tomonidan modifikatsiya qilingan subyektiv lokal nazorat metodikasi bo'yicha olingan natijalar tahlil qilinganda o'smirni internallik va eksternallik darajalari ularni destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishida muhim o'rin tutishi o'rganilgan.[19]

Mazkur omillar bo'yisha olingan statistik natijalarning gender tahlilida, internallik omilida yeng yuqori farq kuzatilgan. Yigitlarda qizlarga nisbatan ishki lokus nazorat kushli ekanligi qayd etilgan. Bu esa yigitlarda o'z hayotlari ushun qizlarga qaraganda ko'roq mas'uliyatni his qilishlari hamda o'z hayotida bo'layotgan yutuqlar, muvaffaqiyatsizliklarga ko'roq o'zlarini sababchi deb bilishlari bilan izohlanadi. Qizlarda yesa mazkur holat aksinsha, ko'roq boshqalarni ayblash hissi ustunlik qilishi, ya'ni, bu holatni psixologik tahlil qiladigan bo'lsak, qizlarda yigitlar nisbatan «proyektsiya» mexanizmini ustunligini kuzatishimiz mumkin ekan. Demak, mazkur farqlarni yana bir ta'siri shundaki, ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli, vazifalari va mas'uliyatlari bilan bog'liq.

“Eksternal” lokus nazoratni qizlarga nisbatan yigitlarda ustun bo'lishi, yigitlarni qizlarga nisbat ko'proq ko'sha-kuyda, jamiyatda faolroq bo'lishlari ularni jinsi, roli, vazifalari bilan ham bog'liq. Ya'ni, yigitlar qizlarga nisbatan ko'proq shaxslar bilan muloqotda bo'lishadi, shuning uchun jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishiga imkon yaratadi. Demak, yigitlar biladiki, ma'lum bir bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmasdan turib ular jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmaydi, shuning ushun ular imkon qadar ko'proq tashqariga yo'nalganligi, o'zlarining bor imkoniyatlarini boshqalarga ko'rsatishi, shug'ullanayotgan faoliyatlariga bor ishki imkoniyatlarini safarbar yetishadi. Demak, yigitlar va qizlarda internal hamda eksternallik omillari ularni internetga, shuningdek, turli axborot ta'sirlarga berilish jarayonida muhim o'rin egallaydi.

1. 9. SHmishekning xarakter aksentuatsiyasini aniqlash metodikasi.

Tadqiqot maqsadi: SHmishek metodikasi yordamida shaxs xarakter aksentuatsiyasini aniqlash

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

O'tgan asrning ikkinchi yarmida, ya'ni 1968 yilda nemis psixiatr K. Leonhard “aksentuatsiya” tushunchasini fanga kiritdi. U buni

odatdagidan chetga chiqish, individual xususiyatlarning haddan tashqari kuchayishi deb ta'rifladi. Oradan to'qqiz yil o'tib, 1977 yilda, rus olimi A.E. Lichko aniqroq va torroq "xarakterli aksentuatsiya" atamasidan foydalanishni taklif qildi. Aynan shu ikki olim (K. Leonhard va A. E. Lichko) psixologiya faniga beqiyos hissa qo'shdilar, aksentuatsiyalarning yaqin, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalari va tasniflarini ishlab chiqdilar.

K. Leonhard aksentuatsiya tipologiyasini odamlarning shaxslararo muloqotini baholash asosida ishlab chiqdi. Uning tasnifi asosan kattalarga qaratilgan. Leonhard kontsepsiyasi asosida xarakteristik anketa ishlab chiqildi, uning muallifi X. Shmishek. Ushbu anketa odamda aksentuatsiyaning dominant turini aniqlashga imkon beradi.

Shaxs aksentuatsiyasiga tashxis qo'yish uchun mo'ljallangan so'rovnoma. So'rovnomaning ilmiy asosi K. Leonhardning "Shaxslar aksentuatsiyasi" kontsepsiyasi. Shaxs xususiyatlari asosiy va qo'shimchalarga bo'linadi. Asosiy xususiyatlari shaxsning negizini tashkil etadi. Asosiy xususiyatlar bo'rttirib ko'rsatilgan bo'lsa xarakter aksentuatsiyalangan hisoblanadi. K. Leonhard ta'biri bilan asosiy xususiyatlar bo'rtib chiqqan shaxs "Aksentuatsiyalangan" deyiladi. "Aksentuatsiyalangan shaxs" atamasi psixopatiya va norma oralig'ida joylashgan. Aksentuatsiyalangan shaxslar patologik shaxslar emas, lekin nomaqbul ta'sirlar natijasida aksentuatsiya patologik tus olib shaxs strukturasini vayron qilishi mumkin.

Xarakterning aksentuatsiyasi-inson xarakterining individual xususiyatlarining haddan tashqari intensivligi (yoki kuchayishi)...

Xarakterli aksentuatsiya deganda nimani anglatishini tushunish uchun "xarakter" tushunchasini tahlil qilish kerak. Psixologiyada ushbu atama insonning butun hayotida iz qoldiradigan va uning odamlar bilan, o'ziga va mehnatga bo'lgan munosabatini belgilaydigan insonning eng barqaror xususiyatlarining to'plami (yoki yig'indisi) sifatida tushuniladi.

Odatda, xarakterli xususiyatlar yanada jonli va o'ziga xos ko'rinadigan paytlar bor, ba'zida bu xususiyatlar "keskinlashishi" mumkin va ko'pincha ular o'z-o'zidan paydo bo'ladi, ba'zi omillar ta'siri ostida va tegishli sharoitlarda. Psixologiyada bunday keskinlashuv

(aniqrog'i xususiyatlarning intensivligi) xarakterli aksentuatsiya deb ataladi.

So'rovnomaga 10 shkaladan iborat, K. Leongardning aksentuatsiyalangan shaxslarning 10 tipiga asoslanib tuzilgan 88 savollarga "ha" yoki "yo'q" debjavob berish kerak.

Sinaluvchiga ko'rsatma: "Shaxsingizni turli tomonlariga tegishli 88 savolga javob berishingizni taklif etamiz. "Ha" degan javob o'rniga +, "Yo'q" degan javob o'rniga - belgisini qo'ying. Uzoq o'ylamasdan tez javob bering.

Savolnoma. Bolalar varianti.

1. Odatda sening kayfiyating chog', ko'ngling tinch?
2. Sen xafa bo'lishing osonmi?
3. Yig'lab yuborishing osonmi?
4. Ishingda xato bor yo'qligini takror-takror tekshirasanmi?
5. Sinfdoshlaringdek kuchlimisan?
6. Kayfiyating xursanchilikdan xafalikka o'tishi va xafalikdan xursandchilikka o'tishi osonmi?
7. O'yinlarda bosh bo'lishni yoqtirasanmi?
8. Biror sababsiz hammadan ranjib yurgan kunlaring bo'ladimi?
9. Jiddiy odammisan?
10. O'qituvchi bergan topshiriqlarni vijdonan bajarishga intilasanmi?
11. Yangi o'yinlarni ixtiro qila olasanmi?
12. Birovni xafa qilsang tez esingdan chiqadimi?
13. O'zingni rahmdil deya olasanmi?
14. Xatni pochta qutisiga tashlab, tirqichda osilib qolmadimikan deb, qo'ling bilan paypaslab ko'rasanmi?
15. Maktabda, sport seksiyada, to'garakda hammadan yaxshi bo'lishga harakat qilasanmi?
16. Bolalikda momoqalldiroqdan, itdan qo'rqqanmisan?
17. Bolalar seni o'ta tirishqoq va sarishta deb hisoblaydilarimi?
18. Seni kafiyyating maktab va uy yumushlarga bog'liqmi?
19. Tanishlaringni ko'pchiligi - seni yaxshi ko'radi deb aytsa bo'ladimi?
20. Ko'ngling notinch bo'lib turadimi?
21. Odatda sen ma'yusmisan?

- 22 Kulfatda o'ksinib yig'laganmisan?
- 23 Bir joyda turish sen uchun qiyinmi?
24. Senga nisbatan adolatsizlik qilishsa, haq-huquqing uchun kurashasanmi?
25. Ragatkadan mushuklarga tosh otganmisan?
26. Qiyshiq osilgan dasturxon yoki parda seni g'ashingga tegadimi?
27. Bolaligingda uyda yolg'iz qolishdan qo'rqqanmisan?
28. Sababsiz shodon yoki ma'yus bo'lganmisan?
29. Sinfda yaxshi o'quvchilardanmisan?
30. Sen tez-tez sho'xlik, tentaklik qilasanmi?
31. Jaxling chiqishi osonmi?
32. Ba'zan o'zingni juda baxtli his etasanmi?
33. Bolalarni kuldirib shodon qila olasanmi?
34. Odamga tik qarab u haqida o'ylagan narsalarni ochiq ayta olasanmi?
35. Qondan qo'rqasanmi?
36. Maktab topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarasanmi?
37. Adolatsizlikka ro'para bo'lgan odamlarni himoya qilasanmi?
38. Qorong'i, bo'sh xonaga kirish sen uchun yoqimsiz holatmi?
39. Diqqatni talab qilmaydigan, tez bo'ladigan ishdan ko'ra, senga shoshilmasdan diqqat bilan qilinadigan ishlar yoqadimi?
40. Odamlar bilan osongina tanishasanmi?
41. Badiiy kechalar, bayramlarda maroq bilan qatnashasanmi?
42. Uydan qochganmisan?
43. Bolalardan, o'qituvchilardan arazlab maktabga bormay qo'ygan kunlaring bo'lganmi?
44. Senga hayot og'ir tuyuladimi?
45. Omading yurishmaganda o'zingning ustringdan kulib qo'yishing mumkinmi?
46. Mojaro sababchisi sen bo'lmasang, yarashishga harakat qilasanmi?
47. Jonivorlarni yaxshi ko'rasanmi?
48. Uydan keta turib, biror kor-hol bo'lmaptimi deb, tekshirish uchun qaytganmisan.
49. Sen yoki sening qarindoshlaring bilan ba'zan biror-bir hodisa bo'ladigandek tuyuladimi?

50. Kayfiyating ob-havoga bog'liqmi?
51. Savolga javob bilsang ham, sinfda javob berishing qiyinmi?
52. Biror-bir kishidan arazlab, mushtlashib ketishing mumkinmi?
53. Bolalar o'rtasida bo'lish senga yoqadimi?
54. Biror narsani uddasidan chiqmasang, tushkunlikka tushasanmi?
55. O'yin yoki ishni tashkil qila olasanmi?
56. Yo'lda to'sqinliklar uchrasa ham maqsad sari qat'iy intilasanmi?
57. Kinofilm tomosha qilganingda, ma'yus kitob o'qiganingda yig'laganmisaii?
58. Biror-bir tashvish tufayli uyqing etmay yurganmisan?
59. Uy vazifani ko'chirishga berganmisan?
60. Kechqurun qorong'i ko'chadan bir o'zing o'tishdan qo'rqasanmi?
61. Har bir narsa o'z joyida bo'lishini tekshirasanmi?
62. Yaxshi kayfiyat bilan uxlab, noxush holatda uyg'onganmisan?
63. Notanish bolalar bilan o'zingni erkin his etasanmi (yangi sinfda, oromgohlarda)?
64. Senda bosh og'rig'i bo'ladimi?
65. Tez-tez kulasanmi?
66. Hurmat qilmagan odamlaring bilan shuni sezdirmay munosabat qura olasanmi?
67. Bir kunda ko'p ishlar qila olasanmi?
68. Senga nisbatan tez-tez adolatsiz bo'ladilarmi?
69. Tabiatni yaxshi ko'rasanmi?
70. Uydan keta turib, uxlagani yotayotganingda eshik yopiqqligini, chiroq o'chirilganligini tekshirasanmi?
71. Sen o'zingni qo'rqqoq deb hisoblaysanmi?
72. Bayram dasturxoni yonida kayfiyating o'zgaradimi?
73. Dramatik to'garakda qatnashasanmi, sahnada she'rxonlik qilishni yoqtirasanmi?
74. Biror-bir sababsiz, kayfiyating buzilib hech kim bilan gaplashging kelmay yurganmisan?
75. Kelajak haqida o'ylasang, kayfiyating ma'yus bo'ladimi.
76. Kayfiyating sababsiz shodlikka o'tib ketadimi?
77. Mehmonlarni gapga solib, ko'nglini ovlab bilasanmi?

78. Xafa bo‘lishing, g‘ashliging uzoq davom etadimi?
79. Do‘stlaring kulfatga duchor bo‘lsalar, sen qattiq iztirob chekasanmi?
80. Daftarda xato qilsang varaqni qaytatdan ko‘chirasanmi?
81. O‘zingni gumonsirovchi deb (ishonqiramaydigan) hisoblaysanmi?
82. Tez-tez uyquda bosinqirasanmi?
83. Mashina tagiga yoki derazadan o‘zingni tashlash xohishi bo‘lganmi?
84. Atrofdagilar shodu-xurram bo‘lsalar, sen ham xursand bo‘lasanmi?
85. Noxush hodisalarga duchor bo‘lsang, ularni bir muddat esingdan chiqarib, ular haqida o‘ylamay olasanmi?
86. O‘z-o‘zingdan kutmagan xatti-harakatlar qilib qo‘yasanmi?
87. Odatda sen kamgap, indamasmisan?
88. Dramatik to‘garakda qatnashganda rolga berilib, o‘zingning boshqachaliging, sahnadagidek emasliging esingdan chiqib ketishi mumkinmi?

Savolnoma.

(Yoshi kattalar uchun)

1. Kayfiyatingiz ko‘pincha shodon va beparvomi?
2. Xafagarchilikka beriluvchanmisiz?
3. Ba‘zan tezda yig‘lab yuborganmisiz?
4. Qilayotgan ishlaringizda o‘zingizni doimo haq deb hisoblaysizmi va shunga ishonch hosil qilmaguncha tinchlanolmaysizmi?
5. Bolalikka qaraganda hozir ancha dovyurakmisiz?
6. Sizning kayfiyatingiz sevinch ichiga sig‘maydigan darajadan to chuqur qayg‘ugacha o‘zgarishi mumkinmi?
7. Davrada diqqat markazda bo‘lasizmi?
8. Hech bir asossiz g‘azablanib, achchiqlanib hech kim bilan gaplashishni istamay yurgan kunlaringiz bo‘ladimi?
9. Siz jiddiy odammisiz? ‘
10. Kuchli to‘lqinlanishingiz mumkinmi?
11. Tadbirkormisiz?
12. Sizni xafa qilsalar esdan chiqarasizmi?
13. Ko‘ngli bo‘sh odammisiz?
14. Pochta qutisiga xatni tashlagandan keyin tirqishda osilib qolmaganini tekshirishga harakat qijasizmi?

15. Ishni doimo ipidan ignasigacha bajarishga intilasizmi?
16. Bolalikda itlardan yoki momaqaldiriqdan qoʻrqqanmisiz?
17. Boshqa odamlar bir-biriga talabchan emas deb hisoblaysizmi?
18. Kayfiyatingiz hayotiy voqea va kechinmalarga judayam bogʻliqmi?
19. Tanishlaringiz bilan doimo ochiqdan-ochiq munosabatda boʻlasizmi?
20. Kayfiyatingiz tez-tez tushkunlikda boʻladimi?
21. Bundan oldin asablaringiz susayganmi?
22. Kuchli bezovtalik yoki ehtirosli intilishlar boʻlib turadimi?
23. Uzoq vaqt stulda oʻtirish siz uchun qiyinmi?
24. Sizga nisbatan adolatsizlik qilinsa, manfaatlaringiz uchun kurashasizmi?
25. Odam oʻldirib bilarmidingiz?
26. Qiyshiq osilgan parda yoki notekis yoyilgan dastarxon shunchalik gʻashingizga tegadiki, oʻsha zahoti toʻgʻrilab qoʻyishni istaysiz.
27. Bolalikda uyda yolgʻiz qolganda qoʻrquv his etganmisiz?
28. Kayfiyatingiz tez-tez asossiz oʻzgarib turadimi?
29. Oʻz faoliyatingizga doimo tirishqoqlik bilan yondashasizmi?
30. Jahlingiz tezmi?
31. Cheksiz shodu hurramlikka berilib bilasizmi?
32. Xursandchilik hissiga butkul singa olasizmi?
33. Quvnoq tadbirlarni oʻtkaza olasizmi?
34. Odatda oʻz fikringizni odamlarga ochiq-oydin aytib bera olasizmi?
35. Qonni koʻrsangiz sizga taʼsir qiladimi?
36. Katta masʼuliyat bilan bogʻliq ishlar sizga yoqadimi?
37. Adolatizlikka duchor boʻlgan odamni himoya qiladigan odatingiz bormi?
38. Qoronggʻi ertoʻlaga kirishga qiynalasizmi?
39. Qora mehnatni ham oʻzingiz yaxshi koʻrgan ishdek astoydil va shoshilmasdan bajarasizmi?
40. Siz muloqotchanmisiz?
41. Maktabda sheʼrxonlikni yoqtirarmidingiz?

42. Bolalikda uydan qochganmisiz?
43. Siz uchun hayot og‘ir narsadek tuyuladimi?
44. Ishga borolmaydigan darajada asablaringizni charchatgan mojaro va ko‘ngilsizliklar bo‘lganmi?
45. Sizni muvaffaqiyatizlikda yumorni yo‘qotmaydigan odam desa bo‘ladimi?
46. Sizni haqorat qilgan odam bilan yarashish uchun o‘zingiz birinchi qadam qo‘yasizmi?
47. Hayvonlarni yaxshi ko‘rasizmi?
48. Siz uchun ishda yoki uyda biror-bir noxushlik ro‘y bersa u yerdan ketasizmi?
49. O‘zingiz yoki qarindoshlaringiz bilan biror-bir baxtsizlik sodir bo‘ladi degan noaniq hislar sizni xavotirga soladimi?
50. Kayfiyat ob-havoga bog‘liq deb hisoblaysizmi?
51. Ko‘p tomoshabinlar oldida sahnaga chiqishga qiynalasizmi?
52. Sizni atayin qo‘pol holda jahlingizni chiqarishsa, o‘zingizni yo‘qotib, qo‘lingizga erk bera olasizmi?
53. Muomala-muloqotda ko‘p bo‘lasizmi?
54. Biror narsadan ko‘nglingiz qolsa tushkunlikka tushasizmi?
55. Tashkilotchilik ishlari sizga yoqadimi?
56. Yo‘lingizda ko‘p to‘sqinliklar paydo bo‘lsa ham maqsadingizga astoydil intilasizmi?
57. Kinofilm tomoshasiga chunonan berilasizki, ko‘zingizga yosh qalqib ketadi?
58. Agar kun bo‘yi o‘z kelajagingizni yoki biror-bir muammoni o‘ylagan bo‘lsangiz uyqungiz etolmay qiynalasizmi?
59. Maktab chog‘ida o‘rtog‘laringizdan uy vazifasini ko‘chirganmisiz?
60. Kechasi qabristonga borishga qiynalasizmi?
61. Uyda har bir narsa o‘z joyida bo‘lishini diqqat bilan nazorat qilasizmi?
62. Yaxshi kayfiyatda uyquga ketib, lekin ko‘ngli g‘ash bo‘lib uyg‘ongan bir necha soat shu ahvolda bo‘lganmisiz?
63. Yangi vaziyatga oson moslasha olasizmi?

64. Bosh og'rig'iga moyilligingiz bormi?
65. Tez-tez kulasizmi?
66. Chin munosabatingizni oshkor etmasdan odamlarga xushmuomalali bo'la olasizmi?
67. Sizni chaqqon va harakatchan desa bo'ladimi?
68. Nohaqlikdan qattiq iztirob chekasizmi?
69. Sizni tabiatni chin ko'ngildan sevuvchilardan desa bo'ladimi?
70. Uxlash yoki chiqib ketish oldidan gaz, svet o'chganini, eshik yopiqqligini tekshiradigan odatingiz bormi?
71. Qo'rqoqmisiz?
72. Ob'ektiv sabablar bo'lmasa ham ba'zan boshingiz osmonga etgandek his qilasizmi?
73. Yoshlikda badiiy havaskorlik, teatr to'garaklarida qatnashishni yoqtirarmidingiz?
74. Uzoq-uzoqlarga tikilib turasizmi?
75. Kelajakka pessimistik munosabatdamisiz?
76. Kayfiyatingiz qisqa muddat ichida yuksak xursandchilikdan chuqur qayg'ugacha o'zgarishi mumkinmi?
77. Do'stlar davrasida sizning kayfiyatingiz oson ko'tariladimi?
78. Qahr-g'azabingiz uzoq davom etadimi?
79. Boshqa odam baxtsizlikka duchor bo'lsa, siz qattiq iztirob chekasizmi?
80. Maktab davrida daftarni varag'iga dog' tushsa shu varag'ni qayta ko'chiradigan odatingiz bormidi?
81. Sizni ko'proq ehtiyotkor va ishonqiramydigan odam desa bo'ladimi?
82. Siz tez-tez bosinqirab qo'rqinchli tushlar ko'rasizmi?
83. O'zingizni poyezd tagiga yoki derazadan tashlash fikri paydo bo'lganmi?
84. Quvnoq muhitda siz ham shodu-hurram bo'lasizmi?
85. Mushkul muammolarni oson chetga surib, ular haqida o'ylamay olasizmi?
86. Jahlingiz chiqsa o'zingizni idora qilishda qiynalasizmi?
87. Indamaslikni ma'qul ko'rasizmi (ha) yoki sergapmisiz (yo'q).

88. Spektaklda qatnashishga to'g'ri kelsa, rolga to'liq kirib o'zingizni esdan chiqara olasizmi?

KALIT

Savolga javob kalit bilan to'g'ri kelsa, javobga 1 ball beriladi.

1. Namoyishkorona tip:

+: 7, 19, 22, 29, 41, 44, 66, 73, 85, 88

- : 51

javoblar jami 2 ga ko'paytirilsin.

2. Botib qoluvchi tip:

+: 2, 15, 24, 34, 37, 56, 68, 78, 81

- : 12, 46, 59.

javoblar jami 2 ga ko'paytirilsin.

3. Pedantik tip

+: 4, 14, 17, 26, 39, 48, 58, 61, 70, 80, 83

- : 36.

javoblar jami 2 ga ko'paytirilsin.

4. Qo'zg'aluvchan tip:

+: 8, 20, 30, 42, 52, 74, 64, 86.

javoblar jami 3 ga ko'paytirilsin.

5. Gippertimik tip

+: 1, 11, 23, 33, 45, 55, 67, 77,

javoblar jami 3 ga ko'paytirilsin.

6. Distimik tip:

+: 9, 21, 43, 75, 87.

javoblar jami 3 ga ko'paytirilsin.

7. Xavotirlanuvchi tip:

+: 16, 27, 38, 49, 60, 1, 82.

- : 5.

javoblar jami 3 ga ko'paytirilsin.

8. Affektiv – ekzaltatsiyalangan tip:

+: 10, 32, 54, 76.

javoblar jami 6 ga ko'paytirilsin.

9. Emotiv

+: 3, 13, 35, 47, 57, 69, 79.

javoblar jami 3 ga ko'paytirilsin.

10. Siklotim tip:

+: 6, 18, 28, 40, 50, 62, 72, 84.

javoblar jami 3 ga ko'paytirilsin.

Ko'paytiruvlardan so'ng ballar jami maksimum - 24. Ba'zi manbalarga ko'ra 12 balddan yuqori ko'rsatkich aksentuatsiya belgisi hisoblanadi.

Boshqalar, savolnomani amaliyotda qo'llash asosida 15 balldan 19 ballgacha bo'lgan ko'rsatkich u yoki bu aksentuatsiya tipiga tendensiya borligi haqida so'z yuritadilar va faqat 19 balldan yuqori ko'rsatkich xarakteri aksentuatsiyalangan deb ko'rsatadi. Olingan ko'rsatkichlar "shaxsning aksentuatsiyalangan profili" namoyon etilishi mumkin.

Bu test bo'yicha ko'pchilikning ko'rsatkichlari o'rta me'yordan chetga chiqmaydi. Sizni natijangiz 19 balldan yuqori bo'lmasa, gap sizning shaxsingiz aksentuatsiyasi haqida emas, faqatgina xarakter va temperamentning alohida xususiyatlari haqida bo'ladi. Shu bois biror-bir aksentuatsiyaning tavsifini o'zingizni shaxsiy tavsifnomangiz deb qabul qilmang. esda tuting, psixologiyada shaxsning yaxshi yoki yomon xususiyatlari yo'q. Sizni boshqalardan yoki boshqalarni sizdan farqlaydigan individual xususiyatlar bor xolos. Sizning kayfiyatingiz, ruhiyatingiz, ba'zan shu xususiyatlarning qanday qabul qilishingizdan, boshqalarga zarar etkazmasdan o'zingizni foydangizga ishlata bilishingizga bog'liq. Psixologik nuqtai nazaran yaxshi va yomon xususiyatlar bo'lmaydi degan printsipga asoslansak "ayb qilma" degan jumlaning tushunishimiz mumkin.

Leongard tomonidan belgilangan aksentuatsiyalangan haxslarning 10 tipi 2 guruhga bo'lingan: xarakter aksentuatsiyasi (namoishkor, pedantik, botib qoluvchi, qo'zg'aluvchi) va temperament aksentuatsiyasi (gipertimik, distimik, xavotir-qo'rquvchan, tsiklotimik, affektiv, emotiv)

1. Namoiishkor tip: harakatchan, chaqqon, odamlar bilan munosabat o'rnatishi oson, o'ziga nomaqbul bo'lgan holat va hodisalarga e'tibor bermaydigan (siqib chiqazish qobiliyati) yolg'on gapirish,

maqtanchoqlik, manmanlik, kibr-havoga berilish bu shaxsga xos. Boshqalar ustidan hukmronlik qilish, boshqalar tomonidan tan olinishi, odamlar diqqat-e'tibori markazida bo'lish, o'zi haqida maqtov va olqishlar eshitishni yoqtiradigan odam. Odamlar bilan murosaa qilish yuqori darajada, kayfiyati tez o'zgaruvchan, lekin hissiyotlari chuqur emas va shaxslararo ziddiyatlarning sababchisi. Cheksiz xudbin, izzattalab, olqishni sevuvchi. Birovlarning maqtovga sazovor bo'lishini ko'rolmaydigan. Davralarda diqqat markazda bo'lish asl maqsadi. O'z-o'ziga baho berishi haqiqatdan yiroq. Boshqalarni g'ashiga tegish darajasida o'ziga yuqori baho beradi, doimiy tarzda mojarolar uyushtiradi, lekin o'zini qat'iy himoya qiladi. Siqib chiqazish qobiliyati patalogik bo'lib, o'zi bilishni istamaydigan narsani butkul esidan chiqazishi mumkin. Shu bois yolg'on gapirishda o'zini erkin tutadi. Yolg'on gapirayotgani yuzida aks etmaydi, chunki uningcha bu gap haqiqat. Binobarin, yolg'onni dildan his etmaydi yoki chuqur yondashmaydi, shuning uchun vijdoni qiynalmaydi. Chiroyli g'oyalari bilan boshqalarni ergashtira olish qobiliyatiga ega.

2. Botib qoluvchi tip: bu shaxs kamgap, muloqotchanligi sust, pand- nasihat qilishni sevuvchi. Ko'pincha boshqalarning o'ziga bo'lgan munosabatini nohaq deb iztirob chekadi. Shu bois odamlarga nisbatan sergak va ishonqiramaydigan, tez xafa bo'ladigan, ko'ngli nozik, gumonsurovchi, qasдини olmay qo'ymaydigan, xafagarchilikdan chiqqa olmaydigan. Boshqalarni mensimay tez-tez mojarolar sababchisi bo'ladi. Izzattalabligi avj olib o'z manfaatlarini qat'iy himoya qiladi. o'z bilganidan qolmaydigan, har bir ishda yuksak ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishga harakat qiladi, o'z maqsadiga erishishda tinimsiz. Haqparast, rashkchi, hadiksirovchi. Affektga moyillik - asosiy xususiyati. Motorika, tafakkur, affektlarning namoyon bo'lishi inert.

3. Pedantik tip: Psixik jarayonlari inert, vazmin, psixologik travmadan uzoq muddat chiqqa olmaydigan. Mojarolarda kamdan-kam qatnashib, ko'pincha passiv tomonda bo'ladi. Biror-bir tartib buzilgudek bo'lsa qattiq hayajonga tushadi. Xizmat jarayonida qat'iy byurokrat, atrofdagilarga ko'p rasmiy talablar qo'yadi. Saranjom-sarishta, ozoda, tozalikka alohida e'tibor beradi, mayinkor. ishga

vijdonan yondoshadi, rejaga qat'iy rioya qiladi, xatti-harakatlari og'ir, bosiq, ishning yuqori darajadagi sifatini ko'zlaydi, o'zini qayta-qayta tekshiradi, bajarilgan ishni to'g'riligidan shubhalanadi. Rasmiyatchi. Liderlikni boshqalarga berib yuboradi.

4. Qo'zg'aluvchan tip. Boshqaruvdagi yetishmovchilik, mayl va ishtiyoqlar nazorati sust bo'lib fiziologik ehtiyojlar shashti yuksak bo'ladi. Yuqori darajadagi impul'siv, instinktiv, qo'pol, badqovoq, jahldor, janjalkash, mojaro va ziddiyatlarni ko'pincha o'zi uyushtiradi va aktiv qatnashadi. Arzimas narsaga tutaqib ketib, jamoada chiqisholmay, ish joyini tez-tez almashtirib turadi. Muomala - muloqotda murosa qilishi juda past, verbal va noverbal feaktsiyalari sust. Biror-bir mehnat, faoliyat bu shaxs uchun qiziqarli emas, majbur bo'lganidan ishlaydi, o'qishda qunt yo'q, ertani o'ylamay, shu kun bilan yashab ko'proq ko'ngilxushlikni ko'zlaydi. Yuksak impul'sivlik yoki hayajon reaksiyasini o'chirish qiyin, shu bois atrofdagilar uchun xavfli. Hukmini o'tkazishni yaxshi ko'radi va atrofiga bo'ysunuvchan shaxslarni yig'adi.

5. Gipertimik tip. Bu shaxs chaqqon, muloqotchan, sergap, mimika va pantomimika rivojlanganligi bilan ajraib turadi. Mey'ordan ortiqcha mustaqil, ba'zan sho'xlik qiladi, boshqalar bilan munosabatda psixologik distantsiyani noto'g'ri his etadi. Suhbatda boshlangan mavzuni qoldirib beixtiyor boshqa mavzuga o'tib ketadi. Tengdoshlar davrasini xush ko'radi, shovqin suron o'rnatib, ularni boshqarishga intiladi. Ko'pincha kayfiyati chog', salomatligi yaxshi, uyqusi xotirjam, chehrasi ochiq, serharakat, ishtahasi karnay, kayfu safoga intiladi. Bu shaxs o'ziga baxo berishi baland, shodon, engiltak, shu bilan birga ishchan, tadbirkor, zeriktirmaydigan suhbatdosh. Tashabbuskor, boshqalarni ko'nglini ko'tara oladigan, serharakat. Haddan tashqari mustaqillika intilishi ziddiyatga sabab bo'lishi mumkin. Omadsizlik yoki qat'iy to'sqinlikka duchor bo'lsa badjahl va darg'azab bo'ladi. Axloqsiz xatti harakatlarga moyil, puxta o'ylanmagan rejalarni odamlarga tavsiya etadi. O'z vazifa va majburiyatlariga jiddiy munosabatda bo'lmaydi. Qat'iy intizom, bir maromdagi faoliyatga, yolg'izlikka bardosh berolmaydi.

6. Distimik tip. Bu shaxs jiddiyligi, tushkunlik kayfiyati, sustkorligi, irodasizligi bilan ajralib turadi. Kelajakka munosabati pessimistik, o'z-o'zini baholashi past, muloqotchanligi past, indamas darajada kamgap. Shovqin suron davralardan yiroq bo'lishga harakat qiladi, uydan chiqishni yoqtirmaydigan individualist, turmush tarzi belgilangan chegaradan chiqmaslikka intiladi. Ko'pincha badqovoq, merov, hayotiy nuqson, kamchilikka ko'proq e'tibor beradi. Bu shaxslar vijdonli, do'stlarni qadrlaydigan va ularga bo'ysinadigan. Haqni nohaqdan tez ajrata oladigan. Fikr yuritishi tezligi sust.

7. Xavotirlanuvchi tip. Muloqotchanligi past, kafiyaati mayus, qo'rquvchan, sergak, hadiksirovchi, o'ziga ishonqiramaydigan. Bu tipdagi bolalar ko'pincha qorong'ilikdan, hayvonlardan, yolg'iz qolishdan qo'rqadilar. Sho'x, chaqqon tengqurlaridan chetroqda bo'lishga harakat qiadilar, tortinchoq va uyatchan. Imtihonlar, nazorat ishlari, tekshiruvlarni og'ir his etadi. Odatda sinf oldida javob berishdan tortinadi. Yoshi kattalarning pand-nasixatlari ularning vijdonini qiynab gunohkorlik hissini uyg'otishi mumkin. Burch, ma'suliyat hissi ularda barvaqt shakllanadi, axloqiy va etik talablari juda yuksak. O'z-o'zini boshqalardan kam his etadi, o'z qobiliyatlarini keng namoyon kila oladigan faoliyat orqali shu hisni bekitishga harakat qiladi, bolaligidan ko'ngli nozik, tortinchoqligi ko'ngli tusagan odamlari bilan yaqinlashishiga xalal beradi. Atrofida gilarning munosabati bu shaxs uchun eng nozik muammo. Hazilni ko'tarolmaydi, nohaq ayblovlarga duchor bo'lsa o'zini himoya qila olmaydi. Ziddiyat va mojarolarga kamdan kam qatnashadi, muammoli vaziyatga tushib qolsa ko'mak va tayanch izlaydi. Iltifotli, o'ziga nisbatan talabchan, vazifalarni astoydil bajaradi. O'zini himoya qilolmasligi sabab tez-tez hazil-mazahga duchor bo'ladi.

8. Affektiv-ekzaltatsiyalangan tip. Bu shaxs har narsadan hayratlanib, zavq-shavqqa to'lib, yuzidan tabassum arimaydigan odam. Boshqalarda ko'tarinki kayfiyatga sabab bo'lmaydigan narsalar bu odam uchun xursandchilik va rohatlanish hissini uyg'otadi. Xursand bo'lsa boshi osmonga etgandek his etadi, xafa bo'lsa butkul tushkunlikka tushadi. Muloqotchanligi yuksak, ochiqtabiat,

so‘zamol. Bahslashishni yaxshi ko‘radi, lekin to‘qnashuvgacha olib bormaydi. Mojaro va ziddiyatlarda ham aktiv, ham passiv tomon bo‘lishi mumkin. Do‘st-yorlariga bog‘lanuvchan, altruist, hamdardlik qila oladi, didli, hissiyotlari samimiy va yorqin. Panikyor, kayfiyati barqaror emas, shodu-xurramlikdan ma’yuslikka o‘tishi oson, xatti-harakati keskin, labil psixika sohibi.

9. Emotiv tip. Ekzoltatsiyalangan tipga yaqin, lekin namoyon bo‘lishi sekinroq. Nozik tabiat, emotsional, xavotirlanuvchan, qo‘rqoq, ko‘p gapiradigan, nozik hissiyotlarga beriluvchan. Sahnada, fil’mlarda tajovuzkor xatti-harakatlarni ko‘rsa, ta’sirlanib uzoq vaqt esidan chiqara olmaydi va uyqusi buziladi. Mojaro va ziddiyatlarda juda kam qatnashadi, xafa bo‘lsa ichiga yutib, unqib yuradi. Ma’suliyatii, burchni o‘ta jiddiy his etadi, o‘slmlklami o‘stirish, jonivorlarni parvarish qilishni yaxshi ko‘radi. Tabiatni asraydi.

10. Siklotim tip. Bu shaxsda gipertimik va distimnik holatlar almashib turadi. Kayfiyatida tez-tez davriy o‘zgarishlar bo‘ladi va tashqi hodisalarga bog‘liq. Xursandchilikda gipertimiya xususiyatlari namoyon boladi: ko‘p gapiradi, ishchanligi oshadi, har xil fikrlar, tashabbuskorligi oshadi, xafa bo‘lsa tushkunlikka duchor boladi, xatti-harakati va fikrlashi sust boladi, o‘zgalar bilan muomala usullari tez-tez o‘zgarib turadi. O‘spirinlik davrida tsiklotimik aktsentuatsiyaning ikki variantini kuzatish mumkin; tipik va labil sikloid. Tipik tsikloid bolaligida odatda gipertimga o‘xshab ketadi, keyinchalik esa harakatsizlikni namoyon etadi, oldin oson bo‘lgan narsalar, endi kuchli harakatlarni talab etadi. Oldiniga chaqqon bo‘lgan endi harakatlari sust, uydan chiqmaydigan, ishtahasi buzilgan, uyqusiz yoki aksincha uyqisirab yuradigan bo‘ladi. Tanbehlarga jahl bilan javob beradi, lekin ko‘nglining tubida g‘ashlik bo‘lib dipresiyaga duchor bo‘lishi mumkin. O‘z joniga qasd qilish ehtimoli bor. O‘qish jarayoni tekis emas, qoldirilgan materiallarini qiyinchilik bilan o‘zlashtiradi, darslarga nisbatan o‘zida nafrat uyg‘otadi. Labil sikloidlarda tipik tsikloidlarga nisbatan kayfiyat o‘zgarish fazalari odatda qisqaroq, yomon kunlari sustkor va sokin emas, balki darg‘azab kayfiyatga ega.

Ko'tarinki kayfiyat davrida do'st orttirish va davralarda bo'lish ishtiyoqi bor. O'z-o'ziga baho berish kayfiyatiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda aksentuatsiya fonida nevrozlar va depressiya rivojlanadi. Doimiy o'zgarishlar xarakter aksentuatsiyasining aniq turidan yashirin holatga o'tish bilan tavsiflanadi. Ehtimol, stress va tanqidiy yoshga uzoq vaqt ta'sir qilish bilan psixopatik reaksiyalar paydo bo'lishi, bolani noto'g'ri tarbiyalash oqibatida aksentuatsiya turlarini biridan ikkinchisiga o'tishiga olib keladi.

Shu boisdan, bugungi kunda yoshlarda xarakter aksentuatsiyasining namoyon bo'lish omillarini bartaraf etish, ularni o'rganishga va tegishli choralarni qo'llashga qaratilgan ilmiy amaliy vazifalarni hal etishni oldimizga qo'yadi. Yoshlarga hayotiy bilim ko'nikmalarni o'rgatishda, tengdoshlari bilan o'zaro kelishuvga erishishda va kelgusida hayotda o'z o'rnini topishda yoshlikdagi xarakter hususiyatlarining ahamiyati katta ekanligini e'tirof etish lozim.

1. 10. "Mavjud bo'lmagan xayvon" metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Bolaning ichki his-tuyg'ularida kechayotgan salbiy hususiyatlarni yuzaga chiqarish. Ularning xarakter xususiyatlarida shakllanib borayotgan agressivlik, o'jarlik, qaysarlik, kelajakka ishonchsizlik kabi illatlar mavjudligini aniqlash.

Kerakli jihozlar: Oddiy o'rta yumshoqlikdagi uncha qattiq bo'lmagan qalam va oq qog'oz. (Rangli qalam ishlatilmaydi). Ushbu metodika o'z mazmuniga ko'ra proektiv metodikalar qatoriga kiradi. Uning yordamida shaxsning muayyan xususiyatlari va psixik holatlari haqida ma'lumot to'plash mumkin.

Metodika yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'lganligi sababli, u tadqiqot batareyasiga kiruvchi metodikalardan biri sifatida qo'llaniladi.[17]

Metodika yordamida;

- o'z-o'ziga baho berish xususiyati;

tekshiriluvchining o'z holatidan qoniqmasligi, atrofdagilar tomonidan yetarlicha tan olinmaslik;

- o‘ziga ishonmaslik, qo‘rqinch, jur'atsizlik kabi sifatlar;
- insonning faoliyatga yo‘nalganligi;
- fikrlash xususiyatlari;
- egosentrizm;
- shaxsning agressivligi;
- xavotirlanish va himoya reaksiyalari;
- shaxsning ijodiy imkoniyatlari kabi jihatlari o‘rganish mumkin.

Metodika universal xarakterga ega. Uni turli yoshdagi, turli rivojlanish

darajasiga ega bo‘lgan sinaluvchilarda o‘tkazish mumkin. Bu yerda eng muhimi

tadqiqotchi tomonidan rasm va uning detallarini to‘g‘ri tavsiflashdir.

F.F.Rasulovning “O‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqot ishidagi to‘plangan natijalarining ilmiy ahamiyati o‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining ilmiy-nazariy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, agressivlikka undovchi motivlar, agressiyaning namoyon etish shakllari hamda jins tafovutlari, ichki evolyusiyasi, oilaviy munosabatlar negizida agressivlik shakllanishining psixologik mazmun-mohiyati ochib berilganligi bilan izohlanadi.[33]

Sinaluvchiga ko‘rsatma: Birinchi navbatda maktab psixologi o‘quvchilar bilan umumiy tarzda samiy savol-javob o‘tkazishi, ya’ni ularni topshiriqni erkin bajarishga hozirlashi lozim. So‘ng bolalarga «Olamda mavjud bo‘lmagan hayvon rasmini tasvirlab bering va unga mavjud bo‘lmagan ism bering. Mavjud bo‘lganu lekin yo‘q bo‘lib ketgan hayvonlarning rasmini chizish mumkin emas» - deb murojaat etiladi. Mashg‘ulot olib boruvchi esa o‘zi topshiriqning bajarilish jarayonini diqqat bilan kuzatadi.

Rasm chizib bo‘lingandan so‘ng savol-javob orqali ma’lumot olinadi. Jinsi, yoshi, aniqlanadi. Agressiv xarakterga ega bo‘lgan detallarning ishlatilishi va nima uchun chizilgani haqida ma’lumot olishga harakat qilinadi. Hayvonlarning yashash sharoiti, ovqatlanishi, ko‘payishi va dushmanlari bilan munosabatlari haqida suhbat uyushtiriladi.

Agar tadqiq qilinuvchi javobga tayyor bo'lmasa, hayvonning bir kuni haqida gapirib berish taklif etiladi.

Agar tadqiq qilinuvchi qanchalik o'zi yaratgan hayvonga yuqori baho bersa, demak u shunchalik hayvonni o'ziga yaqinlashtiradi va o'zida bor xususiyatlarni o'zi sezmagan holda chizgan rasmiga mo'ljallangan va ma'lumotlar to'plashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Birinchi taasurotlarda-tadqiqlanuvchining emotsional holati, ichki balansdagi bazi bir holatlar, yetishmovchiliklarning mavjudligi.

Bu tadqiqotdan olingan ma'lumotlar to'la idrok qilinishi va maxsus analiz qilinishi zarur. Analiz qilinayotgan va idrok ob'ektga aylangan rasmdagi barcha detallar katta ahamiyatga ega va qimmatlidir. Umumiy taasurotda tadqiq qilinuvchini o'zi chizgan rasmga bo'lgan munosabati ham ahamiyatlidir.

Rasmning analiz ob'ektlari:

1. Formaligi:

a) Fazodagi semantik joylanishi rasmdagi barcha detallar katta ahamiyatga ega va qimmatlidir. Umumiy taasurotda tadqiq qilinuvchini o'zi chizgan rasmga bo'lgan munosabati ham ahamiyatlidir.

Rasmning analiz ob'ektlar:

1. Formaligi:

- fazodagi semantik joylanishi
- grafologik xususiyatlari
- chiziqlar analizi va xarakteri
- fazoviy-simvolik aspekt

2. Mazmuni:

- figura qismlarining markaziy ma'nosi
- figuraning tayanch qismlari
- figuradan yuqoriroqda joylashgan qismida

3. Tematika:

- o'ziga xos detallar
- nomlanishi

Rasmning fazodagi joylanishi semantikasi

Rasmning xususiyatlari	Interpritatsiyasi (joylanishi)
a) rasm o'rtada joylashgan	norma

b) varaqaning yuqori qismiga yaqin	Qanchalik yuqori bo'lsa o'z-o'ziga berilgan baho ham shunchalik yuqori jamiyatdagi o'rnidan qoniqishining yo'qligi, maqto'v, obro-e'tiborga ega bo'lishga ehtiyojning mavjudligi.
v) varaqaning pastki qismiga yaqin	O'z-o'ziga baho berish past, o'ziga ishonch kam, nimadandir siqilgan, shu bilan birga qa'iylik kam. Qandaydir to'siqlarni mavjudligini sezadi.
g) rasm o'ngroqda joylashgan	Kelajakka bo'lgan intilishi o'z-o'zini nazoratga intilishi Ekstravert judayam o'ng burchakka joylanishi isyonkorlik, bo'ysinmasligini anglatadi.
d) rasmni chapga joylanishi	O'tmishga e'tibor berish, faoliyatsizlik, uyatchanlik, intraversiya
e) rasm varaqaning 2-3 qismini tashkil qilsa	Semantik qonuniyatlarga bo'ysunishlikning yo'kligi
j) chap burchakning yuqori qismida juda kichkina joylashgan	Yuqori xavotirlanish, fantaziyaga intilish, o'tmishga intilish, yangi his-tuyg'ulardan qochish, o'z «men» va idealdagi «men» orasidagi mavjud disgarmoniyaning mavjudligi.

Bosh va uning o'rnini bosuvchi qismlar

a) bosh o'ngga qaratilgan	Harakatchanlik va faoliyatga intilish, mo'ljallagani amalga oshadi, o'z rejalarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan
b) chapga qaratilgan bosh	Refleksiya va shartakilik yo'q, faoliyatdagi odam emas, qat'iysizlik, faoliyatdagi qo'rquv, o'ylagan ishlarini bir

	qisminigina hayotga tadbiq etadi. O'tmishda biror bir voqea ta'sir etgan bo'lishi kerak.
v) oldi bilan chizilgan bosh	Egotsentrizm, to'g'ri so'zlik, kompromis mavjud
g) ikki va undan ortiq bosh	Qarama-qarshi fikrlar, tendentsiyalar

Ideomotr aktlarning xarakteristikasi grafiklar

a) chiziklar analizi

Bir biriga yopishib ketgan chiziqlar	Yengil asabiylanishi
Birlashtirilmagan burchaklar	Nevroz
Iflos rasm	Yuqori xavotirlanish
Rasm konturining aniq bo'lmagan holda chizilishi	O'ziga ishonmaslik
Juda ko'p junlar	O'ziga ishonmaslik
Vertikaldan chetga chiqish	Passivlik
Oxirigacha chizilgan qismlar, juda katta chizilgan oyoqlar, tuyoqlar	Nevrotizm

b) chiziqlar xarakteri

O'rgimchaksimon, bosib chizilgan chiziqlar	Energiya ayash, Astenitsatsiya. Tonusning pasayishi.
Bosib chizilgan chiiklar	Katta xavotirlanish (xavotirning sababi nima?)
Shtrixlarning ko'pligi	Xavotirlanish

Fazoviy – semantik xarakteristika

a) chiziqlar yo'nalishi

Pastga tushib ketayotgan chiziqlar	Depressiyaning mavjudligi, charchoqlik, o'z kuchini ayash
Yuqorilab ketayotgan chiziqlar	Agressivlik, o'z-o'zini ayamaslik

b) kontur xarakteri

Dumaloq shaklning ishlatilishi	Qo'rquv, nimanidir yashirish, sirsqaqlash, ochiq namoyon
--------------------------------	--

	bo'lishdan qo'rqish
Kontur chiziqlarni qoramtiriligi	Qo'rquv, xavotirlik
Ikkilangan chiziqlar	Xavotirlanish, ikkilanish, qat'iyatsizlik
Uchli narsalar, nina bo'rtib chiqqan narsalarni ifodalash	Agressiya

Diqqat! Grafologik aspekt bilan sematik joylanishini solishtiring (o'z-o'zini himoya qilish, agressiya)

Yuqori konturdagi ninalar, uchli narsalar, bo'rtiqlar	Yuqori mansabdagi shaxslar, taqiblovchi va majbur etuvchidan (kattalar, o'quvchilar, otionalarga qarshi) himoyalanish
Pastki konturdagi chiziqlar	Kichkinalarni kinoyalarga qarshi himoya. Noto'g'ri baholanishdan qo'rqish.
Yon boshidagi konturlardagi chiziqlar	O'z-o'zini himoya qilishga tayyorgarlik.

O'z-o'zini himoya qilish

O'ngda: Ko'proq faoliyat jarayonida o'z-o'zini himoya qilish

Chapda: O'z fikrlari, didi, dunyoqarashini himoya qilish

a) tirnoq, tishlar, panjalar, suyaklar	Agressivlik darajasi
b) juda katta qilib chizilgan rasm	Yuqori affektivlik, egotsentrizm

Diqqat! Odatda bolalar kattalarga qaraganda yirikroq rasmlar chizishadi.

v) rasmning kichiklashtirilishi	Yuqori darajadagi o'z-o'zini nazorat qilish, siqilish ta'sirini his qilish
g) qa'iy bir-biriga jipslashgan chiziqlar	Affektivlikni yaxshi nazorat qilinishi
d) rasmni intensivligiga qarab kattalashtirish, lekin uzilishlar mavjudligi	Yuqori qo'zg'aluvchanlik, affektiv holatlarni yomon nazorat qilinishi

e) rasmda iliqlikni yo'qligi	Uzoq davom etadigan emotsionallikni bostirilishi
------------------------------	--

Rasm mazmuni analizi

Quloqlari	Ma'lumot olishga qiziqish, o'zi haqida bildirilgan fikrga e'tibor berish
Og'iz ochiq holatda til bilan birga: a) labsiz b) lab bilan birga v) ochiq og'iz lab va tilsiz g) og'iz tili bilan birga d) Og'izni dumaloq shakli e) Ko'zlar qorachig'i katta chizilsa yo) Kipriklar	a) nutq aktivligi, mahmadonagarchilik b) his-to'yg'uga beriluvchanlik v) ishonmaslik, qo'rquv g) "og'iz orqali tili" agressiya, ko'p hollarda o'z-o'zini himoya qilishi maqsadida d) Tashvish, maxmadonagarchilik e) Tashvish, qayg'urish yo) O'z-o'zini namoyish qilish

Qo'shimcha belgilar

a) Shoxlar	Agressiyadan o'z-o'zini himoya qilish
b) Patlar	O'z-o'zini namoyish qilish, bezatuvchanlik, o'zini oqlash
v) Soch turmaklari (prichyoska)ga o'xshagan sochlar, yunglar	His-tuyg'uga beriluvchanlik

a) tananing tayanch qismlari (oyoqlar, tana, tuyoqlar)

Qat'iy va mukammal chizilgan tayanch qism	O'ylab ish ko'rish. Mavjud informatsiyaga ishonish
Mukammal chizilgan qismlar	Yengiltaklik, Shoshmashosharlik

b) oyoq va tanani birlashtirishga e'tibor berish kerak

a) Sust. Umuman birlashtirilmagan	a) O'z xulosa va fikrlarini nazorat qilish, o'ylab javob qaytarish
b) Oyoqlarni bir xil tomonga	Standart fikr va xulosalarni qabul

yoʻnalishi. Oyoqlarni qaytarilishi	qilishi
------------------------------------	---------

v) turli har xil tayanch qismlar

Oyoq, panja, tayanch	Qabul qilingan qaror va fikrlarning turlichaligi. Mustaqillik. Yoki ijodiylik (norma), boshqacha fikrlash (potologiya)
----------------------	--

g) tanada yuqori koʻtarilgan qismlar, (qanot, bantik, qisqichlar)

Funktsional	Kishi faoliyatining turli jabhalarida ishlay olishi, oʻziga ishonch yoki koʻp bilishga intilish, turli tadbirlarda ishtirok etish, oʻz faoliyati bilan qiziqish.
Bezatuvcchi	Namoyishkorlik, oʻz-oʻziga eʼtiborni qaratishga intilish

d) dumlarning ifodalanishi (fikrning qaratilishi)

Chapga qaratilgan: Oʻz qaror va uylariga, oʻz hatti-harakati va xulq-atvoriga qaratilgan.

Ularga boʻlgan munosabatda dumning yoʻnalishiga bogʻliq belgi

Yuqoriga	Ishonch, ijobiylik, katʼiylik
Pastga tushib ketayotgan dum	Oʻzidan xursand emas. Nimadandir afsuslanish. Bajarilgan qilingan ishdan afsuslanish.

e) tasvirlanayotgan belgilarning koʻp yoki kamligi

Oddiy (primitiv) koʻrinishda	Umumiy energiyaning tuzilishi astenizatsiya rejasi
Hayvon haqida umumiy maʼlumot beruvchi detallarning mavjudligini murakkablashtirish	Umumiy energiyaning asta-sekin koʻpayishi

Oʻzining olamidagi mavqe haqida tasavvur.

Himoyalangan, himoyalanmagan agressivlik	Kim orqalidir xaf solinishi, o'zini xavfsirashi, betaraf
Do'st bo'lish, o'z himoyasiga olish qobiliyati	Boshqa odamga bo'lgan munosabat

O'z «Men»iga bo'lgan munosabat

Chizilayotgan rasm chizuvchi tasavvurida (quyon, fil, sher va h.k)	O'z-o'ziga baho berish
Hayvonni odamga o'xshatish To'rt oyoqli emas, balki ikki oyoqli qilib tasvirlash. Hayvonga odam aql- zakovatini berish, tasvirlash. Odamzod kiyimini kiyintirish Jinsiy ajratish: Rasm chizayotgan odam jinsi bilan hayvon jinsining birligi	Infantilizm (psixika va hatti- harakatlarda go'daklarga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi) Emotsional jihatdan yetuk emas Yaxshi proektsiya xususiyati, formal bo'lmagan munosabatlarning mavjudligi Jinsiy muammolarni mavjudligi O'zining jinsiy rolini, ahamiyatini ajratish, ta'kidlash

Hayvonga xos bo'lmagan belgilar

Mexanik qismlar, hayvonni postament (asos, qurilma) ga qo'yish, (gusenitsalar (tasma zanjir), propeller) elektrolampalar va simlarini tasvirlash	Shizofreniya bilan kasallangan yoki original fikrlashga ega emas
--	---

Tana qismlarini joylashtirish xarakteri

Tana boshqa detallardan chizilishi, masalan, kuchukga biror bir detalni qo'shish va h k. Tanani detallardan iborat bo'lishi	Siydalik, ko'p chaynarlik Ijodiy yondashuv
--	---

Nomlanishi

Ma'noga ega bo'lgan qismlarni bir- biriga qo'yish (begokot va h.k)	Konkret vazifani ixtiro etishga intilish
---	---

Kitobiy tildan olib nomlanish (retimtus)	O‘z aql-zakovatini namoyon qilish
Ma’nosiz bo‘g‘inlarni qo‘shish	
Kulgili ismlar (rinogurka, puzo‘roed)	Atrofdagilarga nisbatan yengiltaklik
Qaytariluvchi elementlar	Hazil-mutoibaning mavjudligi
Judayam uzun nom	Infantilik (bachkanalik)
	Fantaziya qilishga bo‘lgan moyillik

Ushbu testni bir vaqtning o‘zida bir-biriga judayam tanish bo‘lmagan kishilar orasida o‘tkazish tavsiya etiladi.

1. 11. “Uy. Daraxt. Odam” metodikasi.

Tadqiqot maqsadi: “Uy. Daraxt. Odam” metodikasi yordamida shaxs xususiyatlarini o‘rganish, ruhiy holatiga ta’sir etuvchi emotsiogen omillarni aniqlash, emotsional buzilishlarning oldini olish.

Kerakli jihozlar: oq varaq, rangli qalamlar

Bu proyektiv metodika 1948 yilda J. Buk tomonidan ishlab chiqilgan. Metodika barcha yoshdagi sinaluvchilarga mo‘ljallangan, uni guruhda ham o‘tkazish mumkin. Metodikaning mohiyati shundan iboratki, sinaluvchiga uy, daraxt, odam rasmini (butun bo‘yiga) chizish yo‘riqnomasi beriladi. So‘ng ishlab chiqilgan reja asosida savol-javob qilinadi. R.Berne metodikadan foydalanish davrida uy, daraxt, odam tasvirini bitta sur‘atda, yaxlit sahnani ifodalashni so‘raydi. Uy, daraxt, odam o‘rtasidagi o‘zaro munosabat ko‘rish metaforasini paydo qiladi deb, hisoblanadi. Agar butun rasm harakatga keltirilsa, hayotimizda ro‘y berayotgan hodisalarni ko‘rish mumkin. Tahlilning asosiy usullaridan biri, rasmni qay ketma-ketlikda chizilishiga ahamiyat berish. Agar daraxt birinchi bo‘lib chizilgan bo‘lsa, unda inson uchun asosiy narsa hayotiy energiya hisoblanadi. Agar dastlab uy surati chizilsa, unda


xavfsizlik, muvaffaqiyat birinchi o'ringda bo'ladi, yoki buning aksi bo'lganda, bu tushunchalarga bepisandlik munosabatni ilg'ash mumkin.

M.M.Taydjanovanning "Katta maktabgacha yoshda emotsional buzilishlarning psixologik xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasi va xulq-atvorining xususiyatlari, shuningdek, emotsional buzilishlar muammosi kontekstida maktabgacha yoshning o'ziga xosligi va maktabgacha yoshda emotsional buzilishlarning tajriba natijalari yoritilgan.

M.M.Taydjanovanning ushbu tadqiqot ishida katta maktabgacha yoshda emotsional buzilishlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshishiga olib kelgan, shuningdek, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional buzilishlar, bolalarning yosh, jins va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan.[36]

Sinaluvchiga ko'rsatma. 1ta varaq olib unga xohlagan tartibda uy, odam va daraxt rasmini ching.

«UY-DARAXT-ODAM» rasmi metodikasining sharhi.



2-rasm

Uy eski, vayron bo'lgan-ba'zida subyekt bu bilan o'z-o'ziga munosabatini namoyon qiladi. Uy uzoqda chizilgan bo'lsa-inkor etilganlik, xo'rlanganlik. Uy yaqinda bo'lsa - ochiqlik, kamsuqumlik,

iliqlik va mehmondo'stlik. Agar uy o'rniga uning proyeksiyasi (yuqoridan ko'rinishi) chizilgan bo'lsa - jiddiy nizolar, muammolar belgisi.

Shahar uyi, ko'p qavatli bino - quruq, odamovi, o'z muammolari bilan tanho odam. Juda past tomli kichik uy - juda charchagan, ezilgan, o'tmishni eslashni yaxshi ko'radigan, odatda bu o'tmishdan ham hech narsa topmaydigan odam.

Qasr - yetgiltaklik, jiddiy emaslik, bunday odamda juda oshirib yuborilgan xayol mavjud, lekin odatda u o'zining real vazifalarini amalga oshirishga ulgura olmaydi.

Keng qishloq uyi - o'z oilasiga ega bo'lish, farzand o'stirishga, o'z hayotiy maydonini kengaytirishga intilish. Uy atrofida devor, to'siqlar qanchalik past bo'lsa, bu odamning boshqalar bilan muloqotga ehtiyoji, ularga ishonchi shunchalar yuqori.

Turli qurilishlar - uy sohibiga qaratilgan agressiya yoki subyekt fikricha soxta va madaniy standartlarga nisbatan isyonni bildiradi.

Deraza yoki darcha eshiklari yopiq - subyekt shaxslararo munosabatlarga moslashishga qodir.

DEVORLAR

Boshqa tomondan tasvirlangan orqa devor - o'z-o'zini nazorat qilishga ongli ravishda urinish, o'zaro kelishuvchanlik hissining borligi, lekin shu bilan birga kuchli qaysarlikning ham namoyon bo'lishi.

Orqa devor konturlarining yetarlicha qalinligi - sub'ektning reallik bilan bo'lgan aloqani saqlab qolishga (yo'qotmaslikka) intilishi.

Poydevorga ega bo'lmagan devorlar - reallik bilan bo'lgan kuchsiz aloqa (asosan idealist).

Poydevoriga alohida urg'u berilgan devor - sub'ektning konfliktli vaziyatlarni aniqlashga urinishi, qiyinchilik va xavotirni his qilayotganligi.

Gorizontal chiziqlarga urg'u berib chizilgan devor - vaqt bilan bog'liq nomuvofiqlik (o'tmish yoki kelajakning dominantligi). Sub'ektning muhitga juda ta'sirchanligi.

Vertikal chiziqlarga urg'u berib chizilgan devor - sub'ektning o'z xohishiga ko'ra reallikdan uzoqlashib, fantaziyalardan lazzatlanishi.

Yon chiziqlari juda ingichka va noadekvat chizilgan devor - falokatdan qo‘rqish.

Chiziqlariga juda urg‘u berilgan devor - nazoratni yo‘qotmaslikka ongli ravishda intilish.

Bir o‘lchovli perspektiva (bitta tomonning tasvirlanganligi), agar bu yon tomon bo‘lsa - sub’ektda qarshilik va begonalik (muholifat)ning kuchli namoyon bo‘lishi.

Shaffof devor - anglanmagan ishtiyoq, vaziyatga iloji boricha ta’sir ko‘rsatish (hukmronlik qilish, tashkillashtirish)ga intilish.

ESHIKLAR.

Eshiklarning yo‘qligi-sub’ektning boshqalar bilan ochiq munosabatga kirishishga qiynalishi (asosan uydagilar bilan).

Orqa yoki yon tomondagi eshiklar (bitta yoki bir nechta) - chekinish, inkor qilish, qochish. Oldingi eshiklar (bitta yoki bir nechta) - ochiqko‘ngillik va muvaffaqiyatlilikning namoyon bo‘lishi.

Ochiq eshiklar – agar odam yashaydigan uy bo‘lsa, bu tashqaridagi ilqlikka kuchli extiyoj yoki ochiqko‘ngillilikni demonstratsiya qilishga intilish.

Yon eshiklar (bitta yoki bir nechta) – begonalik, alohidalik, reallikni qabul qilmaslik. Izolyatsiyalanganlik.

Eshiklarning juda kattaligi – boshqalarga haddan tashqari bog‘lanib qolish yoki o‘zining ijtimoiy kommunikabelligini namoyon etishga urinish.

Eshiklarning juda kichkinaligi – o‘z “Men”ini berkitish. Ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan nomunosiblik nomuvofiqlik va qatiyatsizlik hislarini his qilish.

Eshikda katta qulfning borligi – dushmanlik, ishonchsizlik, sirlilik, himoya tendensiyalari.

Quyuq tutun – ichki bosimning yetarlicha kuchliligi.

Tutunning kamligi – uyda emotsional ilqlikning yetishmaslik hissi.

DERAZA

Derazalarning birinchi qavatda joylashganligi – shaxslararo munosabatlardan yuz o‘girish. Xaqiqiylikdan izolyatsiyalanish.

Katta ochilgan derazalar – sub’ektning o‘zini juda to‘g‘riso‘z yoki beodob tutishi.

Derazalarning ko‘pligi – munosabatga kirishishga tayyorlikni va pardalarning yo‘qligi – o‘z hissiyotlarini berkitishga intilmaslikni bildiradi.

Yopiq derazalar – muhit bilan o‘zaro ta’sir masalasida tashvishlanish.

Oynasiz derazalar – dushmanlik, begonalik. Derazaning pastki qavatlarida emas, yuqori qavatda bo‘lishi – real va fantastik hayot o‘rtasidagi “bo‘shliq”.

TOM

Tom – fantaziya sohasi. Shamolning tom va trubani buzganligi – sub’ektning shaxsiy erkinligiga qarshi buyruq berishlari.

Tomning boshqa elementlarda uchramaydigan darajada qalin chiziqlar bilan chizilganligi – o‘z fantaziyalariga huzurlanish manbai sifatida bog‘lanib qolish.

Yon tomonlari ingichki chiziqli tom – fantaziyani boshqarishdagi sustlikni his qilish.

Yon tomonlari qalin chiziqli tom – fantaziyani boshqarishda haddan tashqari tashvishlanish.

Pastki qavatlar bilan yaxshi bog‘lanmagan tom – shaxsiy organizatsiyaning yomonligi.

Tom karnizlari, ularga urg‘u berish yoki ularning devor ustigacha tortilganligi – (ishonchsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan) himoya vositalarining kuchliligi.



3-rasm.

MO‘RI

Mo‘rining yo‘qligi – sub’ektning uyda psixologik iliqlik yo‘qligini his qilishi.

Mo‘rining deyarli ko‘rinmasligi – emotsional ta’sir bilan bog‘liq munosabatlarni istamaslik.

Mo‘rining tomga bog‘liq holda qiyshiq chizilganligi – bolalar uchun – norma, kattalarda – agressiyani bildiradi.

Suv o‘tkazgich quvurlar – himoyaning kuchliligi yoki ishonchsizlikning yuqoriligi.

Qo‘shimcha detallar

Daraxtlar – ko‘pincha turli insonlarni ifodalaydi.

Butalar – ba’zan odamlarni ifodalab keladi, agar ular bilan uy zich o‘ralgan bo‘lsa, o‘zini himoya to‘siqlari bilan o‘rash istagining kuchliligini bildiradi.

Butalar har yoqda joylashgan yoki yo‘lakning ikki tomoniga qator chizilgan bo‘lsa – reallik doirasidagi biroz xavotirlanish va uni boshqarishga bo‘lgan intilishni bildiradi.

Yengil va bejirim chizilgan yo‘lakcha – individning boshqalar bilan munosabatda taktga egaligi va o‘z-o‘zini boshqara olishini bildiradi.

Yo‘lakchanning juda uzunligi – ijtimoiy muhitga kirishishning kamligidan dalolat.

Yo‘lakcha boshining juda kengligi va uyga tutash qismining juda torligi – yolg‘izlikni istash hissini berkitishga urinish.

Quyosh. Obro‘-e’tibor belgisi, ba’zan iliqlik va kuch-qudrat manbai bo‘lib ham qabul qilinadi.

Ob-havo. Sub’ektning umumiy muhitga nisbatan kechinmalarini o‘zida aks ettiradi. Qanchalik yomon ob-havo rasmi chizilsa, atrof-muhit sub’ekt uchun shunchalik qarshilik va imkonsizlikdan iborat bo‘lib tuyuladi (sub’ektning muhitni dushmandek qabul qilishi va unda o‘zini asirdek his qilishidan iborat).

Ranglar tanlovi.

Quyidagi ranglardan odatdagidek foydalaniladi: yashil – tom uchun, jigarrang – devorlar uchun.

Sariq – uydagi gul bo‘lib kelganda oddiy, lekin qosh qorayishi yoki tunning yaqinlashishini tasvirlab kelsa, quyidagilarni anglatadi:

1. Muhitning unga nisbatan dushmanonaligi.
2. O‘zining xatti–harakatlarini boshqalar ko‘zidan yiroq bo‘lishini istash.

Ishlatilgan ranglar miqdori. Muhitga yaxshi moslasha olgan yoki tortinchoq bo‘lgan sub’ekt odatda 2 tadan kam bo‘lmagan 5 tadan ortiq bo‘lmagan ranglardan foydalanadi.

Uyni bo‘yashda 7–8 xil ranglardan foydalangan sub’ekt labil (emotsiyaning o‘zgaruvchanligi) hisoblanadi.

Faqat bitta rangdan foydalangan sub’ekt emotsional qo‘zg‘alishdan qo‘rqadi.

Sub’ekt ranglarni tanlashda qanchalik uzoq o‘ylansa, qat’iyatsizlik qilsa va qiynalsa, unda shaxsiy buzilishlarning borligi shunchalik aniq bo‘ladi.

Qora rang – tortinchoqlik, qo‘rqoqlik.

Yashil rang – xavfsizlik hissiga bo‘lgan ehtiyoj, o‘zini xavfdan himoya qilish. Bu xususiyatlar daraxt barglari va uy tomini yashilga bo‘yashda unchalik ahamiyatga ega emas.

Olovrang – ta’sirchanlik va dushmanlik hislari kombinatsiyasi.

Rang – hokimiyatga kuchli intilish.

Qizil rang – yuqori ta’sirchanlik, atrofdagilarning iliq munosabatiga bo‘lgan ehtiyoj.

Sariq rang – dushmanlikning kuchli belgilari.

Varaqlarning $\frac{3}{4}$ qismini shtrixlash – emotsiyalarni namoyon qilishda nazoratning yetishmasligi.

Rasm chegaralaridan chiqib ketgan shtrixlar – qo‘shimcha stimulyatsiyaga impulsiv javob.

Umumiy ko‘rinish.

Rasmning varaq chetida joylashganligi – o‘ziga ishonchsizlik va xavotir hislarining ustunligi.

Ular vaqt o‘lchovlariga ko‘ra quyidagicha ifodalanadi:

- o‘ng tomon – kelajak, chap tomon – o‘tmish.

Kechinmalar spesifikasiga ko‘ra:

- o‘ng tomon – intellekt, chap tomon – emotsional soha.

“Sub’ekt ustidan” ko‘rinish (tepadan pastga qaragandek) – sub’ekt uydagilari tomonidan chetlashtirilgan, inkor qilingan. Sub’ektning erishib bo‘lmaydi, deb hisoblagan uy muhitiga ehtiyoj sezishi.

Rasmning uzoqda joylashganligi – konvensial jamiyatni inkor qilish istagi. Izolyatsiyalanganlik, o‘z qobig‘iga o‘ralganlik hissi. Atrof muhitdan ajralib turishning yorqin namoyon bo‘lishi. Bu rasmni yoki u ifodalayotgan ma’noni inkor qilish.

“Yo‘qolgan ko‘rinish” (indivud uyning bir qismini to‘g‘ri tamomlaydi, lekin boshqa tomonida muvofiqlikni yo‘qotadi) – murakkab integratsiyaning boshlanishidan darak beradi va kelajakdan qo‘rqishni (agar vertikal chiziqlar o‘ng tomonda joylashgan bo‘lsa) yoki o‘tmishni unutish istagini bildiradi (agar vertikal chiziqlar chap tomonda joylashgan bo‘lsa).

Uchtomonlama ko‘rinish – atrofdagilarning o‘zi xaqidagi fikrlari uchun haddan tashqari tashvishlanish, ahamiyatsiz hususiyatlarni bilishga intilish.

Rasmning joylashishi

Rasm varaqning yuqori markazida joylashgan bo‘lsa – sub’ektning maqsadga erishishda to‘siqlarni his qilishi yoki uning xarakterida og‘ishishning mavjudligi.

Rasmning markazda joylashganligi – himoyalanganlik va rigidlik. Psixik muvozanatni saqlash uchun ishonchli nazoratga ehtiyoj sezish.

Rasmning markazdan pastda joylashganligi – sub’ektning o‘zini xavf ostida yoki noqulay his qilishi natijasida depressiyada ekanligi yoki sub’ektning o‘zini reallikdan chegaralangandek his qilishi.

Rasm varaqning chap tomonida joylashgan bo‘lsa – o‘tmishga urg‘u berish, impulsivlik.

Rasm varaqning chap yuqori burchagida joylashgan bo‘lsa – yangi kechinmalardan qochishga moyillik, o‘tmishga qaytish yoki fantaziyaga berilish istagining borligi.

Rasm varaqning o‘ng qismida joylashgan bo‘lsa – sub’ekt intellektual mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishni istaydi, o‘z qiziqishini nazorat qiladi, kelajakka intiladi.

Rasm varaqning chap tomonidan chiqib ketgan bo'lsa – o'tmishda qolib ketish va kelajakdan qo'rqish. Erkin ochiq emisional kechinmalar xaqida haddan tashqari tashvishlanish.

O'ng tomondan chiqib ketsa – o'tmishdan qutulish istagi va kelajakka kuchli intilish. Erkin ochiq emotsional kechinmalarni qattiq nazorat qilishga intilish.

Rasm varaqning yuqori qismidan chiqib ketsa – sub'ekt real hayotda his qilmagan rohatni fantaziyalar olamida his qilishga urinishi.

Konturlarning eskizligi, doimiy o'zgaruvchanligi – yaxshi tomondan olib qaraganda, aniqlikka intilish, yomon tomondan olib qaraganda aniq pozisiyalarga nisbatan noqobillikning namoyon bo'lishi.

Odam

Bosh – intellektual soha (nazorat). Taasurotlar sohasi.

Boshning kattaligi – inson faoliyatida fikrlashning ahamiyatiga ongsiz ravishda urg'u berish.

Bosh kichkinaligi – intellektual adekvatning yetishmaslik muammosi.

Noaniq bosh – tortinchoqlik, qo'rqoqlik.

Boshning eng oxirgi o'rinda chizilishi – shaxslararo nizolarning mavjudligi.

Qarama-qarshi jins vakilidagi boshning kattaligi – qarama-qarshi jins vakilining soxta ustunligi, uning ijtimoiy obro'sining yuqoriligi.

Bo'yin – nazorat va qiziqish sohalari o'rtasidagi aloqa.

Bo'yinga urg'u berib chizish – himoyalangan intellektual nazoratga bo'lgan ehtiyoj.

Bo'yinning haddan ortiq yo'g'onligi-tana impulslarini anglash va ularni nazorat qilishga urinish.

Bo'yinning uzun va ingichkaligi-tormozlanish, regressiya.

Bo'yinning qisqa va yo'g'onligi-o'zining ojizligini tan olish, shu bilan birga ruhi tetiklikning namoyon bo'lishi.

Yelkalar va uning o'lchami - jismoniy kuch belgisi yoki hokimiyatga intilish.

Yelkalarining haddan ortiq kattaligi-kuchlilikni his qilish yoki kuch va hokimiyat uchun haddan tashqari tashvishlanish.

Yelkalarning kichkinaligi-qadripastlik, hech kim emaslik hissi.

Yelakalarning burchakliligi-haddan tashqari ehtiyotkorlik, himoyalalanish hissi.

Yelkalarning yon tomonlamaligi-xafalik, umidsizlik, aybdorlik hissi, hayotiylikning yetishmasligi.

Yelkalarning kengligi-kuchli tana impulslari.

Gavda

Gavdaning burchakliligi yoki to'rtburchakligi-mardlik.

Gavdaning juda kattaligi-sub'ektning kuchli anglangan, qoniqtirilmagan talablari mavjudligi.

Gavda mos bo'lmagan ravishda kichkina -qadri pastlik hissi.

UY, ODAM, DARAXT TESTI

I.F.O._____Yo'riqnoma: Ushbu metodikani o'tkazish jarayonida Yoshi:_____quyidagilarni inobatga olish lozim
Kurs:_____

Uy rasmini chizing quyidagi savollar bilan murojaat qilamiz

1. uy nimadan yasalgan?	
2. qurilganiga necha yil bo'lgan?	
3. kim qurgan?	
4. necha xonadan iborat?	
5. qaysi xona eng chiroyli va nima uchun?	
6. uy mustaxkam qurilganmi?	
7. uyda kimlar istiqomat qiladi ular quvnoqmi yoki g'amgin ?	
8. nega aynan ushbu uyni qurdingiz?	

DARAXT

1. archadan tashqari xar qanday daraxtni chizing	
2. bu qanday daraxt?	
3. u necha yoshda?	
4. u bog'dami yoki yovvoyi xolda o'sadimi?	

5. u o'tkazilganmi yoki unib chiqqanmi?	
6. u yana necha yil yashashi mumkin?	
7. muhit yaxshimi yomonmi?	
8. daraxt sog'lommi yoki nimjon?	
9. bu daraxtni oldin uchratganmisiz?	
10. nima uchun ushbu daraxtni chizdingiz?	

ODAM

1. uning yoshi nechida?	
2. ismlari kim?	
3. sog'lommi kasalmi?	

1.12. Qo'l testi (Hand - testi)

Tadqiqot maqsadi: Qo'l testi proektiv test bo'lib, u shaxsning agressiv xulq – atvorini bashorat qilish uchun qo'llanadi. Test 1962 yil B.Brayklin, Z.Piotrovski va E.Vagnerlar tomonidan e'lon qilingan[30] (test g'oyasi E.Vagnerga tegishli).

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Sinaluvchiga ko'rsatma: Test qo'l kaftining 9 xil tasviri tushirilgan kartochkalar va bir bo'sh kartochkadan iborat. Sinaluvchiga har bir kartochka ko'rsatilib, unda tasvirlangan qo'l haqida shunday savol beriladi: «Sizningcha, ushbu qo'l nima qilayotgan bo'lishi mumkin?» Agar sinaluvchi javob berishga qiynalsa, unga shunday savol beriladi: «Sizningcha, bu qo'lga ega bo'lgan odam nima qilayotgan ekan? Hayolingizga qanday fikr kelsa, shuni aytavering». Har bir rasm bo'yicha berilgan javoblar yozib boriladi. Bo'sh kartochka quyidagicha qo'llanadi: kartochka oxirida ko'rsatiladi va avval unda birorta qo'l kaftini tasavvur etish, so'ngra u nima qilayotganini aytib taklif qilinadi. Imkoni boricha har bir rasm bo'yicha 4 tadan javob olish kerak. Agar javoblar soni 4 tadan kam bo'lsa, sinaluvchidan yana qandaydir fikri bor yoki yo'qligi aniqlashtiriladi va bordi–yu uning boshqa javobi bo'lmasa,

4 taga yetish uchun nechta javob qolganini hisoblab, shu sonni oxirgi javob ro'pparasiga yozib qo'yish kerak.

Masalan, sinaluvchi 1 ta javob bilan cheklansa, x 4 deb yozib qo'yiladi, agar 2 javobdan boshqa javob bo'lmasa, oxirgi javob to'g'risiga x 3 deb yoziladi. Qo'l kaftlarining tasvirini har qanday holatda taqdim etish mumkin.

Har bir rasmdagi qo'l quyidagi 11 ta kategoriya bo'yicha baholanadi:

1. Agressiya (AG) – qo'lning qandaydir ziyon yetkazayotgan, biror narsani ushlab olayotgan qo'l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Tarsaki tortayapti”, “Itarayapti”, “Turtib yuborayapti”, “Nimanidir tutayapti”, “Siqayapti”, “Chimchilayapti”, “Urayapti”, “O'g'irlayapti” va h.k.

2. Dirrektivlik (Dir) – qo'lning boshqalar ustidan hukmronlik qiluvchi, boshqalarni boshqaruvchi qo'l sifatida idrok etilishi. Masalan, “To'xtatyapti”, “Buyruq berayapti”, “Ogohlantirayapti”, “Ko'rsatma berayapti” va h.k.

3. Qo'rquv (Qo'r) – qo'lning boshqalar agresivligining qurboni yoki o'z – o'ziga zarar yetkazayotgan qo'l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Meni bo'g'ayapti”, “O'zini himoya qilayapti”, “Zarbani qaytaryapti”, “Urmang deb yolvorayapti” va h.k.

4. Affektatsiya (Af) – qo'lning boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatni ifodalovchi qo'l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Kim bilandir ko'rishmoqda”, “Xush kelibsiz demoqchi”, “Kimningdir boshidan silayapti”, “Gul berayapti”, “Sadaqa berayapti” va h.

5. Kommunikatsiya (kom) – qo'lning boshqalar bilan aloqa o'rnatishga harakat qilayotgan qo'l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Imo – ishoralar qilayapti”, “Nimadir demoqchi”, “Kimdir bilan kelishib olmoqchi”, “Axborot almashayapti” va hok.

6. Tobelik (Tob) – qo'lning boshqalarga tobe bo'lgan qo'l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Iltimos qilayapti”, “Yordam so'rayapti”, “Qo'l berib yuborilishini kutayapti”, “Qasam ichayapti” va h.

7. Eksgibitsionizm (Eks) – qo'lning o'zini har xil yo'llar bilan namoyish etishga urinayotgan qo'l sifatida idrok etilishi. Masalan,

“Uzugini ko‘rsatayapti”, “Pianino chalayapti”, “Raqs tushayapti”, “Tirnog‘idagi lakni ko‘rsatayapti” va h.k.

8. Jarohat (Jar) – qo‘lning lat yegan va nuqsonli, harakatga qodir emas qo‘l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Qaltirayapti”, “Barmoqlardan biri singan”, “Tirnog‘i singan”, “Kasal odamning qo‘li” va h.


9. Aktiv shaxssizlik (A-sh) – qo‘lning boshqa odamlar ishtirokisiz ham boshlangan harakatni oxiriga yetkaza oladigan, ammo buning uchun o‘zining fazodagi holatini o‘zgartirishi lozim bo‘lgan qo‘l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Ignadan ip o‘tkazayapti”, “Sudralayapti”, “Suzayapti”, “Tikayapti” va h.k.

10. Passiv shaxssizlik (P-sh) – qo‘lning boshqa odamlar ishtirokisiz ham boshlangan harakatini oxiriga yetkaza oladigan va buning uchun o‘zining fazodagi holatini o‘zgartirishi lozim bo‘lgan qo‘l sifatida idrok etilishi. Masalan, “Yotibdi”, “Dam olayapti”, “Qimirlamasdan turibdi”, “Quritilayapti” va hok.


11. Tasvirlanish (Tas) - qo‘lning biror harakatni bajarayotgan qo‘l sifatida idrok etilmay faqatgina tasvirlanishi. Masalan, “Chiroyli qo‘l”, “Katta qo‘l ekan”, “Uzun barmoqlar”, “Qo‘pol qo‘l” va h.

Agressivlikka moyillikni aniqlashda faqat 1,2,3,4,5,6 kategoriyalar bo‘yicha berilgan javoblar hisobga olinadi. Qolgan kategoriyalarning agressiv xulq – atvordagi o‘rni doimiy emas. Ular motivlarni aniqlashda yordam berishi mumkin.


E. Vagnerning tadqiqotlari testning validligi va ishonchliligi ancha yuqoriligini ko‘rsatgan.




Kartochka 1



Kartochka 2



Kartochka 3




Kartochka 4



Kartochka 5



Kartochka 6




Kartochka 7



Kartochka 8



Kartochka 9



Kartochka 10 (bo'sh katak)

Natijalarni hisoblash:

1. Muayyan kategoriyaga mos keluvchi har bir javobga 1 ball qo'yiladi.

2. Agressivlik bo'yicha umumiy ball topiladi: $U_{ba} = A_g + D_{ir}$
 3. Kommunikativlik bo'yicha umumiy ball topiladi: $U_{bk} = Qo'r + A_f + K_{om} + T_{ob}$
 4. Agressivlik uchun yakuniy bal topiladi: $Y_{aba} = 20 + 15/U_{ba}$
 1. Kommunikativlik uchun yakuniy ball topiladi: $Y_{abk} = 20 + 15/ubk/$
 2. Agressivlik – kommunikativlik koeffitsienti topiladi:
- $$K = \frac{Y_{abk}}{Y_{aba}}$$

Agar $K > 1$ bo'lsa, odamning xulq atvori har qancha buzilgan bo'lmasin, unda agressiv harakatlarga moyillik kuzatilmaydi. Bunday insonda agressivlik avtoagressiya shaklida mavjud bo'lishi mumkin.

Agar $K > 1$ bo'lsa, odamda agressivlikka moyillik yaqqol mavjud bo'lib, uning xulq atvorda ochiq – oydin ifodalanishini kutish mumkin.

2-Modul. Ichki reguliyatsiya

2.1. Ehtiyojlar faoliyatning ichki turtkisi sifatida. Inson ehtiyojlari tizmini o'rganish.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu metodika insonlarda asosiy ehtiyojlarning qaysi biri ustun turishini aniqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, shaxsning eng muhim rag'batlantiruvchi ehtiyojlarini o'rganish.

Shaxs ehtiyojlarini o'rganishda ko'plab metodikalar mavjud bo'lib, shunday metodikalardan biri I.A. Akindinova tomonidan modifikatsiya qilingan "Ehtiyojlar iyrarxiyasi" metodikasi bo'lib hisoblanadi. Ushbu metodika insonlarda asosiy ehtiyojlarning qaysi biri ustun turishini aniqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu metodikadan foydalanib, siz xodimlarning eng muhim rag'batlantiruvchi ehtiyojlarini aniqlashingiz mumkin. Bunday ehtiyojlarni bilish ishchi guruhda motivatsiya tizimini samarali qurish imkonini beradi.

Metodika individual va guruhli foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, agar guruh bilan o'tkazilayotgan bo'lsa unda ishtirokchilar soni 15

kishidan oshmasligi kerak. Har bir sinaluvchiga topshiriqni bajarish uchun alohida blanka berilishi kerak. To'ldirish muddati 20-25 daqiqadan oshmaydi. Agar ish davomida respondentda savollar yuzaga kelsa, psixolog tushuntirish ishlarini olib borishi kerak.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Sizga 15 ta tasdiq shaklidagi hukmlar beriladi. Bu hukmlarni juftlikda bir-biri bilan solishtiring. Birinchi gapni ikkinchisi bilan, keyin birinchi gapni uchinchisi bilan solishtirishni boshlang. Natijalarni ustunning 1-ustuniga yozing. Shunday qilib, agar birinchi hukmni ikkinchisi bilan taqqoslaganda, ikkinchisini afzal ko'rsangiz, unda boshlang'ich katakchaga 2 raqamini kiriting, agar birinchi hukm afzal bo'lsa, 1 raqamini kiriting. Keyin ikkinchi ibora bilan shunga o'xshash operatsiyalarni bajaring: uni birinchi navbatda uchinchisi bilan, keyin to'rtinchisi bilan solishtiring va hokazo. Qolgan hukmlar bilan xuddi shu tarzda ishlang, asta-sekin butun shaklni to'ldiring. "Men xohlayman..." degan iboradan keyin har bir juftlikni taqqoslang.

"Men xohlayman..."

1. E'tirof va hurmatga erishishni
2. Odamlar bilan iliq munosabatda bo'lishni
3. Kelajagimni ta'minlashni
4. Pul topishni
5. Yaxshi suhbatdoshga ega bo'lishni
6. O'z pozitsiyamni mustahkamlashni
7. O'z kuch va qobiliyatlarimni rivojlantirishni
8. O'zimni moddiy qulaylik bilan ta'minlashni
9. Ko'nikma va malaka darajamni oshirishni
10. Muammolardan qochishni
11. Yangi va noma'lum narsalarga intilishni
12. O'zgalarga ta'sir darajamni oshirishni
13. Yaxshi narsalarni sotib olishni
14. To'liq fidoyilikni talab qiladigan ishlarni qilishni
15. Boshqalar uchun tushunarli bo'lishni.


I shkala	Moddiy ehtiyoj	4, 8, 13 hukmlar yig'indisi
II shkala	Xavfsizlikka ehtiyoj	3, 6, 10 hukmlar yig'indisi
III shkala	Shaxslararo munosabatlarga ehtiyoj	2, 5, 15 hukmlar yig'indisi
IV shkala	Hurmatga bo'lgan ehtiyoj	1, 9, 12 hukmlar yig'indisi
V shkala	O'z-o'zini anglash ehtiyoji	7, 11, 14 hukmlar yig'indisi

Ushbu metodikada yakuniy bosqich beshta shkala bo'yicha o'z ehtiyojlaringizni qondirish profilini yaratish bo'ladi. Har bir shkala bo'yicha yuqorida olingan natijalarni ajratib qo'yish kerak. Grafikda uchta zona ko'rsatilgan:

To'liq qoniqish - 0-13 ball

Qisman qoniqish - 13-26 ball

To'liq norozilik - 26-39 ball



Ushbu metodika bo'yicha dominant ehtiyoj eng yuqori ball bilan ko'rsatiladi. Olingan natijalar esa tashkilotning motivatsion muhitini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Shaxs ehtiyojlarini o'rganishga mo'ljallangan navbatdagi metodika «Sezgilarini izlashga bo'lgan ehtiyoj diagnostikasi»

M.Tsukerman tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu metodika har xil turdagi sezgilarga bo'lgan ehtiyoj darajasini o'rganish uchun ishlatiladi. Metodikadan asosan o'smir yoshdagilar hamda kattalarni o'rganishda ham foydalanish mumkin.

Tanlangan metodikaning mantiqiy asosi shundaki, insonning yangi his-tuyg'ularni izlashi uning asosiy ehtiyojidir va xatti-harakatlarning yetakchi motivlarini ifodalaydi. Odamlar motivatsion ehtiyoj sohasining

elementlaridan biri bo'lgan holda, inson faoliyatining barcha sohalarida yangi his-tuyg'ularni boshdan kechirishga intiladi. Yangi his-tuyg'ularni izlash yangi tajriba va holatlarni izlash bilan bog'liq. Yangi his-tuyg'ularni izlash tendensiyasi insonning o'z hayotidan qoniqish yoki norozilik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Yangi his-tuyg'ularni izlash, birinchi navbatda, insonning shaxsiy o'sishi bilan bog'liq, chunki u tasavvurni, ijodiy salohiyatni va hissiyotlarni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

M. Tsukerman yangi sezgilarni izlash tendensiyasini turli xil yangi taassurotlar va tajribalarni shakllantirish, bu natijalarga erishish uchun ijtimoiy va jismoniy tavakkal qilishning eng muhim ehtiyoji sifatida belgiladi. Zamonaviy psixologiyada yangi kechinmalarni izlash insonning hissiy-emotsional tajribasini boyitish uchun zarur bo'lgan xatti-harakatlar reaksiyalari darajasida shaxsiy xususiyat sifatida taqdim etiladi. Yangi sezgilarni izlash g'oyasi metodikaning ahamiyatini belgilaydi, bu bizga xatti-harakatlarning asosiy sabablarini aniqlashga imkon beradi.

Sinaluvchiga ko'rsatma: respondentga juftlashtirilgan fikrlar taklif etiladi, ular orasidan o'ziga mos keladiganini tanlashi kerak. Test 16 juft fikrdan iborat.

1. a) Men ko'p sayohat qilishni talab qiladigan ishni afzal ko'raman.
b) Men bir joyda tinch o'tirib ishlashni afzal ko'raman.
2. a) Toza havoli, salqin kun menga kuch beradi.
b) Salqin kunda men tezroq uyga qaytishni xohlayman.
3. a) Men barcha jonzotlarni hidlarini yoqtirmayman.
b) Menga ba'zi jonzotlarni hidlari yoqadi.
4. a) Men notanish ta'sirga ega biron bir psixotrop dorini sinab ko'rishni xohlamayman.
b) Men gallyutsinatsiyalarni keltirib chiqaradigan notanish dorilardan birini sinab ko'rgan bo'lardim.
5. a) Men hamma uchun xavfsiz, osoyishta va baxtli bo'lgan ideal jamiyatda yashashni afzal ko'raman.
b) Tariximizning noaniq, notinch kunlarida yashashni afzal ko'raman.

6. a) Tezlikni yaxshi ko'radigan odam bilan mashinada yurishga chiday olmayman.

b) Ba'zan men mashinamni juda tez haydashni yaxshi ko'raman, chunki bu menga hayajonli tuyuladi.

7. a) Agar men sayohatchi sotuvchi bo'lganimda, oz yoki hech narsa topmaslik xavfi bo'lgan kelishilgan ish haqi emas, balki belgilangan maoshni afzal ko'rgan bo'lardim.

b) Agar men sayohatchi sotuvchi bo'lganimda, belgilangan ish haqi bilan ishlashdan ko'ra, ko'proq pul topish imkoniyatiga ega bo'lganim uchun kelishuv asosida ishlashni afzal ko'rardim.

8. a) Men qarashlari menikidan keskin farq qiladigan odamlar bilan bahslashishni yoqtirmayman, chunki bunday tortishuvlar har doim ham hal bo'lmaydi.

b) Mening fikrimga qo'shilmagan odamlar men bilan rozi bo'lganlarga qaraganda ko'proq rag'batlantirilishini tushunaman.

9. a) Ko'pchilik sug'urta uchun juda ko'p pul sarflaydi.

b) Sug'urta - bu usiz yashashning imkoni yuq bo'lgan narsadir.

10. a) Men gipnozga tushishni xohlamayman.

b) Men gipnoz holatiga tushib ko'rishni xohlayman.

11. a) Hayotdagi eng muhim maqsad - to'liq yashash va undan iloji boricha ko'proq narsa olish.

b) Hayotdagi eng muhim maqsad tinchlik va baxt topishdir.

12. a) Men sovuq suvga asta-sekin kirib boraman, o'zimga ko'nikish uchun vaqt ajrataman.

b) Meni dengizga yoki sovuq suvli hovuzga darhol sakrashni yoki sho'n g'ishni yaxshi ko'raman.

13. a) Zamonaviy musiqaning aksariyat turlarida tartibsizlik va disgarmoniyani yoqtirmayman.

b) Men yangi va g'ayrioddiy musiqa turlarini tinglashni yaxshi ko'raman.

14. a) Eng yomon ijtimoiy kamchilik - qo'pol va yomon xulqli odam bo'lish.

b) Eng yomon ijtimoiy kamchilik – zerikarli va indamas odam bo'lish.

15. a) Men hissiy jihatdan ifodali odamlarni afzal ko‘raman, garchi ular biroz muvozanatsiz bo‘lsa ham.

b) Men xotirjamroq, hatto "tartibga solinadigan" odamlarni afzal ko‘raman.

16. a) Motosikl minadigan odamlar o‘zlariga og‘riq va zarar yetkazish uchun qandaydir ongsiz ehtiyojga ega bo‘lishi kerak.

b) Men motosikl haydashni yoki unga minishni xohlayman.

Test kaliti:

Olingan javoblarni test kalitida taklif qilingan variantlar bilan solishtiring: 1. a; 2. a; 3. b; 4. b; 5 b; 6. b; 7. b; 8. b; 9. a; 10. b; 11. a; 12. b; 13. b; 14. b; 15. a; 16. b.

Natijalarni tahlil qilish: javobning kalit bilan har bir mosligi 1 ball hisoblanadi, oxirida barcha ballar umumlashtiriladi. Ballarning maksimal soni - 16. Olingan ballar miqdori insonning yangi his-tuyg‘ularga bo‘lgan ehtiyoj darajasining asosiy ko‘rsatkichidir.

11-16 ball - yangi his-tuyg‘ularga bo‘lgan ehtiyoj namoyon bo‘lishining yuqori darajasi, bu odamni yangi, noma'lum kechinmalarga aniq jalb qilish bilan tavsiflanadi, ba'zida nazorat qilib bo‘lmaydi, bunday odam xavfli faoliyatda tez-tez qatnashishga moyil;

6-10 ball - yangi his-tuyg‘ularga bo‘lgan ehtiyojlar namoyon bo‘lishining o‘rtacha darajasi, bu odamni yangi his-tuyg‘ularga bo‘lgan ehtiyojlarni nazorat qilish va ularni mo‘tadil holatga keltira olish, xavf ostida bo‘lmagan adekvat usullarni tanlash qobiliyatini tavsiflaydi, bunday odam hamma narsaga ochiq va yangi taassurotlar olishga intiladi, lekin zarur hayotiy vaziyatlarda u oqilona va vazmindir;

0-5 ball – yangi hissiyotlarga bo‘lgan ehtiyojning past darajasi, bu tashqi dunyodan yangi tajriba va ma'lumot olish hisobiga keladigan yuqori darajadagi oldindan o‘ylash va ehtiyotkorlik mavjudligini anglatadi, bunday odam hayotdagi barqarorlik, tartiblilik va ishonchlilik bilan ajralib turadi, bu esa uni shaxsiy rivojlanishiga imkon bermaydi.

2.2.Shaxsning motivatsion jabhasi. "Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi" metodikasi.

Tadqiqot maqsadi: Shaxsning muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivatsiyasining shaxs hayotidagi ahamiyatini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Muvaffaqiyat motivatsiyasining dominant nazariyalari MakKlelland, Atkinson va Xekxauzen tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, ular muvaffaqiyat motivatsiyasini muvaffaqiyatga erishish motivi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi o‘rtasidagi hissiy ziddiyatning natijaviy tendentsiyasi sifatida tushundilar.[27] J. Atkinson, D. Makklellandning qarashlarini o‘zgartirib, muvaffaqiyatga erishish zarurati boshqa asosiy ehtiyoj - muvaffaqiyatsizliklardan qochish bilan birga ko‘rib chiqilishi kerakligini ko‘rsatdi[5]. Atkinson va Feather (1966) insonning muvaffaqiyatga erishish ehtimolini idrok etishi ikki turdagi motivlardan kelib chiqishiga e‘tiborni qaratdi, bular, muvaffaqiyatga erishish (yutishga bo‘lgan ehtiyoj) va muvaffaqiyatsizlikdan qochish (muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish). Muvaffaqiyat motivi quyidagilarga asoslanadi: 1) muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj; 2) shaxsning muvaffaqiyatga erishish ehtimoli haqidagi tasavvuri; 3) shaxsning natija qiymatini idrok etishi. Harakatni bajarish uchun motivatsiya kuchi motiv kuchining multiplikativ funktsiyasi, harakat natijasida rag‘batlantirishga erishishni kutish (subyektiv ehtimollik) va rag‘batning qiymati deb taxmin qilinadi: $Motivatsiya = (Motiv \times Kutish \times Rag'bat)$. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi quyidagilarga asoslanadi: 1) muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik zarurati; 2) shaxsning muvaffaqiyatsizlik ehtimoli haqidagi tasavvuri; 3) shaxsning muvaffaqiyatsizlik oqibatlarini idrok etishi.

D.B. Sharapovanning “Xotin-qizlarda ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” mavzudagi tadqiqot ishida psixologik va ijtimoiy omillarning xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy qaramligiga tasiri o‘rganilib, ustuvor oriyentatsiyalar, muvaffaqiyat motivatsiyasi, o‘z-o‘zini hurmat qilish, mehnat turini tanlashdagi

motivlar iyerarxiyasi hamda irodaviy sifatlarning tafovut va bog‘liqlik qonuniyatlari tahlil qilingan.[44]

Sinaluvchiga ko‘rsatma: Quyidagi fikrlarga qo‘shilasizmi yoki qo‘shilmaysizmi, siz javoblardan birini tanlashingiz kerak - "ha" yoki "yo‘q". Siz uzoq vaqt o‘ylamasdan tezda javob berishingiz kerak. Miyaga kelgan birinchi javob odatda eng to‘g‘ri bo‘ladi.

Anketa matni:

1. Biror ishga kirishsam, muvaffaqiyatga umid qilaman.
2. Ish faoliyatida juda ham faolman.
3. Tashabbuskorlikka intilaman.
4. Muhim vazifalarni topshirmoqchi bo‘lishsa, iloji boricha, ularni rad etish uchun sabablarini topishga harakat qilaman.
5. Men ko‘pincha yoki judayam oson vazifalarni yoki haqiqatda bajarish qiyin bo‘lgan og‘ir vazifalarni tanlashga harakat qilaman.
6. To‘siqlarga duch kelganda, qoida tariqasida, men chekinmayman, balki ularni yengish yo‘llarini izlayman.
7. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar almashib kelganda, men o‘z muvaffaqiyatlarimni ortiqcha baholashga intilaman.
8. Ishimning samaradorligi tashqi nazoratga emas, asosan mening qat'iyatimga bog‘liq.
9. Cheklangan vaqt sharoitida ancha qiyin ishlarni bajarayotganda, mening faoliyatim yomonlashadi.
10. Men maqsadlarimga erishishda qat'iyatli bo‘lishga moyilman.
11. Men o‘z kelajagimni ancha uzoq vaqt uchun rejalashtirishga moyilman.
12. Agar men tavakkal qilsam, buni beparvolik bilan emas, donolik bilan qilaman.
13. Maqsadga erishishda men unchalik qat'iyatli emasman, ayniqsa tashqi boshqaruv bo‘lmasa.
14. Men o‘z oldimga o‘rtacha qiyinchilikka ega bo‘lgan yoki biroz qiyinroq, ammo erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni qo‘yishni afzal ko‘raman.
15. Agar topshiriqni bajara olmasam, men uchun uning jozibadorligi pasayadi.

16. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar almashib kelganda, men o‘z muvaffaqiyatsizliklarimni ortiqcha baholashga moyilman.

17. Men kelajagimni faqat yaqin kelajak uchun rejalashtirishni afzal ko‘raman.

18. Cheklangan vaqt sharoitida ishlaganda, vazifa juda qiyin bo‘lsa ham, mening ishlashim yaxshilanadi.

19. Muvaffaqiyatsiz bo‘lgan taqdirda ham, qoidaga ko‘ra, o‘z maqsadimdan voz kechmayman.

20. Agar men o‘zim uchun vazifa tanlagan bo‘lsam, unda muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirimda ham uning jozibadorligi faqat ortadi.

Natijalarni qayta ishlash. 1–3, 6, 8, 10–12, 14, 16, 18–20 fikrlarga “ha” deb javob bersa, 4, 5, 7, 9, 13, 15, 17-fikrlariga “yo‘q” deb javob bersa, bir ball qo‘yiladi hamda jami ballar soni hisoblanadi.

Agar sinaluvchi 1 dan 7 ballgacha ball to‘plagan bo‘lsa, unda muvaffaqiyatsizlik motivatsiyasi (muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish) tashxis qilinadi.

Agar u 14 dan 20 ballgacha to‘plagan bo‘lsa, unda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi (muvaffaqiyatga umid qilish) tashxis qilinadi.

Agar to‘plangan ballar soni 8 dan 13 gacha bo‘lgan oraliqda bo‘lsa, unda motivatsion qutb ifodalanmagan deb hisoblash kerak.

Bundan tashqari, agar sinaluvchi 8-9 ballga ega bo‘lsa, unda uning motivatsiyasi muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslikka yaqinroq, agar 12-13 ball bo‘lsa, unda uning motivatsiyasi muvaffaqiyatga intilishga yaqinroqdir.

2. 3. Motivatsiya va motivlarni o‘rganish metodlari. O‘quv motivini baholash metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Mazkur metodika 6-8 yoshdagi bolalarning o‘quv motivatsiyasi, maktabga bo‘lgan munosabati, o‘qish bilan bog‘liq vaziyatga nisbatan emotsional reaksiyasini aniqlashga qaratilgan. Metodika N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan.[32]

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

M.R.Ginzburgning “O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini o‘rganish” metodikasi o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi darajasini aniqlashga qaratilgan. Ushbu metodika bolaning maktabga borganida qanday sabablar borligini aniqlashga yordam berdi.[13]

S.X.Nasimovning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari” mavzisidagi tadqiqot ishida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘zaro hurmatiga asoslangan emotsional munosabat muhitining yaratilishi, o‘quv topshiriqlarini tushunish, anglash va fikrlarni bayon etish ko‘nikmalarini kuchaytirishi natijasida, ularda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning kognitiv komponentlarini rivojlantirishi dalillangan.[29] Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etilgan.

Sinaluvchiga yo‘riqnoma. Anketa savollari.

1. Senga maktab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydimi?
 - unchalik yoqmaydi.
 - yoqadi
 - hecham yoqmaydi.
2. Ertalab uyg‘onib, doim xursandchilik bilan maktabga kelasanmi yoki ko‘pincha uyda qolishni istaysanmi?
 - ko‘pincha uyda qolishni istayman
 - ba’zida borishni, ba’zida qolishni istayman
 - xursandchilik bilan maktabga boraman
3. Agar o‘qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar kelmasligi mumkin desa, sen maktabga borarmiding?
 - bilmadim
 - uyda qolardim
 - maktabga borardim
4. Biror bir dars bo‘lmasligi senga yoqadimi?
 - yoqmaydi
 - ba’zida yoqadi, ba’zida yoqmaydi
 - yoqadi
5. Uy vazifalaring yo‘q bo‘lishini xohlarmiding?
 - xohlardim

- xohlamasdim
- bilmadim

6. Maktabda faqat tanaffus bo‘lishini xohlarmiding?

- bilmadim
- xohlamasdim
- xohlardim

7. Sen ota – onangga maktab hakida ko‘p gapirib berasanmi?

- ko‘p gapirib beraman
- kam gapirib beraman
- umuman gapirib bermayman.

8. O‘qituvching o‘rniga boshqa mehribonroq o‘qituvchi kelishini xohlarmiding?

- bilmadim
- xohlardim
- xohlamasdim

9. Sinfda o‘rtoqlaring ko‘pmi?

- kam
- ko‘p
- umuman yo‘q

10. Senga sinfdoshlaring yoqadimi?

- yoqadi
- unchalik yoqmaydi
- yoqmaydi.

Eslatma: mazkur anketa individual tarzda hamda guruhda qo‘llanilishi mumkin.

Natijalarni qayta ishlash uchun quyidagi kalitdan foydalaniladi.

7-Jadval

Savollar	1-javob uchun ball	2-javob uchun ball	3-javob uchun ball
1	1	3	0
2	0	1	3
3	1	0	3
4	3	1	0
5	0	3	1

6	1	3	0
7	3	1	0
8	1	0	3
9	1	3	0
10	3	1	0

Natijalarni baholash:

1. 25 – 30 ball. O‘quv motivatsiyasi yuqori. Bunday bolalar o‘zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.

2. 20 – 24 ball. O‘quv motivatsiyasi o‘rtacha. Bunday o‘quvchilar guruhi o‘quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi.

3. 15 – 19 ball. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko‘proq o‘qish bilan bog‘liq bo‘lmagan tomonlar qiziqtiradi. Bunday o‘quvchilar maktabda o‘zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o‘rtoqlar, o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, chiroyli o‘quv qurollariga ega bo‘lish uchun boradilar.

4. 10 – 14 ball. O‘quv motivatsiyasi past. Bunday bolalar maktabga borishni xohlamaydilar, darslarda bekorchi narsalar bilan shug‘ullanib, o‘ynab o‘tiradilar.

5. 10-balldan past. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, moslashmaganlik mavjud. Bunday o‘quvchilar o‘quv faoliyatini bajarishga qiynaladilar, tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan bo‘lgan munosabatda muammolarga duch keladilar, ularda ayrim hollarda nerv – psixik salomatlikning buzilishi kuzatiladi.

Eslatma: Anketani ikki usulda qo‘llash mumkin.

1 – usul. Savollar eksperimentator tomonidan o‘qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o‘zi tanlagan javobni yozib qo‘yadi.

2 – usul. Savollar har bir bolaga alohida – alohida yozma ko‘rinishda tarqatiladi, bolalar tegishli javoblarni belgilaydilar.

Metodika haqida qo‘shimcha ma’lumot: so‘rovnomadagi savollar 200 nafar 6 – 8 yoshdagi o‘quvchi bilan o‘tkazilgan so‘rov asosida

bolalarning maktabga, o'qish jarayonida bo'lgan munosabatini to'liqroq aks ettiruvchi savollar sifatida ajratib olingan.

2.4. Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish

Tadqiqot maqsadi: Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini I. M. Yusupov so'rovnomasi orqali o'rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Eksperiment shakli: individual va guruh

Metodika haqida ma'lumot. Empatiya bu insonning boshqalar kechinmasiga hamdard bo'la olish qobiliyati bo'lib shaxsning motivation jabhasiga bevosita tasir qiladi. Bu esa o'z navbatida guruhdagi xulq-atvor yo'nalishini belgilab beradi. Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi quyidagi axloqiy fazilatlarda ko'rinadi:

1. Tartib ntizomlilik, masuliyatlilik yoki aksincha
2. O'zara bir-birni qo'llab quvvatlash hamda bir biriga qayishish (qayg'urish)
3. Rahbarlar fikriga bo'ysunmaslik hamda sovuqqonlik masuliyatsizlik
4. Tarqoq ijtimoyi munosabatlar hamda egoism

Shaxs empatiya xususiyatini o'rganish uchun Yusupov so'rovnomasidan foydalaniladi. So'rovnomada 36 ta hukm bo'lib unga bildirilgan munosabat tahliliga kora 6 ta shkala aniqlanadi.

1. Ota onaga nisbatan empatiya
2. Hayvonlarga nisbatan empatiya
3. Kariyalarga nisbatan empatiya
4. Bolalarga nisbatan empatiya
5. Badiiy qaxramonlarga nisbatan empatiya.
6. Notanish odamlarga nisbatan empatiya

Natijalar tahlili. Umumiy natija aniqlash 57 ball bilan o'rta darajadagi empatiya.

Shkala bo'yicha 13, 12, 11 ballar bilan yuqori va o'rta darajada. Xulq-atvorni shakllantirishda ehtiyojlar nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Maslounning ehtiyojlar piramidasiga ko'ra, insonlarning motivatsiyasi turli bosqichlardan iborat bo'ladi. Ushbu nazariyaga ko'ra,

inson birinchi navbatda o'zining fiziologik ehtiyojlarini qondirishga intiladi, so'ngra xavfsizlik, ijtimoiy aloqalar, e'tirof va o'zini o'zi namoyon qilish kabi yuqori ehtiyojlarga qaraydi. Bu ehtiyojlar qondirilgach, inson yangi maqsadlarga erishish uchun motivatsiyalangan bo'ladi. Xulq-atvori shakllanishida motivatsiyaning yana bir muhim elementi - ehtiyojlarni amalga oshirish jarayonidagi samarali strategiyalardir. Odamlar o'z ehtiyojlariga asoslangan turli strategiyalarni ishlab chiqadilar. Ba'zi odamlar, masalan, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq tashqi rag'batlantirishlarga tayanishadi, boshqalar esa ichki kuchlarini jalb qilib, o'zini rivojlantirishga intilishadi. Bu holat xulq-atvorning turli ko'rinishlarini yaratadi: ba'zi odamlar ko'proq ijodiy va mustaqil bo'lsa, boshqalari esa odatda tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Xulq-atvorni boshqarish motivatsiyani tushunish va uning ijobiy yo'nalishlarga qarab rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Motivatsiyani boshqarish, xususan, o'z maqsadlariga erishishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi. Har bir inson o'zhayotida turli motivatsion vositalardan foydalansa ham, ularni samarali boshqarish va turli vaziyatlarda qo'llash muhimdir. Bu esa uning xulq-atvorini ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlariga qarab moslashtirishga yordam beradi. Xulq-atvorni motivatsiya bilan boshqarishning ijtimoiy omillari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Jamiyatda odamlarning motivatsiyasi ko'plab tashqi faktorlarga, masalan, ijtimoiy normalarga, oilaviy va do'stona munosabatlarga, mehnat muhitiga bog'liqdir. Xulq-atvor ko'pincha odamlarning boshqalar bilan aloqalarini aks ettiradi. Shu sababli, jamiyatda motivatsiyaning turli shakllari, xususan, ijtimoiy motivatsiya, ko'plab ijtimoiy tuzilmalar va muhitlar orqali shakllanadi.

Insonning xulq-atvori va motivatsiyasi uning harakatlarini, qarorlarini va umuman hayotidagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi muhim psixologik jarayonlardir. Motivatsiyaning ichki va tashqi turlari, shuningdek, ehtiyojlar nazariyasi xulq-atvorning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Motivatsiyani boshqarish va xulq-atvorni to'g'ri yo'naltirish insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatga erishish imkonini yaratadi. Motivatsiya va xulq-atvorni yaxshiroq

tushunish, insonlarning turli vaziyatlarga qarab qanday harakat qilishini aniqlash va ularni samarali boshqarishda asosiy vosita hisoblanadi.

2. 5. Shaxs emotsional olami. Shaxs emotsional holatini tashhis etish.

Tadqiqot maqsadi: bolaning maktabdagi vaziyatlarga hissiy-emotsional munosabatini aniqlashga qaratilgan.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Maktabda bolaning hissiy holati, uning o'qituvchi, sinfdoshlariga bo'lgan munosabatini aniqlashga qaratilgan M. Lusher metodikasi bilan adaptatsiyani tadqiq qilish mumkin. S.X.Nasimovning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzisidagi tadqiqot ishida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'zaro hurmatiga asoslangan emotsional munosabat muhitining yaratilishi, o'quv topshiriqlarini tushunish, anglash va fikrlarni bayon etish ko'nikmalarini kuchaytirishi natijasida, ularda o'quv materiallarini o'zlashtirishning kognitiv komponentlarini rivojlantirishi dalillangan.[29] Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida psixologik xizmatni tashkil etishda, boshlang'ich sinfga qabul qilish jarayonida bolalarda o'quv faoliyatini o'zlashtirish uchun yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilishda, kommunikativ qobiliyatlar, aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishda, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi, o'qituvchi tarbiyachilar ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishlari bilan amaliy tayyorgarligini oshirishda o'z ifodasini topgan.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Psixolog aralash tartibda bolaning oldidiga A4 formatdagi qog'ozning bo'sh varag'iga rangli kartichkalarni qo'yadi.

Ko'rsatma

1. Diqqat bilan qarang va ayting, ertalab maktabga borganingizda ushbu ranglardan qaysi biri sizning kayfiyatingizga ko'proq yoqadi?

2. Dam olish kunlarida uyda nima bo‘ladi?
3. Ushbu ranglardan qaysi biri sinfda o‘tirganingizda kayfiyatingizga ko‘proq yoqadi?
4. Duskada qachon javob berasiz?
5. Nazorat yoki tekshirish ishlaridan oldin?
6. Tanaffusda bolalar bilan o‘ynaysiz yoki muloqot qilasiz?
7. O‘qituvchi bilan qachon gaplashasiz?

Bu ranglardan o‘zinga boshqalardan ko‘ra chiroyliroq ko‘ringanini va yoqqanini tanla, (psixolog bola tanlagan rangli qog‘ozni olib qo‘yadi). Va qolganlaridan? (yana bola tanlagan rangli qog‘ozni olib qo‘yadi).

Ko‘k, yashil, qizil, sariq ranglarni tanlashda ijobiy munosabat, hissiy holat, yaxshi kayfiyat qayd yetiladi.

Qora rangni tanlashda salbiy munosabat, negativizm, narsalarni keskin rad yetish, yomon kayfiyatning ustunligi qayd yetiladi.

Kul rangni tanlashda neytral munosabat, his-tuyg‘ularning yetishmasligi, passiv rad yetish, befarqlik, bo‘shlik, tushkunlik hissi qayd yetiladi.

Jigarrang rangni tanlashda tashvish, kuchlanish, qo‘rquv, yoqimsiz fiziologik his-tuyg‘ular (oshqozon og‘rig‘i, bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi va boshqalar) qayd yetiladi.

Binafsha rangni tanlashda infantilizm, injiqlik, munosabatlarning beqarorligi, mas‘uliyatsizlik va "bolaning pozitsiyasi" ning saqlanishi qayd yetiladi.

Bolaning hissiy o‘zini o‘zi qadrlashini aniqlash.

Agar bolaning umumiy rang tanlovi ko‘k, yashil, qizil, sariq ranglardan boshlangan bo‘lsa, unda bu holda bolaning o‘zini o‘zi nazorat qilish ijobiydir, u o‘zini yaxshi namayon etadi.

Agar umumiy rang tanlovi qora, kulrang, jigarrang bilan boshlangan bo‘lsa, unda bu holda bolaning o‘zini o‘zi salbiy baholaydi, u o‘zini jamoada yomon his qiladi.

Agar umumiy rang tanlovi binafsha rang bilan boshlangan bo‘lsa, unda bu holda bolada infantil o‘zini o‘zi qadrlash, shaxsiy yetuklik, yoshga xos bo‘lgan munosabat va xatti-harakatlar namayon bo‘ladi.

8- Jadval

Natijalarni tahlil qilish

Ranglar	Qizil rang	Sariq rang	Yashil rang	Binafs ha rangni	Ko'k rang	Kulrang	Qora rang	Jigarrang
Ranglar ketma-ketligi	1	2	3	4	5	6	7	8
Bola tanlovi	3	8	2	1	5	7	4	6
farqlar	2	6	1	3	0	1	3	2

$$EH = 2 + 6 + 1 + 3 + 0 + 1 + 3 + 2 = 18$$

$20 < EH < 32$ - salbiy his-tuyg'ularning ustunligi. Bolada yomon kayfiyat va yoqimsiz holatlar hukmronlik qiladi. Yomon kayfiyat moslashish jarayonining buzilishini, bolaning o'z-o'zidan bartaraf yeta olmaydigan muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Yomon kayfiyatning ustunligi o'quv jarayonining buzilishi va bolaning psixologik yordamga muhtojligini ko'rsatadi.

$10 < EH < 18$ - emotsional holat o'rtacha. Bola tashvishlanish uchun hech qanday sabab yo'q, moslashish odatda o'rtacha holatda bo'ladi.

$0 < EH < 8$ - ijobiy his-tuyg'ularning ustunligi. Bola quvnoq, optimistik, eyforiya holatida bo'ladi.

Tahlil. Agar bola barcha yettita holatda jigarrang, kulrang ranglarni va "maktab va sinf o'qituvchisiga umumiy munosabat" holatlarida binafs ranglarni tanlaganida - 0 ball beriladi. Qora rangni tanlsa - 1 ball. Ko'k, yashil, qizil, sariq ranglarni tanlashda - 1 ball.

Agar bolaning javoblari 6-7 ball bilan baholansa, bolaning maktabga umumiy hissiy munosabati ijobiydir.

Agar javoblar 4-5 ball bilan baholansa, unda maktabga va o'quv jarayonining alohida jihatlariga salbiy munosabat bo'lishi mumkin.

Agar javoblar 0-3 ball bilan baholansa, bola maktabga salbiy munosabatda bo'ladi.

2. 6. Shaxs depressive holatlarini tashxis etish.

Tadqiqot maqsadi: Depressiyani keltirib chiqaradigan omillar bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bir qator sabablarni aniqlash.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Yo'riqnoma: quyida keltirilgan 10 ta savollar teskari baholanadi (2,5,6,11,12,14,16,17,18,20) yo'q bunday emas 4 ball, shunday bo'lsa kerak 3 ball, to'g'ri 2 ball, juda to'g'ri 1ball.

9-Jadval

№	Holatlar	Yo'q, bunday emas(4)	Shunday bo'lsa kerak(3)	To'g'ri (2)	Juda to'g'ri(1)
1.	Men tushkun, qayg'u holatidaman.				
2.	Ertalab o'zimni har qachongidan ham yaxshi sezaman.				
3.	Menda yig'lash yoki ko'z yoshga moyillik davrlari bo'ladi.				
4.	Tungi uyqum yomon.				
5.	Mening ishtaham odatdagidan yomon emas.				
6.	Menga boshqa maftunkor ko'rinishga ega bo'lgan ayollarga qarash, ular bilan suhbatlashish va yonma-yon turish yoqadi.				
7.	Vaznimni yo'qotayotganimni sezyapman.				
8.	Meni ich qotishi bezovta qiladi.				

9.	Yuragim odatdagidan tezroq urayapti.				
10.	Men hech qanday sababsiz charchab qolyapman.				
11.	Men har doimgidek tiniq fikrlayapman.				
12.	O‘zim biladigan ishni bajarish menga oson.				
13.	Bezovtalik his qilaman va bir joyda o‘tira olmayapman.				
14.	Mening kelajagimdan umidim bor.				
15.	Odatdagidan ancha jizzakiman.				
16.	Mening qaror qabul qilishim oson				
17.	Men zarur va kerakli ekanligimni his qilaman.				
18.	Men etarli darajada to‘laqonli hayot kechirayapman.				
19.	Men o‘lsam boshqalarga yaxshi bo‘lishini his qilaman.				
20.	Meni doimo xursand qiladigan narsalar hamon sevintiradi.				

Natijalarni tahlil qilish: Quyida keltirilgan 10 ta savollar teskari baholanadi (2,5,6,11,12,14,16,17,18,20)

Yo‘q bunday emas 4 ball, shunday 3 ball, to‘g‘ri 2 ball, juda to‘g‘ri 1 ball.

1) To‘g‘ri baholanuvchi(1,3,4,7,8,9,10,13,15,19) savollar yig‘indisidan

2) Teskari baholanuvchi(2,5,6,11,12,14,16,17,18,20) savollar yig'indisini ayiramiz va natijasiga 35 sonini qo'shamiz. (1-2) Q 35 q R X

0-40 ball depressiv holati past

40-50 ball depressiv holati mavjud

50-60 ball yuqori depressiya holati mavjud

2.7. Shaxsning emotsional olami. Bezovtalik va ko'ngilchanlikni o'rganish.

Tadqiqot maqsadi: Savolnoma 50 ta tasdiqdan iborat. Foydalanish qulay bo'lishi uchun har bir tasdiq sinaluvchilarga alohida kartochka tavsiya qiladi. Testlashtirish 15-30 daqiqa davom etishi mumkin.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Test materiallari

1. Men odatda mutlaqo xotirjamman va meni o'z xolatimdan chiqarish ancha qiyin.
2. Mening asabimni bo'zilganligi boshqa kishilarnikiga nisbatan xam kam emas.
3. Menda ba'zan ich qotishi bo'ladi.
4. Ba'zan boshim og'rib turadi.
5. Men kamdan kam charchayman.
6. Men doimo o'zimni baxtli xis qilaman.
7. Men o'zimga ishonaman.
8. Men xech kachon kizarmaganman.
9. O'z dustlarim bilan solishtirganda men o'zimni ancha xarakatchan hisoblayman.
10. Men boshqalardek ko'p qizarmayman
11. Menda kamdan kam yurak xuruji bo'lib turadi.
12. Odatda mening qo'lim yetarlicha iliq.
13. Men boshqalarga qaraganda uyatchan emasman.
14. Menda o'zimga ishonch xissi yetishmaydi.

15. Vaqti kelib hech narsaga yaroqsizdek bo'lib qoladigandek his qilaman.
16. Men o'zimni bir joyga qo'ya olmaydigan darajada bezovtalanish bo'ladi.
17. Mening oshqozonim ancha bezovta qiladi
18. Menda oldimda turgan qiyinchiliklarni siqib chiqarish ruxi yetishmaydi
19. Men boshqalardek o'zimni baxtli bulishnmni xoxlayman
20. Menga oldimda shunday bartaraf etish mumkin bo'lmaydigan iyinchilik turgandek tuyuladi.
21. Men ko'pincha kurkinchi tushlar kuraman
22. Men biror narsa kilmokchi bulsam qo'lim titrayotgandek bo'ladi
23. Menda haddan ortiq bexalovatliman.
24. Meni imkonli bo'lgan omadsizliklar bezovta qiladi.
25. Men xech narsa takdid solmasligini bilsam ham kuchli qurquvni his qilaman
26. Meni ishga yoki topshiriqlar ustida diqqatimni to'plashim qiyin
27. Men kuchli zuriqish bilan ishlayman.
28. Men tez xovliqib qolaman.
29. Derli har doim biror kishi yoki biror narsadan bezovtalanishni his qilaman
30. Men hamma narsaga jiddiy qarashga moyilman
31. Men tez-tez yig'lab turaman
32. Men ko'pincha og'iz qurish va chanqashdan qiynalaman
33. Meni oyida bir marotaba yoki tez-tez oshqozonim bezovta qiladi
34. Men tez qizarib ketishimdan qurqaman.
35. Meni biror narsaga e'tibor qaratishim qiyin
36. Mening moddiy jihatdan qiynalganligim haqida o'ylayman.
37. Ko'pincha men boshqalar gapirishga jur'at qilmagan narsalar haqida o'ylayman
38. Menda bezovtalanish uyqusizlikka olib keladigan xollar bo'ladi.
39. Vaqti-vaqti bilan sarosimaga tushishim, meni junbushga keltiruvchi ko'p terlashimga sabab bo'ladi.
40. Xattoki sovuq kunlari ham men osongina isiyman
41. Shunday asabiylashish bo'ladiki, men uxlay olmay qiynalaman.

42. Men tez asabiylashadigan odamman
43. Vaqti-vaqti bilan o'zimni foydasizdek xis qilaman
44. Shunday vaqtlar bo'ladiki jonim chiqib ketadigandek bo'ladi.
45. Meni biror narsa bezovta qilsa ko'pincha o'zimni tutib turishga xarakat qilaman
46. Boshqa odamlarga qaraganda o'zimni sezgir his qilaman.
47. Men doimo ochlikni xis qilaman.
48. Men ba'zan hech narsadan hech narsasiz asabiylashaman.
49. Men uchun xayot g'ayri tabiiy qiyindek tuyuladi.
50. Kutish doimo mening asabimni buzadi.

Tadqiqot natijalarini baholash uchun sinaluvchilardagi bezovtalanish haqidagi ma'lumotlar quyidagicha hisoblanadi:

«Ha» - 14,15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50

«Yo'q» - 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14 savollarga javoblari mos kelsa 1 balldan beriladi.

Umumiy ball: 40 - 50 ballar bulsa juda yuqori bezovtalanish;

25 - 40 ballar yuqori bezovtalanish;

15 - 25 ballar o'rtacha bezovtalanish;

5-15 ballar, 0 - 5 ballar - bezovtalanishning quyi darajasini bildiradi.

2. 8. Shaxsning irodaviy tuzilishini o'rganish

Tadqiqot maqsadi: Shaxs xulq-atvorida irodaviy sifatlar tarkib topishining kognitiv, konativ, assotsiativ va interospektiv determinantlari, irodaviy sifatlar generalizatsiyasining o'ziga xos psixologik xususiyatlari o'rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Psixologiya fanida irodani o'rganish turli ilmiy metodologik asosda qurilgan holda ijtimoiy-tarixiy taraqqiётning barcha bosqichlarida amalga oshirib kelinmoqda. Mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va Alisher Navoiyning asarlarida, Amir Temur tuzuklari va boshqa qator allomalarning komil inson to'g'risidagi ta'limotlarida iroda

insonning oliy fazilatlaridan biri sifatida ulug‘langan. Tadqiqotchi G.I. Sattarovaning “Ilk o‘spirinlar irodaviy sifatlarining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” mavzusidagi tadqiqot ishida ilk o‘spirinlar motivatsiyasi, asab tizimining kuchi va shaxslilik xususiyatlarining barqarorlashuvi irodaviy sifatlarini (mas’uliyatlilik, sabr-toqatlilik, qat’iyatlilik, tirishqoqlik) rivojlanishiga, “tobelik” va “o‘zini o‘zi nazoratlashning pasayganligi” sindromlarining irodaviy sifatlarini susayishidagi ta’siri dalillangan; mas’uliyatlilik ilk o‘spirinlarda yetakchi irodaviy sifat ekanligi hamda uning boshqa irodaviy sifatlar (tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, sabr-toqatlilik, g‘ayratlilik) bilan o‘zaro munosabatlari ierarxiyasi aniqlangan.[34]

Shaxsning irodaviy sifatlarini o‘rganishga mo‘ljallangan ko‘plab metodikalar mavjud bo‘lib, shunday metodikalardan biri “Shaxsning o‘z-o‘zini iroda kuchini baholash” metodikasi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu metodika N.N.Obozov tomonidan ishlab chiqilgan hamda iroda kuchining namoyon bo‘lishini umumlashtirilgan holda tavsiflash uchun mo‘ljallangan.

Sinaluvchiga ko‘rsatma. Quyidagi 15 ta savolga javob berishingiz lozim: "ha" - 2 ball, "bilmayman" yoki "bo‘lishi mumkin" - 1 ball, "yo‘q" - 0 ball. Javob berish jarayonida siz darhol ballarni ham belgilashingiz kerak.

Anketa matni:

1. Vaqt va shart-sharoit ushbu faoliyatdan uzilib, keyin yana unga qaytishga imkon berishidan qat’iy nazar, siz uchun qiziq bo‘lmagan ishni oxiriga yetkaza olasizmi?

2. Noxush ish qilishga majbur bo‘lganingizda (masalan, dam olish kuni navbatchilikka chiqish) ichki qarshilikni osonlikcha yengib o‘ta olasizmi?

3. Ishda yoki uyda ziddiyatli vaziyatga tushib qolganingizda, unga maksimal darajadagi xolislik bilan qarash uchun o‘zingizni qo‘lga ololasizmi?

4. Agar sizga parhez buyurilgan bo‘lsa, barcha shirin taomlar vasvasalarini yengishingiz mumkinmi?

5. Kechqurun rejalashtirilganidek, ertalab odatdagidan erta turishga kuch topa olasizmi?

6. Agar sizning ko'z o'ngingizda biron-bir baxtsiz hodisa ro'y bersa, guvohlik berish uchun voqea joyida qolasizmi?

7. Elektron pochta xabarlariga tez javob berasizmi?

8. Agar sizda yaqinlashib kelayotgan samolyot parvozi yoki stomatologning kabinetiga tashrif buyurish qo'rquv uyg'atayotgan bo'lsa, oxirgi daqiqada o'z qaroringizni o'zgartirmaslik uchun, bu tuyg'uni osongina yenga olasizmi?

9. Shifokor tavsiya qilgan juda yoqimsiz dorini ichasizmi?

10. Jahl ustida bergan va'dangizni amalga oshirish sizga ko'p muammo keltirsa ham, siz ushbu va'dani bajarasizmi? Siz bir so'zli odammisiz?

11. Agar notanish shaharga safar qilish zarur bo'lib qolsa, hech ikkilanishlarsiz jo'nab ketasizmi?

12. Kun tartibiga qat'iy rioya qilasizmi: uyg'onish, ovqatlanish, o'qish, tozalash va boshqa ishlarni qilish vaqti?

13. Kutubxonan qarzdorligi borlarni ma'qullamaysizmi?

14. Eng qiziqarli teleko'rsatuv ham sizni shoshilinch va muhim ishingizni keyinga qoldirishingizga sabab bo'lmaydi? Shundaymi?

15. Qarama-qarshi tomonning so'zlari sizga qanchalik haqoratli bo'lib tuyulsada, janjalni to'xtatib, sukut saqlay olasizmi?

Natijalarni baholash: To'plangan ballar yig'indisi hisoblanadi: 0-12 irodasi kuchsiz; 13-21 o'rtacha iroda kuchi; 22-30 kuchli iroda.

Irodaviy sifatlarning o'zi ham shaxs xususiyatlari sifatida tarkib topishi lozim bo'ladi. Shaxslilik xususiyatlari irodaviy sifatlar bilan uyg'unlashmas ekan, faoliyatda ko'zda tutilgan yuqori maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

3-MODUL. BILISH JARAYONLARI

3. 1. Ko‘rishning mutloq chegarasini aniqlash

Tadqiqot maqsadi: Ko‘rish sezgisida ranglar kontrastining hosil bo‘lishini tekshirish. Ko‘rish sezgisida izchil ranglar kontrastining hosil bo‘lish qonuniyatini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: kattaligi 48 x 64 sm bo‘lgan oq qogoz varaqlari; ularga 15 x 15 sm kattalikdagi yashil, qizil, ko‘k, sariq rangli kvadratlar qirqib yopishtirilgan, oq rangli ekran.

Sinaluvchiga ko‘rsatma: tajribani tabiiy kunduzgi yorug‘lik sharoitida yoki kunduzgi yorug‘likka yaqin bo‘lgan nur taratadigan lampalar yorug‘ligida o‘tkaziladi.

Tajribada ishtirok etayotgan talabalar xonada shunday o‘tkaziladiki, ularning har biriga rangli kvadrat to‘ppa-to‘gri ko‘rinib turadigan bo‘lsin.

Kvadratlar ulardan 4 m gacha uzoqlikda o‘rnatiladi. Talabalarga 20 - 40 sekund maboynda rangli kvadratlarga qarash, keyin esa o‘z nigohini ekranga ko‘chirish hamda unda rangli kvadrat paydo bo‘lmaguncha nigohni uzmay turish taklif qilinadi. Bunda turli kishilarda izchil ranglar kontrasti turlicha kechishini ta’kidlab o‘tish zarur.

Oldindan tayyorlab qo‘yilgan barcha rangdagi kvadratlar bilan tajribani takrorlash zarur.

Tajribalar tamom bo‘lganidan keyin ularning natijalarini yozib olish, yozilayotgan kvadrat rangini belgilash hamda izchil kontrastda paydo bo‘layotgan ranglar tonini ko‘rsatib yozish zarur. Bunda izchil kontrastlar harakatdan keyingi hodisa natijasi ekanligini ta’kidlab o‘tish zarur. Qo‘zgovchi ta’sirining to‘xtashi reseptordagi qo‘zgalish jarayonini hamda analizatorning miya po‘stlogi qismidagi qo‘zgalishlarni o‘sha zahoti to‘htatmaydi.

3. 2. Makonni ko‘rishning differensial chegaralarini aniqlash

Tadqiqot maqsadi: Rang sezgisiga xos xususiyatlarni aniqlash. Rang sezgisi va idrok xususiyatlarini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: Etti xil rangli kartochkalar, sekundomer, qalam.

Sinaluvchiga ko‘rsatma: rang sezgisi va idrokni tekshirish ikki bosqichda o‘tkaziladi. Birinchi bosqichda sinaluvchiga tavsiya qilingan rangli doirachalarni guruhlariga ajratib berish taklif qilinadi. Spektr rang-barangligidagi jami 42 ta doiracha betartib ravishda sinaluvchining oldiga yoyib qo‘yiladi va dastlab qizil rangga bo‘yalgan (qizil, to‘q qizil, och qizil) doirachalarni ajratib berish so‘raladi. Doirachalarni tanlab olish natijasi (+, -, o) belgilar orqali qayd qilib boriladi. Uch xil to‘ndagi qizil rangni to‘g‘ri tanlagan bo‘lsa +, xato tanlagan bo‘lsa -, tanlay olmasa- 0 belgisi qo‘yiladi.

Yuqoridagi tartibda o‘tkazilgan tajriba yashil, sariq, binafsha, jigarrang, ko‘k hamda malla rangdagi och-to‘qlik belgisi bilan bir-biridan ajralib turgan doirachalar bilan o‘tkazilib, olingan natijalar qayd qilib boriladi. (10- jadval)

10-Jadval

№	F.I.Sh.	Sinaluvchi ning yoshi	Sinaluvchining tanlovi uchun namuna																				
			Qizil rang			Yashil rang			Sariq rang			Binafsh a rang			Jigar rang			Ko‘k rang			Malla rang		
			1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
			+	+	-	-	-	+	+	+	-	+	+	-	-	+	-	-	+	+	+	+	-

Eslatma: Jadvalda spektordagi xar bir rangning (to‘q, o‘rtacha rang, och rang) nomlari so‘z bilan emas 1; 2; 3; kabi tartib raqam bilan belgilanadi, ya‘ni to‘q rang 1; o‘rta rang-2; och rang-3 raqam bilan ifodalanadi.

Tajribaning ikkinchi bosqichida sinaluvchiga turli to'ngdagi ranglarni nomini aytib berishi so'raladi. Buning uchun dastlab o'rtacha rangdorlikdagi etti xil rangdagi doirachalarni ushbu tartibda sinaluvchi oldiga yoyib qo'yiladi. Shundan so'ng, "Mana bu doirachaning rangi qanaqa?" degan savol beriladi. Ikkinchi ustunga to'q rangdagi doirachalar terilib sinaluvchidan sinaluvchidan har-bir rangning nomi so'raladi. Uchunchi ustunda och rang doirachalarni terib chiqib sinaluvchidan nomini aytib berish so'raladi. Sinaluvchi tamonidan berilgan javoblar (+, -, 0) lardan iborat bo'lgan shartli belgilar eksperimentator tamonidan jadvalga qayd qilib boriladi. (11-jadval)

11- Jadval

№	F.I.S h.	Sinaluvc hining yoshi	Sinaluvchining tanlovi uchun namuna																				
			qizil rang			yashil rang			sariq rang			binafs ha rang			jigar rang			ko‘k rang			malla rang		
			1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
1			+	+	-	-	-	+	+	+	-	+	+	-	-	+	-	-	+	+	+	+	-
2																							
3																							
4																							

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Tajriba jarayonida tuzib chiqilgan 1-jadvalda "Namunaga qarab ranglarni guruhlariga ajratish natijalari"; 2- jadvalda "namunaga qarab ranglarning nomini atay bilish natijalari" asosida ikkala bosqichda o'tkazilgan tajribalarning miqdoriy (statistik) hamda psixologik (sifat) tahlili qilinadi.

12- Jadval

Ranglar nomi	Sinaluvchining yoshi	To'g'ri javob soni	Xato javob soni	Javob yo'q soni
Qizil				
Yashil				
Sariq				
Binagsha				

Jigarrang				
Ko'k				
Malla				

Uchunchi bosqichda ranglarning to'ni va rangdorligini guruhlash va nomini aytib berish natijalari turli xil bo'lishi aniqlanadi. Ko'proq xatoga yo'l qoygan sinaluvchilar ajaratib olinadi va ularni aralash ranglarni tanishtirish bo'yicha ishlash lozim bo'ladi.

3. 3. Faol va nafaol teri sezgisida shakilni idrok qilish

Tadqiqot maqsadi: tuyush sezgisining harorat va og'riqni his etish bilan bog'liqligi va tuyush sezgisining o'rganishga mo'ljallangan.

Kerakli jihozlar. Qattiq karton yoki fanerdan tayyorlangan geometrik figuralar to'plami. Geometrik figuralar bir-biridan konturning murakkabiligi, ya'ni perimetre qirqimlarining uzunligi va miqdori bilan farq qiladi. Eksperiment natijalarini qayd qilib boorish uchun esa har bir tekshiriluvchiga bir varaq toza qog'oz beriladi.

Tajriba natijalarini qayd etish varaqlarini yuritish uchun blank tayyorlab olish zarur.

Mashg'ulotni olib borilishi

Topshiriq_____sana_____

Eksperimentator_____

Tekshiriluvchi_____

Tekshiriluvchi _____ o'zini _____ qanday _____ his etayotganligi_____

O'lchnadigan xususiyat_____

Stimul turlari_____

1- shakl

Tekshiriluvchi tamonidan aniq topilgan figuralarni baholash (ball hisobida) (ballarni eksperimentator qo'yib boradi,).

Figuraning raqami	Tajriba				Tajribalarning o'rtacha ballari			
	I	II	III	IV	I	II	III	IV
1								

2								
3								
4								

Ishning bajarilish tartibi: topshiriqlarni bajarish uchun talabalar ikki guruhga ajratiladi. Ularning bir guruhi ekspwerimentator, ikkinchi guruhi esa tekshiriluvchi vazifasini bajaradi. Topshiriq beshta tajribadan iborat. Figuralarni faol paypaslash va nafaol his etish bosqichlarida sinaluvchining ko‘zi berk holda bo‘lishi lozim. Figura rasmlarni ko‘rsatayotgan vaqtda ko‘zini ochish taklif etiladi. Tekshiriluvchi figuralarning rasmiga qarashidan oldin ular yig‘ishtirib olinadi. Murakkablik darajasiga ko‘ra. Har bir tajribada sinaluvchiga uchta figura ko‘rsatiladi. Har bir nafaol his etish va faol paypaslash davomiyligi chegaralanmatdi. Tajribaga qadar eksperimentator tekshiriluvchiga yo‘riqnoma beradi.

Tekshiriluvchi uchun yo‘riqnoma: Sizga tekis figuralar taqdim etiladi. Sizning vazifangiz ko‘zingiz berk holda har bir figurani shaklini aniq his etishingiz va ular to‘g‘risida figura chizmasi yuzasidan tasavvuringizni bildirishingiz kerak.

Xarakatsiz figura-stimulini nafaol sezish. Eksperimentator tekshiriluvchining kaftiga harakatlantirmagan holda figurani qo‘yadi. Bunda eksperimentatorga figurani kaftga qo‘yish vaqtida uni qattiqroq bosish ta‘qiqlanadi, tekshiriluvchi esa uni kaftiga joylashtiradi va boshqa qo‘li bilan uni paypaslab ko‘radi. Eksperimentator tekshiriluvchining signaliga ko‘ra figurani oladi va uning ko‘zidagi bog‘lag‘ichni echadi. So‘ngra tekshiriluvhchi idrok qilgan figurasining rasmini chizadi.

I-tajriba-harakatli figura-stimulini nafaol sezish. Eksperimentator figuraning konturidan tekshiriluvchi o‘ng qo‘lining harakatsiz ko‘rsatkich barmog‘i bo‘ylab silliq aylantiradi. Figura konturini to‘liq bir marta aylantirgandan keyin tekshiriluvchi uning shaklini chizadi.

II-Tajriba - sun‘iy faol sezish. Tekshiriluvchining o‘zi stimul figura kontirini qaytarmasdan, ko‘rsatgich barmog‘i bilan aylantirib chiqadi. Unga har bir figura konturini 3-4 marta paypaslab ko‘rishga

ruhsat beriladi. Eksperimentator tajriba vaqtida figuraning harakatsizligini ta'minlash uchun tutib turadi.

III-Tajriba-faol sezish. Tekshiriluvchining o'zi bir qo'li bilan taqdim etilayotgan figurani paypaslab ko'radi. Paypaslab ko'rish vaqti cheklanmagan. Paypaslab ko'rilgandan keyin tekshiriluvchi figurani chizishga kirishadi.

IV-Tajriba bimanual sezish. Eksperimentator tekshiriluvchiga figurani ikki qo'llab paypaslashi orqali sezish organi yordamida uning shaklini yaqqol aniqlashni taklif etadi. Tekshiriluvchidan paypaslash vaqtida har bir qo'lidagi barmoqlarining harakatini batartib kuzatishi so'raladi. Tekshiriluvchi qo'l harakatlarining og'zaki hisobotidan tashqari figurani ham chizadi.

Natijalarni qayta ishlash. Natijalarni qayta ishlash uchun tekshiriluvchining rasmlari tajriba raqamiga ko'ra guruhlab chiqiladi.

I-II tajriba:

1. Birinchi navbatda chizmalarining metrik xususiyatlari, ya'ni chiziqlarning uzunligi, proporsiyasi va figuradagi umumiy elementlar miqdori baholanadi.

2. Chizmani chizilishi sifati 5 balli tizim bo'yicha baholanadi:

5 ball- chizilgan figura test- ob'ektdagi shaklga to'liq mos kelsa.

4 bal-asl nusxanikiga nisbatan figuraning chiziqlari uzun yoki kalta chizilgan holatda.

3 ball-figuraning tomonlari uzunligi va burchaklarini chizishda yanglishlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa.

2 ball- burchaklar va tamonlarni chizishda yanglishilsa, figuraning originalidagi bitta yoki bir nechta elementlar tushirib qoldirilgan bo'lsa.

1 ball- chizma bilan original figura o'rtasida moslik mutlaqo bo'lmasa.

3. tajribalardagi har bir figura uchun olingan ball bo'yicha baholar protokolda qayd etiladi va har bir tajriba bo'yicha o'rtacha ball hisoblab chiqiladi.

B tajriba: Ushbu tajriba natijalarining qayta ishlash eksperimentatorning bimanual sezish xususiyatlari haqidagi yozma xulosasi asosida amalga oshiriladi. Buning uchun qo'l va barmoqlarning quyidagi funksiyalariga e'tibor qaratiladi:

- o'ng va chap qo'llarning faolligidagi har xillik;
- barmoqlarning har xil vazifani bajarish (bosh barmoqning hisoblash nuqtasi, ko'rsatuvchilik roli);
- barmoqlarni stimul ta'sirida ishlashi;
- kontur bo'yicha bir teks harakatlanmaganligi (sekinlashganligi, to'xtab qolganligi va ortga qaytganligi);
- alohida harakatlardagi ustuvor funksiyalar, ya'ni bilish va nazorat funksiyasining mavjudligi.

3.4. Obrazlar ketma – ketligini o'rganish

Tadqiqot maqsadi: Turli predmetlar surati aks ettirilgan kartochkalar yordamida obrazli xotirani tekshirish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi 30 ta predmet rasmi solingan ikki juft kartochkalar. Talabalar oldindan kartochkalarni tayyorlab qo'yadilar.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Bu tajriba ikki variantda o'tkaziladi. Birinchi variantda tekshiriluvchi unga ko'rsatiladigan tasvirlarni yodda saqlab qolishi zarurligi tushuntiriladi. Ko'rsatma berib bo'lgach tadqiqotchi kartochkalarni tekshiriluvchiga ko'rsatib chiqadi. So'ngra esda olib qolingan rasmlarni nomini yozib chiqishni takif etadi. To'g'ri esda olib qolingan predmetlar soni tekshiriluvchi obrazli xotirasining hajmi bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi variantda tekshiriluvchiga 30 ta boshqa hil kartochkalar beriladi. Ular orasida ayrim jihatlari bilan umumiylik belgisiga ega bo'lgan suratlarni alohida guruhga ajratib chiqish tavsiya qilinadi. Bu ishning bajarilishiga 90 sekund vaqt belgilanadi. Bu guruhga tramvay, samalyot, velosiped, chang'i singari tashqi belgisi jihatidan xar hil ko'rinishga ega bo'lgan predmetlar bo'lishi mumkin. Chunki ularning barchasiga tegishli bo'lgan umumiylik belgisi-ularning harakat vositasi ekanligidir. 30 sekunddan so'ng tadqiqotchi kartochkalarni yig'ishtirib oladi.

Tadqiqot natijasini tahlil qilish. Olingan natijalar quyidagi jadvalda qayd qilinadi.

13-Jadval

№	Tavsiya qilingan quzg'ovchi	Tekshiriluvchida olingan natija	Xato	To'g'ri esga tushirilg predmetlar soni
Birinchi	30	22	-	20
Ikkinchi	30	30		30

Olingan natijalarga asoslanib xotiraga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan degan xulosaga kelish mumkin.

3.5. Vaqtni idrok qilishni o'rganish.

Tadqiqot maqsadi: Vaqtni idrok qilishning shaxsiy omillarga bog'liq ekanligini o'rganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Tekshiriluvchi 3, 5, 10, 17 sekundga to'g'ri keluvchi vaqt birliklarini aniqlashi lozim. Tekshiruvchi stolning ustiga qalamning orqasi bilan urib, vaqtning boshlanishi va tugash nuqtalarini belgilaydi.

Sinaluvchiga ko'rsatma: «Hozir stol ustiga qalam bilan urib vaqt boshlanganini bildiraman. Yana bir marta stol ustiga qalam bilan urganimga qadar qancha vaqt o'tganligini baholashingiz kerak. Bunda turli vositalardan foydalanish va hisoblab turish ta'qiqlanadi».

Tajriba maboynda quyidagi jadval to'ldirilib boriladi.

14-Jadval

№	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi	Tekshiriluvchining ko'rsatmasi	Chamalab aytilgan vaqt bilan real vaqt o'rtasidagi farq
1	3		
2	5		
3	10		
4	17		

Natijani tahlil qilish: Vaqtni idrok qilishning aniq koeffitsiyenti C topiladi.

$$C = \frac{A \cdot 100}{B}$$

Bunda A – sekund hisobida tavsiya qilingan vaqt bilan tekshiriluvchi ifodalagan vaqt o'rtasidagi farq. B – tadqiqotchi tomonidan tavsiya qilingan vaqt bo'lagi. C ning foizdagi ifodasiga ko'ra vaqtni idrok qilishning aniqligi haqida xulosa chiqariladi.

Olingan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalar chiqariladi: vaqtni baholashga har bir sinaluvchi kishi o'z sub'ektiv xususiyatlari bilan hissa qo'shadi;

Vaqt intervalining to'g'ri baholanishi uning shaxs faoliyati uchun qanchalik ahamiyatga molik ekanligiga bog'liq bo'ladi.

3.6. Kuzatuvchanlikni o'rganish

Tadqiqot maqsadi: Idrokning shaxs xususiyatiga bog'liq ekanini ko'rsatib berish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Sinaluvchiga ko'rsatma: Uy bekasi vazaning changini artayotgan edi, ehtiyotsizlik bilan harakat qildi-da, uni erga tushirib yubordi.

Endi o'sha vazaning siniq parchalariga qarab, rasmdagi tasvirlangan 6 ta vazadan qaysi biri singanini aniqlash lozim.



4-rasm.

Tajribaga asoslanib quyidagi xulosalar chiqariladi. Kuzatuvchanlik shaxsning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bunda har kimning kuzatuvchanligi naqadar tezkor, to'liq va qay darajada kechishiga oid individual farqlar aniqlab olinadi.

3. 7. Diqqatning hajmi (ko'lami) va aniqligini o'rganish

Tadqiqot maqsadi: Taxistaskop metodikasi yordamida diqqatning hajmi (ko'lami) va aniqligini tekshirib ko'rish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: taxistaskop¹ yoki epidaskop². Har birida sakkistadan undosh harflar aks ettirilgan 5 dona kartochkalar.

Tadqiqotning borishi. Tekshiriluvchi asbobdan 0,5 m masofada joylashadi va diqqatini bir joyga to'plagan holda tavsiya qilinyotgan qo'zg'ovchiga qaraydi. Dastlabki tayyorlaning! xabari berilgandan so'ng tadqiqotchi Boshladik! deb xabarni beradi va taxistaskopdagi harakatlantiruvchi mexanizimini bosadi. Tekshiriluvchi taxistaskopda ko'rsatilayotgan har bir kartochkani kuzatib, unda qanaqa harflar va qanday izchillikda yozilganligiga e'tibor berib boradi. So'ngara ilg'ab qolgan harflarni yozadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: o'tkazilgan tajriba natijalari quyidagicha chizma tasvirida qarorda qayd etilib, tahlil qilib chiqiladi.

15-Jadval

№	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi	Tekshiruvchidan olingan natija	Diqqatning hajmi	Diqqatning aniqligi	Duqqatning xatosi	Tekshirishning xulosasi
1	EFMJBKLT	ZXSLFB	5	2	1	

¹ Taxistaskop so'zi- yunoncha bo'lib, "taxus"- tez, "skopes"- ko'raman, "tez ko'raman" degan ma'noni anglatadi.

² Epidemiaskop – ekranga yorug'lik berish orqali tasvir tushiradigan optik asbob.

Diqqatning xatosi deganda tekshiriluvchining tavsiya qilgan qo'zg'ovchini idrok qilishda yuz bergan yangilishlik (illuziya) tavsiya qilingan harflar orasida yo'q bo'lganlarini bor deb idrok qilishi tushiniladi. Mazkur tajribada bu harf "X" dir. Diqqatning aniqligi 2 raqami bilan belgilanadi, chunki faqat ikki holatdagina izchillik ro'y bergan; "3" harfi kartochkadagi harflar qatorida birinchi o'rinda ko'rsatilgan; "L" harfi "S" dan keyin joylashgan edi, tekshiriluvchi ham uni xuddi shunday tartibda qayd qilgan. Diqqat ko'laminining miqdori nomlari to'g'ri topilgan harflarning soni (mazkur holda 5 ta) katta odamlar uchun 3-5 undosh harflar bilan belgilangan.

Tadqiqotchi tekshiriluvchilar bilan 5 ta tajriba o'tkazib, hosil bo'lgan natijalarni chizma tasvirdagi qarorning har bir kataklari grafasi bo'yicha hisoblab chiqadi hamda jamlangan raqam (yig'indi)ni o'tkazilgan tajribalar soniga bo'ladi. Shunday qilib, diqqatning hajmi, aniqligi va xatosiga oid o'rtacha arifmetik qiymatni belgilab chiqadi.

3. 8. Diqqatning to'planishini o'rganish.

Tajriba maqsadi: Diqqatning to'planuvchanlik xususiyatini o'quv va ishlab chiqarish jarayonidagi ro'lini o'rganish va baholash.

Kerakli jihozlar: ikki son va sinaluvchi bajarilishi lozim bo'lgan vazifa keltirilgan blanka, qog'oz, qalam.

Sinaluvchiga ko'rsatma: "Men sizlarga uchta oddiy arifmetik vazifani o'qiyman. Siz ularni yoddan echishingiz kerak. Hisoblangan sonlaringizni men "yozinglar" deganimdan so'ng yo'zasizlar. Tovush chiqarib gaplashish man qilinadi. Qayta so'rab olish ham mumkin emas. Agar yaxshi eshitmagan bo'lsangiz yoki esdan chiqarib qo'ysangiz, javob o'rniga (-) qo'yib qo'ying". Tushinarlimi?

Diqqat! Boshladik! (sekin va dona-dona qilib o'qish kerak)

1. Ikkita son berilgan: 82 va 68. Ikkinchi sonning birinchi raqamini birinchi sonning birinchi raqamiga ko'paytiring va hosil bo'lgan sondan birinchi sonini ikkinchi raqamini ayiring. Yozing?

2. Ikkita son berilgan: 82 va 68. Ikkinchi sonning birinchi raqamiga birinchi sonning ikkinchi raqamini qo'shing va hosil bo'lgan sonni ikkinchi sonning ikkinchi raqamiga bo'ling. Yozing?
3. Ikkita son berilgan 56 va 92. Birinchi sonning ikkinchi raqamini ikkinchi sonning birinchi raqamiga bo'ling va hosil bo'lgan sonni birinchi sonning ikkinchi raqamiga ko'paytiring. Yozing ?

Natijalarni hisoblash va tahlil qilish. Olingan natijalar dalolatnomaga yozilib, hal qilingan vazifalarga “+” va hal qilinmaganiga “-” belgisi qo'yiladi.

Dalolatnoma quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Guruh.....

Vaqt.....

Tekshiriluvchining ismi va familiyasi	Vazifaning hal qilinishi		
	Birinchi	Ikkinchi	Uchinchi
	+	-	+
	-	-	+

Uchala vazifani hal qila olish uchun diqqatning barqaror to'planuvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Birinchi va ikkinchi vazifalarning hal qilinishi ammo uchinchi vazifaning hal qilinmasligi tekshirish davomida diqqatning charchaganligini bildiradi.

Birinchi va uchinchi vazifa hal qilingan holda ikkinchi vazifaning echilmaganligi diqqatning barqarorligini bildiradi.

Ikkinchi va uchinchi vazifalarning echilishi, ammo birinchi vazifaning echilmaganligi shaxsan diqqatning sekin ko'chuvchanlik xususiyati mavjudligini ko'rsatadi.

3. 9. Diqqatning barqarorligi va ko'chuvchaligini o'rganish (Krepelen metodikasi).

Tadqiqot maqsadi: Turli kasb egalari, o'quvchi va talabalarning ishchanlik qobiliyati, diqqatning barqarorligi va ko'chuvchanligini hamda shaxsdagi klinik o'zgarishlar bor yoki yo'qligini aniqlash.

Metodika haqida izoh: ushbu metodika E. Krepelin tamonidan 1895 yilda taqdim etilgan bo‘lib, unda ikkita sonlar qatori beriladi. Ikkala qatordagi sonlar bir biriga qo‘shilishi lozim. Metodika irodaviy quvvat, mashqlantirganlik va toliqqanlikni aniqlashga mo‘ljallangan. Hozirgi kunda metodikadan diqqat xususiyatlarini(ko‘chuvchanlik va barqarorlik), aqliy ish qobiliyati va psixik su‘ratini o‘rganishda foydalaniladi.

Kerakli jihozlar: metodika blanki, soat yoki sekundomer va qalam.

Sinaluvchiga ko‘rsatma: Tekshiriluvchiga Krepelin jadvali blanki bilan birga quyidagi yo‘riqnoma taqdim etiladi: “bir natijani ularning ostki qismiga yozib qoying. Ishni tez va xatosiz bajarishga harakat qiling”. Tekshiriluvchi ekperimentator “To‘xtang! Va navbatdagi qatoriga o‘ting” buyrug‘ini berilmaguncha, sonlarni qo‘shishni amalga oshiraveradi. Ekperimentator har 20 soniya oralig‘ida ushbu signal bilan ogohlantiradi.

16-Jadval

KREPELIN JADVALI

3	4	3	4	4	8	6	6	2	4	4	7	3	4	8	9	6	7	2	9	8	7	4
2	5	9	7	8	4	3	2	4	7	6	5	3	4	4	7	9	7	3	8	9	2	4
3	8	5	9	3	6	8	4	2	6	7	9	3	7	4	3	9	7	4	7	2	9	7
9	5	4	7	5	2	4	8	9	8	4	8	4	7	2	9	3	6	8	9	4	9	4
9	5	4	5	2	9	6	7	3	7	6	3	2	9	9	5	6	9	4	7	7	9	3
2	9	8	7	2	9	4	8	4	4	5	4	4	8	7	2	5	9	2	2	6	7	4
9	2	3	6	3	5	4	7	8	9	3	9	4	8	9	2	4	2	7	5	7	8	4
7	4	7	5	4	4	8	6	9	7	9	2	3	4	9	7	6	4	8	3	4	9	6
8	6	3	7	6	6	9	2	9	4	8	2	6	9	4	4	7	6	9	3	7	6	2
9	8	9	3	4	8	4	5	6	7	5	4	3	4	8	9	4	7	7	9	6	3	4

5	8	5	7	3	9	7	2	6	9	3	4	7	4	2	9	8	4	3	7	5	8	3
3	4	6	5	4	8	4	3	5	5	4	2	9	6	2	4	2	9	2	7	2	5	8
5	2	9	9	4	4	5	3	2	8	2	9	8	9	4	2	8	7	8	5	4	3	5
3	4	3	2	7	7	8	5	2	9	6	4	4	7	6	7	5	6	9	8	6	4	7
4	9	6	3	4	9	9	4	8	6	5	7	4	9	3	2	4	7	4	9	8	3	8
8	4	7	8	9	4	3	9	3	7	6	5	2	4	4	3	4	8	7	5	9	2	4

Natijalarni qayta ishlash: Tekshiriluvchi har bir 20 soniyada qancha to‘g‘ri va noto‘g‘ri qo‘shish amalini bajarganligi hisoblanadi.

Metodika ishga layoqatlilik koeffisientini qo‘lga kiritishga imkon beradi:

$$K_i/l = S_2 / S_1$$

C 2 – oxirgi to‘rt qatordagi juft sonlarni to‘g‘ri qo‘shishlar yig‘indisi.

C 1 – oldingi to‘rt qatordagi juft sonlarni to‘g‘ri qo‘shishlar yig‘indisi.

Har xil nerv-psixik kasallik bilan og‘rigan bemorlarga xos xususiyatlar:

- Bosh miyaning organik kasallanganligi (travma, qon-tomiri bemori, yallig‘lanish, shish borligi)-mahsuldorlik past, diqqatning yo‘qolib borayotganligi, ozroq topshiriqda ishga layoqatlilikning susayishi va xatolarining ko‘pligi kuzatiladi.

- Nevrozlar notekz, egri-bugri ko‘rinishdagi xatolar kam bo‘ladi, mahsuldorlik etarlicha (normaga yaqin), ammo diqqat susayib boradi. Diqqatning yo‘qolib borishi va ishga layoqatlilikning susayishi ishini bajarish sur‘tining noteks borishi bilan xarakterlanadi. Ularda diqqatning susayishi bosh miya organik kasalligi bilan og‘rigan bemorlarnikiday keskin yuz bermaydi.

- Apato-abuliya sindromli shizofreniya bilan og‘rigan bemarlarda ishga qobiliyatlik ancha past bo‘ladi (har bir qatorda 2-4 qo‘shish amali bajariladi). Haddan ortiq xatolar ko‘p. Ularda jadvalni to‘ldirishda hech qanday qiziqish bo‘lmaydi.

Ki/l koeffisient qiymati 1 ga yaqinlashsa, ishdan toliqish amaliy jihatdan yuz bermaydi.

3. 10. Diqqatning ko'chuvchanligini o'rganish (qizil-qora jadvallar metodikasi)

Tadqiqot maqsadi: Schulte Tables (Shulte jadvallari)-periferik ko'rish, diqqat va xotirani yaxshilash bo'yicha eng samarali usullardan biri. U tez o'qishni o'rganishga, matndan kerakli ma'lumotlarni osongina topishga va ish paytida tashqi chalg'ituvchilarga ruhiy chidamlilikni rivojlantirishga va ayniqsa, samarali tarzda til o'rganishingizga yordam beradi.

Metodika haqida izoh: ushbu metodika Nemis psixologi va psixoterapevti Valter Shulte tomonidan 1962 yilda fanga kiritilgan. Dastlab metodika inson diqqatining xususiyatlarini o'rganish uchun tajribalar paytida psixodiagnostik test sifatida qo'llanilgan. Shundan so'ng uchbu usul psixiatrlar va psixoterapevtlarning keng doiralarida qo'llanila boshlandi. Usul tadqiqotlar davomida xotira, diqqat va aqlni rivojlantirish uchun samarali ekanligi isbotlandi. Psixiatriya va psixologiya sohasidagi ayrim olimlarning asarlarida shulte jadvalidagi belgilarni izlayotgan odamning holati meditatsiya mashg'ulotlarini bajarayotgan kishining holatiga o'xshatiladi. Bunday holat miyaning ishlash faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: sekundomer va rang jihatidan bir-biriga uyg'un bo'lmagan, betartib holda, mantiqiy esda saqlab qolishning oldini olish maqsadiga muvofiqlashtirilgan tartibda tuzilgan 1 dan 25 gacha va 1 dan 24 gacha qizil rangli raqamlar (tekshiriluvchi oldindan tayyorlagan) jadvali.



9	12	18	14	16
10	21	5	15	7
23	17	24	20	1
6	4	19	11	8
25	22	3	13	2

Shulte jadvallari
(diqqatni jamlash bo'yicha eng yaxshi usul)

1	21	2	6	12	7	7
20	5	17	8	22	13	18
19	11	12	8	23	3	19
17	24	24	10	10	13	5
21	2	11	18	6	22	3
4	9	25	4	15	9	23
15	1	16	14	20	14	16

5-rasm. Shulte jadvali

Tadqiqotning borishi: tadqiqot uch bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich. Bunda tadqiqotchi tekshiriluvchiga jadvaldagi qora rang bilan yozilgan 1 dan 25 gacha bo'lgan raqamlarni o'sib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. Qaror yozib boruvchi esa tekshiriluvchi bu topshiriqni qancha vaqt ichida ijro etishni sekundomer vositasida aniqlab, yozib boradi.

Ikkinchi bosqich. Tadqiqotchi tekshiriluvchidan jadvaldagi qizil raqamlarni 24 dan 1 gacha kamayuvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. Qaror yozib boruvchi esa xuddi oldingi bosqichdagi kabi tekshiriluvchining topshiriqni bajarish uchun sarflagan vaqtini aniqlab, yozib boradi.

Uchinchi bosqich. Bunda tekshiruvchi tekshiriluvchiga bir vaqtning o'zida galma-gal: qora raqamlarni ko'payib boruvchi, qizil raqamlarni kamayib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. Qaror yozib boruvchi topshiriqning xarakteri, uning bajarilishi uchun ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, qarorda qayd etadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: qaror yurutuvchining yozuvlari asosida uchla bosqichdagi topshiriqni bajarish uchun tekshiriluvchi qilgan vaqt va yo' qo'ygan xatolarni quyidagi qaror jadvalida qayd etilib qo'yiladi.

Tekshiruvchi _____

Tekshiriluvchi _____

Sana _____

17-Jadval

Ko'rsatgichlar	1-bosqich	2 - bosqich	1-2 bosqich	3- bosqich
Vaqt				
Xatolar				

Uchinchi bosqichda bajarilgan topshiriq uchun sarflagan vaqt, garchi qolgan ikkala bosqichlarda ham huddi shu xil topshiriq bajarilganidek ko'rinsa-da, oldingi ikki bosqichdagi topshiriqlarni bajarish uchun sarflagan vaqt bilan uchinchi bosqichda bajarilgan topshiriq uchun sarflagan vaqt teng emas. Ana shu ikkala vaqt ko'rsatgichlari orasidagi farq mazkur tekshiriluvchi diqqatining ko'chirilish vaqti, ya'ni bir faoliyatga o'tish vaqti bo'lib hisoblanadi.

3. 11. Diqqatning taqsimlanishini “korrektura mashqi” metodi yordamida o'rganish

Tadqiqot maqsadi: “Korrektura sinovi” metodi orqali diqqatning xususiyatini tekshirib ko'rish.

Kerakli jihozlar: “Korrektura sinovi” varaqlari sinov uchun harflar qatoridan tashkil topgan blankalar.

Diqqatni o'rganishga yo'naltirilgan laboratoriya metodlari blankalar usulidan iborat bo'lib, ular **korrektura sinovi**, degan umumiy nom bilan ataladi. Korrektur sinovi blankalari turli stimullardan harflar, raqamlar, geometrik shakllardan iborat bo'lishi mumkin. Tekshiriluvchining vazifasi berilgan stimulni boshqalaridan ajratib bir xil tarzda belgilashdan iborat. Diqqat tanlovchanligi aniqligi ko'rsatkichi vazifani bajarishning aniqligi koeffisiyenti bilan belgilanadi. Vazifani bajarishning aniqligi koeffisiyenti (Uippl formulasi bilan hisoblanadi:

$$A = \frac{N - r}{N + P}$$

bu yerda N - umumiy aniqlangan stimullar soni, P-qoldirilgan stimullar soni, r- noto'g'ri aniqlangan stimullar soni. Diqqat tanlovchanligining yana bir ko'rsatkichi, tekshiriluvchi tomonidan berilgan stimulni topish uchun sarflangan vaqt (m) (T.S) dir. U bitta stimulni topishga sarflangan

vaqt (tanlash vaqti deb qaraladi. Tanlash tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S = \frac{m}{T}$$

Bu tajribani o'tkazish uchun kirill alifbosidagi harflardan iborat blankalar tayyorlanadi. Har bir blankada 10 qatorga 54 tadan harf yozilib ular ichida tartibsiz holda 24 so'z (turli darajadagi qiyinlikdagi) yashiringan. Tekshiriluvchining vazifasi ana shu so'zlarni topishdan iborat. Bunda sarflangan vaqt e'tiborga olinadi.

B A Y O N N O M A

Tekshiriluvchi: _____

Tekshiruvchi: _____

Tekshiriluvchining ruhiy holati: _____

Sana: _____

18-Jadval

Tekshiriluvchining javoblari			Diqqatning xossasi		
To'g'ri (m)	Xato		Aniqlik koeffisienti (A)	Vaqt (T), s	Tanlash tezligi (S)
	r	p			

Sinaluvchiga ko'rsatma: Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida olib boriladi va tekshiriluvchiga quyidagi ko'rsatma beriladi: «Sizga berilgan varaqda kirill alifbosidagi harflar yozilgan. Ular orasida birikmalar mavjud bo'lib, birlik, bosh kelishikdagi ot so'z turkumiga taalluqlidir. Diqqat bilan har bir qatorni ko'rib chiqing va ana shu so'zlarni topib, birinchi harfining boshidan boshlab oxirgi harfigacha tagiga chizib qo'ying. Ortiqcha harfni chizib yubormaslikka harakat qiling. Vazifani aniq va tez bajaring».

Natijani tahlil qilishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

- 1) Natija dastur blankasi bilan solishtiriladi.
- 2) Chizilgan so'zlar soni sanab chiqiladi.
- 3) Qoldirilgan so'zlar soni sanaladi(p):
- 4) Noto'g'ri chizilgan so'zlar soni aniqlanadi- (r).

- 5) To'g'ri chizilgan so'zlar soni (m) aniqlanadi.
- 6) Uippl formulasi bo'yicha A ni hisoblanadi.
- 7) Tanlash tezligi hisoblanadi (S).
- 8) Barcha tekshiriluvchilar uchun o'rtacha ko'rsatkich aniqlanadi.

Ana shu ko'rsatkichlarga asosan diqqatning tanlovchanligining individual xususiyati tahlil qilinadi.

Diqqat tanlovchanligini aniqlash uchun qo'zg'atuvchi material:

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: qaror yozuvchi bajarilgan topshiriqlarning xarakterini, yo'lga qo'yilgan xatolar sonini alohida-alohida hisoblab chiqib bajarilgan topshiriqning umumiy sonini aniqlab, bir-biriga taqoslaydi. Shu yo'l bilan kishi diqqatining taqsimlanish xususiyatiga oid dastlabki xulosa chiqariladi.

3. 12. Mexanik va mantiqiy xotira bog'liqligini o'rganish.

Tadqiqot maqsadi: ikki qator so'zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mexanik va mantiqiy xotirani tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: ikki qator so'zlar. Birinchi qator so'zlar o'zaro ma'no jihatdan bog'lanishga ega. Ikkinchi qatordagi so'zlar esa o'zaro ma'no jihatdan bog'lanishga ega emas.

19-Jadval

Birinchi qator	Ikkinchi qator
Qo'g'irchoq-o'yinchoq	Qo'ng'iz- stul
Tovuq-tuhum	Taroq-er
Qaychi-qirqmoq	Kompas-elim
Ot-arava	Qo'ng'iroq-o'q
Kitob- o'qituvchi	Chittak-signal
Kapalak- chivin	Gultuvak-tramvay
Og'iz-tish	Dori-divan
Baraban-o'quvchi	Tosh-shamol
Qor-qush	Kiyim-samovar
Xo'roz-qichqirmoq	Shkaf-olmoq
Siyoh-daftar	Gugurt -yilqi
Sigir-sut	Qirg'iz-dengiz

Paravoz- haydamoq	Uchmoq- asalari
Nok-kompot	Baliq-yong'in
Chiroq-oqshom	Arra-tuhum

Tadqiqotning borishi: Tekshirish ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda. Tekshiruvchi tekshiriluvchiga birinchi qatordagi 15 juft so'zni (har bir juft so'z orasida 5 sekund tanafus bilan) o'qib beradi. O'qib bergandan 10 sekunddan so'ng tekshiriluvchi eshitgan juft so'zlarni qog'ozga yozadi.

So'ngra tavsiya qilingan so'zlar bilan tekshiriluvchining esda olib qolgan so'zlarini solishtirib mantiqiy xotiraning ko'effisenti hisoblab chiqiladi. Ishning natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilib qo'yiladi.

Mantiqiy xotiraning hajmi

Birinchi qator so'zlar soni	Esda qoldirilgan so'zlarning soni	Mantiqiy xotira ko'effisenti

Ikkinchi bosqich: Bunda ham birinchi bosqichdagidek ish ko'riladi. Faqat tekshiruvchi ikkinchi qatordagi 15 juft so'zlarni (har bir juft oralig'ida 10 sekund tanaffus bilan) o'qiydi. Oxirida yana 10 sekund tanaffusdan so'ng tekshiriluvchi esda qolgan so'zlarni qog'ozga yozadi va tavsiya qilingan so'zlar bilan esda olib qolgan so'zlar taqqoslab chiqilib, ular orasidagi ko'effisient hisoblab chiqiladi va jadvalda aks ettiriladi.

Mexanik xotiraning hajmi

Ikkinchi qatordagi so'zlar soni	Esda qoldirilgan so'zlar soni	Mexanik xotira ko'effisenti

So'ngra har ikkala bosqichdagi natijalar taqqoslanib, ular o'rtasidagi farq va uning sabablari haqida umumiy xulosa chiqariladi.

3. 13. Ihtiyoriy va ihtiyorsiz xotirani o'rganish

Tadqiqotning maqsadi: Ihtiyorsiz esda qolish bajarilayotgan ish faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'lishini ko'rsatish.

Tajriba materiali: gramatik qoidalarga oid misollar:

Mening ukam maktabda o'qiydi.	U mening og'aynim emas, shunchaki bir tanishim.
Men maktabda o'qishni istayman	Dushman batomon yanchib tashlandi.

Tajribaning borishi: Sinaluvchi kishilarga ikki juft gap o'qib beriladi. Sinaluvchilar bu misollarning qaysi gramatik qoidalar asosida tuzilganligini aniqlay olishlari lozim. Hech qanday gap yozib olinmaydi.

So'ngra sinaluvchi kishilarga xuddi o'sh qoidalarga to'g'ri keladigan o'z misollarini o'ylab topish taklif qilinadi. Barcha ishlar miyada fikran amalga oshiriladi. Eslab qolish natijalari mashg'ulot yakunida sinab ko'riladi. Eksperiment o'tkazuvchi kishi tamonidan berilgan gaplarni eslab ko'rish taklif qilinadi. Bunda eslab qolishning qanchalik to'liq va aniq ekanligi hisobga olinadi.

Eksperiment natijalari bo'yicha quyidagi bir qancha savollarni o'rta qo'yish va muhokama qilish mumkin.

1. Sinaluvchi kishilarda gaplarni eslab qolish maqsadi bo'lganmidi?
2. Bu erda esda saqlab qolishning qaysi turi ishtirok etmoqda?

Javoblarni analiz qilish shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi gaplar ihtiyorsiz esda saqlanib qolgan, chunki ular faoliyatning markazida turadi: o'sha so'zlarni taxlil qilmasdan turib, gaplar qaysi gramatik qoida asosida tuzilganligini aniqlash mumkin emas edi.

Ihtiyorsiz esda qoldirish.

Tadqiqotning maqsadi: emosional va betaraf tusdagi so'zlarni ihtiyorsiz esda qoldirishni tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: bir qator so'zlar: zulmat, kuy, g'am, faryod, o'yin, og'riq, qo'rqinch, ijod, ritm, hayajon, g'azab,

jo'shqin, janjal, qulf, tun, tugma, tekislik, oyna, qayin, qirg'oq, qum, dog'.

Tadqiqotning borishi: tekshiriluvchi bir varaq toza qog'ozni ko'ndalangiga buklab 2 qismga bo'ladi. Tekshiriluvchi yuqoridagi so'zlarni o'qib beradi. Sinaluvchi o'qilgan so'zlarni tinglab bo'lgach, ularni quydagicha tartibda yozadi; qog'ozning chap tamoniga emosiyanal tusga ega bo'lmagan, betaraf so'zlarni yozib chiqadi. So'zlar yozilgan qog'ozni buklab bir chetga olib qo'yadi.

So'ngra tekshiriluvchi yana bir varaq toza qog'oz olib ikki buklaydi. Keyin oldingi so'zlarni birin-ketin esga tushirib, ularning emosiyanal tusga ega bo'lganlarini qog'ozning chap qismiga, emosiyanal tusga ega bo'lmagan betaraf so'zlarni esa qog'ozning o'ng tamoniga takror yozadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Birinchi va ikkinchi qog'ozdagi so'zlarning soni (emosiyanal, noemosiyanal so'zlar alohida hisoblab chiqiladi. So'ngra har qaysi guruhdagi so'zlarning to'g'ri esga tushirganlarining nisbati hisoblab chiqiladi. Odatda esga tushirilgan emosiyanal tusdagi so'zlar miqdori noemosiyanal so'zlarga nisbatan ko'p bo'lib chiqishi kerak. Chunki kishi hissiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi so'zlar tez va ko'p esda qoladi.

3. 14. Raqamli va obrazli xotirani o'rganish metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Turli predmetlar surati aks ettirilgan kartochkalar yordamida obrazli xotirani tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar. 30 ta predmet rasmi solingan ikki juft kartochkalar. Talabalar oldindan kartochkalarni tayyorlab qo'yadilar.

Tadqiqotning borishi. Bu tajriba ikki variantda o'tkaziladi. Birinchi variantda tekshiriluvchi unga ko'rsatiladigan tasvirlarni yodda saqlab qolishi zarurligi tushuntiriladi. Ko'rsatma berib bo'lgach tadqiqotchi kartochkalarni tekshiriluvchiga ko'rsatib chiqadi. So'ngra esda olib qolingan rasmlarni nomini yozib chiqishni takif etadi. To'g'ri esda olib qolingan predmetlar soni tekshiriluvchi obrazli xotirasining

hajmi bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchi variantda tekshiriluvchiga 30 ta boshqa hil kartochkalar beriladi. Ular orasida ayrim jihatlar bilan umumiylik belgisiga ega bo‘lgan suratlarni alohida guruhga ajratib chiqish tavsiya qilinadi. Bu ishning bajarilishiga 90 sekund vaqt belgilanadi. Bu guruhga tramvay, samalyot, velosiped, chang‘i singari tashqi belgisi jihatidan xar hil ko‘rinishga ega bo‘lgan predmetlar bo‘lishi mumkin. Chunki ularning barchasiga tegishli bo‘lgan umumiylik belgisi-ularning harakat vositasi ekanligidir. 30 sekunddan so‘ng tadqiqotchi kartochkalarni yig‘ishtirib oladi.

Tadqiqot natijasini tahlil qilish. Olingan natijalar quyidagi jadvalda qayd qilinadi.

20-Jadval

Variant raqam	Tavsiya qilingan quzg‘ovchi	Tekshiriluvchid olingan natija	xato	To‘g‘ri esga tushirilg predmetlar soni
Birinchi	30	22	-	20
Ikkinchi	30	30		30

Olingan natijalarga asoslanib xotiraga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan degan xulosaga kelish mumkin.

3.15. Ko‘rgazmali va obrazli xotirani o‘rganish metodikasi

Tadqiqot maqsad: Bolada ko‘rgazmali - obrazli xotiraning o‘zgarib borishi, uning hajmi, esda saqlash davomiyligi, aniqligi, bolalarda xotira jarayonlarining rivojlanishini aniqlash.

Zarur jihozlar: 9 ta o‘yinchoq: qo‘g‘irchoq, koptok, mashina, samaliyot, ayiqcha, kurakcha, stolcha.

1-bosqich. Tajribaning borishi: Tajribani har bir bola bilan alohida o‘tkazildi. To‘qqista o‘yinchoqning har birini uch sekund moboynda navbatma-navbat ko‘rsatib, so‘ngra barcha o‘yinchoqlarni bolaning ko‘z o‘ngidan yashirgan holda ko‘rgan o‘yinchoqlarining nomini aytib berish so‘raladi. Bolaning bergan javobini yozib boriladi.

Yuritgan yozuvlar asosida bolaning esda olib qolgan o'yinchoqlar miqdorini va yo'l qo'ygan hatolarni aniqlash, 21-jadvalga qarang.

21-jadval.

№	F.I.SH	Tavsiya etilgan ob'ektlar soni	Bola esda olib qolgan ob'ektlar soni	Esda olib qolishdagi hatolar soni	Bola to'g'ri esda olib qolgan ob'ektlar hajmi
1					
2					
3					

2-bosqich. Ushbu bosqichda bolaning ixtiyorsiz esda olib qolishida o'yin faoliyatining rolini aniqlash.

Kerakli jihozlar: 9 ta o'yinchoq: qo'g'irchoq, koptok, mashina, samaliyot, ayiqcha, kurakcha, stolcha.

Tajribaning borishi: Bolaning oldiga 9 ta tanlangan o'yinchoqni qo'yib, ushbu o'yinchoqlar bilan 10 daqiqa mobaynida o'ynab turish so'raladi. O'n daqiqa vaqt o'tgandan keyin esa, o'yinchoqlarni bolaning ko'z oldidan yig'ishtirib olinadi. Keyin boladan qaysi o'yinchoqlar bilan o'ynaganligini aytib berish so'raladi. Bola tomonidan berilgan javobi yozib boriladi. Yuritgan yozuvlarimiz asosida olingan statistika ma'lumotlarni xuddi birinchi bosqichda foydalanilgan jadvaldagi singari rasmiylashtiriladi.

22-Jadval.

№	F.I.SH	Tavsiya etilgan ob'ektlar soni	Bola esda olib qolgan ob'ektlar soni	Esda olib qolishdagi hatolar soni	Bola to'g'ri esda olib qolgan ob'ektlar hajmi
1					
2					
3					

Jadvaldagi raqamlardan xulosa chiqarish mumkinki, bolaning ixtiyorsiz esda olib qolishda u shug'ullangan o'yin faoliyatining roli juda muhimdir.

To'qqista o'yinchoq bilan 10 daqiqa mobaynida faollik ko'rsatganligi tufayli ularni esda olib qolish hajmi oshgan, shuningdek, hatolar miqdori kamayganligi aniqlanadi. Demak narsalarni faqat qisqa vaqt ichida ko'rib esda olib qolishga nisbatan ko'rib ham o'sha predmetlar bilan faoliyat yuritish orqali idrok qilish yo'li bilan esda olib qolishning hajmi keng va xatosiz hamda aniq bo'lishi aniqlanadi.

Demak, talim tarbiya jarayonida bolalarni tevarak – atrof bilan tanishtirish tadbirlarini qo'llashda bolalarning ixtiyorsiz esda olib qolishdagi samaradorligini ta'minlashning ushbu jihatini hisobga olib ish ko'rish kerak bo'ladi.

3- bosqich. Tatqiqotning mazkur bosqichida ayrim jihatlari bilan umumiylikka ega bo'lgan uch guruh predmetlar 3 ta uy mebeli, 3 ta uchta idish-tovoq buyumlari, 3 ta transport vositalarini aks ettirgan rasmlardan foydalanib bolalarning rasmlarni guruhi bo'yicha idrok qilish va ularni ixtiyorsiz esda olib qolish aniqligi, hajmi, hatosini tekshirib ko'rish maqsad qilinadi.

Tajribaning borishi: Bolaning oldidiga sur'atlar yoyib qo'yiladi. Uch daqiqa mobaynida ushbu rasmlarga qarab chiqish so'raladi. So'ngra rasmlarni bolaning ko'z o'ngidan yig'ishtirib olib, rasmlarda aks ettirilgan buyumlar nomini aytib berish so'raladi. Bola tomonidan berilgan javoblar yozib boriladi va unga oid miqdoriy ma'lumatlarni jadvalga rasmiylashtiriladi.

23-Jadval.

№	F.I.SH	Tavsiya etilgan ob'ektlar soni	Bola esda olib qolgan ob'ektlar soni	Esda olib qolishdagi hatolar soni	Bola to'g'ri esda olib qolgan ob'ektlar hajmi
1					
2					
3					

Ushbu bosqichda bolalarni ko‘proq uy mebellari bilan tanishtirishga doir turli hil mashg‘ulotlar, faoliyatlariga jalb qilib, mebelning hilma-xil turlari, ulardan odamlar qanday maqsadlar bilan foydalanishlarni tushuntirub, ular haqida xotiraga oid tasavvurlarni rivojlantirib borishdan iboratdir.

4-bosqich. Tajribaning borishi: uchinchi variantda foydalanilgan rasmlar bola oldiga qo‘yiladi, ularda kishilar hayotida nima uchun qo‘llanishiga doir umumiyligini hisobga olgani holda guruhlariga ajratib tahlal chiqish so‘raladi. So‘ngra rasmlarni bolalarning ko‘z o‘ngidan olib qo‘yib, o‘zi tahlal chiqqan rasmlarning nomini aytish taklif qilinadi. Bolaning bergan javoblari yozib olinadi va bolaning esda olib qilgan materiallari yuzasidan miqdoriy ma‘lumatlarni hisoblab chiqiladi. 1-3 variantlardagi singari chizma tasvirlari jadvalda aks ettirib chiqildi.

24-Jadval.

№	F.I.SH	Tavsiya etilgan ob'ektlar soni	Bola esda olib qolgan ob'ektlar soni	Esda olib qolishdagi hatolar soni	Bola to‘g‘ri esda olib qolgan ob'ektlar hajmi
1					
2					
3					

Tajribaning 4-bosqichi bo‘yicha olingan natijalar 1-3 variantlarining barchasidan miqdoriy jihatdan yuqori yoki past darajasi aniqlanadi. Tanlangan mavzu bo‘yicha bolalarning kundalik xayotini kuzatish va o‘tkazgan bir qator tajribalar bolalar xotirasini tarbiyalash yo‘llari haqida xulasalarni chiqarishga imkon beradi.

3.16. Mantiqiy tafakkurni baholash metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Mantiqiy tafakkurni tadqiq etishdan iborat.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi, javoblar varaqasi

Metodika katta yoshdagi sinaluvchilarga mo'ljallangan. Sinaluvchilarga 18 ta mantiqiy topshiriq beriladi. Har bir topshiriq ikkita mantiqiy xabardan tarkib topgan. Topshiriqdagi harflar o'zaro miqdoriy bog'liqlikka ega. Mazkur mantiqiy xabarga asoslanib chiziq ostidagi harflar o'rtasida qanday munosabat mavjudligini topish zarur.

Sinaluvchilarga qo'rsatma: Sizga o'zida ikkitadan xabar bor 18 ta mantiqiy topshiriq taqdim etilmoqda. Sizning vazifangiz chiziq ostidagi harflarning o'zaro munosabatlarini aniqlab, ular o'rtasiga "<" yoki ">" matematik belgisini qo'yishingiz dardkor.

Metodikani baholash to'g'ri topilgan javoblar bilan amalga oshiriladi.

Metodika kaliti:

1. $V < A$ 9. $V > A$ 17. $V > A$
2. $A < V$ 10. $A > V$ 18. $A < V$
3. $V > A$ 11. $V < A$
4. $V < A$ 12. $A < V$
5. $A > V$ 13. $V < A$
6. $V > A$ 14. $A < V$
7. $A > V$ 15. $V < A$
8. $V < A$ 16. $A < V$

Ballar	9	8	7	6	5	4	3	2	1
To'g'ri javoblar miqdori	18	17	16	14-15	12-13	10-11	8-9	6-7	5

6 tadan quyi bo'lsa, quyi (yomon) natijalar, 8-11 gacha o'rtacha ko'rsatkichlar, 12-14 tagacha yaxshi ko'rsatkichlar, 16-18 tagacha a'lo natijalar.

«Mantiqiy tafakkurni baholash» metodikasi blanki

1. A B dan 9 marta kattaroq
kichikroq
B Vdan 4 marta kichikroq
kattaroq
2. A Bdan 10 marta

B Vdan 6 marta

V A 3. A Bdan 3 marta kattaroq kattaroq B Vdan 6 marta kichikroq kichikroq	A V 4. A Bdan 4 marta B Vdan 3 marta
V A 5. A Bdan 3 marta kichikroq kattaroq B Vdan 7 marta kattaroq kichikroq	A V 6. A Bdan 9 marta B Vdan 12 marta
V A 7. A Bdan 6 marta kattaroq kichikroq B V danv 7 marta kattaroq kattaroq	A V 8. A Bdan 3 marta B V dan 5 marta
V A 9. A Bdan 10 marta kichikroq kichikroq B V dan 3 marta kichikroq kattaroq	A V 10. A Bdan 2 marta B V dan 8 marta
V A 11.A Bdan 3 marta kichikroq katta B V dan 4 marta kattaroq kichikroq	A V 12. A Bdan 2 marta B V dan 5 marta
V A 13.A Bdan 5 marta kichikroq kichik	A V 14. A Bdan 5 marta

B V dan 6 marta kattaroq		B V dan 2 marta kichik	
V	A	A	V
15.A Bdan 4 marta katta B V dan 3 marta kichik		16. A Bdan 5 marta kichik B V dan 3 marta katta	
V	A	A	V
17.A B dan 4 marta katta katta B V dan 7 marta kichik kichik		18. A Bdan 3 marta B V dan 5 marta	

3. 17. A. Lachins metodikasi bo'yicha masalani echish usuliga ustanovkaning ta'sirini o'rganish

Tadqiqot maqsadi: Tafakkur jarayonining labilligi va rigidligini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: A. Lachins metodikasi. O'tmish tajribasi tafakkurimizda nafaqat shaxsning o'zi uchun odatiy (tanish) muammo yechimi va tahlil usullarini ta'minlashda ijobiy ahamiyatga ega, balki yangi muammoni yechishda o'zgaras (qotib qolgan), eski (konservativ) usulni qo'llash kabi to'siqlarni hosil qilishi mumkin. Agar shaxs ta'lim jarayoni va amaliy faoliyatda cheklangan miqdordagi muammo yechim usullarini o'zlashtirsa, unga tafakkurning rigidligi (tafakkur sifati) xos bo'lishi ehtimol. Tafakkur rigidligi – bu tafakkurning yangi usul va qoidalarga moslashishning zaifligi, tafakkur qobiliyatining sustligi, faoliyatida shakllangan harakat dasturini umuman o'zgartira olmaslik qobiliyatidir. Kognitiv, affektiv va motivatsion rigidlik turlari mavjud.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Sizning blankingizda 10 ta masala keltirilgan, ularni yechishda sodda arifmetik amallardan foydalanishingiz kifoya. Qayd daftarchangizga esa har bir masalani yechish uchun bajargan amallaringiz ketma-ketligini yozib boring. Masalalarni yechish vaqt bilan chegaralanmagan, biroq siz topshiriqlarni tezroq bajarishga harakat qiling, buning uchun topshiriqni yechishga

kirishishingiz bilan sekundomerni yoqing. Tartib bo'yicha masalalarni yechib boring. Masalalarni mustaqil ravishda, ko'chirmasdan yoki maslahatlashmasdan bajarish zarur. Eng asosiysi masalani mustaqil, individual, izchillikka rioya qilgan holda yechish darkor.

Ma'lumotlarni qayta ishlash: ratsional va noratsional yechimlar sonini hisoblab chiqish lozim. Birinchidan to beshinchi topshiriqqacha yechimlar ratsional xususiyatga ega, sababi uchala idishni qo'llashni taqozo etuvchi amallardan tashkil topgan. Oltinchi topshiriqdan to o'ninchisigacha ratsionallik me'yori bo'lib minimal arifmetik amallar (ikki, bir yoki hech qanday amallarni qo'llamaslik zarur) xizmat qiladi. Agar oltinchidan o'ninchi topshiriqqa qadar yechimlar noratsional (usulda yechilgan) xususiyatga ega bo'lsa, sinaluvchida tafakkur rigidligi mavjud bo'lishi mumkin.

Masalalar shunday tanlanganki, ularning bir qismi faqat bir usulda yechiladi, boshqa qismi esa ikki usulda: birinchi usulda va ratsionalroq, yengilroq bo'lgan ikkinchi usulda yechimga ega.

Har bir ratsional (kam harj, kam amalli (keraksiz amallarsiz)) javoblarni "r" harfi belgilang, 6 topshiriqdan 10 topshiriqqacha avvalgi usuldagi yechimni mujassamlashtirsa, ya'ni keraksiz amallar ham bo'lsa (chunki 6 topshiriqdan 10 topshiriqqacha ikki va bitta amaldan foydalanish qulayroq), "n" noratsional deb belgilaymiz. Olingan natijalar quyidagi jadvalga joylashtiriladi:

24-Jadval

Sinaluvchilar	Topshiriqlar miqdori	Topshiriqni yechish usuli			
		Ratsional		Noratsional	
		Topshiriq miqdori	% hisobida	Topshiriq miqdori	% hisobida

“O‘tmish tajribasining masala yechimiga ta’siri” metodikasi blanki

1. Sizlarga 37, 21 va 3 litr hajmli uchta idish berilgan. 10 litr suvni qanday o'lchash mumkin?
2. 9 litr suvni o'lchab olish uchun 37, 24 va 2 litr hajmdagi uchta idishlardan qanday foydalanish zarur?
3. 39, 22 va 2 litrli idishlar yordamida 13 litr suvni qanday ajratib olish ehtimoli bor?
4. 9 litr suvni o'lchab olish uchun 38, 25 va 2 litr hajmli uch idishni imkoniyati ko'rsating.
5. Ko'lami 29, 14 va 2 litr bo'lgan uch idish ko'magida 11 litr hajmdagi suvni ajratib olish usulini toping.
6. Qanday qilib o'lchami 28, 14 va 2 litr bo'lgan idishlar vositasida 10 litr suvni o'lchab olish mumkin?
7. 27, 12 va 3 litr hajmli idishlar yordamida 9 litr suvni ajratib olish ehtimolini hisoblab chiqing.
8. Hajmi 30, 12 va 3 litr bo'lgan idishlar ko'magida 15 litr suvni o'lchab bering.
9. 28, 7 va 5 litr hajmli idishlar vositasida 12 litr hajmda suv ajratib olish usulini ko'rsating.
10. Qaytariqa hajmi 26, 10 va 3 litr bo'lgan idishlar bilan 10 litr suvni o'lchash mumkin?

3. 18. Fikrlash jarayoning labilligi-rigidligini “So‘zli labirint” metodikasi orqali aniqlash

Tadqiqot maqsadi: “So‘zli labirint” metodikasi sub’ektlarning fikriy jarayonidagi individual xususiyatlari-rigidlikni o‘rganish bilan birga, aqliy jarayonlarning harakatchanligi, labilligini ham tadqiq etadi. Aqliy jarayonlarning labilligi deganda, bir muammodan boshqa muammo yechimiga o‘tish tezligi tushuniladi. Barcha muammolarni yechish uchun yagona algoritm bo‘lmaganligi sababli, sub’ektlarning muammolarni yechishda sarflagan vaqt (ko‘rsatkich)i bir yechimdan boshqa yechimga o‘ta olish qobiliyatini baholashga imkon beradi. Mazkur metodikada tafakkur jarayonining labilligi (harakatchanligi) ko‘rsatkichi bo‘lib sinaluvchi tomonidan 10 ta so‘zli labirint yechimiga

sarflangan vaqt bo'lib hisoblanadi. Taxmin qilinishicha, vaqt ko'rsatkichlarining ortib ketishi va ayniqsa, labirintlardan o'tishdagi vaqt nomutanosibligi (notekisligi, ya'ni vaqtning har xil taqsimlanganligi) muammoni bir turdagi yechimdan boshqa turdagi yechimiga o'tishda qiyinchiliklar (rigidlikka xos voqelik) mavjudligidan dalolat beradi. Aksincha topshiriqlarni bajarishda qisqa va o'zaro bir tekis taqsimlangan vaqt sinaluvchining bitta muammo yechimidan boshqasiga osonlikcha o'ta olishini (tafakkur labilligini) taqozo etar ekan.

Kerakli jihozlar. Har bir sinaluvchi uchun alohida kartochkalarda 10 ta so'zli labirintlarni tayyorlab qo'yish darkor. Labirint deganda 6 qator 6 ta tasodifiy harflardan iborat satrlar tushuniladi. Mazkur harflar to'plami tasodifiy ko'rinsa-da, biroq har birida ma'lum so'zlar shifrlangan. Topshiriqlarni bajarish tezligini qayd etish uchun sekundomer zarur bo'ladi. Keyinroq ushbu ko'rsatkichlar har bir sinaluvchining tafakkur rigidlik-labillik xususiyatlarini namoyon etuvchi grafikni chizishda foydalaniladi.

Sinaluvchiga ko'rsatma. Tadqiqotchi sinaluvchiga quyidagi ko'rsatmani beradi: "Hozir sizga har birida ma'lum so'z yashiringan so'zli labirint beriladi. Sizning asosiy vazifangiz uchta qoidaga amal qilib iloji boricha tezroq labirintni tark etishingizdir. Birinchi qoidaga ko'ra, labirint o'ng tomon pastki burchakdan boshlanadi, uning oxiri esa yuqoridagi chap burchakda joylashgan. Ikkinchi qoidaga muvofiq, labirintda xuddi ruh singari faqat oldinga va istalgan miqdordagi harflar bo'ylab harakatlanish darkor. Uchinchi qoida bo'yicha, bosib o'tilgan ixtiyoriy harf shifrlangan so'zga aylanadi, ya'ni ushbu harfni o'tkazib yuborib yoki sakrab o'tib bo'lmaydi. Topilgan so'zni protokolga qayd eting va topshiriqni bajarish vaqtini belgilab qo'ying".

Tadqiqotchi sinaluvchini ko'rsatma bilan tanishtirgach unga topshiriqni (har bir labirint alohida kartochkada bo'lishi qulayroq) beradi va sekundomerini sozlaydi (yoqadi). Sinaluvchi topshiriqning javobini yozgach sekundomer to'xtatiladi va natijalar protokolga kiritiladi. Tadqiqotchi iloji boricha diqqatli bo'lib, sinaluvchining topshiriqni yechishga harakat qilib aytgan barcha so'z variantlarini hisoblab boradi

va protokolga urinishlar soni katagiga kiritadi. Quyida protokol uchun 1 - jadval keltirilgan, ma'lumotlarni unga kiritish zarur.

25 - Jadval

Yechim ko'rsatkichlari	Topshiriq nomeri										Statistik ko'rsatkichlar		
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	M	σ	σ_M
Vaqt (sekund)													
Urinishlar soni													

Natijalarni qayta ishlash. Hamma 10 ta topshiriq uchun o'rtacha arifmetik ko'rsatkich (M) ni, o'rtacha kvadrat og'ish (σ) va o'rtacha arifmetik qiymatning xatosi (σ_M)ni hisoblab chiqing. Bunda M – matematik kutilma o'rtacha arifmetik qiymat sifatida ko'rib chiqiladi. σ – o'rtacha kvadratik (standart) og'ish:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x_i - M)^2}{M}}$$

σ_M – o'rtacha xato:

$$\sigma_M = \frac{\sigma}{M}$$

barcha 10 ta topshiriq uchun umumiy o'rtacha arifmetik ko'rsatkich (M)ni, o'rtacha kvadratik og'ish (σ) ni va o'rtacha xato (σ_M)ni hisoblab chiqish darkor.

Diagramma 1 ni chizing, bunda abssissa o'qida labirintlar soni, ordinata o'qida esa har bir topshiriqni yechishga sarflangan vaqt qayd etiladi. Diagrammadagi har bir eksperimental ko'rsatkich yoniga muammoni yechishda sinaluvchi amalga oshirgan urinishlar sonini kiritish lozim.

Diagramma 2 ni chizing, bunda abssissa o'qida labirintlar raqami, ordina o'qida esa muammoni yechish uchun amalga oshirilgan urinishlar soni aks etsin, diagrammadagi har bir eksperimental ko'rstkich yonida har bir topshiriqni yechish uchun sarflangan vaqt ifodalanishi zarur.

Tadqiqot natijalarining tahlilida uning keng interpretatsiyasini berish darkor. Bunda vaqtning o'rtacha xatosi va barcha topshiriqlarni yechishdagi urinishlar soni ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish zarur:

qanchalik bu ko'rsatkich kichik bo'lsa, bu sinaluvchi tafakkur jarayonining labilligidan dalolat beradi. Sinaluvchining tafakkur labilligini diagrammadagi ustunlarning bir xil balandligi ham belgilab beradi.

3. 19. "Intellectual labillik" metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Tafakkur labilligini, bir turdagi muammo yechish usulidan xatolarsiz boshqa turdagi muammo yechish usuliga oson (yengil) o'tishni o'rganishdir.

Metodikani o'quv faoliyati muvaffaqiyatini bashorat qilishda (prognozi), yangi faoliyatni o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rganishda foydalaniladi. Metodika bajarishda sinaluvchi diqqatli va chaqqon bo'lishi zarur.

Kerakli jihozlar: Metodika uchun maxsus javoblar blanki kifoya.

Metodika bir nechta topshiriqlardan iborat. Har bir topshiriqqa 3 dan 5 sekundgacha vaqt ajratiladi. Sinaluvchi javoblari maxsus blankda qayd etib boriladi. Savollar guruh uchun tadqiqotchi tomonidan umumiy o'qib eshittirilishi mumkin. Metodika katta yoshdagi sinaluvchilarga mo'ljallangan.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Sizga 40 ta murakkab bo'lmagan topshiriqlar o'qib eshittiriladi. Siz javoblaringizni maxsus blankga qayd etib borasiz. Har bir topshiriqni bajarish uchun sizga bir necha sekund vaqt ajratiladi. Diqqatli bo'ling. Chaqqonroq bo'ling. Bir marta o'qilgan topshiriq qayta o'qilmaydi.

Diqqat. Boshladik!

Natijalarni qayta ishlash tartibi xatolarni hisoblab chiqish orqali amalga oshiriladi. Qoldirib ketilgan topshiriqlar ham xato sirasiga kiradi.

Topshiriqni bajarish me'yorlari:

0 dan 4 tagacha xatoga yo'l qo'yish-tafakkurning yuqori labilligi, yuqori o'quv qobiliyat;

5 tadan 9 tagacha xatolar-tafakkurning o'rtacha labilligi;

10-14 xatolar-tafakkurning quyi labilligi, o'quv faoliyatida qiyinchiliklar;

15 va undan ortiq xatolar-har qanday faoliyatda unumsizlik (muvafaqqiyatsizlik).

Test materiali:

1. (1-Kvadrat). Salim ismidagi birinchi harfni va yilning birinchi oyining uchinchi harfini yozing (3 sekund).
2. (4-Kvadrat). "QOR" so'zini shu tariqa joylashtiringki, mazkur so'zning har bir harfi uchburchak ichida joylashsin (3 sekund).
3. (5-Kvadrat). To'rtburchakni ikki vertikal va ikki gorizontal chiziqlar bilan ajrating (3 sekund).
4. (6-Kvadrat). Birinchi doiradan to'rtinchi doiragacha chiziqni shu tariqa chizingki, u ikkinchi doiraning ostidan va uchinchi doiraning ustidan o'tsin (3 sekund).
5. (7-Kvadrat). Qo'shish belgisini uchburchak ichiga joylashtiring, to'rtburchak va uchburchak umumiy maydonga ega bo'lgan qismga bir raqamini qo'ying (3 sekund).
6. (8-Kvadrat). Ikkinchi doirani uchga, to'rtinchi doirani ikkiga ajrating (4 sekund).
7. (10-Kvadrat). Agar bugun chorshanba bo'lmasa, ismingizdagi so'nggi harfni qayd eting (3 sekund).
8. (12-Kvadrat). Birinchi to'rtburchakka qo'shuv belgisini qayd eting, uchinchisini o'chiring, oltinchisiga 0 raqamini yozing (4 sekund).
9. (13-Kvadrat). Nuqtalarni to'g'ri chiziqlar bilan tutashtiring va kichik uchburchakka qo'shuv belgisini qo'ying (4 sekund).
10. (15-Kvadrat). Bitta undosh harfni doiraga oling va qolgan unli harflarni o'chirib chiqing.
11. (17-Kvadrat). Trapesiyaning yon tomonlarini tutashguncha uzaytiring va ular tutashgan nuqtaga shahringizning so'nggi harfini joylashtiring (4 sekund).
12. (18-Kvadrat). Agar "SINONIM" so'zida oltinchi harf unli bo'lsa, to'rtburchakka bir raqamini yozing (3 sekund).
13. (19-Kvadrat). Katta doira ustidan doira chizing va kichikrog'iga qo'shuv belgisini qo'ying (3 sekund).

14. (20-Kvadrat). Ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi nuqtalarni birinchi va uchinchi nuqtalarsiz tutashtiring (3 sekund).
15. (21-Kvadrat). Agar ikki ko'pxonali raqamlar bir xil bo'lmasa, ular o'rtasidagi chiziqqa V (galochka) belgisini qo'ying (2 sekund).
16. (22-Kvadrat). Birinchi chiziqni uch qismga, ikkinchisini ikkiga bo'ling, uchinchi chiziqning ikkala uchini A nuqtasi bilan birlashtiring (4 sekund).
17. (23-Kvadrat). Birinchi chiziqning oxirini ikkinchi chiziqning oxiri bilan birlashtiring, ikkinchi chiziqning yuqori chizig'ini to'rtinchi chiziqning pastki chizig'i bilan birlashtiring (3 sekund).
18. (24-Kvadrat). Toq raqamlarni o'chiring, juft raqamlarni esa tagiga chizing (5 sekund).
19. (25-Kvadrat). Ikkala shaklni doiraga oling va ularni bir-biridan vertikal chiziq bilan ikkiga ajrating (4 sekund).
20. (26-Kvadrat). A harfi tagiga pastga qaragan strelka chizing, V harfining tagiga esa tepaga qaragan strelka chizing, S tagiga esa belgi (galochka) qo'ying (3 sekund).
21. (27-Kvadrat). Agar "Darvoza" va "Do'lana" so'zi bir xil xil harf bilan boshlansa, romblar o'rtasiga minus belgisini qo'ying (3 sekund).
22. (28-Kvadrat). Chet chap katakchaga 0 raqamini yozing, o'ng yon katakchaga qo'shuv belgisini, o'rtaga esa diagonal chizing (3 sekund).
23. (29-Kvadrat). V belgilarni tagiga chizing va birinchi V belgisiga A harfini yozing (3 sekund).
24. (30-Kvadrat). Agar "TAJOVVUZ" so'zida uchinchi harfi Z harfi bo'lmasa, 3+5 ning yig'indisini yozing (3 sekund).
25. (31-Kvadrat). "ChAQMOQ" so'zida undosh harflarni doiraga oling, "Yomg'ir" so'zida esa unlilarni o'chiring (3 sekund).
26. (32-Kvadrat). Agar 54 raqami 9 ga bo'linsa, to'rtburchakni doiraga oling (3 sekund).
27. (33-Kvadrat). 1 raqamidan 7 raqamigacha shu tariqa chiziq chizingki, u toq raqamlarning ostidan va juft raqamlarning ustidan o'tsin (4 sekund).
28. (34-Kvadrat). Raqamsiz doiralarni o'chiring, raqamlilarini tagiga chizing (3 sekund).

29. (35-Kvadrat). Undosh harflar ostiga pastga yoʻnalgan strelkani, unli harflar ostiga esa chapga yoʻnalgan strelka chizing (5 sekund).
30. (36-Kvadrat). “ASR” soʻzini shu tariqa yozingki, birinchi harf doira ichida, ikkinchisi harfini toʻrtburchak ichiga joylashtiring (2 sekund).
31. (37-Kvadrat). Gorizontal chiziqlarni strelkalar bilan oʻngga, vertikal chiziqlarni esa tepaga yoʻnaltiring (5 sekund).
32. (39-Kvadrat). Ikkinchi chiziqni ikkiga ajrating, birinchi chiziqning ikkala uchini ikkinchi chiziqning oʻrtasi bilan tutashtiring (3 sekund).
33. (40-Kvadrat). Toq raqamlarni juft raqamlardan vertikal chiziqlar bilan ajrating (5 sekund).
34. (41-Kvadrat). Chiziqning ustiga tepaga yoʻnaltirilgan strelka qoʻying, chiziqning ostiga esa chapga yoʻnaltirilgan strelka chizing (2 sekund).
35. (42-Kvadrat). M harfini kvadratga, K harfini doiraga va O harfini uchburchak ichiga oling (4 sekund).
36. (43-Kvadrat). 5+2 yigʻindisini toʻrtburchakka, ayirmasini esa rombga joylashtiring (4 sekund).
37. (44-Kvadrat). 3 ga boʻlinadigan raqamlarni oʻchiring, qolganlarini tagiga chizing (4 sekund).
38. (45-Kvadrat). V belgisi (galochka)ni faqat doira ichiga joylashtiring, 3 belgisini esa faqat toʻrtburchakka joylashtiring (3 sekund).
39. (46-Kvadrat). Harflarni tagiga chizing, juft raqamlarni esa doiraga oling (5 sekund).
40. (47-Kvadrat). Toq raqamlarni toʻrtburchak qavsga, juft raqamlarni esa qavs ichiga oling (5 sekund).

3. 20. “Tushunchalarni solishtirish” metodikasi orqali semantik (tushunchali) tafakkurni tadqiq etish

Tadqiqot maqsadi: tushunchali tafakkur va uning funksiyalarini oʻrganish.

Kerakli jihozlar: metodika namunasi.

Tushuncha – bu atrofdagi predmet va ob’ektlarning muhim jihatlarini soʻzlarda ifoda etuvchi tafakkur birligidir. Inson har xil tushunchalarni oʻzaro qiyoslar ekan, semantik belgilarning umumiy maydonini tadqiq etib eng barqaror va unga monand (mos, muvofiq) larini tanlaydi. Taqdim etilgan metodikada 22 juft tushunchalar qiyosiy keltirilgan. Sinaluvchi umumiy semantik maydonga ega juftliklarni butunlay bir-biriga mos boʻlmaganlaridan ajratib olishi darkor. Agar sinaluvchi turdosh va turdosh boʻlmagan tushunchalar oʻrtasida farqni koʻrmasa, har qanday juftliklar oʻrtasida umumiy belgilarni topa olsa, u boy tasavvurga egaligini taʼkidlash mumkin. Shuningdek, unga demagogik (mazmunsiz) hukm va xulosalar chiqarish xos boʻlishi mumkin.

Sinaluvchiga koʻrsatma: Solishtirilayotgan tushunchalardagi muhim belgilarni koʻrsating. Unutmang, juftliklarni nafaqat umumiy belgilar asosida tanlash darkor, ularda umumiy belgilar boʻlmasligi mumkin.

Natijalarni qayta ishlash tartibi. Toʻgʻri topilgan 15 ta turdosh tushunchalar ballarda hisoblanadi. 10 dan 15 ballgacha norma sanaladi. Bundan quyiroy ballar tushunchalarning belgilarini ajrata olish va umumlashtira olishning yetarli darajada emasligidan dalolat beradi.

Turdosh tushunchalar quyidagi belgilarga koʻra ajratilishi kerak: Kun vaqti.

1. Uy (xoʻjalikdagi) hayvonlar.
2. Xarbiy kasb (xarbiy texnikani boshqarish bilan bogʻliq).
3. Yogʻingarchilik.
4. Tashqi oʻxshashlik, analogiya, oʻlcham, oʻyin.
5. Borliqning sababiy oqibat oʻzgarishi
6. Qimmatbaho metallar.
7. Isteʼmolga yaroqli suyuqlik.
8. Qishloq transporti.
9. Tabiiy suv havzalari.
10. Transport.
11. Daraxt mevalari (mevalar va rezavorlar).
12. Sport anjomlari, qishki sport turi.

13. Rang.

14. Parranda (qush)lar.

Daryo – qush, Bo‘ri – oy, Botinka – qalam, Ko‘zoynak – pul, Stakan – ho‘roz kabi nomonand juftliklar bor.

«Tushunchalarni solishtirish» metodikasi blanki

1. Tong – oqshom.

2. Sigir – ot.

3. Uchuvchi – tankist.

4. Daryo – qush.

5. Qor – yomg‘ir.

6. Kichik qiz – katta qo‘g‘irchoq.

7. Yolg‘on – xato.

8. Bo‘ri – oy.

9. Botinka – qalam.

10. Oltin – kumush.

11. Sut – suv.

12. Chana – arava.

13. Ko‘zoynak – pul.

14. Ko‘l – daryo.

15. Poezd – samolet.

16. Stakan – ho‘roz.

17. O‘qi – o‘q.

18. Olma – olcha.

19. Chang‘i – konki.

20. Qizil – yashil.

21. Qarg‘a – chumchuq.

22. Shamol – tuz.

3. 21. “Ortiqcha so‘zni toping” tushunchali tafakkurni o‘rganish

Tadqiqot maqsadi: metodika predmet va hodisalarning muhim va nomuhim, ikkinchi darajali belgi (xususiyat) larni differensiatsiya qila olish qobiliyatini o‘rganishga mo‘ljallangan. Predmet va hodisa

belgilarining tanlanish xususiyatiga ko'ra sinaluvchining tafakkur uslubi: konkret yoki abstrakt haqida dalolat beradi.

Kerakli jihozlar: so'zlar qatorini o'zida mujassam etgan javoblar blanki. Har bir satr qavs ichida qayd etilgan beshta so'z va qavs tashqarisida joylashgan bitta so'zdan tashkil topgan. Test o'smir va voyaga yetgan shaxslarni tadqiq etishga mo'ljallangan. Topshiriqdagi so'zlar shu tariqa tanlanganki, sinaluvchilar tushunchalarning abstrakt xususiyatlarini anglab olib to'g'ri qaror qabul qilishi zarur. Bunda sinaluvchi osonroq, ko'zga tez tashlanadigan, biroq noto'g'ri juftliklarni – muhim belgilarga qaraganda xususiyl, konkret-situatsion belgilar inobatga olmasligi lozim.

Katta yoshdagilar uchun ko'rsatma. Javob blankining har bir satrida qavs tashqarisida bitta so'z va qavs ichida beshtadan so'z keltiriladi. Qavs tashqarisidagi har bir so'z qavs ichidagi so'zlar bilan o'zaro bog'liq. Siz qavs tashqarisidagi so'z bilan o'zaro bog'liqligi kuchliroq bo'lgan ikkita so'zni tanlashingiz darkor. Javoblar (kalit).

1. O'simlik, tuproq.
2. Sohil, suv.
3. Bino, uy.
4. Tom, devor
5. Burchak, tomon.
6. Bo'linuvchi, bo'luvchi.
7. Diametr, aylana.
8. Ko'z, matn.
9. Qog'oz, tahrirchi.
10. O'yinchi, qoida.
11. Jang, askar.
12. Qog'oz, matn.
13. Ovoz, kuy.
14. Yer tebranishi, shovqin.
15. Kitoblar, o'quvchilar.
16. Tuproq, daraxt.
17. Musobaqa, g'alaba.
18. Vrach, bemor.

19. Hissiyot, inson.
20. Vatan, inson.
21. Stullar, stol yoki servant, shkaf.
22. Dekan, talaba.
23. Tank, zambarak.
24. Lavlagi, sabzi.

Interpretatsiya: javoblarni kalit bilan solishtirilar ekan, 2 ball ikkita to‘g‘ri javobga, 1 ball bitta to‘g‘ri javobga, sinaluvchi umuman to‘g‘ri javob topolmaganda 0 ball qo‘yiladi. Topshiriqlardan to‘plangan ballar o‘zaro qo‘shiladi, maksimal ball 48 ga teng. Natija 24 balldan quyi bo‘lsa, uni qoniqarsiz deb hisoblash mumkin, demak, sinaluvchida solishtirish, analiz qilish, muhim belgilarni umumlashtirish qobiliyati sust. 13 ta xato hukmlarning qayd etilishi abstrakt-mantiqiy tafakkurga qaraganda konkret-situatsion tafakkur uslubining yetakchilik qilishi to‘g‘risida dalolat beradi. Agar sinaluvchi metodikaning boshida xatolarga yo‘l qo‘ysa, buni shoshma-shosharlikka yo‘yish mumkin.

«Ortiqcha so‘z» metodikasi blanki

1. Bog‘ (o‘simlik, bog‘bon, it, to‘siq, tuproq).
2. Daryo (soxil, baliq, baliqcha, suv o‘ti, suv).
3. Shahar (avtoullov, bino, xaloyiq, ko‘cha, velosiped).
4. Omborxona (pichanxona, ot, tom, qoramol, devor).
5. Kub (burchaklar, chizma, tomon, tosh, daraxt).
6. Bo‘linish (sinf, bo‘linuvchi, qalam, bo‘luvchi, qog‘oz).
7. Uzun (diametr, olmos, proba, aylana, oltin).
8. O‘qish (ko‘z, kitob, ko‘zoynak, matn, so‘z).
9. Ro‘znoma (haqiqat, favqulodda holat, krossvord, qog‘oz, tahrirchi).
10. O‘yin (qarta, o‘yinchi, fishki, jarima, qoida).
11. Urush (samolet, zambarak, jang, qurol, askar).
12. Kitob (rasm, hikoya, qog‘oz, bob, matn).
13. Qo‘shiq aytmoq (jaranglash, san‘at, ovoz, muxlislar, kuy).
14. Zilzila (yong‘in, o‘lim, yer tebranishi, shovqin, toshqin).
15. Kutubxona (stol, kitoblar, o‘quv zali, gardero xona, o‘quvchilar).
16. O‘rmon (tuproq, qo‘ziqorin, ovchi, daraxt, bo‘ri).
17. Sport (medal, orkestr, musobaqa, g‘alaba, stadion).

18. Shifoxona (bino, in'eksiya, vrach, termometr, bemorlar).
19. Muhabbat (atirgul, his-tuyg'ular, inson, uchrashuv, to'y).
20. Vatanparvarlik (shahar, vatan, do'stlar, oila, inson).
21. Mebel (stullar, stol, daraxt, servant, shkaf).
22. Fakultet (kafedra, dekan, bino, talaba, ko'cha).
23. Qurol (tank, samolet, paqildoq, zambarak, temir).
24. Sabzavotlar (bodring, lavlagi, tarvuz, sabzi, olma).

3. 22. “Qonuniyatlarni kashf etish (ochish)” metodikasi

Tadqiqot maqsadi: Tafakkurning analiz, taqqoslash, mantiqiy hukm, assotsiativ bog'liqliklar hosil bo'lish tezligi, o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash, bir turdagi muammoni yechish usulidan boshqasiga o'tish tezligi, shuningdek, diqqat barqarorligi va operativ xotira xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Metodika aviatsiya vrachlarining amaliyotidan olingan bo'lib, B.L. Pokrovskiy tomonidan 1961 yilda ishlab chiqilgan va aprobatsiya qilingan.

Sinaluvchiga ko'rsatma: topshiriqni bajarishda sinaluvchilar diqqatli, topqir va qonuniyatlarni kashf eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi darkor. Metodika blankida 5 ta so'zdan iborat 25 qator so'zlar keltirilgan. Har bir satrning chap tomonida shu kabi belgilar: + ? * aks etadi. Mazkur belgilarning joylashish tartibi satrdagi so'zlarning harf tartibiga mos keladi. Sizning asosiy vazifangiz satrdagi so'zlarning qaysilari mazkur belgilar tartibiga mos tushishini topishdan iborat. Belgilarga tartibiga mos tushadigan so'zlar miqdori ikkitadan beshtagacha bo'lishi mumkin. Agar so'zdagi harflar takrorlansa, belgilar ham takrorlanadi. Agar so'zdagi harflar har xil bo'lsa, demak belgilar ham har xil bo'lishi darkor. Misol uchun PARDA so'zida ikkinchi va beshinchi harflar takrorlanadi, birinchi, uchinchi va to'rtinchi harflar esa har xil beligili bo'ladi. PARDA so'zining belgili ifodasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: + 0 ? X 0 yoki X : 0 1 :.

Quyidagi satrni tahlil qilib ko'ramiz:

X : ? + X QULOQ BURUN TEATR ORDER RADAR

Yuqoridagi shifrga QULOQ soʻzi mos keladi, chunki birinchi va beshinchi harflar takrorlanadi, ikkinchi, uchinchi va toʻrtinchi harflar esa har xil. RADAR soʻzi esa toʻgʻri kelmaydi, garchi birinchi va beshinchi harflar shifrga mos tushsa-da, ikkinchi va toʻrtinchi harflar ham bir xil, shifrga koʻra esa bu harflar har xil boʻlishi kerak. Har bir topshiriqni bajargani 10 daqiqadan vaqt ajratiladi, vaqt tugagach “Stop” degan koʻrsatma beriladi va siz shifrga mos tushadi deb oʻylagan soʻzlarning tagiga chizasiz. Eng asosiysi shoshganingizda ortiqcha soʻzning tagiga chizib qoʻymang.

«Qonuniyatlarni kashf etish (ochish)» metodikasi blanki

	A	B	V	G
D				
1. X: ?+X radar	quloq	toʻpiq	teatr	arqon
2. +§0+! ajrim	gʻavgʻo	irmoq	karom	ilgir
3. ?X+?X qashqa	qozon	taxta	olmos	qamoq
4. 0+X-§ qatiq	palov	qoshiq	islom	qabih
5. §-X§- tomoq	qiyqi	qanot	abjir	raqam
6. X0:§=+0? tanovvul	saylanma	tamomila	benuqson	taqvodor
7. 0:+ §: ?-X qoʻngʻiroq	serbezak	salohiyat	qonuniyat	sertepar
8. X+!-§:X+ samimiyat	taraddud	tavakkal	tanazzul	kartoshka
9. X?-:X= X 0 qoʻmondon	irqchilik	saksovul	tadqiqot	isiriqchi
10. §0X§=§=: qobiliyat	sabzavot	daydidil	tafakkur	taxallus
11. §+ §-:X=§ tabassum	takabbur	tavallud	keksalik	oshpazlik

12. ? X=-!-§0	qumursqa	zebiniso	kissavur	kuydirgi
tahlilcha				
13. X+--§X+0	o‘qituvchi	chamanzor	kamonkash	tagzamin
do‘ppido‘z				
14. !+0-!+X=	firibgar	yakkamoxov	tabarruk	instinkt
peshtaxta				
15. ?X-+§+X=	g‘amtotar	saksofon	sersoqol	sajdagoh
sarlavha				
16. 0-+?+§!X	qalampir	vahshiyona	qirg‘ovul	cho‘lyalpiz
qovurdoq				
17. X-!§+§0?	suvchechak	sintetik	sochpopuk	sinamali
diktator				
18. §+?X:=§+	kartochka	arxeolog	lastochka	chistonchi
kanonada				
19. 0X: §-§+1	istilochi	ignabarg	tarannum	zarkokil
ixtirochi				
20. §:X+?-§+	kvartira	ko‘zoynak	kontrakt	kunbotar
kamsuqum				
21. 0+?X-§:X	botanika	savdogar	savodsiz	shiddatli
targ‘ibot				
22. §-+§-+-0	institut	qulqulum	qumursqa	qarchig‘ay
qilg‘ilik				
23. !+ §?!X0§	talaffuz	sertikan	zahmatli	qayiqsoz
zambarak				
24. +§-?X!-0	ko‘chmanchi	serqirra	qo‘g‘irchoq	qo‘yfurush
ko‘kyo‘tal				
25. X0+0X-§+	qamishzor	sababiyat	quruqlik	serbezak
poyabzal				

Natijalar tahlili quyidagi formulaga ko‘ra amalga oshiriladi:

$$A = \frac{D - \text{xato so'zlar}}{D - \text{qolib ketgan so'zlar}} \times S$$

bunda A – samaradorlik koeffitsienti;

D – tagiga chizilgan so‘zlar miqdori;

Xato so‘zlar – noto‘g‘ri belgilangan so‘zlar miqdori;

Qolib ketgan soʻzlar – tagiga chizilmagan soʻzlar miqdori;

S – barcha koʻrib chiqilgan soʻzlar miqdori.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga muvofiq baholanadi:

Ballar	9	8	7	6	5	4	3	2	1
Koeffitsient	108– 125	101– 107	94– 100	86– 93	76– 85	68– 75	58– 67	51– 57	0– 50

Samaradorlik koeffitsient 65 dan quyi boʻlsa – quyi (yomon) koʻrsatkich; 65 – 80 qoniqarli (oʻrtacha) koʻrsatkich; 85 – 91 yaxshi koʻrsatkich; 95 dan yuqori – aʻlo koʻrsatkich.

Natijalarni qayta ishlash kaliti:

1 – A, 2 – G. 3 – D. 4 – G. 5 – A. 6 – (-). 7 – A. 8 – G. 9 – A 10 – B. 11 – V. 12 – B. 13 – D. 14 – G. 15 – A. 16 – G. 17 – A. 18 – G. 19 – B, 20 – V. 21 – A. 22 – B. 23 – G. 24 – A. 25 – V

3. 23. Nutqning informatsion va taʼsir etish funksiyalari tadqiqoti

Tadqiqot maqsadi: hamkorlik faoliyatida nutqning boshqa insonga taʼsirigi tadqiq etish.

Metodika haqida. Nutqimizda ikki asosiy funksiyalar mavjud: axborot va harakatga undash (N.I. Jinkin, 1956). Boshqacha qilib aytganda nutqning kommunikativ va undovchi funksiyalari. Inson nutqi bir vaqtning oʻzida ikkala funktsiyani bajarishi mumkin, shuning bilan birga ulardan bittasi ustunlik ham qilishi ehtimol. Agar sinaluvchidan nutqning u yoki bu funksiyasini aks ettiruvchi guruhga tegishli soʻzlardan faqat bittasiga tegishlisidan foydalanish soʻralsa, suhbatdoshi tomonidan sinaluvchining nutqini tushunishi murakkabroq boʻladi. Vujudga kelgan qiyinchiliklar spesifikasi va ularni hal etish tanlangan soʻzlar guruhining oʻziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

Kerakli jihozlar. Kontur rasmlari 3 ta blank. Qalam, soat (sekundomer), ma'lumotlarni qayd etish protokoli.

Tadqiqotning borishi. Tadqiqotda ikki sinaluvchi va bir eksperimentator zarur. Eksperimentator har bir tajribaga bittadan rasm tayyorlaydi. Barcha 3 ta rasmlar murakkabligi va o'lchami bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lishi kerak.

Tadqiqotni o'tkazish tartibi. Birinchi sinaluvchi rasmlarni ko'rishi kerak emas, buning uchun uning ko'zi bog'lanadi. Birinchi sinaluvchining qo'lga qalma berib unga vazifasi tushuntiriladi. Sinaluvchi № 1 komanda, ko'rsatmaga ko'ra rasmni tez va aniq qilib chizib chiqishi darkor bo'ladi. Ko'rsatmalarni sinaluvchi № 2 beradi. Tadqiqotning borishi, sinaluvchi № 1 va № 2 larning xatti-harakatlari, olib borish tartibi, vaqti eksperimentator tomonidan protokolga qayd etib boriladi.

Sinaluvchilarning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari

26-Jadval

Tajriba raqami	Vaqt	Sinaluvchi № 2 ning ko'rsatmalari	Sinaluvchi № 1 ning xatti-harakatlari	Tushunmovchilik larning sabablari

Sinaluvchilarning ikkalasi ham uchta topshiriqlarda ishtirok etadilar.

Topshiriq № 1. Sinaluvchi № 2 sinaluvchi № 1 ni boshqarish uchun rasmdagi ob'ektning shaklini ta'riflovchi so'zlardan tashqari ixtiyoriy so'zlardan foydalanishi mumkin.

Topshiriq № 2. Sinaluvchi № 2 sinaluvchi № 1 ni "boshladik", "tugatdik", "chizing", "to'xtang" kabi buyruqlarni qo'llagan holda boshqarishga harakat qiladi.

Topshiriq № 3. Sinaluvchi № 2 "tepaga", "o'ngga", "yaxshi", "yo'q" so'zlaridan foydalanib sinaluvchi № 1 ni boshqaradi. Sinaluvchi № 1 ko'rsatmani tushungan yoki tushunmaganiga ko'ra sinaluvchi № 2 aytgan gaplarini bajaradi yoki bajarmaydi. Bunda sinaluvchi № 1 iloji

boricha tezroq rasmni chizishi, iloji boricha sukut saqlashi darkor. Uchala topshiriqlardan so‘ng ikkala sinaluvchining hisoboti qayd etib olinadi.

Sinaluvchilarga ko‘rsatma. “Sizning asosiy vazifangiz sizga berilgan rasmni tezroq va aniqroq ustidan chizib chiqishdan iborat. Bunda sizning ko‘zingiz bog‘langan bo‘ladi. Tadqiqot vaqtida siz ko‘rsatmalarni tushunganingizcha sukut saqlagan holda bajarishingiz zarur. Tadqiqot uchta topshiriqdan iborat”.

Natijalar tahlili.

Nutqning qaysi funksiyasi ustuvor bo‘lganligini aniqlash va har bir topshiriqda sinaluvchi № 2 ning yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini, nutqidagi cheklovlarni aniqlashingiz darkor.

Sinaluvchi № 1 tomonidan rasm ustidan chizilgan barcha chiziqlar uzunligini o‘lchash (1 umum). Keyin rasmning sifatli chizilgan (1 sif) chiziqlarini, ya’ni namuna bilan sinaluvchi № 1 chizgan o‘zaro ustma-ust tushuvchi chiziqlarini o‘lchash zarur.

Keyin quyidagi formula asosida sinaluvchining stabil sifatli chiziqlar (X) ulushini aniqlash mumkin:

$$X = \frac{1 \text{ (sif)}}{1 \text{ (umum)}} \times 100\%.$$

Natijalarni qayta ishlashda 2-jadvalda aks etuvchi protokolni to‘ldiring.

Sinaluvchilarning uchta tadqiqot bo‘yicha yig‘ma (jamlanma) natijalari

27-Jadval

Tadqiqot raqami	Bajarish vaqti	Stabil sifatli chiziq ulushi

Sinaluvchi № 2 va sinaluvchi № 1 ning xatti-harakatlarini o‘zaro muvofiqligini solishtiring, o‘zaro tushunmovchiliklarning sabablarini tahlil qiling.

Tadqiqotning maqsadi va gipotezalariga ko‘ra har bir bosqichdagi olingan natijalarning sifat va miqdor tahlilini amalga oshiring.

3. 24. Nutqda artikulyatsion to'siqlar mavjud bo'lganda tushunishni tadqiq etish

Tadqiqot maqsadi: gapirayotgan insonning nutqini tushunishda artikulyatsion ta'sirni tadqiq etish.

Metodika haqida. Ma'lumki, "Nutq harakatining yo'qligi nutqni tushunishni qiyinlashtiradi" (A.N. Sokolov, 1968). Agar sinaluvchiga biror nutqni eshitib tushunishni taqozo etuvchi topshiriq berish bilan bir vaqtda halaqit beruvchi to'siqlar hosil qilinsa, masalan: nutqni tinglash bilan birga sanoq amalini bajarishni, yoki birorta she'rni aytib berish so'ralsa, nutqni tushunish murakkab bo'ladi va so'zlar soniyada unutila boshlanadi. A.N. Sokolovning ma'lumotlariga ko'ra, vaqti-vaqti bilan sinaluvchilar nutqni tinglab, uni tushunishlari, alohida so'z va iboralarni esda olib qolishlari mumkin. Biroq bularning barchasi bir she'rbandidan boshqasiga o'tayotganda yoki halaqit beruvchi to'siqlar o'rtasidagi tanaffus oralig'idagina amalga oshadi.

Kerakli jihozlar. Matnlar majmuasi toza qog'oz, ma'lumotlarni qayd etish uchun protokol va ruchka.

Sinaluvchiga ko'rsatma. Eksperiment uch bosqichda (uch xil turdagi topshiriqlarda) olib boriladi. Har bir topshiriqda sinaluvchiga artikulyatsion to'siqlar mavjudligida: 1. Sinaluvchi nutqni eshitadi va ritmik ravishda bo'g'inlarni talaffuz qiladi. 2. Matnni tinglash chog'ida sinaluvchi ritmik ravishda raqamlarni sanab boradi. 3. Matnni tinglash chog'ida sinaluvchi she'r o'qish bilan birga (o'z ixtiyoridagisina albatta) matnni eslab qolishi so'raladi.

Har bir topshiriq tugagandan 10–15 sekund o'tgach sinaluvchi bir varaq qog'ozga esda olib qolganlarini qayd etib berishi darkor.

Tadqiqotni o'tkazishda sinaluvchidan tashqari ikkita eksperimentator zarur bo'ladi. Eksperimentator № 1 sinaluvchi uchun matn o'qiydi. Eksperimentator № 2 sinaluvchi nutqidagi o'zgarishlarni qayd etib boradi.

Har bir bosqich uchun mos ko'rsatmalar beriladi. Eksperimentator № 1 sinaluvchidan avval mashq qilib ko'rib keyin topshiriqni bajarishga kirishishini so'raydi.

Mashqlantirish jarayoni tugagach tadqiqotga kirishiladi. Sinaluvchi o‘ziga yuklatilgan vazifani sekin va ritmik ravishda bajarishga kirishadi. Oradan 8–10 sekund o‘tib Eksperimentator № 1 esda olib qolishi zarur bo‘lgan matnni o‘qiy boshlaydi.

Matn tugagandan so‘ng sinaluvchi yana bir necha sekund davomida o‘z faoliyatini davom ettiradi, keyin esa qog‘ozga esda olib qolganini qayd etadi.

Har bir bosqichdagi topshiriqlarni bajarish chog‘ida Eksperimentator № 2 sinaluvchining nutqidagi xatolar, nutq tempi, ritmi, balandligi o‘zgarishlarini, nutqning tushunarligini, xo‘rsinish va pauzalarini qayd etib boradi.

Umumlashtirilgan natijalar (o‘zgarishlar miqdori) protokolga kiritib boriladi.

Sinaluvchining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari

Tadqiqot bosqichi	Sinaluvchi nutqidagi o‘zgarishlar							To‘g‘ri so‘zlar miqdori	
	Tezlashish/ sekinlashish	Balandligi	Ritm	Aniqligi	Pauzalar	Xo‘rsinishlar	Hammasi bo‘lib	Nechta	Foiz hisobida
1									
2									
3									

Sinaluvchilar uchun ko‘rsatmalar.

Ko‘rsatma № 1: “Hozir sizga iloji boricha aniqroq esda olib qolib, esga tushirishingiz zarur bo‘ladigan matn taqdim etiladi. Matnni tinglash bilan bir qatorda siz bo‘g‘inlarni talaffuz etishingiz darkor (masalan, ka, te, ru, si, bo va hkz.). Bo‘g‘inlarni shoshmasdan ritmik ravishda talaffuz etishingiz lozim. Buni bajarishga bir urinib ko‘ring (mashqlantirish). Yaxshi. Siz bo‘g‘inlarni talaffuz qilavering, bir necha sekunddan so‘ng men matnni o‘qishni boshlayman. Men matnni o‘qib bo‘lgach siz yana bir necha sekund davomida bo‘g‘inlarni talaffuz qilaverasiz. Mening

komandamdan so'ng esa esda olib qolganlaringizni qog'ozga tushirasiz”.

Ko'rsatma № 2: “Hozirgi topshiriq avvalgisiga o'xshab ketadi. Biroq endi bo'g'inlar o'rniga siz ritmik ravishda 1 dan boshlab sanashni davom ettirasiz. Vazifangiz ham sanashda davom etish, ham matnni esda olib qolish”.

Ko'rsatma № 3: “bu bosqichda siz sanoq o'rniga sizga yaxshi tanish she'rni ritmik ravishda aytib berishingiz zarur. Bu she'r sizga shunaqa yod bo'lgan bo'lishi kerakki, hech qanday zo'r berishsiz yengil eslay oling. Agar she'rning biror bandi yodingizdan chiqqan bo'lsa, unda she'rni qaytadan boshlashingiz mumkin. Eng asosiysi ritmni yo'qotmang”.

Olingan natijalarni qayta ishlash. Eksperimentatorlar original matn va sinaluvchi esga tushirgan matnni o'zaro solishtirib, to'g'ri qayd etilgan so'zlar miqdorini hisoblab chiqadilar. Olingan natijalarni grafik ko'rinishiga keltirish darkor.

Olingan natijalarning miqdoriy va sifat tahlilini amalga oshirish lozim. Bunda har bir topshiriqdagi to'siq turining matnni tushunish samaradorligiga ta'sirini aniqlash zarur. Olingan qonuniyatlarni izohlash talab etiladi.

“Artikulyatsion to'siqlar yordamida nutqni tushunishni tadqiq etish” metodikasining stimul materiali

Matn № 1.

Bir donishmand aytgan ekan: “Kattalardan faqat uch narsadagina kichiklar o'zib ketishi mumkin. Birinchisi: qorong'uda kichigi kattasidan oldinda harakatlansin, uni xavf-xatardan avaylasin. Ikkinchisi: oqimga duch kelganda, kichiklar kattalarni ogohlantirish uchun ham oldinga o'tsinlar. Uchinchidan: dushman qo'shini vatanga hujum qilganda ularni haydab chiqarish va kattalarni himoya qilish uchun oldingi qatorda bo'lsinlar”.

Matn № 2.

Bir donishmand aytgan ekan: “Uch kishinigina kamsitish yaramaydi: sultonni, olimni va suhbatdoshingizni. Chunki sultonni kamsitish ixtilofga sabab bo'ladi, olimni kamsitish iymonni

zaiflashishiga olib keladi, suhbatdoshingizni kamsitish esa adolatsizlikka yo‘l ochib beradi. To‘rt narsa bordurki, ularning kamligi kamlik emas: burch, olov, dushman, xastalik”.

Matn № 3.

Bir zamonlarda Basrada yashovchi bir fuqaro safarga chiqibdi va ko‘zlagan manziliga tunda yetib olibdi. Qishloq zulmatga cho‘mgan. Uning o‘rtasida sayyoh qo‘lida sham tutib yelkasida ko‘z to‘la suv ko‘tarib olib qaergadir shoshayotgan ko‘r kimsani uchratdi. Bu narsa sayyohni ajablantirdi. U ko‘rning oldiga kelib so‘radi: “Menimcha senga tun yoki kunligining ahamiyati yo‘q. Nima sababdan qo‘lingda chiroq olib ketayapsan?” Ko‘r bunga javoban: “Sendaka qalbi ko‘rlar meni turtib yuborib ko‘zamni sindirmasligi uchun” deb aytgan ekan.

3. 25. Ch.Osgudning semantik differensial metodidan foydalanib nutqni tadqiq etish

Tadqiqot maqsadi: Ch. Osgudning semantik differensial metodi yordamida sub’ektiv semantik fazosini tashkil etishdan iborat.

Metodika haqida. “Semantik differensial” (SD) metod semantikaning eksperimental metodi bo‘lib, sub’ektiv semantik fazoni tashkil etishda foydalaniladi. SD texnikasi sinaluvchilar tomonidan tushunchalar interpretatsiyasidagi farqni o‘lchashda qo‘llaniladi. Bunda ma’lum shaxs, predmet yoki voqelik tekshirilayotgan individ uchun hayoti davomida orttirgan noyob (unikal) ma’nosi nazarda tutiladi.

Mazkur metod 1952 yilda Ch. Osgud boshchiligidagi bir guruh amerikalik psixologlar tomonidan sinesteziya mexanizmlarini tadqiq etishda ishlab chiqilgan. Ayniqsa, inson xulqi, idroki, sotsial ustanovka va shaxsning tushunchalari tahlili tadqiqotlarida keng foydalanilgan. Ushbu metodika psixologiya, sotsiologiya, ommaviy kommunikatsiya nazariyalari, reklama va estetikada keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ch. Osgudning fikricha, SD metodikasi konnotativ (so‘z bilan ham ohaong keluvchi, o‘ziga xos emotsional tus beruvchi mazmun. Masalan, solishtiring: yuz, aft, angor, bashara, bet, turq, tarovvat) mazmunni o‘lchashga imkoniyat beradi. Konnotativ mazmunga eng yaqin

tushuncha sifatida sub'kutning shaxsiy tushunchasini qayd etish mumkin.

Ch. Osgud va uning hamkasblari mazkur metodikani ishlab chiqish va turli xil sohalarda qo'llash tufayli odamlarning bahosini belgilab beruvchi umumiy mezonni aniqlashdi. Bu mezon uch omildan tashkil topgan bo'lib, o'rganilayotgan ob'ektning emotsional jihatdan mazmunini belgilab beradi.

Uch omil (baho, kuchi, faolligi) ning har biri inson idrokining alohida jihatlarini aks ettiruvchi o'zaro bog'liq bo'lgan shkalalar majmuasida namoyon bo'ladi.

Baholash omilida eng ko'p qo'llaniluvchi shkalalar quyidagilar: "yaxshi-yomon", "yorug'-qorong'u", "toza-iflos" va hokazolar.

Kuch omilini ifodalashda keng qo'llaniladigan shkalalar: "kuchli-zaif", "og'ir-yengil", "qattiq-yumshoq".

Faollik omilini aniqlashda foydalaniladigan shkalalar: "faol-sust", "tez-sekin", "issiq-sovuq".

SD metodikasining mohiyati quyidagilardan iborat. Tadqiq etilayotgan ob'ekt sifatida gavdalanuvchi so'z, tushuncha, verbal yoki noverbal shakldagi timsolning ahamiyati yoki bahosi o'zaro ziddiyatli qutblarga ega shkalalarda qayd etiladi. Shkalaning qarama-qarshi qutblari o'rtasidagi ko'rsatkichlar o'rtacha (nol) dan to u yoki bu qutbning qarama-qarshi cho'qqilarigacha bo'lgan masofa bitta maydonni tashkil etadi. Bunda SD ma'lum assotsiatsiyalar metodi va shkalalashtirish jarayonining o'zaro uyg'unlashuvidir. SD shkalasida tushunchani baholash semantik fazoda uning o'rnini belgilashda xizmat qiladi. Belgilangan nuqta ikki asosiy ko'rsatkich bilan tavsiflanadi: yo'nalganligi koordinata o'qi boshidan shkalaning neytral pozitsiyasidan (sifat ko'rsatkichi; belgi, ko'rsatkichning qutblashganligi); koordinata o'qidan uzoqligi (miqdoriy tavsif, intensivlik, shiddat). SF (semantik fazo) neytral pozitsiyasidan qanchalik uzoq vektorga ega bo'lsa, reaksiya shunchalik intensiv, sinaluvchi uchun baholanayotgan tushuncha ahamiyati shunchalik katta bo'ladi. SD metodikasi orqali olingan miqdoriy natijalar tadqiq etilayotgan tushuncha bo'yicha semantik profil ko'rinishiga keltiriladi: sinaluvchi shkalalarda belgilangan

nuqtalar siniq chiziq sifatida birlashtiriladi. Semantik profil kompleksi baholanayotgan tushunchasini tavsiflaydi.

SD psixosemantik xususiyatlar, turli xil ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish bilan qatorda o'zini o'zi baholashni tadqiq etishda foydalaniladi. Sinaluvchining individual SF si, o'zini o'zi baholashi va boshqa xususiyatlarni SD metodikasi yordamida tadqiq etish ma'lum xususiyatlarni oddiy shkalalashtirishga qaraganda qulayroq. Ushyu metodika ko'magida individual tushuncha, baho va munosabatlar strukturasini "yashirin" tadqiq etish imkoniyatlari yuqori. Ob'ektni tavsiflovchi shkalalar to'plami yordamida o'zini o'zi baholashning nozik va qaltis jihatlarini ochib berishi mumkin bo'lgan qo'shimcha o'qlar kiritish imkoniyatini beradi.

Mazkur laboratoriya mashg'ulotida talabalar nutqni tadqiq etishda semantik differensial metodi yordamida ikkita topshiriqni bajarishlari zarur bo'ladi.

Topshiriq № 1. So'zning semantik va talaffuzi muvofiqligini tadqiq etish.

Tadqiqotning maqsadi: so'zning mazmuni va uning talaffuzi o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlash orqali semantik fazoni hosil qilish.

Kerakli jihozlar. Sinaluvchi baholashi uchun sub'ektiv shkalalar ro'yxati, ikki ro'yxatdan iborat so'zlar majmuasi (o'zbek tili va chet tilida). Turli rangli ruchkalar.

Sinaluvchiga ko'rsatma. Sinaluvchi ikki ro'yxatdan iborat so'zlar majmuasi bilan ishlaydi. Birinchi ro'yxatda chet tilidagi so'zlar, ikkinchisida esa o'zbek tilidagi so'zlar keltirilgan. So'zlar erkin tartibda beriladi. Eng asosiysi sinaluvchi tadqiqotga qadar o'zbek tilidagi ekvivalent so'zlar bilan tanish bo'lmasligi darkor.

Tadqiqot quyidagicha o'tkaziladi. Sinaluvchi so'zni o'qiydi va uni 12 ta shkalalarda ketma-ket baholaydi. Har bir shkala qarama-qarshi (antonim) qutbli 7 ta bo'limdan iborat. Keyin sinaluvchidan har bir so'zni shkalalashtirish iltimos qilinadi.

Chet tilidagi so'zlar bilan ishlaganda sinaluvchi o'zbek tilidagi shunday talaffuzga ega bo'lgan so'zlarni tanlamasligini ta'minlash zarur.

Sinaluvchi soʻzning talaffuziga asoslanib, bevosita taassurotlariga tayanib ularni tez baholashi zarur boʻladi.

Sinaluvchiga koʻrsatma. “Sizga chet tili va oʻzbek tilida ikkita soʻzlar roʻyxati beriladi. Har bir soʻzni 12 ta shkalalar boʻyicha baholashingiz lozim. Har bir soʻzning bahosi bevosita uning talaffuzi asosida sizda hosil boʻlgan taassurot bilan muvofiq boʻlishi kerak. Soʻzlar sizga erkin tartibda taqdim etiladi. Chet tilidagi soʻzlar sizga notanish boʻladi. Siz bu soʻzlarga mos oʻzbek tilidagi soʻzlarni tanlashga urinmang. Siz tez ishlashingiz darkor. Blankni toʻldirishda turli xil rangli ruchkalardan foydalanish kerak”.

28-Jadval

No	Baholash shkalalari								
1	Baland	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Past
2	Qari	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Yosh
3	Keng	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Tor
4	Harakatli	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Harakatsiz
5	Issiq	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Sovuq
6	Qorong‘u	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Yorug‘
7	Yumshoq	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Qattiq
8	Yoqimli	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Yoqimsiz
9	Silliqlik	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	G‘adir-budir (notekis)
10	Yaqin	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Uzoq
11	Ezgu	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Yovuz
12	Yuqori	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	Sekin

“Soʻzning semantik va talaffuz muvofiqligini baholashni tadqiq etish” metodikasi uchun soʻzlar roʻyxati

Sivodash	Xaqorat
Farkash	Boʻri
Xomali	Zulmat
Chillagni	Yogʻdu
Kacha	Oʻrdak
Exsheg	Ochlik

Batorsag Jasorat
Xatalom Kuch
Nefeleych Bo'tako'z

Natijalarni qayta ishlash. Har bir so'zning har bir shkala bo'yicha guruhdagi o'rtacha ko'rsatkichi hisoblab chiqiladi. Olingan natijalar "juft" so'zlar (chet tili va o'zbek tilidagi so'zlar) shaklida jadvalga kiritiladi.

29-Jadval

Olingan natijalarning sifat va miqdor tahlili

So'zlar	Shkala nomeri												Qaydlar
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	

Olingan natijalarga muvofiq har bir so'z uchun profil chiziladi. Buning uchun har bir baho shkaladagi nuqta (ko'rsatkich) sifatida ifodalanadi va mazkur nuqtalar umumiy chiziq bilan birlashtirilib "Profil" hosil qilinadi.

O'zbek tilidagi so'zlar bilan chet tilidagi so'zlar profilini, bitta so'zning har xil sinaluvchilaridagi profilini taqqoslang.

O'zbek tilidagi so'zning mazmuni, semantikasi hamda uning chet tilidagi talaffuzi o'rtasida sub'ektiv o'xshashlik tahlilini amalga oshiring.

Semantik differensialning ko'rsatkichini quyidagi formulaga ko'ra

toping:
$$Dxy = \sqrt{\sum_{i=1}^n d^2(x_i, y_i)}$$

Bunda D – n shkalasi bo'yicha x va u ob'ektlari o'rtasidagi tafovut darajasini ifodalovchi differensial kattalikdir; d – x va u ob'ektlarining i shkalasi bo'yicha o'rtacha farqi.

Olingan natijalarga ko'ra xulosalar chiqaring. Differensial kattaligi musbat bo'lib, u qanchalik nolga yaqin bo'lsa, solishtirilayotgan ob'ektlar o'rtasidagi o'xshashlik shunchalik yuqori bo'ladi.

TEST SAVOLLARI

1. Kishilarning psixologik xususiyatlarini standart laboratoriya sharoitida, turli tadqiqot uskunalaridan foydalanib o'rganish metodi:

- a) Eksperiment
- b) Test
- s) Kuzatish
- d) Anketa

2. Psixologiya fanining....metodi jarayonida tadqiqotchi tajriba borishini boshqarish, o'zgartirishlar kiritish orqali standartlashgan natijalar olish imkoniyatiga ega.

- a) Eksperiment
- b) Kuzatish
- s) Anketa
- d) Test

3. Kishining psixologik xususiyatlarini maxsus tuzilgan savollarni o'z ichiga savolnomalar yordamida o'rganish?

- a) Anketa
- b) eksperiment
- s) Test
- d) Kuzatish

4. Savollarga ularning javob variantlari berilgan anketalar qanday tipdagi anketalar deyiladi?

- a) yopiq tipdagi
- b) Ochiq tipdagi
- s) test tipdagi
- d) Yarim ochiq

5. Shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, individual xususiyatlarning rivojlanganlik darajasini o'rganish metodi.

- a) Bilimni baholash

- b) Eksperiment
- s) Test
- d) Anketa

6. Kishining aqliy rivojlanish darajasini o'rganish uchun qo'llaniladigan testlar qanday testlar deyiladi?

- a) Intellekt testlari
- b) shaxsni kuzatish testlari
- s) rasml testlar
- d) Projektiv testlar

7. Bu metod orqali sun'iy tushunchalarni shakllanishi, nutq o'sishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsni xis-tuyg'ulari, xarakteri tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu qaysi metod?

- a) Tajriba metodi
- b) Suhbat metodi
- s) Test metodi
- d) Sotsiometriya metodi

8. Sotsiometrik metodga qaysi amerikalik sotsiolog asos solgan

- a) Djon Morenko
- b) A.F.Lazurskiy
- s) E. Dyurkgeym
- d) P. Xoni

9. Test metodi birinchi bor kim tomonidan nechanchi yilda fanga kiritilgan?

- a) 1905-yil A.Bine va uning shogirdlari tomonidan
- b) 1937-yil J. Russo
- s) 1923-yil S.Freyd tamonidan
- d) 1805-yil A.Kent va uning shogirdlari tomonidan

10. Psixologiyada test metodini qaysi olimlar kashf qilgan?

- a) A.Bine, A. Simon
- b) V.Shtern
- s) A.N.Gvozdev, V.Shtern
- d) I.A. Menchinskaya

11. Inson psixikasini ommaviy so'rov asosida o'rganish qaysi metod orqali olib boriladi

- a) Anketa
- b) Eksperiment
- s) Kompleks
- d) Test

12. Psixik xususiyatlarni tabiiy sharoitda yoki maxsus yaratilgan sharoitda o'rganiladigan metod qanday nomlanadi?

- a) Eksperiment
- b) Test
- s) Longityud
- d) Anketa

13. Pedagogik psixologiyada qo'llaniladigan metodlarni tashkiliy, empirik, interpretatsiya va natijalarni kayta ishlash guruxlariga bulib urgangan olim:

- a) Ananev B.
- b) Toshimov R.
- s) G'oziev E.
- d) Freyd Z

14. Psixologiya metodlari:

- a) Kuzatish, eksperiment, sotsiometriya, testlar, anketalar, suxbat faoliyat samaralarini o'rganish
- b) Kuzatish, ma'lumotlarni matematik qayta ishlab chiqish, taxminlar, faktlarni tushuntirib berish.
- s) Odam psixikasi xaqida ma'lumotlar to'plash
- d) Odam va xayvon psixikasini o'rganish usullari

15. Psixologik testlar:

- a) Inson psixikasining sifatlari, qobiliyatlari va shaxsning taraqqiyot darajasini aniqlab beradigan standartlashtirilgan topshiriqlar to‘plami
- b) Tekshiruvchilarnin masala yechish, vazifalarini bajarishini kuzatish
- s) Psixik xodisalarni tushuntirib teruvchi usullar majmuidir
- d) Odam psixikasini o‘rganishdagi vazifalar to‘plami

16.Sotsiometriya metodini kim kashf etgan?

- a) J. Moreno
- b) Z. Freyd
- s) I. Pavlov
- d) A. Peron

17. Testning ishonchliligi.... deyiladi.

- a) tekshiriluvchilarni o‘rganadigan xususiyati bo‘yicha rivojlanganlik darajasini differensiatsiyalash
- b) metodikalarning validligi
- s) axborotlarni xatoliklardan saqlash
- d) testlarni moslashtirish jarayonida xatolarni yo‘qotish

18. Psixodiagnostikada qabul qilingan IQ shkalasining o‘rtacha qiymati...ga teng

- a) 100
- b) 50
- s) 115
- d) 10

19.Shaxsning ijodiy qobiliyatlarini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Nuqtalar o‘rniga mos tushunchani qo‘ying.

- a) kreativlik testlari
- b) shaxslik testlari
- s) intellekt testlari
- d) tezlik tnmtlari

20. Rorshax va TAT testlari ... mansubdir. Nuqtalar o'rniga mos tushunchani qo'ying.

- a) proektiv metolikalarga
- b) rasml testlarga
- s) intellekt testlariga
- d) kreativ testlarga

21. Bir guruh test topshiriqlarini bitta psixodiagnostik metodikaga birlashtirish va murakkab psixologik konstruktarni o'lchashga yo'naltirilishiga ...deyiladi testlarni. Nuqtalar o'rniga mos tushunchani qo'ying.

- a) test batareyasi
- b) testlarning qismi
- s) test bo'limi
- d) test rotasi

22. O'zida savolnomalar ko'rinishidagi topshiriqlarni aks ettiruvchi psixodiagnostik metodikalar guruhiga... deyiladi.

- a) So'rovnomalar
- b) amaliy testlar
- s) rasml testlar
- d) apparaturali testlar

23. Testning asosiy maqsadi...iborat.

- a) tekshiriluvchining ma'lum psixologik xususiyatlarini diagnostika qilishdan
- b) tekshiriluvchi shaxsi bilan oldindan tanishdan.
- s) ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyasiyani topishdan
- d) tekshiriluvchida ma'lum xususiyatlarni shakllantirishdan

24. Tekshiriluvchining manfaatlarini ta'minlash maqsadida psixolog-diagnost faoliyatini belgilovchi normalar, prinsiplar majmuiga...deyiladi.

- a) psixodiagnostikaning etikaviy normalari

- b) psixodiagnostikaning asosiy qoidalari
- s) psixodiagnostikaning huquqiy normalari
- d) psixodiagnostikaning texnik normalari

25. Testlashtirish jarayonida tekshiriluvchi foydalanadigan psixologik testlarning topshiriqlarida aks ettiriluvchi simvollar, ranglar, soʻz, ovoz va ularning har xil aniqlikda ifodalanishi bilan bogʻliq jonli va jonsiz obʻektlarga nima deyiladi?

- a) stimulyer materiallari
- b) yangi materiallar
- s) yordamchi materiallar
- d) rostlovchi materiallar

26. Psixodiagnostik tekshiruvlar .. boshlanadi Nuqtalar oʻrniga kerakli mulohazani qoʻying.

- a) maqsad qoʻyish bilan
- b) metodiklar tanlash bilan
- s) vaqt va xarajatlarni hisoblash bilan.
- d) testlashtirish sharoitlarini yaratish bilan

27. Hamkorlikdagi faoliyatni va muloqotni amalga oshirishda sheriklarning tanlash ...amalga oshiriladi. Nuqtalar oʻrniga mos javobning qoʻying.

- a) sotsiometriya metodida
- b) subʻektiv shkalalashtirishda
- s) birgalikda kuzatishda
- d) repertuar panjara texnikasida

28. Suhbatning diagnostik metod sifatidagi samardorligi ...bogʻliqdir.

- a) psixologning kasbiy kompetenligiga
- b) psixologning kuzatuvchanlik va refleksiyasiga
- s) tekshiriluvchining jinsi va yoshiga
- d) psixologning shaxsiy xususiyatlarga

29. Zamonaviy psixologiya quyidagilardan qaysi biri qo'llaniladi ?

- a) Grafologiya
- b) Frenologiya
- s) Fiziognomika
- d) Xiromantiya

**30. Anketalar yoki intervyu savollariga javob beruvchi shaxs:...
Nuqtalar o'rniga mos tushunchani qo'ying.**

- a) Respondent
- b) O'rganiluvchi
- s) Tekshiriluvchi
- d) Klient

31. Kreativlik...ifodalamaydi. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.

- a) tafakkurning egiluvchanligini
- b) muammoga sezgirlikni
- s) fantaziyani
- d) originallikni

32. Testning o'tkazish tartibi va bahosini yagona normaga keltirish, unifikatsiyalash va qat'iy belgilash tartibideb ataladi. Nuqtalar o'rniga zarur tushunchani qo'ying.

- a) Standartlashtirish
- b) Shakllantirish
- s) Me'yorlashtirish
- d) Validlashtirish

33. Testning normasi ...ifodalaydi. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'yining.

- a) ma'lum guruh tekshiriluvchilar uchun xarakterli sifatlarni o'lchashdagi qiymatlarning o'rtacha diapazonini
- b) testning ma'lum qoidalar asosida o'rganish xususiyatlarini

- s) 50 foiz tekshiriluvchilar echa olgan topshiriqlarni
- d) metodikaning ma'lum darajada psixik xususiyatlarni o'lchash qobiliyatini

34. Test jarayonidagi bezovtalanish –bu.... iborat. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.

- a) test vaziyatidagi tekshiriluvchining reaksiyasidan
- b) test natijalarini taqdim etish oldi tekshiriluvchining reaksiyasidan
- s) test o'tkazish vaqtidagi psixolog bo'lmagan mutaxassisning reaksiyasidan
- d) tekshiriulvchining bezovtalik darajasini o'lchashdan

35. Tekshiriluvchilarning jins, yosh, salomatlik holati, ma'lumotlik darajasi va ta'lim turi, metodika tuzilgan tilning bilishi, millati, e'tiqodi, kasbiy guruhga mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi va yashash joyi e'tibor qaratish nima uchun kerak?

- a) diagnoz qilinadigan populyasiyani aniqlashtirish
- b) metodikalarning foydalanish sohalarini aniqlash
- s) psixodiagnostik metodikalarning predmetli yo'nalishi
- d) topshiriqlar miqdorini aniqlash

36. Qiyofa psixodiagnostikasida shaxsni konstitutsional dispozitsiyaga tayanib o'rganish mohiyatida nima yotadi?

- a) Temperament
- b) Emotsiya
- s) Qobiliyatlar
- d) Xarakter

37. Qiyofa psixodiagnostikasida shaxsni sotsial (ijtimoiy) dispozitsiyaga tayanib o'rganish mohiyatida nima yotadi?

- a) Xarakter
- b) temperament.
- s) Motivatsiya
- d) Munosabat

38. G. Rorshax quyidagi metodikalardan qaysi birining muallifi?

- a) “Siyoh dog‘lari”
- b) SMIL
- s) TAT
- d) Tugallanmagan jumlar metodikasi

39. Dj. Moreno qaysi metodga asos soldi?

- a) Sotsiometriya
- b) Tugallanmagan jumlar metodikasi
- s) “Siyoh dog‘lari”
- d) TAT

40. TAT metodikasining muallifi kim?

- a) G.Merrey
- b) K.Yung
- s) Dj.L.Moreno
- d) G. Rorshax

41. Psixodiagnostikada ideografik yodashuvlardan foydalanadi.

- a) proektiv texnikalar
- b) standartlashtirilgan o‘lchash metodlari
- s) testlar
- d) savolnomalar

42. Psixodiagnostikada nomotetik yondashuv, ya’ni ...qo‘llaniladi.Nuqtalar o‘rniga zarur javobni qo‘ying.

- a) standartlashtirilgan o‘lchash metodlari
- b) proektiv texnikalar
- s) testlar
- d) savolnomalar

43. Proektiv metodikalarni qo‘llash vaqtida qanday psixologik mexanizm kuzatiladi?

- a) Proeksiya
- b) sotsial ingibitsiya
- s) siqib chiqarish
- d) sotsial fasilitatsiya

44. Psixologik testtoifasiga mansub.

- a) standartlashtirilgan metodlar
- b) dialogik texnika
- s) javobli topshiriqlar
- d) proektiv metodlar

45. Uy, daraxt, odam testi qanday toifa testlar sarasiga kiradi?

- a) Proektiv test
- b) Intellektual testlar.
- s) Perseptiv test.
- d) Shaxs so'rovnomasi.

46. Uy, daraxt, odam testi dastlab qanday tartibda tadqiqotchilarda tatbiq etilgan?

- a) har bir rasmni alohida varaqqa chizish taklif etilgan.
- b) har bir rasm uchun yordamchi rasm ham chizish talab etilgan
- s) har bir rasm uchun izohlash talab etilgan
- d) har bir rasm ikki nusxada chizilish talab etilgan

47. Uy, daraxt, odam testi hozirgi kunda qanday tartibda tekshiriluvchilarda tatbiq etish taklif etiladi?

- a) barcha rasmlarni bir varaqqa chizish taklif etiladi
- b) Barcha rasmlar ranglar bilan tasvirlash taklif etiladi
- s) aniq talabga ega emas
- d) Test oldingi taklif etilgani singari, bugungi kunda tatbiq etish mumkin

48. Proektiv metodikalarga kiruvchi testlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) «Siyoh dog'lari», «Sondi testi», TAT, Daraxt, uy odam.

- b) «Siyoh dog‘lari», «Sondi testi», Shvarslander testi, Daraxt, uy odam.
- s) «Siyoh dog‘lari», Kettell testi, TAT, Daraxt, uy odam.
- d) A.Bine testi, «Sondi testi», TAT, Daraxt, uy, odam.

49. Sotsiometriya metodida sotsiometrik matritsa nima vazifani bajaradi?

- a) natijalarni umumilashtirish
- b) tekshtiriluvchining metodga munosabatini
- s) tekshiriluvchining faolligini aniqlash
- d) natijalarni qiyoslash

50. Ya.Strelyau metodikasi qanday konsepsiyaga asoslanadi?

- a) Psixofiziologik
- b) Biologik
- s) Psixologik
- d) Fiziologik

51. Shaxslik so‘rovnomalarida, nima uchun nazorat shkalalaridan foydalaniladi?

- a) so‘rovnomalarning haqqoniyligini ta‘minlash uchun
- b) so‘rovnomalarning murakkablik darajasini belgilash uchun
- s) so‘rovnoma savollarini tez tushunish uchun
- d) so‘rovnomalarning ahamiyatini oshirish uchun

52. Eksperimentda har qanday tashqi kuzatish ning ishtirok etuvchi faktori...deyiladi?

- a) sotsial fasilitatsiya
- b) oreol
- s) xottorn
- d) plasebo

53. Psixologiyada ilk bor faktorli tahlilni qo‘llagan olim...hisoblanadi?

- a) R. Kettell

- b) L. Terstoun
- s) K. Spirmen
- d) Dj. Kelli

54. “Tematik appersepsiya testi” proektiv metodiklarning qaysi turiga mansub?

- a) Interpretatsion
- b) Konstitutsiyaviy
- s) Ekspressiv
- d) Katartistik

55. Tekshiruv natijalarini sir saqlanishi va ulardan tegishli shaxslar (psixologlar, pedagoglar, ota-onalar) foydalanishi zarurligini ifodalanishi... tamoyiliga xosdir?

- a) konfidensiallik.
- b) kasbiy sirlarni saqlash
- s) kasbiy mas’uliyatlilik
- d) haqqoniylik

56. A.Belov tomonidan tavsiflangan temperament “pasporti”ga ko‘ra sabrsiz, hovliqma; engiltabiat, serjahl; betoqat; odamlar bilan munosabatda keskin va rostgo‘y; qat’iyatli va tashabbuskor; qaysarlik qaysi temperament tipiga xos xususiyat hisoblanadi?

- a) Xolerik
- b) Sangvinik
- s) Melanxolik
- d) Flegmatik

57. «Yekologik validlik» ko‘pincha validlikning qaysi tushunchasiga sinonim qo‘llaniladi?

- a) Tashqi
- b) Konstrukt
- s) Ichki
- d) Operatsional

58. G.Yu.Ayzenkning shaxs so'rovnomasida yolg'on shkalasi mavjud, u nimani o'rganishga qaratilgan?

- a) Tekshiriluvchining test savollariga ob'ektiv va samimiy javob berganligini aniqlash uchun.
- b) Test savollarini to'g'ri yoki noto'g'ri tuzilganligini aniqlash uchun
- s) Tekshiriluvchilarni yolg'onchiligini aniqlash uchun
- d) Test savollarini yolg'on tuzilganligini aniqlash uchun

59. Strelyauning «Temperamentni o'rganish» testidagi savollar hajmi va ularning test shkalalari bo'yicha ulushi qanday?

- a) 134 savoldan iborat, birinchi shkalada 45, ikkinchi shkalada 44 va uchinchi shkalada 45 ta
- b) 94 ta savoldan iborat, birinchi shkalada 35, ikkinchi shkalada 30 va uchinchi shkalada 29 ta.
- s) 174 ta savoldan iborat, birinchi shkalada 65, ikkinchi shkalada 64 va uchinchi shkalada 45 ta
- d) 105 ta savoldan iborat birinchi shkalada 35, ikkinchi shkalada 45 va uchinchi shkalada 25 ta.

60. G.Yu.Ayzenkning «ekstraversiya-introversiya va nevrotizmni o'rganish» shaxs so'rovnomasining ishonchligini aniqlashda, testlar ishonchliligini aniqlashning qanday qoidasiga amal qilish ma'qulroq?

- a) Testlarning ekvivalent shakllaridan foydalanish.
- b) Boshqa testlarning natijalar bilan taqqoslash orqali
- s) Retest o'tkazish orqali.
- d) Juft va toq savollarning natijalarini taqqoslash orqali.

61. Qanday metodikalar insonning o'zi to'g'risida standartlashtirilgan hisobot berish shakliga asoslangan?

- a) shaxsni o'rganish so'rovnomalari
- b) harakat testi
- s) qisqa tanlov testi

d) intellekt testlari

62. Shakllantirilgan diagnostik metodikalarni aniqlang

a) testlar, so'rovnomalar, proektiv texnika metodikalari

b) testlar, so'rovnomalar, kuzatish metodikalari

s) proektiv texnika metodikalari, testlar, faoliyat natijalarini tahlil etish metodikalari

d) kuzatish, suhbat, proektiv texnika metodikalari

63. Keltirilgan metodiklardan qaysi bir shaxsni ko'p omilli o'rganish so'rovnomasi hisoblanadi?

a) 16PF

b) Strelyau testi

s) M.Lyusher testi

d) Rorshax testi

64. Testlarning operativlik va tejamkorligi deganda nima tushuniladi?

a) tuzilishi va bajarilish vaqti jihatidan qulayligi.

b) topshiriq variantlari javoblarining xilma-xiligi

s) qisqa vaqt oralig'ida natijalarni aniqlashga egaligi.

d) topshiriq javoblarining kamligi va osonligi.

65. Testlarning ishonchliligi deganda, nima tushuniladi?

a) test topshiriqlarining ichki muvofiqlik darajasiga egaligi

b) testning mo'ljallangan xususiyatni o'rganish imkoniyatiga egaligi

s) testlarning bir necha javob variantlariga egaligi.

d) testlarning aniq javoblarga egaligi.

66. Testlarning qanday validlik turlari mavjud?

a) konseptual, empirik, konkret, prognostik

b) reprezentativ, konstruktiv, kompleks

s) bir o'lchamli, ko'p o'lchamli, soxta

d) sodda, murakkab, aniq, noaniq

67. Testlarning shakliga ko‘ra turini toping?

- a) individual testlar
- b) qobiliyat testlari
- s) anketa-so‘rovnoma
- d) intellekt testlari

68. Testlarning shakliga ko‘ra turini toping?

- a) guruhliy testlar
- b) intellekt testlari.
- s) qobiliyat testlari
- d) anketa-so‘rovnoma

69. Testlarning shakliga ko‘ra turini toping?

- a) og‘zaki testlar
- b) qobiliyat testlari
- s) proektiv testlari
- d) intellekt testlari.

70. Testlarning shakliga ko‘ra turini toping?

- a) yozma testlar
- b) intellekt o‘lchash testi
- s) shaxs so‘rovnomalari
- d) erishganlik testi

71. Testlarning shakliga ko‘ra turini toping?

- a) verbal testlar
- b) intellekt testlari.
- s) proektiv testlari
- d) psixofiziologik testlar

72. Testlarning shakliga ko‘ra turini toping?

- a) noverbal testlar
- b) proektiv testlari
- s) qobiliyat testlari

d) intellekt testlari

73. Qobiliyatni o'rganish testlari qanday test turiga mansub ?

- a) mazmuniga ko'ra ajratilgan test turi
- b) psixofiziologik test turi
- s) chala shakllangan test turi
- d) shakliga ko'ra ajratilgan test turi

74. Testlarning mazmuniga ko'ra turlarini:

- a) intellekt, qobiliyat va shaxslilik testlari
- b) verbal, noverbal, og'zaki va yozma testlar
- s) verbal, noverbal, guruhliy testlar.
- d) guruhliy, individual, verbal testlar

75. Qobiliyat testlari nimani baholaydi ?

- a) individning sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatini baholashga mo'ljallangan testlar
- b) shaxsning emotsional-irodaviy sohasini o'rganish testlari
- s) shaxsning tug'ma qobiliyati va qobiliyat kurtakchalarini o'rganish testlari
- d) shaxsning biror narsani bajara olish imkoniyatini baholashga mo'ljallangan testlar

76. Shaxslilik testlari nimani baholaydi ?

- a) shaxsning psixik faoliyati emotsional-irodaviy komponentlarini
- b) shaxsning ma'naviy-axloqiy va madaniy shakllanganlik darajasini
- s) shaxsning motivatsiyasini
- d) shaxsning qiziqishlarini

77.To'g'ri va noto'g'ri javob variantlaridan iborat test turini toping:

- a) qobiliyat testi
- b) qisqa tanlov testi
- s) vaziyatli testi

d) harakat testi

78. To'g'ri va noto'g'ri javob variantlaridan iborat test turini toping:

a) intellekt testlari

b) vaziyatli testi

s) harakat testi

d) shaxslilik testi

79. Sotsiometriya metodikasi natijalarini tahlil etishda qanday indekslarni aniqlash lozim bo'ladi?

a) sotsial indeks, emotsional ekspansivlik, guruhning emotsional ekspansivligi indekslari

b) sotsiogramma, psixogramma va sotsiomatritsa indekslari

s) hech qanday indeks aniqlanmaydi.

d) sotsial uyushqoqlik, sotsial muhit, sotsial hamkorlik indekslari

80. «Oila rasmi» metodikasi umumiy psixodiagnostikaning qaysi yo'nalishidagi muammolarni o'rganishga qaratilgan?

a) shaxslararo munosabat psixodiagnostikasi

b) o'z-o'zini anglash psixodiagnostikasi

s) individual ong psixodiagnostikasi.

d) motivatsiya psixodiagnostikasi.

81. Ya.Strelyau metodikasi qanday shkalalardan tashkil topgan?

a) qo'zg'alish kuchi, tormozlanish kuchi, harakatchanlik.

b) aniqlik, puxtalik, tezkorlik

s) temp, rigidlik, agressivlik

d) ekstraversiya, introversiya, nevrotizm

82. Qaysi toifa metodikalarni standart normaga solish qiyinchilik tug'diradi?

a) proektiv testlar.

b) motivatsiyani o'rganish testlari.

s) intellektual testlar.

d) shaxs so'rovnomalari.

83. Standartlashtirish - bu...: nuqtalar o'rniga zarur javobni qo'ying.

- a) testni unifikatsiyalash jarayonini va baholarini yagona me'yorlarga keltirishdir
- b) testlarning yo'riqnomalarini ishlab chiqish talablari majmui
- s) test topshiriqlarining mazmunini bir xillashtirish tamoyillaridir
- d) testlarni mazmunini bir xillashtirish tamoyillaridir

84. Uzoq vaqt davomida qandaydir belgi orasidagi farqlarni taqqoslashga asoslanagan tadqiqot metodi-deb ataladi? Nuqtalar o'rniga zarur tushunchani qo'ying.

- a) longityud metod
- b) kompleks metod
- s) strukturali metod
- d) genetik metod

85. Test so'zi ingliz tilida tarjima qilingandaangalatadi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.

- a) Sinov
- b) So'rov
- s) O'rganish
- d) Diagnostika

86. «Diagnostika» (diagnosis grekcha so'z)ma'noni anglatadi.

- a) Aniqlash
- b) Ehtiyoj
- s) Taxminlash
- d) Forig'lanish

87. G.Yu.Ayzenk metodikasining qaysi shkalasi shaxsning asab tizimi xususiyatlarini belgilaydi?

- a) Nevrotizm
- b) ekstraversiya-introversiya

- s) Asotsiallik
- d) Yolg'on

88. T.Liri metodikasi umumiy psixodiagnostikaning qaysi yo'nalishidagi metodikalar toifasiga kiradi?

- a) Shaxslararo munosabat.
- b) Shaxsning o'z-o'zini baholash.
- s) Faoliyat motivatsiyasini o'rganish.
- d) Shaxsning intellekti diagnostikasi.

89. Testning mo'ljallangan xususiyatni o'rganish imkoniyatiga egaligi nima deb ataladi?

- a) Testlarning validligi.
- b) Testlarning ishonchliligi.
- s) Test topshiriqlarining ichki muvofiqlik darajasi
- d) Testlarning aniq javoblarga egaligi.

90. M.Lyusher ...muallifi sanaladi.

- a) Rang testi
- b) Uy, odam daraxt
- s) TAT
- d) Piktogramma

91. Tashkil etish usuliga ko'ra eksperiment ... turlarga ega.

- a) laboratoriya, tabiiy, dala;
- b) ideal, real, eksperiment
- s) shakllantiruvchi, aniqlovchi
- d) Izlovchi, tasdiqlovchi, pilotaj

92. Rozensveygning testi ...toifasiga kiradi.

- a) proektiv metodlar
- b) o'z-o'zini baholash
- s) shaxs so'rovnomasi
- d) intellekt testlari

93. Gaplarni, hikoyalarni, tarixni, vaziyatlarni yakunlashga asoslanuvchi metodikalar ...proektiv metodikalar.deb nomlanadi.

- a) Additiv
- b) Interpretatsion
- s) Ekspressiv
- d) Semantik

94. Qaysi proektiv metodikalarga bir stimulni boshqasidan ustun qo'yishi xususiyati xos

- a) Impressiv
- b) semantik
- s) ekspressiv
- d) interpretatsion

95. ...proektiv metodiklarda erkin yoki tavsiya etilgan mavzu bo'yicha rasm chizish tamoyiliga asoslaniladi. Nuqtalar o'rniga zarur tushunchani qo'ying.

- a) Ekspressiv
- b) Interpretatsion
- s) Impressiv
- d) Semantik

96. ... proektiv metodiklarda biror bitta voqea, hodisalarni talqin etish tamoyiliga asoslaniladi. Nuqtalar o'rniga zarur tushunchani qo'ying.

- a) Interpretatsion
- b) Impressiv
- s) Semantik
- d) Ekspressiv

97. Shaxslarni o‘zaro bir-birini tanlashlari asosida shaxslararo munosabat xarakteri va tuzilishi tadqiq etish usuli nima deb nomlanadi?

- a) Sotsiometriya
- b) kontent-analiz
- s) qiyosiy metod
- d) sotsial birliklar metodi

98. Psixodiagnostikaning asosiy qo‘llanilish sohalari ... iborat.

- a) boshqaruv, kadrlarni saralash va tanlash proforientatsiyadan
- b) murakkab xulqli bolalarni o‘rganishdan
- s) rivojlanishdan ortda qolganlarni diagnostikasidan
- d) sotsial xulq-atovrni prognozlashtirishdan

99. Temperament psixikaning qaysi jihatiga taalluqli?

- a) Xususiyat
- b) Holat
- s) Tuzilma
- d) Jarayon

100. Psixologiyada testlarning asosiy turi ...hisoblanadi.

- a) test-so‘rovnoma
- b) test-topshiriq
- s) bilim testlari
- d) Proektiv test

GLOSSARIY

Adaptasiya (lot. Adaptare moslashtirmoq) - sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi.

Analiz – bir butun predmet va hodisalarni tarkibiy qismlarga bo'lish.

Assosiatsiya – ongimizdagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlar bog'lanishi.

Absolyut chegara – qo'zg'atuvchining sezgi hosil qiladigan eng yuqori va eng kichik kuchi.

Affektiv nutq – his-hayajon va kechinmalar aks ettirilgan nutq turi.

Diqqat – ongning muayyan ob'yektga yo'naltirilishi va to'planishi.

Dialog – ikki kishining o'rtasidagi nutqiy aloqa jarayoni.

Emperik umumlashma- bu ob'ekt xrdisalarini fakat ularning tashki alomatlarini asosida birlashtirilishidir.

Farq qilish chegarasi – ikkita qo'zg'atuvchi kuchi o'rtasidagi minimal farq.

Fabrikatsiya – ayrim ma'lumotlarni qo'shib tahlil qilish.

Falsifikatsiya – tadqiqot natijalarini soxtalashtirish.

Frenologiya (yunon. phren - ong, logos - ta'limot) - odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o'sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan.

Fenomen (yunon. phainomenon - yuz beruvchi, sodir bo'luvchi) - his-tuyg'ular tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha;

Fiziognomika (yunon. physis - tabiat, gnomon - biluvchi) - insonning tashqi ko'rinishi va uning biror shaxs turiga mansubligi o'rtasidagi qat'iy bog'liqlik.

Geniallik (lot. Genius - aql zakovat, buyuk iste'dod) - shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.

Hukm – predmet va hodisalarga biror belgining xos yoki xos emasligini tasdiqlash.

Idrok – predmet va hodisalarni yaxlit bir butun holda aks ettirish.

Idrokning yaxlitligi – idrok obrazlarining bir butun holda aks ettirilishi.

Idora qilsa bo'ladigan o'zgaruvchilar – bu eksperiment davomida o'zgarmasligi nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar.

Ilmiy faraz- bu xodisa yoki bir-biriga aloqador xodisalar o'rtasidagi qandaydir qonuniyat, sabablar mavjudligi to'g'risida (egallangan bilimlarga asoslangan xolda) bildirilgan taxmindir.

Ilmiy manbalar – ilmiy tadqiqot davomidla murojaat etiladigan rasmiy statusga ega bo'lgan, davlat ro'yhatidan o'tkazilgan manbalar.

Illyuziya – fazodagi ob'yektlarni noto'g'ri idrok qilish.

Ichki nutq – tafakkur bilan bog'liq tashqi nutqdan avval paydo bo'ladigan nutq turi.

Ichki validlik-xakikatan ham kuzatilayotgan effekt eksperimental yondashuvning natijasi.

Kommunikasion qobiliyatlar - kishining boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta'minlaydigan qobiliyat.

Kitob – tadqiq etilayotgan muammoga oid to'liq nazariy va amaliy ma'lumotlar aks etgan rasmiy manba.

Konstantlik – predmetlarning fazodagi vaziyati o'zgargani holda idrok obrazlarining o'zgarmay qolishi.

Layoqat - nerv tiziminnig ba'zi irsiy determinlashgan anatomfiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlarni tarkib toptirish va rivojlanishining dastlabki yakka tug'ma, tabiiy zaminidir.

Mayl - shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, hohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi.

Maqola- ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari aks ettirilgan kichik ilmiy ish.

Mavhumlashtirish – predmet va hodisalarning biror belgisini fikran ajratib olish.

Milliy xarakter (yunon. karakter - xususiyat, belgi) - biror bir millatga xos xususiyatlar.

Milliy stereotip (yunon. Stereos - qattiq typos - iz shakl) - ma'lum illatning obrazi bo'lib, u o'zida o'sha millatga xos shaxs xususiyatlari, madaniyati, xulq - atvorini namoyon qiladi.

Monolog – bir kishining o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi.

Mustaqil o‘zgaruvchilar – eksperiment jarayoniga katta, intensiv ta’sir o‘tkazadigan ko‘rsatkichlardir.

Muammo- bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo‘lgan psixologik hodisa.

Musiqiy qobiliyat - shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari.

Nazariya-ilmiy bilish shakllaridan biri hisoblanib, hodisalar orasidagi mantiqiy bog‘liqlik yoki buning aksini isbotlab beruvchi ichki bilishning nutqiy ifodasidir.

Nazariy umumlashma - bu ob’ektlarni (xodisalarni) ularning muxim bir-biriga o‘xshashlik belgilariga karab, ya’ni mazkur xodisaning uziga xos xususiyatini belgilovchi tomonlariga karab birlashtirilishidir.

Norasmiy manba – konferentsiya tezislarini to‘plami, to‘garaklar, laboratoriya kengashlari, og‘zaki maslahatlar tadqiqotchi guruhi kiradi.

Nutq – kishilar o‘rtasidagi aloqa jarayonida tildan foydalanish.

Predmetlilik – tashqi olamdagi ob’yektlarni uni o‘ziga tenglashtirish.

Psixofizika – psixologiya va fizika oraliq‘ida tashkil topgan umumiy psixologiyani klassik bo‘limlaridan biri.

Psixofizik muammo – psixikaning tabiatdagi o‘rnini aniqlash.

Psixofizik qonun – sezgirlik kuchining qo‘zg‘atuvchining kuchiga bog‘liqligi.

Qobiliyatlar - shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatlar.

Rasmiy manba - psixologiya sohasidagi turli xil kitoblar, ma'lum mavzudagi ma'lumotlarni jamlovchi kitob va maqolalar, texnik hisobotlar, elektron nashrlar, jurnallardagi maqolalar kiradi.

Sintez – alohida tarkibiy qismlarni bir butun qilib birlashtirish.

Tadqiqot predmeti- bu izlanish obekti chegarasidagi narsa.

Tashqi validdlik- eksperimentimiz ijobiy natijaga ega bulgan xolda ham, keng ommaga ko‘llab bo‘lmasligi.

Texnik hisobot - ilmiy ish davlat ayniqsa mudofaa vazirligi tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa qo'llanilib, ularda statistik ma'lumotnomalar ham keltiriladi.

Tafakkur – voqelikdagi predmet va hodisalarni aniq, to'liq, umumlashtirib vositali yo'l bilan aks ettirish usuli.

Taqqoslash – predmet va hodisalar o'rtasidagi o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini aniqlash.

Tushuncha – predmet va hodisalarning umumiy va maxsus belgilarini aks ettirish.

Til – kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi.

Tobe o'zgaruvchilar – bu o'rganilayotgan hodisalarning ko'rsatkichlari bo'lib mustaqil o'zgaruvchilarga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Umumiy iste'dod - kishining qobiliyatlari birligi. Bu shaxsning aqliy (intellektual) imkoniyatlari doirasi bilan faoliyatining o'ziga xosligi darajasini belgilab beradi.

Umumlashtirish – predmet va hodisalarni biror xususiyatiga ko'ra bita tushunchaga birlashtirish.

Xiromantiya (yunon, cher - qo'l, man - fol) - odamning kaftiga qarab uning xarakteri, taqdiri bo'yicha fol ochish.

Xarakter (yunon. karakter - xususiyat, belgi) - kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o'z -o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi.

Xarakter aksentuatsiyasi (yunon. karakter - xususiyat, belgi, lot. accentus – urg'u) - xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi).

Xotira – o'tmish tajribannig esda olib qolinishi, saqlanishi va qayta esga tushirilishidan iborat psixik jarayon.

Xulosa chiqarish – ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukmlar keltirib chiqarish.

Zehn, layoqat - nerv tizimining ba'zi genetik nazariyalari anatomik-fiziologik xususiyati bo'lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug'ma tabiiy zaminidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Андреев О. А. Тренируем свое внимание Серия «Психологический практикум». - Ростов на Д: «Феникс», 2004.
2. Антипов В. В. Психологическая адаптация к экстремальным ситуациям / Обработка управления вниманием. Состояние успешной работы // М.: ВЛАДОС-ПРЕСС. — 2002. — 176 с. ISBN 5-305-00045-9.
3. Abduraxmonov F.R, . Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi. [Matn]: / -T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018, 352 bet ISBN: 978-9943-5517-2-5
4. Анастаси А. Психологическое тестирование. // ТИМ, 2002. –С. 96-162.
5. Atkinson, J. W., & Feather, N. T. A theory of achievement motivation. Huntington, NY: John Wiley and Sons. 1966
6. Аткинсон Р. Человеческая память и процесс обучения - М. 1980.
7. Балин В. Д, Гайда В.К, Горбачевский В.К. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии: Учеб. Пособие\ Под общей пед. А.А. Крилова, С.А. Маничева. – Кпб.: Питер, 2000. -560 с.
8. Богданова Т. Г, Гиппентейдер Ю. Б, Григоренко Э.Л. Экспериментальная психология: Практикум: Учеб. пособие для вузов\ и др.; под пед. К.Д.Смирнова, Т.В.Корниловой. –М.: Аспект Пресс, 2002. -383 с.

9. Davis S.F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology - Blackwell Publishing Ltd, 2003. 515 p.
10. Дружинин В.Н. Экспериментальная психология. – 2-е изд., перераб. и доп. - СПб: изд-во “Питер”. 2000.-320 с.
11. Дружинин В. Н. Структура и логика психологического исследования. М.: ИП РАН 1994.
12. Дуранов М.Е., Гостев А.Г. Исследовательский подход к профессионально-педагогической деятельности. - Челябинск: Челяб. гос. ун-т, 1996 - 72 с.
13. Гинзбург, М.Р. К проблеме мотивационных компонентов интеллектуальной инициативы // Вопросы психологии. 1976. - №4.- С. 128-132.
14. Глуханюк Н. С. Практикум по общей психологии. Учеб. пособие / Н. С. Глуханюк. Э В. Дяченко. С.Л. Семенова 3-е изд. - М.: Издательство Московского психолого-социального института. Воронеж: Издательство НПО «МОДЕК». 2000. - 224 с.
15. Галперин П.Я. Кабылныская С.Л. Экспериментальное формирование внимания. М. Изд. во Москунта, 1999.
16. Ганзен В.А. Балин В.Д. Теория и методология психологического исследования: Практическое руководство. СПб СПбГУ. 1991.
17. Jalilova S.X., G'ayibova N.A. Umumiy psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. Toshkent-2017
18. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.
19. Ikromova S.A. O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari. Dissertatsiya avtoreferati. Buxoro – 2024 y 24-b.
20. Илин Э.П. Психология индивидуальных различий. М, 2003.
21. Илин Э.П. Мотивация и мотивы. – СПб.:Питер, 2002.-512 с.
22. Илин Э.П. Психология воли. 2-е изд. – СПб.: Питер. 2009. – 368 с
23. Илин Э.П. Эмоция и чувства. СПб.: Питер, 2001.-752 с.
24. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Экономическая психология. Учебное пособие для ВУЗов. – Т., 2003.
25. Климов Е.А. Пути в профессионализм. М.: Флинта, 2003. – 320 с.

26. Муллабоева Н.М, Таваккалчиликка тайёрлик ва шахс психогеоетрик типларининг ўзаро боғлиқлиги. замонавий таълим / современное образование 2015, 5 son. 41-48 bet.
27. McClelland, D. The achievement motive in economic growth. In B. F. Hoselitz & W. E. More (Eds.), *Industrialization and society* (pp. 74-96). The Hague: UNESCO & Mouton. 1963
28. Nishanova Z, Qarshiyeva D. *Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya*. Toshkent. 2015-yil.
29. Nasimov S.X. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari”. Dissertatsiya avtoreferat. Toshkent-2024 24-b.
30. Панферова В.Н. Конструктивная психология и психодиагностика личности – Под ред.– Псков: Издательство Псковского областного института усовершенствования учителей, 1994. 211-222 с.
31. Qabulov Q.P. O‘quvchi shaxsida kasb tanlash motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Monografiya. ISBN 978-9943-9325-3-1 “IJOD-PRINT” MCHJ nashriyoti. 2023 yil. 286-bet.
32. Ратанова Т.А., Шляхта Н.Ф. Психодиагностические методы изучения личности: Учебное пособие. – Переработанное и дополненное издание пособия: Т.А. Ратанова, Л.И. Золотарева, Н.Ф. Шляхта «Методы изучения и психодиагностика личности» - М.: Московский психолого – социальный институт: Флинта, 1998. С. 60 – 64.
33. Rasulova F.F. “O‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent - 2024
34. Sattarova G. I. “Ilk o‘spirinlar irodaviy sifatlarining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi”. Avtoreferat. Toshkent – 2018. 24 b.
35. Словарь – справочник по психологической диагностике Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М.; Отв. Ред. Крымский С.Б. – Киев: Наук, думка, 1989. - 126 – 127 с.)
36. Taydjanova M. M. “Katta maktabgacha yoshda emotsional

- buzilishlarning psixologik xususiyatlari”. Dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent–2022 24-b.
37. Turg‘unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati T; "O‘qituvchi" nashriyoti 1975 y.
 38. Tashmatova G. Ta’lim islohotlarini amalga oshirishda kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari /Monografiya/ - Guliston: “Ziyo nashr-matbaa” XK. 2022-yil. 132 bet.
 39. Худик В.А. Экспериментальное изучение простых сенсомоторных реакций с помощью таблиц Шульте // Коррекционно-педагогическое образование. — 2018. — 1 (13). — С. 86-91. — ISSN 2411-3638.
 40. Забродин Ю.М. Психологический эксперимент: специфика, проблемы, перспективы развития // История становления и развития экспериментальной психологии в России. М.: Наука, 1990.
 41. Zokirov A, Farfiyeva K, Burxonova G, Alimxodjayev S. Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchi shaxsini o‘rganish metodikalari. Toshkent-2007. 84-b.
 42. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y.
 43. G‘oziev E.G‘. Muomala psixologiyasi T-2001 y.
 44. Sharapova D.B. “Xotin-qizlarda ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari”. Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2024 24-b.

Internet saytlari

1. Psixologik kutubxona. <http://www.psychol-ok.ru/library.html>
2. Psixologiyk tadqiqotlar. Ilmiy elektron jurnal, <http://www.psystudy.ru>
3. Psixologiya bo‘yicha materiallar. <http://www.psychology-online.net>
4. Flogiston, <http://flogiston.ru>
5. Elektron kutubxona <http://uww.koob.ru>
6. Handbook-of-resears’h-metods-in-experimental-psuchologu
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	3
1-MODUL. EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYAGA KIRISH. SHAXS PSIXOLOGIYASI	
1.1	E.A.Klimovning differentsial-diagnostik so‘rovnomasi... 5
1.2	Psixogeometrik test..... 10
1.3	Kasbiy yo‘nalganlikni o‘rganish metodikasi..... 18
1.4	Dembo - Rubinshteynning o‘z-o‘zini o‘rganish metodikasi 30
1.5	Shaxs xarakteri va temperamentini eksperimental o‘rganish 32
1.6	Ya. Strelyauning temperamentni aniqlash test-so‘rovnomasi 44
1.7	Mayers-Brigs so‘rovnomasi..... 52
1.8	Sub‘ektiv nazorat darajasini o‘rganish metodikasi..... 73
1.9	SHmishekning xarakter aksentuatsiyasini aniqlash metodikasi 78
1.10	“Mavjud bo‘lmagan xayvon” metodikasi..... 92
1.11	“Uy. Daraxt. Odam” metodikasi..... 101
1.12	Qo‘l testi (Hand - 111 testi).....
2-MODUL. ICHKI REGULIYATSIYA	
2.1	Ehtiyojlar faoliyatning ichki turtkisi sifatida. Inson ehtiyojlari tizmini o‘rganish..... 116
2.2	Shaxsning motivatsion jabhasi. Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasini o‘rganish. 122
2.3	Motivatsiya va motivlarni o‘rganish metodlari..... 125
2.4	Guruhdagi hulq - atvor motivatsiyasini o‘rganish..... 128
2.5	Shaxs emosional olami. Shaxs emosional holatini tashxis etish 130
2.6	Shaxs emosional olami. Shaxs depresiv holatlarini tashxis etish 133
2.7	Shaxsning emosional olamini o‘rganish. Bezovtalik va ko‘ngilchanlikni o‘rganish..... 136

2.8	Shaxs emosional olami. Shaxsning optimistic kayfiyatini o'rganish.....	138
3-MODUL. BILISH JARAYONLARI		
3.1	Ko'rishning mutloq chegarasini aniqlash.....	141
3.2	Makonni ko'rishning differensial chegaralarini aniqlash...	142
3.3	Faol va nafaol teri sezgisida shakilni idrok qilish.....	144
3.4	Obrazlar ketma – ketligini o'rganish.....	147
3.5	Vaqtni idrok qilishni o'rganish.....	148
3.6	Kuzatuvchanlikni o'rganish.....	149
3.7	Diqqatning hajmi (ko'lami) va aniqligini o'rganish.....	150
3.8	Diqqatning to'planishini o'rganish.....	151
3.9	Diqqatning barqarorligi va ko'chuvchaligini o'rganish (Krepelen metodikasi).....	152
3.10	Diqqatning ko'chuvchanligini o'rganish (qizil-qora jadvallar metodikasi).....	155
3.11	Diqqatning taqsimlanishini “korrektura mashqi” metodi yordamida o'rganish.....	157
3.12	Mexanik va mantiqiy xotira bog'liqligini o'rganish.....	159
3.13	Ihtiyoriy va ihtiyorsiz xotirani o'rganish.....	161
3.14	Raqamli va obrazli xotirani o'rganish metodikasi.....	162
3.15	Ko'rgazma va obrazli xotirani o'rganish metodikasi.....	163
3.16	So'z mantiqiy tafakkurni baholash.....	166
3.17	A. Lachins metodikasi bo'yicha masalani echish usuliga ustanovkaning ta'sirini o'rganish	169
3.18	Fikrlash jarayoning labilligi-rigidligini “So'zli labirint” metodikasi orqali aniqlash.....	171
3.19	“Intellektual labillik” metodikasi.....	174
3.20	“Tushunchalarni solishtirish” metodikasi orqali semantik (tushunchali) tafakkurni tadqiq etish.....	177
3.21	“Ortiqcha so'zni toping” tushunchali tafakkurni o'rganish	179
3.22	“Qonuniyatlarni kashf etish (ochish)”	182

	metodikasi.....	
3.23	Nutqning informatsion va ta'sir etish funksiyalari tadqiqoti.....	185
3.24	Nutqda artikulyatsion to'siqlar mavjud bo'lganda tushunishni tadqiq etish.....	188
3.25	Ch. Osgudning semantik differensial metodidan foydalanib nutqni tadqiq etish.....	193
	Test savollari.....	196
	Glossariy.....	217
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	221

S. X. Nasimov

EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYADAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir

N. Choriyev

Musahhih

O. Sharapova

Texnik muharrir

X. Rahimova

Dizayner

O. Mirzayev

ISBN – 978-9910-9875-

2026-yil _____da SamDU Tahririy- nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2026-yil _____da original maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84_{1/16} “Times New Roman” garniturası.

Ofset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı – 11,5.

Adadı 30 nusxa. Buyurtma № _____

***SamDU Tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.***

